**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**

**OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI**

# TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

Ro’yhatga olindi
№ BD __________
2024 yil “____”___________

Termiz davlat universiteti
O’quv ishlari bo’yicha prorektor
_____________prof. R. To’raev
2024 y. “____” __________

**“IQTISODIYOT” KAFEDRASI**

# “INNOVATSION IQTISODIYOT”

**FANIDAN**

# O’quv - uslubiy majmua

| | | |
|---|---|---|
| Bilim sohasi: | 400000- | Biznes, boshqaruv va huquq |
| Ta‘lim sohasn: | 410000- | Biznes va boshqaruv |
| Ta‘im yo‘nalishi: | 60310100- | Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo‘yicha) |

**Termiz -2024**

O’quv uslubiy majmua O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligining 2021 yil 16-iyuldagi 311-son buyrug’ining 1-ilovasi “O‘zbekiston Davlat Standarti O‘zbekiston uzluksiz ta‘limining Davlat Ta‘lim Standartlari Oliy ta‘limning Davlat Ta‘lim Standarti Asosiy qoidalar” mundarijasining 5-§ “Oliy ta‘lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari o‘quv rejalari va o‘quv dasturlari mazmuniga qo‘yiladigan umumiy talablar” ning 10.2.4. “O‘quv dasturlarini ishlab chiqish, tasdiqlash va ta‘lim jarayoniga joriy etish quyidagi tartibda amalga oshiriladi:” bandi talabiga muvofiq ishlab chiqildi.

| |
|---|
| O’quv dasturi Termiz davlat universiteti o‘quv-uslubiy Kengashning 202__ yil “___”_________ dagi ____ -sonli bayonnomasi bilan ma’qullangan.<br>Termiz dalat universiteti rektorining 202__ yil “___” _____dagi ______ - sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan. |
| **Fan/modul uchun ma’sul:**<br>Norqobilov Nusratilla Norsaidovich-TerDU “ Iqtisodiyot” kafedrasi katta o’qituvchisi, Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) |
| **Taqrizchilar:**<br>Termiz iqtisodiyot va servis Universiteti, Xalqaro hamkorlik bo’yicha prorektor, i.f.f.d. M. Amonov<br>Termiz davlat universiteti Iqtisodiyot va turizm fakulteti “Turizm” kafedrasi i.f.f.d. Xamzaeva D |

**MUNDARIJA**


| № | **O'quv-uslubiy majmua bo'limlari** | bet |
|---|---|---|
| **1.** | **Ma'ruzalar matni** | 4 |
| 1.1. | Innovatsiyalar nazariyasi: texnologiya va samaradorlik | 5 |
| 1.2. | Innovatsiyalarning endogen xususiyatlari | 20 |
| 1.3. | Tanlov va sanoatning rivojlanishi | 21 |
| 1.4. | Texnologiyalar konsortsiumi va innovatsiyalar | 48 |
| 1.5. | Innovatsiyalarning iqtisodiy ahamiyati | 51 |
| 1.6. | Innovatsiyalarning sohalar bo'yicha turlari | 70 |
| 1.7. | Sanoatda innovatsion modellar | 72 |
| 1.8. | Ilmiy texnika taraqqiyoti va uni boshqarish | 76 |
| 1.9. | Intellektual kapital, intellektual mulkni shakllantirish va boshqarish | 79 |
| 1.10. | O'zbekiston milliy innovatsion tizimi | 81 |
| 1.11. | Innovatsion marketingda tovar va xizmatlarni strategik yo'nalishlari | 89 |
| 1.12. | Ilmiy kashfiyotlar, ixtirolar va litsenziyalash | 95 |
| 1.13. | Patentlar va patent axborotlarini izlash | 111 |
| 1.14. | Sanoat namunalari va selektsiya yutuqlari innovatsion rivojlanish ob'ekti sifatida | 114 |
| 1.15. | Innovatsion iqtisodiyotda menejment strategiyalari | 118 |
| 1.16. | Innovatsion loyihalarni moliyalashtirish tizimi | 122 |
| **2.** | **Amaliy mashg'ulot** | |
| 2.1. | Innovatsiyalar nazariyasi: texnologiya va samaradorlik | |
| 2.2. | Innovatsiyalarning endogen xususiyatlari | |
| 2.3. | Tanlov va sanoatning rivojlanishi | |
| 2.4. | Texnologiyalar konsortsiumi va innovatsiyalar | |
| 2.5. | Innovatsiyalarning iqtisodiy ahamiyati | |
| 2.6. | Innovatsiyalarning sohalar bo'yicha turlari | |
| 2.7. | Sanoatda innovatsion modellar | |
| 2.8. | Ilmiy texnika taraqqiyoti va uni boshqarish | |
| 2.9. | Intellektual kapital, intellektual mulkni shakllantirish va boshqarish | 147 |
| 2.10. | O'zbekiston milliy innovatsion tizimi | 148 |
| 2.11. | Innovatsion marketingda tovar va xizmatlarni strategik yo'nalishlari | 148 |
| 1.12. | Ilmiy kashfiyotlar, ixtirolar va litsenziyalash | 149 |
| 1.13. | Patentlar va patent axborotlarini izlash | 150 |
| 1.14. | Sanoat namunalari va selektsiya yutuqlari innovatsion rivojlanish ob'ekti sifatida | 150 |
| 1.15. | Innovatsion iqtisodiyotda menejment strategiyalari | 151 |
| 1.16. | Innovatsion loyihalarni moliyalashtirish tizimi | 152 |
| **3.** | **Mustaqil ta'lim mashg'ulotlari** | 155 |
| **4.** | **Glossariy** | 156 |
| **5.** | **Ilovalar** | 165 |
| 5.1. | Fan dasturi | 165 |
| 5.2. | Ishchi fan dasturi | 179 |
| 5.3. | Tarqatma materiallar | 202 |
| 5.4. | Testlar | 208 |
| 5.5. | Baholash mezonlari | 229 |

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

**TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI**

**IQTISODIYOT VA TURIZM FAKULЬTETI**

**“IQTISODIYOT ” KAFEDRASI**

**INNOVATSION IQTISODIYOT**

**fanidan**

# MA’RUZA MATNLARI

**Tuzuvchi:** **PhD. N.Norqobilov**

**TERMIZ - 2024**

## 1-Mavzu. Innovatsiyalar nazariyasi: texnologiya va samaradorlik (2 soat)

**Reja:**

1.1.Innovatsiyalar to’g’risida umumiy tushunchalar.
1.2.Innovatsiyalar nazariyasi
1.3.Innovatsion rivojlanishning mohiyati va mazmuni.
1.4.Bilimlarga asoslangan iqtisodiyot va uning xususiyatlari.
1.5.Innovatsion jarayon modellari va amal qilish qonuniyatlari.

**Tayanch iboralar:** *Innovatsion rivojlanish. Bilimlarga asoslangan iqtisodiyot. Innovatsion jarayon. Innovatsion model. Innovatsion moyillik. YAngilikka intilish. Innovatsion barqarorlik. Kreativlik.*

### 1.1.Innovatsiyalar to’g’risida umumiy tushunchalar

Mustaqil O’zbekiston rivojlanishining hozirgi bosqichida innovatsiya insoniyat taraqqiyoti va iqtisodiy o’sishning asosiy omiliga aylanmoqda. Innovatsiya jarayonining doimiy rivojlanib borishi insoniyat va ijtimoiy hayot o’zgarishiga jiddiy ta’sir ko’rsatmoqda.

«Innovatsion iqtisodiyot” fani “Ilmiy tadqiqot metodologiyasi”, “Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning innovatsion modellari”, “Axborot tizimlari”, “Huquqshunoslik”, “Innovatsion marketing” va “Makro va mikroiqtisodiyot” kabi fanlar bilan o’zaro aloqadorlikda o’rganiladi.

Ushbu sohada eng yangi va zamonaviy ilmiy izlanishlarni olib borgan va shu sohaga oid ilmiy asarlar muallifi bo’lgan Jati Senguptaning (1-ilova) innovatsiyalarga bergan ta’rifiga to’xtalib o’tsak. “Innovatsiyalar turli shakllarda bo’lishi mumkin, ammo har qanday shaklda u mahsulot tannarxini kamaytirish yoki bozor talabini kengaytirishga yordam qiladi. Innovatsiyalarning ba’zi bir muhim turlari sifatida:

1. Texnologiyalarga asoslangan innovatsiyalar
2. Endogen yoki ekzogen innovatsiyalar
3. Sanoat rivojlanishida tanlov mexanizmi innovatsiyasi
4. Texnologiyalar konsortsiumi orqali shakllantiriladigan innovatsiyalar” qabul qilinadi.

**Fanning vazifasi** – o’rganuvchida innovatsion faoliyatning mohiyati, roli, asosiy elementlari va bosqichlari bo’yicha tizimli tushunchalarni shakllantirish, innovatsion jarayonlarni boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi mohiyatini ochib berish, intellektual mulk ob’ektlarini yaratish, huquqiy muhofazasi va himoyasini ta’minlash, ixtiro, kashfiyotlar tizimini tashkil qilish va boshqarish sohasidagi asosiy tushunchalar va ta’riflarni, O’zbekiston va boshqa davlatlarning innovatsion tizimi va shu sohadagi qonunlarni o’rgatishdan iboratdir.

Agar innovatsiyalarning Jati Sengupta bergan ta'rifiga o'tadigan bo'lsak, u quyidagicha ketma-ketlikda keltirilishi mumkin. "Texnologiyalarga asoslangan innovatsiyalar mahsulot innovatsiyasi, sanoatda "ilmiy izlanish va rivojlanish"[1] ko'rinishidagi investitsiyalar va taqlid, takomillashtirishni o'z ichiga olgan texnologiyalar transferini o'zida mujassam etadi.

**Endogen innovatsiyalar** [1] o'z ichiga innovatsiyalarga investitsiya kiritishga moyillikni bozor tomonidan rag'batlantirishni qamrab oladi. Bozor rag'bati deganda monopoliyadan patentlash qonunlari orqali himoyalanish va texnologik musobaqada g'olib chiqishni nazarda tutadi"[2].

Ta'kidlash joizki, mustaqillikning dastlabki yillaridanoq innovatsion faoliyatni rivojlantirish, intellektual mulk huquqini yaratish, ularni muhofaza qilish, huquq egalarining manfaatlarini himoya qilish, respublikamizning sohaga oid xalqaro integratsiyalashuvini jadallashtirish, xalqaro shartnomalarga kirish orqali mamlakatimiz mualliflarining huquqlarini butun dunyoda muhofaza qilish kabi muhim masalalar davlat ustuvor yo'nalishi sifatida belgilab olindi. Hozirgi globallashuv jarayonlarida "innovatsiya strategiyasi" fanining ahamiyati benihoya kattadir. Iqtisodiyotni rivojlantirishda intellektual mulk, ixtirolar, yangi kashfiyotlar hamda ularni patentlash, litsenziyalash va sertifikatsiyalashning o'rni salmoqlidir. Chunki, dunyoning qaysi burchagida bo'lmasin bunyod etilgan ixtiro bu mulk hisoblanib, undan barcha xalqlar foydalanishi mumkin. Bu masala o'z navbatida patent olish va uni sotish orqali tartibga solinadi.

"Ekzogen innovatsiyalarni ilmiy va notijorat institutlar tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlar natijasini misol sifatida keltirish orqali yoritadigan bo'lsak, innovatsiyalarning bu turi ba'zan yangi mahsulot va yangi jarayonga sababchi bo'lishi mumkinligi aniqlangan. Solounig iqtisodiy o'sish modelida barcha texnologik rivojlanishlar ekzogen innovatsiya sifatida qaralgan bo'lsada, pirovardida sanoatda va butun bir mamlakat uchun ishlab chiqarish imkoniyatlarini keskin o'zgartirdi.

Innovatsiyalarning keyingi ikki turi kamroq e'tiborga sazovor bo'lishi mumkin. Evolyutsion tanlov mexanizmi firmalarni dinamik bozor samaradorligi va patent tizimi orqali tanlaydi. Bu mexanizm texnologik o'zgarishlarning ham kumulyativ xususiyatini, ham bozor strukturasining endogen aspektlarini hisobga oladi.

Patentlash tizimi texnologik tanlovning ikkinchi instrumentlar tizimidir. U mulkchilik huquqini aniqlashtirib texnologik innovatsiyalarni rag'batlantiradi. Masalan, farmatsevtik sanoatda shunday rag'batga erishish uchun IIRdan foydalanishadi. Adabiyotshunoslik texnologiyasida patentlash tizimi cheklangan

---

[1] Инглиз илмий адабиётларида учрайди R&D (research and development) - "илмий изланиш ва ривожланиш (ИИР)" дегани бўлиб, ривожланишга олиб келувчи, туртки бўлувчи илмий изланиш деганидир.

[2] Jati Sengupta. Theory of innovation. A new paradigm of growth. Springer International Publishing Switzerland 2019. P 12 кейинги ҳаволаларда ушбу китобнинг фақат бетлари келтирилади.

darajada texnologiya va bilimlarni tarqalishini o'z ichiga olgan. Bu esa o'z o'rnida texnologik izlanishda innovatsiyalarning keng ko'lamli eksperimentlarni olib borilishiga turtki bo'ladi".

## 1.2.Innovatsiyalar nazariyasi

Mamlakatimizda iqtisodiyot rivojlanishining so'nggi bosqichlarida innovatsion jarayonni jadallashtirishga katta e'tibor qaratilmoqda.

№916-sonli qarori muhim ahamiyat kasb etadi. Korxonalarning innovatsion jarayonining natijaviyligi jami omillar, ya'ni amalga oshirish sharoiti, resurslar ta'minoti, menejment tizimining to'g'ri yo'lga qo'yilganligi bilan aniqlanadi. Innovatsion salohiyat tushunchasi iqtisodiyot fanida XX asrning so'nggi yillarida paydo bo'ldi. Innovatsion salohiyat mamlakatning texnika va texnologiyasi yangilanishi, unda ilmiy-texnika rivojlanishi darajasini, diversifikatsiya siyosatining kuchayishini anglatadi. Ba'zi iqtisodchi olimlarimiz innovatsion salohiyatni iqtisodiy salohiyatdan yuqori qo'yishadi. Bunda ular ilmiy-texnika darajasiga ko'proq e'tibor qaratishadi. Bizning fikrimizcha, bunday qarashlar unchalik to'g'ri emas. Chunki har qanday holatda iqtisodiy salohiyat innovatsion salohiyatga qaraganda ancha keng tushuncha bo'lib, u mamlakatdagi ishlab chiqarish salohiyati, resurslar salohiyati, moddiy-mineral salohiyati, qazilma boyliklar salohiyati va boshqalarni qamrab oladi. Hozirgi davrda O'zbekistonda iqtisodiyot salohiyati 3,0 trl. AQSH dollaridan ortiqdir. Innovatsion salohiyatni kuchaytirish katta hajmda investitsiyani jalb etishni talab qiladi. Hozirda iqtisodiy rivojlangan davlatlar yangi texnika va texnologiyani yaratishga, yangi mahsulotlarni ishlab chiqarishga YAIMning 5-7 %ini sarflaydi. O'zbekistonda esa bu raqam biroz past. SHu bilan birga respublikamizda intellektual salohiyat boshqa mamlakatlarga qaraganda ancha yuqori.

Ma'lumki, 2018 yilda boshlangan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi O'zbekistonni ham chetlab o'tmadi. Inqiroz ta'sirini bartaraf etish uchun respublika Prezidenti rahbarligida 2015-2019 yillarga mo'ljallangan katta investitsion loyiha-dastur qabul qilindi. Dasturga muvofiq, 2015-2019 yillarda respublikamizda 55,4 milliard AQSH dollarilik 550 ta investitsion loyiha bajarilishi kerak (1-jadval).

**1-jadval**

**2015-2019 yillarda muhim investitsion loyihalarni amalga oshirish dasturi**

| Sanoat tarmoqlari | Loyiha qiymati, mlrd. AQSH doll. | Tuzilishi (loyihaning umumiy qiymatidan), % |
|---|---|---|
| Neftь-gaz sektori | 15,3 | 27,6 |

| | | |
|---|---|---|
| Neftь-gaz kimyo sanoati | 12,1 | 21,8 |
| Transport va infratuzilma | 7,5 | 13,5 |
| Energetika | 5,8 | 10,5 |
| Kimyo sanoati | 5,6 | 10,1 |
| Tog'-ruda va metallurgiya sanoati | 4,4 | 7,9 |
| To'qimachilik sanoati | 1,9 | 3,4 |
| Mashinasozlik | 1,4 | 2,5 |
| Qurilish materiallari sanoati | 0,8 | 1,4 |
| Boshqa tarmoqlar | 0,6 | 1,3 |
| **Jami:** | **55,4** | **100,0** |

Ushbu ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, O'zbekistonda innovatsion salohiyatni kuchaytirishda ishlab chiqarishni texnik va texnologik modernizatsiyalash muhim ahamiyat kasb etadi. Demak, yaqin yillardagi innovatsion salohiyatga katta hissasini qo'shadigan ustuvor yo'nalishlar quyidagilardan iborat bo'lishi mumkin:

- qo'shilgan qiymati yuqori bo'lgan tarmoqlar ustuvorligini ta'minlash;
- bandlikni ta'minlash uchun raqobat afzallikka ega bo'lgan fan sig'imi yuqori bo'lgan tarmoqlarni rivojlantirish;
- eksport tuzilishida tovar diversifikatsiyasini kengaytirish.

## 1.3. Innovatsion rivojlanishning mohiyati va mazmuni

Innovatsion rivojlanishning mohiyati va mazmunini o'rganishdan oldin "innovatsiya" iborasi to'g'risida tasavvur hosil qilish zarur. Ushbu tushuncha ingliz tilidan olingan bo'lib, "innovation", ya'ni yangilik, yangilik kiritish degan ma'noni anglatadi. Mazkur tushuncha ilk bor XIX asr madaniyatshunoslari tomonidan qo'llanilgan. Turli xalqlar madaniyatlarining bir biriga ta'siri natijasi sifatida paydo bo'lgan o'zgarishlar yangilik, ya'ni innovatsiya, deb talqin qilingan. XX asr boshlaridan esa ushbu ibora iqtisodchilar leksikasiga kirib keldi. Bunda olimlar va mutaxassislar innovatsiyalarni aynan iqtisodiyotda vaqti vaqti bilan ro'y beradigan inqirozlardan chiqishning muhim vositasi sifatida o'rgana boshladilar. Ma'lumki, iqtisodiyotning inqiroz oqibatlarini engib o'tishga qodirligi uning innovatsionlik darajasini belgilab beradi.

Tan olinganki, innovatsiya asosiy omil sifatida iqtisodiy o'sishni ta'minlash, atrof-muhit va ijtimoiy jihatdan muammolarni hal qilish uchun shart-sharoitlar yaratishga yordam beradi. Rivojlanayotgan mamlakatlarda innovatsiya boylik va ish o'rinlarini yaratish hamda iqtisodiy o'sish manbai hisoblanadi. SHu bilan birga, bu yangilik tadqiqot va rivojlantirish (R & D) orqali rivojlangan va rivojlanayotgan

mamlakatlarda texnologik yangiliklarni boshqacha boshqarilishini ta'minlaydi. Notexnologik innovatsiyalar yangilik va mavjud bilimlardan foydalanishi, bozorda yangi qiymat yaratishi rasmiy statistikada qayd etilmaydi[3].

**Taraqqiyot va innovatsiya.** Oxirgi yarim asrlik vaqt turli darajadagi muvafaqiyatga erishgan taraqqiyotga nisbatan xar xil yondashuvlarni ko'rdi. Kambag'allik va tengsizlik muammolari o'sib borayapdi va kamaymayapdi va bu va boshqa ob havo o'zgarishi kabi muammolarning echimini toppish juda muhim bo'lib turibdi. Xali xam dunyo taraqqiyot xususiy manbalari sektori va ommaviy oqimga ta'sir o'tkazishda davom etayotgan va hamma joyda bo'lgan katta moliyaviy krizisdan aziyat chekib kelayapdi.

Rivojlangan davlatlar va OECD bu muammolarni hal qilayotgan damda boshqa mavzular paydo bo'lapdi. Bular o'z ichiga rivojlangan davlatlarlar etakchiligida taraqqiyot bilan ish olib borishda siyosat izchilligi, ayollar va qizlar holatini yaxshilash va qishloq xo'jaligi va sog'liq kabi asosiy yo'nalishlarning ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyoti masalalariga e'tiborni qaratishda xam kafolatlarini bo'lishgan xolda sherikchilik qilishni oladi. Bunga aloqador mavzu innovatsiya[4].

SHu o'rinda o'rganilayotgan tushunchaning Oksford izohli lug'atida keltirilgan talqinini ham eslab o'tish maqsadga muvofiq. Unda «innovatsiya» «tovarni ishlab chiqarish yoki sotish, konstruktsiyalashga bo'lgan yangi yondashuv», deb izohlanadi. Innovatsiyalarni qo'llash natijasida novator yoki uning kompaniyasi raqobatchilarga nisbatan ustunlikka ega bo'ladi.

«Innovatsiya» atamasining zamonaviy talqini mashhur iqtisodchi olim Y. SHumpeter (J.A. Schumpeter)ga tegishli. Uning fikricha, innovatsiya – bu yangi materiallar va komponentlardan foydalanish, yangi jarayonlarni joriy etish, yangi bozorlarni ochish, yangi tashkiliy shakllarni joriy etishga asoslangan barcha yangi kombinatsiyalarning yangidan qo'shilishi va tijoratlashuvidan iborat bo'lgan ishlab chiqarish funktsiyasining tubdan almashinuvidir.

SHu o'rinda K.SHodimetovning "Muqobil energiya manbalaridan foydalanish va uning iqtisodiy istiqbollari" nomli qo'llanmasida keltirilgan ushbu fikrlar ham e'tiborli ekanligini ta'kidlash kerak.

**Innovatsiya** bu moddiy ishlab chiqarish yoki sarmoya kontsentratsiyasi emas. Ayrim tadqiqotchilar, jumladan, **E. Toffler, F. Fukuyama, D. Bell, J. Neysbit kabi olimlar:** «Aynan innovatsion texnologiyalarga tayangan davlatgina yuksak taraqqiyot darajasiga erishadi», degan fikrni ilgari surishadi. Aslida ham shunday. Zero, sanoatlashgan iqtisodiyot o'rnini asta-sekin innovatsion iqtisodiyot egallashi

---

[3] Edited by Erika Kraemer-Mbula and Watu Wamae. "Innovation and the Development Agenda". International Development Research Centre PO Box 8500, Ottawa, ON, Canada K1G 3H9. © OECD/IDRC 2010. p. 3.

[4] Gordon Conway, Jeff Waage, Sara Delaney. "Science and Innovation for Development". © 2010 UK Collaborative on Development Sciences (UKCDS). P 91

oddiy haqiqatdir. Natijada, yangidan-yangi bozorlar kashf etiladi. Binobarin, innovatsion maqsadlarni ro'yobga chiqarish uchun, xususiy investitsiyalarga imtiyozlar berish, zamonaviy banklarni shakllantirish, innovatsiyalarni kafolatlash hamda sug'urtalash, kichik va xususiy biznesni qo'llab-quvvatlash, yirik texnologik loyihalar uchun millii va xorijiy sarmoyalarni keng jalb etish talab qilinadi. Bundan tashqari, bu borada, innovatsion siyosatni tartibga soluvchi qonunlarni takomillashtirish ham muhim ahamiyatga egadir. Butunjahon intellektual mulk tashkiloti (WIRO) o'z hisobotlarida yuqoridagi talablarga qatьiy amal kdlayotgan 20 ga yaqin davlatda innovatsion rivojlanish tobora jadallashayotganini e'tirof etadi. SHveytsariya, AQSH, Shvetsiya, Buyuk Britaniya, Gollandiya, Finlyandiya, Gonkong, Singapur, Тayvanь, YAponiya, Janubiy Koreya, Malayziya, Daniya va Irlandiya ana shular sirasidandir[5].

**Innovatsiya -** yangi mahsulot yoki xizmatni bozorga kiritish, yangi ishlab chiqarish jarayonlarini tadbiq etish, mahsulot yoki xizmatlar, ishlab chiqarishni tashkil etishning yangi shakllari yoki faoliyat turlarini ilgari surish, yangi bozorlarni tashkil etish yoki yangi jarayonning joriy bozor va mavjud bozorlarda katta ulushini qo'lga kiritishga qaratilgan say-harakatlardir[6].

**Rivojlanishning innovatsion tipi** (ingl. Innovation model of development) – ijtimoiy ishlab chiqarishda yangi ilg'or texnologiyalarga urg'u berish, yuqori texnologiyalar asosida mahsulotlar ishlab chiqarish, mikro va makroiqtisodiy jarayonlarda ilg'or tashkiliy va boshqaruv qarorlarini qabul qilish - texnopark, texno polis, kam energiya talab etadigan texnologiyalardan foydalanish siyosati, ishlab chiqarish faoliyatini intellektualashtirish, iqtisodiyotni softlashtirish va servislashtirish bilan tavsiflanadi.

Innovatsion iqtisodiyotda asosiy e'tibor yuqori texnologiyalarga asoslangan ishlab chiqarish, ilm talab texnologiyalar va inson faoliyatining turli sohalarini innovatsion tashkil etish, iqtisodiyotda innovatsion tizimni shakllantirish, kompьyuter texnologiyalari va telekommunikatsiya tizimlariga qaratiladi.

Rivojlanishning innovatsion tipida, asosiy ishlab chiqarish omili bo'lgan mehnatni ilm bilan o'zaro uyg'unlashuvi, texnik mahoratning intellektual mahoratga o'sib o'tishi sodir bo'ladi va bu jamiyatning iqtisodiy asosini belgilab beradi. Bunday jamiyatni tasvirlashda ilmiy adabiyotlarda "informatsion jamiyat", "ilmlar jamiyati" "informatsion iqtisodiyot", "intellektual iqtisodiyot" kabi iboralardan foydalaniladi.

Rivojlanishning innovatsion tipi beovosita ilmiy-texnikaviy salohiyatning

---

[5] К.Шодиметов. Муқобил энергия манбаларидан фойдаланиш ва унинг иқтисодий истиқболлари. –Т.: "ILM ZIYO". 2019. 14 бет

[6] Edited by Erika Kraemer-Mbula and Watu Wamae. "Innovation and the Development Agenda". International Development Research Centre PO Box 8500, Ottawa, ON, Canada K1G 3H9. © OECD/IDRC 2018. p. *9.*

mavjudligi va o’sishi, turli sohalarga investitsiyalarni keng ko’lamda jalb qilinishi bilan xarakterlanadi va innovatsion faol korxonalar sonining oshishiga olib keladi.

Rivojlanishning innovatsion tizimida milliy innovatsion tizimni shakllanishiga alohida e’tibor qaratiladi. Milliy innovatsion tizim tushunchasi innovatsion iqtisodiyotning muhim belgisi sifatida fanga XX asrning 70-yillarida kirib keldi.

K.Frimanning fikriga ko’ra, milliy innovatsion tizim – jamiyat tomonidan iste’mol qilinadigan yangi texnologiyalar, mahsulotlar va xizmatlarning yaratilishidagi yangi bilimlarni ishlab chiqishda, saqlashda, tarqatishda va yangi texnologiyalarga aylanishida qatnashadigan iqtisodiy sub’ektlar va ijtimoiy institutlarning (qadriyatlar, me’yorlar, huquqlarning) murakkab tizimi hisoblanadi[7].

Texnologik izchillik qonuniyatlarini va uning tarixiy mantiqiy ketma-ketligini o’rganadigan evolyutsion iqtisodiy nazariya “texnik iqtisodiy pradigma” va “texnologik traektoriya” tushunchalariga asoslanadi. U makrodarajadagi iqtisodiy o’sish bir tomondan turli-tumanlikka va noaniqliklarga, ikkinchi tomondan esa mikrodarajada iqtisodiy jarayonlarni bir-biriga uyg’unlashtirish, mutanosiblikni ta’minlash, muvofiqlashtirish va standartlashtirishga bog’liqligini qayd etadi.

Innovatsion rivojlanish kontseptsiyasi. Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti (OESR), Jahon banki va boshqa qator xalqaro tashkilotlarning tashabussiga ko’ra keng rivojlanmoqda. Mazkur xalqaro institutlarning tashabbusi bilan keyingi yillarda bir qator katta tadqiqotlar amalga oshirildiki, ular milliy iqtisodiyotni an’anaviy industrial iqtisodiyotdan bilimga, ilmga asoslangan postindustrial iqtisodiyotga transformatsiya jarayonlarini o’rganishga bag’ishlangan.

Innovatsiya strategiyasi va ularni rag’batlantirish XRTMga a’zo davlatlar vakolatida, lekin ularning global ta’siri bor. Bunda nafaqat innovatsion boylik va iqtisodiy o’sishga erishish, shu bilan birga ular ham iqlim o’zgarishlarini yumshatish, kasalliklarga qarshi kurashda resurslar boshqaruvini takomillashtirishi mumkin. Bu kitob mazmuni rivojlanayotgan mamlakatlarda innovatsion yangiliklar kiritish imkonini berishga xizmat qiladi[8].

Innovatsion rivojlanishning bazaviy ko’rsatkichlari (indikatorlar) metodologik baza zaruriy elementi sifatida muhim ahamiyatga ega. Ular iqtisodiyot yoki uning alohida tarmoqlarining innovatsiyalashuv darajasini ifodalaydi. Umume’tirof etilgan qoidaga ko’ra, iqtisodiyotning innovatsion rivojlanish darajasini bir qator ko’rsatkichlar majmuasi ifodalaydi. Ularning ichida eng asosiysi sifatida ilmtalab ishlab chiqarishning rivojlanishi va iqtisodiyotga intellektual resurslarni jalb etish darajasini ko’rsatish mumkin.

---

[7] Freeman C. Technology Policy and Economic Performance. L.: PrinterPublishers, 1997. p 57.

[8] Edited by Erika Kraemer-Mbula and Watu Wamae. “Innovation and the Development Agenda”. International Development Research Centre PO Box 8500, Ottawa, ON, Canada K1G 3H9. © OECD/IDRC 2022. p. *4*.

Milliy va xalqaro statistik tajribada fundamental va amaliy tadqiqotlar sohasida resurslarning rivojlanishi, ilmiy, muhandislik, tadqiqotchi va menedjer kadrlarni tayyorlash tizimining rivojlanish darajasi, tadbirkorlik sub'ektlarini axborot va texnologik jihatdan ta'minlanishi, sohaning investitsiya sig'imi, ommaviy innovatsion tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash ko'lami, moliyalashtirish tizimining rivojlanganligi kabi ko'rsatkichlardan foydalaniladi.

2002 yildan boshlab faoliyat yuritayotgan Evropa innovatsion tablosida Evropa davlatlaridan tashqari yana jahonning 40dan ortiq mamlakati ishtirok etadi. Unda milliy innovatsion tizim va innovatsion siyosat to'g'risidagi axborotlar juda keng qamrovli ko'rsatkichlar asosida taqdim etiladi.

AQSHning oxirgi 50-yillik tajribasi tahlili shuni ko'rsatadiki, dunyoda ruyxatga olingan texnologik yangiliklarning 60 foizi ushbu mamlakatda yaratilgan. G'arb mamlakatlarining tajribasida esa ma'lum bir davr davomida yaratilgan texnologik yangilikning soni emasi, balki uni mamlakat iqtisodiyotida qanchalik o'zlashtirilganligi innovatsion rivojlanishning bosh mezoni sanaladi.

Rossiya Fanlar akademiyasi akademigi V. Makarov, innovatsion rivojlanish tushunchasini bilimga asoslangan iqtisodiyot tushunchasi bilan o'xshash ekanligini ta'kidlab, bilimni texnologik moddiyatga aylanishi holatini hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini, bilimlarni ishlab chiqarish esa iqtisodiy o'sishning asosiy manbasi ekanligini qayd etadi.[9]

### 1.4. Bilimlarga asoslangan iqtisodiyot va uning xususiyatlari

XX asr oxirlariga kelib jahon iqtisodiyotining rivojlanishi sifat jihatdan yangi bosqichga o'ta boshlandi. Xozirgi kunda mamlakatlarning halqaro maydondagi va dunyo iqtisodiyotidagi o'rni va raqobatbardoshligi uning tabiiy boyliklari, moliyaviy mablag'larining hajmi yoki qurolli kuchlarinng qudrati bilangina emas, balki, undagi intellektual salohiyat, yangi bilimlarni yaratish va ulardan samarali foydalanish imkoniyati va qobiliyati bilan belgilanmoqda. Bugungi kunda bilimlar iqtisodiy o'sishning asosiy omili, xalq faravonligi va mamlakat taraqqiyotini ta'minlaydigan muhim dastakka aylandi. Buni yalpi mahsuloti o'sishining 90 foizini ilmiy-texnik taraqqiyot belgilab berayotgan rivojlangan mamlakatlar tajribasi tasdiqlaydi.

XRTMning fan, texnika va sanoat boshqarmasi vakillariga va barcha hamkorlarga minnatdorchilik bildiramiz.

2009 yil yanvar oyida bo'lib o'tgan seminarda "Innovatsion taraqqiyot: bilim boylikka aylantirilmoqda" mavzusida qo'shma yig'ilish bo'ldi. Bu dunyo bo'ylab, fan, siyosat va barqaror taraqqiyot YUNESKO kafedrasi texnik muvofiqlashtirish bilan ko'plab institutlari ilm-fan, texnologiya va jinsga bog'liq

[9] Макаров, В. Контуры экономики знаний / В. Макаров // Экономист. 2019. № 3.14.

sohalarda mutaxassislarning iqtisodiy faol sherikligi va keng xalqaro hamkorlik institutlarining aloqa natijasidir. Biz quyidagi asosiy ishtirokchilarni tanishtiramiz: Pier Karlo Padoan, vazir o'rinbosari, Valter Erdelen, bosh direktori o'rinbosari, IHRT bosh iqtisodchisi, Toni Mardzhorem tabiiy fanlar uchun YUNESKO texnika fanlari vakili; Fred va Guo Jin Wu, Kanada Xalqaro Rivojlanish tadqiqotlari markazi (IDRS) a'zo. Moliya faoliyati IDRS, OESD va YUNESKO va Shvetsiya Xalqaro taraqqiyot hamkorlik Servisi (SIDA). Agentlik Xalqaro taraqqiyot hamkorlik - SIDA / SIDA - Tashqi ishlar vazirligi SHvetsiya tomonidan boshqariladi. SIDA asosiy maqsadi - qashshoqlikni bartaraf etish va turmush darajasini yaxshilash uchun yordam beradi.

Bu kitobni yaratishda yordami uchun jahon oziq-ovqat konferentsiyasi tomonidan 1977 yilda tashkil etilgan ko'p tomonlama moliyaviy institut bo'lmish Afrika taraqqiyot bankiga, rivojlanayotgan mamlakatlar qishloq joylarida ochlik va qashshoqlik muammolarini hal qilishga katta hissa qo'shayotgan. qishloq xo'jaligini rivojlantirish Xalqaro fondiga (IFAD) alohida rahmat aytamiz,

Bundan tashqari, Xalqaro qishloq xo'jaligi tadqiqotlari maslahat guruhi (SGIAR), qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilari xalqaro federatsiyasi (IFAP), Xalqaro qishloq xo'jaligini rivojlantirish fondi (IFAD), Britaniya qirollik hamjamiyatiga, savdo va rivojlanish bo'yicha BMT konferetsiyasi, Jahon banki va barcha hamkor tashkilotlar kitobni boyishi salmoqli hissa qo'shdilar[10].

Agrar yoki industrial iqtisodiyotda tovarlarning ayirboshlanishi natijasida ushbu tovarlarning mamlakatdan butunlay chiqib ketishi ro'y bergan bo'lsa, jamiyat taraqqiyotining yangi bosqichining asosiy tovari bo'lgan bilim va uning natijalarining sotilishiga bunday xususiyat xos emas. Tabiiy boyliklar cheklangan bo'lsa, bilimlarning asosi bo'lgan inson qobiliyatlari cheksizdir. SHu o'rinda Tomas Djeffersonning quyidagi so'zlarini eslash o'rindir: "Meni nochorlashtirmay fikrlarimni olib foydalangan inson, xuddi meni qorong'ulikka duchor etmay chirog'imning yorug'ligidan foydalangan inson kabidir"[11]. YA'ni, bilim va uning natijalarining ayirboshlanishi uning kamayishiga emas, balki undan ham ziyoda bo'lishiga olib keladi[12].

XX asr oxirlarida Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkilotiga (OECD) a'zo mamlakatlar YAIMning 50%dan ortig'i bilimlarga asoslangan tarmoqlarda yaratilgan. Ilmiy tadqiqot va ishlanmalarga o'rtacha xarajatlar YAIMning 2,5%iga, ta'lim xarajatlari davlat xarajatlarining 12%iga, "o'qish va ishlash" dual tizimi

---

[10] Edited by Erika Kraemer-Mbula and Watu Wamae. "Innovation and the Development Agenda". International Development Research Centre PO Box 8500, Ottawa, ON, Canada K1G 3H9. © OECD/IDRC 2010. p. 5.

[11] Макаров В.Л. Экономика знаний: уроки для России // Наука и жизнь, 2003. №5.

[12] Акрамова Ш. Билимларга асосланган иқтисодиётда олий таълимнинг ўрни. Население Узбекистана: состояние, проблемы и перспективы: Монорафия/ Под.ред. академика Р, Убайдуллаевой. - Т.: 2012. С.207

mavjud bo’lgan Germaniya va Avstriya kabi davlatlarda “ish joyida ta’lim olish” (on the job training) ga xarajatlar YAIMning 2,5%gacha etgan. 1980 – yillarning o’rtalaridan boshlab kompьyuter va dasturiy ta’minotlarning sotib olinishi yiliga 12% ga oshib borish sur’atida ro’y berdi. OECD ga a’zo mamlakatlarda yuqori malakali kadrlarga talab oshmoqda. O’rta ma’lumotlilar orasida ishsizlik 10,5%ni tashkil etgan bo’lsa, oliy ma’lumotlilar orasida 3,8%ni tashkil etgan. YUqori texnologiyalar, ilm talab etuvchi tarmoqlarda bandlik oshib bormoqda[13].

Bilimlar iktisodiyoti ta’lim tizimi, fanlar, patent sistemasini, kompьyuter programmalarini ishlab chikarish soxasi, NIOKR (Nauchno-issledovatelьskie opыtno - konstruktorskie razrabotki) va bilim ishlab chiqarish bilan bog’lik boshqa tarmoklarni qamrab oladi.

Bu shunday iqtisodiyotki, unda intellektual salohiyat, ishchi va xizmatchilarning kreativ imkoniyatlari, bilimlari, tovar yaratishdan tortib uni ishlab chiqaruvchidan iste’molchiga etib borgungacha bo’lgan barcha bosqichlaridagi innovatsiyalar korxona strategik rivojlanishining asosiy resursi bo’lib xizmat qiladi.

Oxirgi yillarda jahon iqtisodiy adabiyotida keng tarqalgan “bilimlarga asoslangan iktisodiyot” yoki intellektual iqtisodiyot tushunchasi shu narsani anglatadiki, ilmiy bilimlar hamda ishchi va xizmatchilarning maxsus ko’nikma va bilimlari moddiy va nomoddiy ishlab chiqarishning, barqaror iqtisodiy rivojlanishning asosiy manbai va xal qiluvchi omiliga aylanmoqda.

“Bilimlar iqtisodiyoti” atamasi ilk bor, milliy iqtisodiyotning bilimlar yaratiladigan, qayta ishlanadigan va tarqatiladigan tarmog’i sifatida 1962 yilda F. Maxlup tomonidan “AQSHda bilimlarning ishlab chiqarilishi va tarqatilishi” kitobida muomalaga kiritilgan[14]. P.Druker tomonidan esa ushbu atama iqtisodiy rivojlanishning asosiy omili sifatida bilimlar yuaga chiqadigan iqtisodiyot turi sifatida keng ommaga yoyilgan. Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkilotining (OECD) ta’rifiga ko’ra “bilimlar iqtisodiyoti” bu bilim va axborotlarning ishlab chiqarilishi, tarqatilishi va foydalanilishiga asoslangan iqtisodiyotdir[15]. Boshqa bir manbada keltirilgan ta’rifga ko’ra esa “bilimlar iqtisodiyoti” postindustrial va innovatsion iqtisodiyot rivojlanishining yuqori bosqichi bo’lib, bilimlar jamiyati yoki informatsion jamiyatning asosidir[16]. Inson kapitali va bilim iqtisodiy taraqqiyotning asosiy omillaridir. Iqtisodiyotning ushbu turining rivojlanish jarayoni inson kapitalining sifatini oshirish, turmush sifatini oshirish, yuqori

[13] The Knowledge Based Economy. Organization For Economic Cooperation and Development, Paris. 1996. – P. 9-10.

[14] Edited by Erika Kraemer-Mbula and Watu Wamae. “Innovation and the Development Agenda”. International Development Research Centre PO Box 8500, Ottawa, ON, Canada K1G 3H9. © OECD/IDRC 2010. 65. info@idrc.ca/*www.idrc.ca*

[15] The Knowledge Based Economy. Organization for Economic Cooperation and Development, Paris. 1996. – P. 7

[16] http://ru.wikipedia.org/

texnologik bilimlar, innovatsiya va yuqori sifatli xizmatlarni ishlab chiqarishdan iboratdir. Rus akademigi YA.B. Danilevichning fikricha “bilimlar iqtisodiyoti” da “innovatsion iqtisodiyot”dan farqli ravishda, innovatsiyalar emas, balki, bilim asosiy ayirboshlash ob’ektiga, ya’ni tovarga aylanadi. YAna bir ta’rifga ko’ra “bilimlar iqtisodiyoti” bu o’zining o’sishi va raqobatbardoshligini ta’minlash uchun bilimlarni yaratadigan, tarqatadigan va ulardan foydalanadigan iqtisodiyot bo’lib, unda bilimlar iqtisodiyotning barcha tarmoqlarini va iqtisodiy munosabatlarning barcha qatnashchilarini boyitadi. Bugungi kunda “bilimlar iqtisodiyoti”ni atamasi juda ommalashib bormoqda. Mutaxassislarning ta’kidlashicha, bu sohada ko’pgina izlanishlar olib borilayotganligiga qaramasdan “bilimlar iqtisodiyoti” tushunchasining mohiyati, uning o’ziga xos xususiyatlari, asosiy elementlari va boshqa jihatlari aniqlik talab etadi[17]. Tadqiqotchi SH.Akramova “bilimlar iqtisodiyoti” ga “kuchli ijtimoiy xususiyatga ega bo’lgan va asosiy rivojlanishi bilimlarning yaratilishi, tarqatilishi va foydalanilishi ta’sirida amalga oshadigan iqtisodiyot sifatida qarash mumkin”, degan fikrni bildiradi.

### 1.3. Innovatsion jarayon modellari va amal qilish qonuniyatlari

Bugungi kunga kelib innovatsiyalar iqtisodiy taraqiyotning eng muhim, iqtisodiyotni intellektuallashtirishga asoslanuvchi harakatlantiruvchi kuchiga aylandi. Bunday sharoitda innovatsion, aynan bilimlarga asoslangan, malakali ishchi kuchini o’zida mujassam etgan yuqori fan sig’imiga ega bo’lgan texnologik iqtisodiyot raqobatbardosh bo’ladi.

Mutaxassislarning ta’kidlashicha, bugungi kunda innovatsion taraqqiyotda innovatsiyalarning chiziqli modeli etakchi rolь o’ynamoqda. Ushbu modelga muvofiq ishlab chiqilgan fundamental ilmiy g’oyalar amaliy tadqiqotlarda o’z aksini topadi. Mana shunday tadqiqotlar innovatsiyalar uchun asos bo’lib xizmat qiladi, ularni amalga oshirish natijasida ilg’or texnologiyalar yuaga keladi[18]. Mutaxassislar modelь XX asrda  o’zini faqat ijobiy tomondan ko’rsatganligi  va, o’z navbatida, XXI asrda ham rivojlangan mamlakatlarda o’z o’rnini yo’qotmasligi to’g’risidagi fikrlarni aytib o’tadilar.

Adabiyotlarda mazkur modelga qo’shimcha tarzda “innovatsiyalarning ko’p sonli manbalari  modeli” ham joriy etilayotganligi va unga muvofiq innovatsiyalar innovatsion tizimning istalgan qismida  yuaga kelishi mumkinligi to’g’risidagi fikrlarni uchratish mumkin. Olimlarning ta’kidlashlaricha, garchi ilmiy tadqiqotlar innovatsiyalarning muhim harakatlantiruvchi kuchi bo’lib qolsada, uning yagona

---

[17] Акрамова Ш. Билимларга асосланган иқтисодиётда олий таълимнинг ўрни. Население Узбекистана: состояние, проблемы и перспективы: Монорафия/ Под.ред. академика Р, Убайдуллаевой. - Т.: 2012. С.209

[18] Ўзбекистон: жаҳон молиявий-иқтисодий инқирози, инновацион тараққиёт ва миллий иқтисодиёт рақобатбардошлигини ошириш. Т.: KONSAUDITINFORM – NASHR. 2011

rivojlantiruvchi omili hisoblanmaydi. Demak, ilmiy tadqiqotlar bilan shug'ullanuvchi tashkilotlarning an'anaviy tutgan o'rni ham o'zgarishi mumkin. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, yangi ilmlar nafaqat davlat ilmiy tadqiqot institutlari yoki kompaniyalarning ilmiy bo'linmalarida, balki ko'plab ijtimoiy tuzilmalarda ham yaratilmoqda. Ma'lumki, innovatsion jarayon texnologiyalar sohasi bilan chegaralanib qolmaydi, balki institutsional, tashkiliy va boshqaruv innovatsiyalarini ham o'z ichiga oladi.

Innovatsion siyosat haqidagi bilim bir qator yo'nalishlarni o'z ichiga oladi. Hozirgi vaqtda, OESD aslida katta Sanoati rivojlangan mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy siyosatni muvofiqlashtirish organi aylangan.

IHRT markaziy maqsadi a'zo davlatlar iqtisodiyoti va hamkor davlatlar holatini chuqur tahlil qilish va so'l va tarmoq darajada iqtisodiy tartibga solish amalga oshirish uchun tavsiyalar qilishdir.

Bugungi kunga kelib, OESD nafaqat bir qit'ada iqtisodiy muammolarni hal qilish karatilgan, balki dunyoda barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash vazifasi turli ijtimoiy-iqtisodiy sohalardagi OESD faoliyatining asosiy maqsadi bo'lib qolmoqda. Bundan tashqari, iqtisodiy faoliyat ko'lami, iqtisodiy masalalar bilan cheklanib bo'lmaydi.

OESD rivojlanayotgan mamlakatlar uchun innovatsiyaion siyosat yondashuvlarini ishlab chiqqan.. Harakatlar uchrashuvlar jarayonida boshlangan.. Innovatsion rivojlanishga ko'maklashshish qo'mitasi (IKQ), o'n yil ichida birinchi marta rivojlantirish bo'yicha OESD Kengashi majlisida diplomatiya va mudofaa muammolari kun tartibiga kiritilayotgan yangiliklarni o'z ichiga oladi.

Bular Germaniya va YAponiya rivojlanishida katta rol o'ynab, rejalashtirilgan maqsadlarga erishishda barqaror hamkorlik uchun faol siyosatni olib borishda qo'l kelmoqda.

Fan, texnologiya va sanoat uchun OESD, direktsiyasi mamlakatlarda innovatsion tadqiqotlar o'tkazish, yangi ish birligidan, geografiya va Outlook (SSO) yaratdi. OESD, YUNESKO seminari davomida, halqaro taraqqiyot va (SIDA tomonidan) hamkorlik Щvetsiya agentligi boshqaruvi va yangilik tizimlari sohasida chngi tuzulmalar yaratdi. YAngi tuzulmalar va yangi loyihalar, innovatsiyani xalqaro darajada rivojlantirish yo'liga, bilim va Mingyillik rivojlanish maqsadlariga (MRM) murojaat qilib, YUNESKO hamda Janubiy hamkorlik Xalqaro fan, texnologiya va innovatsiyalar markazi orqali ta'lim hamkorligini rivojlantirish uchun tashabbus ko'rsata boshladi. Kanada Xalqaro taraqqiyot tadqiqot markazi bu sohada o'z faoliyatini amalga oshiradi.

Iqtisodiy tadqiqotlar texnologiyasi instituti innovatsiya faoliyat doirasida tadqiqot ishlarini olib borish va tayyorlash bilan bog'liq faoliyatni amalga oshiradi. Jahon banki, boshqa manfaatdor tomonlar va xalqaro tashkilotlar bilan

hamkorlikda innovatsion salohiyatni rivojlantirishning ish rejasini ishlab chiqidi. 2015 yilning dekabr oyida barqaror rivojlanish salohiyati haqida fan, texnologiya va innovatsiyalar sheriklik to'g'risidagi Global Forum o'tkazdi. OESDning innovatsion strategiyasida belgilangan kun tartibiga muvofiq Sida tomonidan moliyalashtiriladigan, Afrikani rivojlantirish uchun yangi hamkorlik doirasida innovatsiyalar haqida statistik ma'lumotlarni solishtirish maqsadida 19 ta Afrika mamlakatlarida R&D ma'dumotlari asosida tahlil qilish faoliyatini qo'llab-quvvatlaydi[19].

Bugungi kunda, iqtisodiy rivojlangan mamlakatlar innovatsion rivojlanishi modellarining uch turi farqlanadi[20]:

1. Fanda peshqadamlikka, ilmiy ishlab chiqarish jarayonining barcha bosqichlarini qamrab oladigan, qoida tariqasida, ilmiy-innovatsion imkoniyatlarning mudofaa sektoridagi ulushi ancha katta bo'lgan keng ko'lamli maqsadli loyihalarni amalga oshirishga qarab mo'ljal oladigan mamlakatlar (AQSH, Angliya, Frantsiya);
2. Innovatsiyalarni tarqatish, qulay innovatsion muhitni yaratish, iqtisodiyot strukturasini oqilonalashtirishga qarab mo'ljal oladigan mamlakatlar (Germaniya, SHvetsiya, Shveytsariya);
3. Innovatsion infratuzilmani rivojlantirish, jahon ilmiy-texnika taraqqiyoti yutuqlariga ta'sirchanlikni ta'minlash,- fan va texnologiyalar sohasida turli sektorlarning harakatlarini muvofiqlashtirish yo'li bilan innovatsiyalarni rag'batlantiruvchi mamlakatlar (Yaponiya, Janubiy Koreya).

Hozirgi vaqtda, OESD aslida katta Sanoati rivojlangan mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy siyosatni muvofiqlashtirish organi aylangan.

IHRT markaziy maqsadi a'zo davlatlar iqtisodiyoti va hamkor davlatlar holatini chuqur tahlil qilish va so'l va tarmoq darajada iqtisodiy tartibga solish amalga oshirish uchun tavsiyalar qilishdir. Bugungi kunga kelib, OESD nafaqat bir qit'ada iqtisodiy muammolarni hal qilish karatilgan, balki dunyoda barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash vazifasi turli ijtimoiy-iqtisodiy sohalardagi OESD faoliyatining asosiy maqsadi bo'lib qolmoqdada. Bundan tashqari, iqtisodiy faoliyat ko'lami, iqtisodiy masalalar bilan cheklanib bo'lmaydi[21].

Milliy iqtisodiyotlarni ilmiy-innovatsion rivojlantirish modelining to'rtinchi turi shakllanayotganini ham ko'rsatish mumkin. Bular innovatsiya omilidan

---

[19] Edited by Erika Kraemer-Mbula and Watu Wamae. "Innovation and the Development Agenda". International Development Research Centre PO Box 8500, Ottawa, ON, Canada K1G 3H9. © OECD/IDRC 2010. p. 9-10.

[20] К.Шодиметов. Муқобил энергия манбаларидан фойдаланиш ва унинг иқтисодий истиқболлари. –Т.: "ILM ZIYO". 2019. 30 бет.

[21] Edited by Erika Kraemer-Mbula and Watu Wamae. "Innovation and the Development Agenda". International Development Research Centre PO Box 8500, Ottawa, ON, Canada K1G 3H9. © OECD/IDRC 2010. *21-23.* info@idrc.ca/*www.idrc.ca*

foydalangan holda rivojlangan industrial muhitni yaratishga qarab mo'ljal oladigan mamlakatlardir. Mamlakatlarning ushbu guruhida jahon ilmiy-texnika taraqqiyoti yutuqlarini o'zlashtirish hamda ijtimoiy-iqtisodiy muhitdagi yangiliklarga ta'sirchanlikni kuchaytirishga ko'maklashuvchi shart-sharoitlarni yaratish asosida iqtisodiyotni modernizatsiya qilish amalga oshirilmoqda (Xitoy, Hindiston).

**Nazorat savollar:**

1. Innovatsiya deganda nima tushuniladi?
2. Innovatsion rivojlanishning mazmun va mohiyati nimadan iborat?
3. Bilimlarga asoslangan iqtisodiyot boshqa iqtisodiyotlardan nimasi bilan farq qiladi?
4. Innovatsion jarayonning qanday modellarini bilasiz?
5. Innovatsion faoliyat kontseptsiyasi tushunchasini sharxlab bering.
6. Korxonaning innovatsion salohiyati va uni amaliyotda foydalanish qobiliyatini qanday aniqlash mumkin?
7. Intellektual salohiyat qanday aniqlanadi va uni innovatsion sahohiyati bilan qanday farqi bor?
8. Korxonaning innovatsion salohiyati qanday baholanadi?

## 2-Mavzu. Innovatsiyalarning endogen xususiyatlari

Reja:

2.1.Bozor tuzilmasi va uning yangi texnologiyalar rivojlanishiga ta'siri

2.2.Endogen o'sish nazariyasi va kapital jamlanishi ta'siri

2.3.Bilim diffuziyasi.

2.4.Innovatsion faoliyat rivojlanishida axborot kommunikatsiya texnologiyalarining o'rni.

### 2.1. Bozor tuzilmasi va uning yangi texnologiyalar rivojlanishiga ta'siri.

Innovatsion faoliyatning pirovard natijasi bo'lib innovatsiya mahsuloti (texnologiya) hisoblanadi. Innovatsiya mahsuloti (texnologiyasi) o'zining hajmi bilan farqlanadi, u yangi texnologiyani joriy etilishi evaziga korxona ishlab chiqarish imkoniyatlarini o'sishini ifodalovchi ko'rsatkichlarda o'z aksini topadi.

Innovatsion faoliyat o'z ichiga ma'lum bosqichli jarayonlarni oladi. Ushbu bosqichli jarayonlar o'rtasidagi bog'liqlikni quyidagicha ifodalash mumkin (1.3-rasm).




**3-rasm. Innovatsion faoliyatni tashkil etuvchi jarayonlar**

Innovatsion faoliyatni mazmun va mohiyatiga, pirovard olinadigan natijasiga ko’ra korxonalar tomonidan olib boriladigan ichki investitsiya faoliyatining tarkibiy qismi, ya’ni uning bir bo’lagi deb hisoblash mumkin. Ichki investitsiya faoliyati innovatsion faoliyatdan tashqari kapital qurilish, yangi texnika va texnologiyalarni sotib olish, mavjud ishlab chiqarish quvvatlarini modernizatsiyalash, kengaytirish, rekonstruktsiya qilish kabi ishlarni ham bevosita o’z ichiga oladi. Demak, ichki investitsion faoliyat innovatsion faoliyatga nisbatan mazmunan keng tushuncha hisoblanadi. Innovatsion faoliyatga sarflangan mablag’lar jami kapital investitsiyaning yangi g’oya, ishlanmalar, jarayonlar, mahsulot, xizmat turlarini yaratish, o’zlashtirish va tatbiq etishga taalluqli bo’lgan qismidir.

SHunday qilib, innovatsion faoliyat makon va zamonda yu bergan va berayotgan, o’zining moddiy va nomoddiy ko’rinishdagi hamda pulda baholanadigan mulk shaklidagi pirovard mahsuliga ega bo’lgan, bunga erishish uchun ma’lum sarf-xarajatlarni talab qiladigan xo’jalik faoliyatining bir turi hisoblanadi. Aynan shu mazmunda korxonalarning innovatsion faoliyati ularda yuritilayotgan buxgalteriya hisobi hamda o’tkaziladigan audit predmetini tashkil qiluvchi ob’ektlardan biri hisoblanadi.

Innovatsion faoliyat sub’ektlari quyidagilardan iborat:

– innovatsion faoliyat bilan shug’ullanadigan yuridik va jismoniy shaxslar;

– innovatsiyalarni amalga oshiruvchi turli mulkchilik shaklidagi innovatsion korxonalar;

– innovatsion faoliyat jarayonida amalga oshiriladigan intellektual mulk egalari: korxonalar loyihalari, qurilmalar, sanoat namunalari, texnologik jarayonlar, “nou-xau”, kashfiyot va ixtirolar mualliflari, dizaynerlar;

– innovatsiyalar amalga oshirishga kapital kirituvchi investorlar: banklar, fondlar, korporatsiyalar, lizing firmalari va h.k.;

– innovatsion jarayonga xizmat ko'rsatadigan va uning infratuzilmasini ta'minlaydigan vositachilar: konsalting va injiniring firmalari, texnologik inkubatorlar, texnoparklar, texnopolislar, axborot markazlari va h.k.;

– innovatsion faoliyatni boshqarish, muvofiqlashtirish va tartibga solishda ishtirok etadigan davlat organlari va mahalliy o'zini-o'zi boshqarish organlari.

## 2.2.Endogen o'sish nazariyasi va kapital jamlanishi ta'siri

"Keyingi paytlardagi innovatsiyalar oqimi IIRda uyushtirilgan "poyga" uchun stoxastik jarayonlar modellashtirilgandir"[22]. XXI asrda innovatsion loyihalar va yangi g'oyalarning hayotga keng tatbiq etilishi jamiyat va insoniyat taraqqiyoti uchun samarali hisoblanadi. Texnologiya taraqqiyoti asrida ilmiy loyihalarni ishlab chiqarish va hayotga joriy etish, mamlakat iqtisodiyotining yuksalishida va yangilanishida muhim omil sanaladi. Innovatsion faoliyat infratuzilmasining rivojlanish darajasi innovatsion siyosatni amalga oshirishga ta'sir etuvchi asosiy omillardan biridir.

Xorijiy adabiyotlarda "innovatsion infratuzilma" atamasi yangi yoki takomillashtirilgan mahsulotni, yangi yoki takomillashtirilgan texnologik jarayonni yaratish, ishlab chiqarishda o'zlashtirish va amaliyotda qo'llash bo'yicha xizmatlar ko'rsatadigan tashkilotlar yig'indisi sifatida ta'riflanadi.

Innovatsion faoliyat infratuzilmasi - innovatsion faoliyat sub'ektlariga innovatsion faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan xizmatlar ko'rsatuvchi tashkilotlar jamlanmasidir.

"Agar muvaffaqiyatli innovatsiyalar Puassonning stoxastik jarayoni sababli tez sur'atli (*u*) ravishda amalga oshadi deb qabul qilsak, unda ma'lum bir davrda firmaning muvaffaqiyatli innovatsiyalardan foydalanayotganligi *dt udt* ga o'zgaradi. SHunda kutilgan monopoliya daromadi π SHumpeter bo'yicha muvaffaqiyatli tadbirkor uchun quyidagi ko'rinishda bo'ladi:

$$\pi (n,u)=r(n)u - c(u, f) \quad \textbf{(1.2)}$$

bu erda:

***r=r(n)*** – oniy monopol daromad bo'lib, u innovatsion musobaqa g'olibi tomonidan erishiladi va ***c (u,f)*** – xarajatlar funktsiyasi tez sur'atlilik ***u* va o'zgarmas harajatlar *f* kesishganligi"[23].**

## 2.3.Bilimlar diffuziyasi

Innovatsion jarayonning mohiyati shunda namoyon bo'ladiki, u innovatsiyalar tashabbusi bilan chiqish, yangi mahsulot va operatsiyalar ishlab chiqish, ularni

[22] 6
[23] 6

bozorda sotish va diffuziyalash bo'yicha maqsadli yo'naltirilgan harakatlar zanjirini ifodalaydi. Innovatsion jarayon ettita elementni o'z ichiga oladi, ularning umumiy bir ketma-ketlikdagi zanjirga birlashuvi innovatsion jarayon strukturasini tashkil etadi.

"Vaqtinchalik monopol foydani qo'llab quvvatlanishi ustundir. Ortiqchalikni inkor etilishi ta'siri firmalarning investitsiyaviy qarorlarini keskinlik bilan qabul qilishiga olib keladi. Chunki, kutilgan daromad aslida yuqoriroq bo'ladi. SHu ortiqchalik samarasiga bog'liq holda bilimlar diffuziyasi dasturiy ta'minotlar texnologiyasi va transmilliy kompaniyalar tomonidan ko'paytirilgan bevosita investitsiyalar orqali sur'atlar tezlashtiriladi"[24].

**2.4.Innovatsion faoliyat rivojlanishida axborot – kommunikatsiya texnologiyalarining o'rni.**

Axborot-kommunikatsiya sohasining o'rni va ahamiyatini ta'riflashda uning kamida ikki tarkibiy qismini telekommunikatsiya (aloqa) va axborot yaratish sohalarini ajratib qarab ko'rish lozim. Shunda ushbu ikki elementni axborotlashtirish sohasidagi ko'pgina adabiyotlarda keltirilgan tavsifi barchaga ravshan bo'ladi. Ya'ni ko'plab adabiyotlarda bu ikki tushuncha hanuzgacha ayri holda o'rganib kelindi. Lekin, zamonaviy sharoitda bunday yondashuv faqat u yoki bu alohida olingan sohani yakka holda tavsiflashga mosdir. Masala shundaki, bugungi kunda axborot-kommunikatsiyaning ushbu ikki muhim elementini amalda ajratib bo'lmaydi, chunki axborot-kommunikatsiyalari alohida elementlar yig'indisi tariqasida ko'rib chiqilmaydi. SHu sababli u bir butun o'zaro bog'liq organizm sifatida ko'rib chiqiladi va albatta, shunday bo'lishi lozim.

Uzoq vaqt davomida O'zbekistonda aloqa va axborotlashtirish texnologiyalari bir-biridan ayri holda rivojlanib bordi. Aloqa sohasi o'z xizmat turlarining foydalanilish belgisiga qarab sun'iy ravishda ishlab chiqarish va noishlab chiqarish shakllarga ajratilib qaraldi, butun axborotni yaratish sohasi esa, aloqa sohasidan alohida holda shakllandi. Ularni boshqarishning tashkiliy tizimi ham aynan shunday tarzda tuzilgan edi: aloqa va telekommunikatsiya sohasi Aloqa vazirligiga (keyinchalik Pochta va telekommunikatsiyalar agentligiga) bo'ysundirilgan edi, kompьyuterlashtirish va axborot texnologiyalari rivoji esa, Fan va texnika davlat qo'mitasi (FTDQ) tomonidan boshqarilardi.

Texnika va texnologiyalarning mukammal bo'lmaganligi natijasida axborot ishlanishi korxonalar va tarmoqlarning yirik hisoblash markazlarida amalga oshirilgan va u erga esa, elektron hisoblash mashinalarida tayyorlangan ma'lumot oldindan yuborilgan. U erda ma'lumotlar qayta ishlanib, hujjat ko'rinishida iste'molchilarga etkazilgan. Axborotlarning bunday tarzda ishlanishiga sabab, hisoblash markazlari asosan Faqat buxgalteriya va statistikaga oid ommaviy axborotlarni qayta ishlagan. Elektron aloqa esa faqat yordamchi vazifani bajargan. SHu tarzda respublikada ulkan,

---

[24] 7

ammo, foydalanish uchun ayniqsa, tezkor vazifalarni bajarishda o'ta noqulay bo'lgan ulkan hisoblash markazlari paydo bo'ldi.

Lekin, shaxsiy kompьyuterlarning paydo bo'lishi ma'lumotlarni ishlash sohasida haqiqiy inqilob yasadi. Endi har bir axborot ishlab chiqaruvchi o'zi uni mashinaga kiritib, qayta ishlay boshladi. Hisoblash markazlariga bo'lgan ehtiyoj umuman yo'qoldi. Rivojlangan mamlakatlarda buni allaqachon tushunib etdilar, shu paytda esa, ulkan va qovushimsiz ma'muriy-buyruqbozlik tizimi odat bo'lib holgan tashkiliy tuzilmalardan– hisoblash markazlaridan, ya'ni ish joylari, byudjet va maoshdan kechishni xohlamagan.

Rivojlanayotgan mamlakatlarda nisbatan yangilik tizimlari bo'yicha nazariy bahslar innovatsion tizimlari ilg'or mamlakatlar ijtimoiy-iqtisodiy sharoitiga asoslangan. Natijada, rasmiy tashkilotlar va muassasalar ta'siriga uchrab, rivojlanishning nazariy asoslariga putur etkazishi mumkin. Bu boradagi tortishuvlar rivojlanish uchun innovatsiyalarni mustahkamlash yo'llarini, jumladan, turli kontekstlarda moslashtirish uchun ayrim imkoniyatlar ko'lamini kengaytiradi. SHu bilan birga, iqtisodiyotni rivojlantirish tashkilotlar va muassasalar muvofiqlikda harakatini movhumlashtiradi. Bundan tashqari, rivojlangan mamlakatlardan farqli o'laroq, rivojlanayotgan mamlakatlarda innovatsion faoliyat ko'p jihatdan norasmiy kelishuvlar tomonidan belgilangan ijtimoiy-iqtisodiy muhitda sodir bo'ladi[25].

O'zbekiston mustaqilligi e'lon qilinishi va chet el ilmiy-texnika axborotlariga keng yo'l ochilishi bilan respublikadagi hisoblash markazlari tez sur'atlarda yo'qola boshlagani bejiz emas. SHaxsiy kompьyuter har bir ish joyida, har qanday idorada, boshqaruv tizimida odatiy holga aylandi. Tabiiyki, avvaliga kompьyuter matn terish mashinasining elektron turini eslatardi. Lekin, asta-sekin kompьyuterlarning dasturlari takomillashib bordi va eng asosiysi, kompьyuterlarda katta hajmdagi ma'lumotlarni juda kichik axborot to'plovchi qurilmalarda saqlash imkoniyati tug'ildi. Ushbu axborotlarni almashinish masalasi paydo bo'ldi. Bir korxona doirasida bir necha kompьyuterning o'zaro aloqasini ta'minlovchi mahalliy (lokal) axborot tarmoqlari yuaga keldi. Keyinchalik butun insoniyat ma'lumotlar bazasini o'zaro bog'lovchi xalqaro Internet tarmog'iga ulanish ehtiyoji tug'ildi. Tabiiyki, bunga faqat respublikaning elektron aloqa sohasidagi texnologik yutuqlari hisobiga erishildi. Shundan so'ng sohaning o'zi, mazmunan yangi aloqa turi bo'lganligi sababli telekommunikatsiya degan yangi nomni oldi.

Davlat muassasalariga ishtiroki mintaqaviy darajadagi ma'lumotlarni yig'ish uchun ishtirok usullari bilan foydalaniladi, kashfiyot yoki tahlil ilmiy jamoalarni

---

[25] Edited by Erika Kraemer-Mbula and Watu Wamae. "Innovation and the Development Agenda". International Development Research Centre PO Box 8500, Ottawa, ON, Canada K1G 3H9. © OECD/IDRC 2010. p. *44-45.*

jalb etish tobora aniq bo’lib kengroq miqyosda tadqiqot yanada ko’chaygan bo’ladi.Tadqiqotchi olimlar, siyosatchilar va mahsulotdasturchilari holati, tili, ustuvor vazifalari va usullaridan foydalanadi. Guruhlar bilan birga, bir qator ijobiy natijalar va muvaffaqiyat bor. Yangi tovar turlari va ishlab chiqarish usullari rivojlanishida ishtirok etish, yangicha yondashuvlar keng qabul qilindi[26].

Aloqa vositalari va kompьyuterlar haqida so’z yuritilganida axborot-kommunikatsiyalar faqat shu bilan belgilanadi degan noto’g’ri tasavvur tuqilishi mumkin. Aslida bunday emas. Bular Faqat yangi yo’nalish ta’minlanishiga sabab bo’luvchi boshlang’ich texnik elementlar yoki tuzilmalardir xolos. Aslida masala keng qamrovlidir, chunki axborot-kommunikatsiyalar yanada kengroq falsafiy – “**axborotlashgan jamiyat”** tushunchasining shartli bo’lagidir. Sanoati rivojlangan mamlakatlar ayni shunday jamiyat qurmoqda va O’zbekiston ham aynan shu yo’nalishda qadam bosmoqda. Bular quruq gap yoki yo’nalishni chiroyli tavsiflash emas. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari negizida axborotlashgan jamiyat barpo qilish O’zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy siyosatining eng muhim yo’nalishlaridan biri ekanligiga O’zbekiston Respublikasi qonunlari, O’zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari, hukumat qarorlari mazmunidan ishonch hosil qilish mumkin. Eng asosiysi shundaki, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari hozir nafaqat idoralarda va Boshqaruv devonlarida ishlamoqda, balki ular respublikamiz oddiy fuqarolarining uylariga kirib bordi va hayotlarining ajralmas qismi bo’lib qoldi. Axborot-kommunikatsiyalarning jamiyat va har bir kishining ijtimoiy kamol topishga ta’siri uning mamlakat hayotida tutgan o’rni katta ekanligining muhim belgisidir. SHuni qo’shimcha qilish mumkinki, axborot-kommunikatsiyalar bizning turmushimizga kirib kelar ekan, uni tubdan o’zgartiradi, shu bilan birga insonning o’zi ham o’zgaradi.

Bu sohaning rivoji mamlakat iqtisodiyoti boshqa tarmoqlarining rivojiga ham katta turtki bo’ldi, AKTni rivojlantirish uchun tegishli infratuzilma yaratildi va katta miqdordagi chet el portfelь investitsiyalari jalb etildi, 200 dan ortiq Xaytek kompaniyalar mamlakatda o’z filiallarini ochdi, 40 foizdan ortiq mahsulotlarning nodavlat sektorida, maxsus hududlarda ishlab chiqarilishiga erishildi.

Hindistonda soha rivojining o’ziga xos xususiyatlaridan biri shuki, mamlakatda dasturiy ta’minot industriyasi tashkil etishga alohida e’tibor berildi, natijada soha umumiy ishlab chiqarish hajmining 50 foizdan ziyodini dasturiy mahsulotlar tashkil etadi. YAna bir xususiyat – mamlakatda fundamental aniqfanlarning taraqqiy etganligidir. Bu hol rivojlangan davlatlarning sohaga oid markazlariga ko’plab iqtidorli

[26] Gordon Conway, Jeff Waage, Sara Delaney. “Science and Innovation for Development”. © 2019 UK Collaborative on Development Sciences (UKCDS). P 22.

yoshlarni ishga va o'qishga jo'natishning imkonini berdi, shu sabab xorijda ishlaydigan malakali hind mutaxassislari soha daromadiga katta hissa qo'shadilar.

Ta'kidlash lozimki, Hindistonda soha rivojlanishining o'ziga xos mezonlari mavjud. Bular: fundamental matematikaning taraqqiy etganligi; sohada dunyo mamlakatlari orasida eng ko'p ingliz tilini biluvchi mutaxassislarning kontsentratsiyalashganligi; hukumat sohaning rivojlanishi uchun hulay soliq imtiyozlari, jozibador iqtisodiy va sarmoyaviy sharoitlari mavjud bo'lgan maxsus hududlar, texnoparklar yaratganligi bilan izohlanadi.

Albatta, Hindiston yoki boshqa davlatlarning ATK rivoji bo'yicha tajribasini O'zbekistonga aynan ko'chirib bo'lmaydi, zero, mamlakatimizning islohotlar va rivojlanish bobida o'z yo'li bor. Ammo, bu jahonning ilg'or tajribasini chetlab o'tish degani emas. Bu tajribadan mamlakat iqtisodiy, milliy, hududiy xususiyatlarini hisobga olgan holda keng foydalanish lozim.

O'zbekiston aynan mana shunday tajribalarga asoslanib, axborotlashgan jamiyat qurmoqda. Shu bilan birga jamiyatda tub sifat o'zgarishlari yu bermoqda. Bugungi kunda O'zbekistonning hatto eng uzoqcho'l yoki tog'li hududlaridagi har bir fuqarosi nafaqat olamshumul jarayonlardan xabardor, balki o'zini ularning to'laqonli ishtirokchisi deb his etmoqda. U dunyoning narigi chekkasidagi do'stlarini faqat ko'rish va eshitish yoki muloqotda bo'lish bilan cheklanib qolmay, u ham mintaqaviy, ham dunyo miqyosida sodir bo'layotgan siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlarga o'z ta'sirini ko'rsatishga muvaffaq bo'lmoqda. U endi shunchaki axborot iste'molchisigina emas, uni (axborotni) yaratuvchi, fan, texnika va jamiyatdagi barcha yangiliklar hosil qilinishida ishtirokchi hamdir.

Shu tariqa, keng umumfalsafiy ma'noda axborot-kommunikatsiya sohasining tutgan o'rni va mohiyati O'zbekistonning yangi axborotlashgan jamiyat holatiga o'tish sharoitlari hamda barcha sohalarda demokratlashtirish va erkinlashtirish shart-sharoitlarini ta'minlash bilan belgilanadi.

Axborot-kommunikatsiya rivojlangan sari inson ham o'zgarib boradi. U sustkash axborot iste'molchisidan uni hosil qiluvchiga aylanadi. Asosiysi, u axborot hosil qilish jarayonining faol hamda chinakam ishtirokchisi bo'lib qoldi. Bu esa, har bir O'zbekiston fuqarosining ma'naviy va milliy o'zligini topishida muhim elementdir.

O'zbekiston taraqqiyotida axborot-kommunikatsiyaning tutgan o'rni va ahamiyatining ikkinchi jihati iqtisodiy sohaga daxldordir. Gap shundaki, aloqa vositalari orqali uzatiladigan axborot jamiyat rivojining eng muhim shartlaridan biri bo'lib qoldi. U ishlab chiqarish resursi, insonlar orasidagi aloqani ta'minlovchi hudratli vosita hisoblanadi. Shu sababli xalh xo'jaligi va jamiyatning axborot uzatish tezligi hamda sifatiga bo'lgan talablari ancha o'sib bormoqda. SHu bilan birga ko'p sonli foydalanuvchilar uchun axborotning ochiqligini ta'minlash bugungi kunda bozorning ushbu sektorini rivojlantirish, iqtisodiyotning ushbu

sohasi obro'sini oshirish va investitsiyalar joziba-dorligini ta'minlash uchun bo'lgan harakatda muvaffaqiyatga erishishning asosiy tarkibiy qismi hisoblanadi.

Bugungi kunda axborot-kommunikatsiyalar korxonalari daromadlari dunyo yalpi mahsulotining uch foizini, soha uchun moddiy-texnikaviy hamda dasturiy mahsulotlar ishlab chiqarishni qo'shib hisoblaganda esa, besh foizdan ko'p miqdorni tashkil etmoqda. Yaqin yillarda esa ushbu ko'rsatkich yanada o'sishi kutiladi. Bu borada yangi axborot texnologiyalarining salmog'i tezkor ortib bormoqda. Masalan, hozirda simli telefon aloqasi telekommunikatsiya xizmatlari bozori hajmining 60 foizini tashkil etib, uning dunyodagi yillik o'sish sur'ati 5-7 foizni tashkil etmoqda, uyali aloqaning esa, telekommunikatsiya bozoridagi umumiy salmog'i 20 foiz bo'lib, o'sish sur'atlari 80-90 foiz. Internet xizmatlari ulushi 10 foiz, lekin yaqin yillarda bu ko'rsatkich 30-33 foizga o'sishi kutiladi. Xalqaro statistikaga binoan har yili Internet tarmog'iga 150 million yangi foydalanuvchi ulanmoqda. SHunisi ham borki, bu ko'rsatkich tobora o'sib bormoqda.

Zamonaviy globallashuv dunyo iqtisodiy tizimi dinamikasidagi sezilarli o'zgarishlar bilan tavsiflanadi. Ayniqsa, oxirgi o'n yilliklarda globallashuv jarayonlari tobora tezlashib bormoqda. Agar 1997 yilda oddiy telefon aloqasidan foydalanuvchilar soni 800 mln. kishini, uyali telefon aloqasidan foydalanuvchilar taxminan 200 va Internetdan foydalanuvchilar soni taxminan 100 mln. kishini tashkil etgan bo'lsa, 2004 yildayoq ushbu ko'rsatkichlarning har biri 1 milliarddan ortib ketdi.

SHularni hisobga olgan holda, hozirda O'zbekistonda kompьyuter va axborot texnologiyalari, telekommunikatsiya va ma'lumot uzatish tarmoqlarini, Internet xizmatlarini rivojlantirish va zamonaviylashtirish oldingi o'ringa chiqmoqda. SHu yo'nalishda ularni dunyo standartlariga etkazish maqsadida keng ko'lamli chora-tadbirlar ko'rilmoqda. Ushbu maqsadni amalga oshirish uchun respublikada zarur me'yoriy-huquqiy asos yaratilgan – «Aloqa to'g'risida» gi, «Radiochastota spektri

to'g'risida» gi, «Telekommunikatsiyalar to'g'risida»gi, «Pochta aloqasi to'g'risida»gi Qonunlar hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining bir qator farmonlari, hukumat qarorlari qabul qilindi va hozirda amalda qo'llanilmoqda. O'zgarib borayotgan bozor munosabatlari sharoitida ushbu me'yoriy-huquqiy asos to'xtovsiz rivojlanib va takomillashib bormoqda.

Chet ellik sheriklar va hamkorlar ko'magi bilan respublikada telekommunikatsiyalar sohasini texnikaviy qayta jihozlash bo'yicha talay ishlar amalga oshirilmoqda va bugungi kunda mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda, aholiga xizmat ko'rsatishda bularning o'sib borayotgan ahamiyati namoyon bo'lmoqda. Korxonalarning ishlab chiqarish salohiyati o'sib bormoqda, zamonaviy texnika va texnologiyalar tatbiq qilinmoqda, tarmoqlarni rivojlantirish va zamonaviylashtirish bo'yicha katta ishlar, chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Ayni paytda respublika telekommunikatsiyalarining mahalliy tarmog'i ikki mingdan ortiq ATS va 1,9 milliondan ziyod abonent raqamlarini o'z ichiga oladi va ulardan 86 foizi aholiga tegishli. Stantsiyalar quvvatining 86 foizi ishlatilmoqda. Tarmoqda 1,65 mln. dan ortiq telefon liniyalari xizmat ko'rsatmoqda. Mamlakat ichidagi asosiy yo'nalishlarda optik tolali aloqa liniyalari, kabelli va radioreleli kommunikatsiyalar xizmat ko'rsatmoqda. SHu sababli shaharlardagi abonentlarning 98 foizi va qishloq joylardagi abonentlarning 32 foizi xalqaro hamda shaharlararo avtomat aloqa tizimlariga ulangan. Barcha viloyat markazlarida shaharlararo va xalqaro elektron aloqa vositalari mavjud. Aholi va hududlarning 98 foizdan ziyodi davlat televideniesi va radiosi dasturlarini qabul qilish imkoniyatiga ega. Shaharlararo tarmoqlar kanallarining 60 foizdan ziyodi va xalqaro tarmoqlar kanallarining 83 foizi raqamlidir. Ma'lumot uzatish, shu qatorda Internet tarmoqlari ham rivojlanib bormoqda.

Uyali aloqa va shaxsiy radiochaqiruv tarmoqlari jadallik bilan rivojlanmoqda. Uyali aloqa abonentlari 140 mingdan ziyod. Ikki er usti stantsiyasida sun'iy yo'ldosh orqali aloqa kanallari ishga tushirilgan, Intelsat va Gorizont tizimlari ishlatilmoqda, kompьyuter va axborot texnologiyalarini tatbiq qilish dasturlarini amalga oshirish jarayoni tobora jadallashib bormoqda.

O'zbekiston telekommunikatsiya tizimining 28 ta yo'nalish bo'yicha dunyoning 180 ta mamlakatiga chiqadigan to'g'ridan-to'g'ri xalqaro kanallari mavjud. Bularda optik tolali va sun'iy yo'ldoshli tizimlardan foydalanilmoqda. Ushbu kanallarning 83 foizdan ziyodi raqamlidir, butun tarmoq nafaqat hozirgi paytda, balki keyinchalik ham hozirgidan ko'proq axborot o'tkazish quvvatiga ega. Respublikaning barcha viloyat markazlarida elektron kommutatsiya vositalari mavjud. Respublikada ulkan muammo echildi – raqamli magistral tarmoq yuaga keltirildi, shu jumladan, optik tolali kabellar, raqamli radioreleli aloqa tarmoqlari qo'llanildi. Aytib o'tilgan zamonaviy uzatish tarmog'i 70 foiz hajmda ishlab turibdi, respublikada esa ayni paytda yangi, aylanma va zaxira aloqa tarmoqlari yaratilmoqda. Ichki hududiy va stantsiyalararo tarmoqlarda tobora ko'proq optik tolali kabellardan foydalanilmoqda. Abonentlarning tarmoqqa ulanishi engillashib bormoqda, shu jumladan, intellektual xizmatlar va simsiz aloqa texnika vositalarini joriy etish hisobiga qulayliklar yaratilmoqda.

Ma'lumot uzatish xizmatini ko'rsatuvchi operatorlardan 44 nafari Internet xizmatlarini tahdim etadi. Ushbu tarmoqda 7500 ta abonentlik portlari ishga tushirilgan. Internet tarmog'i xalqaro kanallarining ma'lumot o'tkazish quvvati oshirib borilmoqda, 2011 yil boshlariga nisbatan 2015 yil 1 iyuldagi holatga ko'ra u 3,5 baravar oshirildi va 9 Mb sekundiga etkazildi. Internet tarmog'iga korxonalar, tashkilotlar, o'quv yurtlari, oliy o'quv yurtlari, maktablar, kollejlar va litseylar ulanib bormoqda. Ular tarmoqqa ulanishni elektron pochtadan foydalanish, axborot xizmatlarining ma'lumotlar banklari

tizimlariga kirish, virtual xizmatlardan foydalanish, turli axborotlar almashinish ko'rinishida amalga oshirmoqdalar.

Bir so'z bilan aytganda, bugungi kunda O'zbekiston Respublikasining axborot-kommunikatsiya tarmoqlari va vositalari – bu mamlakat iqtisodiyotida alohida muhim ahamiyatga molik, takomillashib borayotgan kompleksdir. Lekin, yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, bu hali respublikaning rivojlanib borayotgan iqtisodiyoti ehtiyojlariga, Boshqaruv sohasining, xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning, xususiy shaxslarning o'sib borayotgan talablariga to'la javob bermaydi. Buning sababi bitta – sohaning jo'shqin rivojlanishi ham, chet ellik investorlarning yordamlari ham respublikaga ma'muriy-buyruqbozlik tizimidan meros bo'lib qolgan chorak asrlik orqada qolishning o'rnini tezlik bilan to'ldira olmaydi. hal qilinishi kerak bo'lgan muammolar ko'p. Vaqt taqozosi bilan mamlakatda olib borilayotgan islohotlar, telekommunikatsiya sohasining, kompьyuter va axborot texnologiyalarining jadallikda yangilanayotganligi bilan bog'liq bo'lgan vazifalar yuaga kelmoqda. Ushbu vazifalar ularni ko'rib chiqish va echimini topish uchun yangicha yondashuvlarni talab qilmoqda

- Bulardan tashqari, O'zbekistonda kompьyuter va axborot texnologiyalarining texnik imkoniyatlari, garchi zamonaviy texnika va texnologiyalarni o'zlashtirish asosida jo'shqin rivojlanish bosqichida bo'lsa ham, ularni yangilash va zamonaviylashtirish ehtiyoji mavjud, sohaning tashkiliy tuzilmasini va Boshqaruv tizimini to'xtovsiz takomillashtirib borish talab qilinadi. Tarmoqda statsionar telefonlar soni kamligi, telefon raqamlarining 100 kishi hisobiga olganda past zichliligi sababli respublika hali dunyo ko'rsatkichlaridan, Ayniqsa, bozor iqtisodiyoti, sanoati rivojlangan mamlakatlardan orqada qolmoqda. Uyali aloqa va Internet tarmog'idan foydalanuvchilar soni bo'yicha ham taxminan xuddi shunday ahvol.

Davlat muassasalari va idoralari darajasida amalga oshirilayotgan tadbirlar O'zbekistonda ushbu ko'rsatkichlar yaqin bir necha yil ichida real o'sajagini tasavvur qilish imkoniyatini beradi. Bu esa, o'z navbatida telekommunikatsiya, kompьyuter va axborot texnologiyalari mamlakat iqtisodiyoti samaradorligini oshirishda, odamlar faoliyati va turmushini eng zamonaviy texnik vositalar va xizmatlar bilan ta'minlashda yanada ko'proq o'rin tutishini bildiradi.

Yuqorida aytilganlar asosida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etishning quyidagi kutiladigan natijalarini umumlashtirish mumkin:

a) davlat boshqaruviga tatbiq etilganda: davlat va jamiyat o'rtasidagi o'zaro ma'lumotlar almashinuviga ochiqlik va oydinlik kiritadi; ochiq fuqarolik jamiyati qurishga ko'maklashadi; davlat Boshqaruvi samaradorligini oshiradi; jamiyat va iqtisodiyotda bo'layotgan o'zgarishlarni kuzatish uchun mutlaho yangi imkoniyatlar yaratadi; davlat hokimiyati va xo'jalik yurituvchi sub'ektlar o'rtasidagi Boshqaruv jarayonini yaxshilaydi; davlat Boshqaruvida xarajatlarni keskin kamaytiradi;

b) iqtisodiy jarayonlarga tatbiq etilganda: mahsulot va xizmatlar tannarxini kamaytirishga ko’maklashadi; mahsulot va xizmatlar raqobatbardoshligini oshiradi; ishlab-chiqarish samaradorligini va xizmatlar hajmini ko’paytiradi; elektron savdolarni yo’lga qo’yish va rivojlantirishga imkoniyat yaratadi; ma’lumotlar olish va ularni jo’-natishga ketadigan moliyaviy xarajatlarni kamaytiradi; ma’lumotlarni qisqa muddatlarda va sifatli olinishi natijasida xo’jalik faoliyatining samaradorligi ko’tariladi;

v) ijtimoiy hayotda: aholini fuharolik jamiyati sifatida shakllanishiga yordam beradi; bilim olish uchun yangi imkoniyatlar yaratadi; tibbiyot xizmati sifatini ko’taradi; madaniy-ma’naviy merosni saqlash imkoniyatini yuksaltiradi; aholi bandligini oshirish va qo’shimcha daromadlar olishi uchun qulayliklar yaratiladi; insonlarga tabiiy ofatlar va o’zgarishlarni oldindan aniqlash hamda ularning oldini olishga yordam beradi.

Shunday qilib, axborot-kommunikatsiya sohasining O’zbekiston Respublikasi iqtisodiyoti rivojining hozirgi bosqichidagi roli va ahamiyatini umumiqtisodiy nuqtai nazardan tahlil qilib shunday xulosaga kelindiki, bu sohaning bugungi kundagi bosh vazifasi respublikada axborotlashgan jamiyat shakllanishi uchun zarur shart-sharoit yaratishdan iboratdir. Sohaning yaqin istiqboldagi rivoji mamlakatda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar hamda axborot-telekommunikatsiyalarning jahon xo’jalik tuzilma-siga uyg’unlashuvi umumiy qonuniyatlarining amal qilish tendentsiyalari bilan asoslanadi. YA’ni yaqin istiqbolda axborot-telekommunikatsiya sohasini rivojlantirishning umumiy yo’nalishlari iqtisodiyotni yanada erkinlashtirish hamda iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishda va axborot-kommunikatsiya sohasining jahon xo’jalik tuzilmalariga uyg’unlashuvida yuaga kelayotgan qonuniyatlarni inobatga olgan holda istihbolli tuzilmaviy o’zgarishlarni ta’minlash uchun hulay shart-sharoitni shakllantirish jarayonlariga asoslanadi. Bunda zamonaviy texnologiyalarga o’tish, axborot-kommunikatsiya xizmatlarining raqobatga qodirligi yuqori darajada bo’lishini ta’minlash asosiy vazifa hisoblanadi. Axborot-kommunikatsiya sohasini boshqarish tuzilmasini takomillashtirish respublikamizning hayotiy muhim muammosi, uning iqtisodiy xavfsizligi masalasi bo’lib oldinga chiqadi. Mazkur holda gap jamiyatni axborotlashtirish va telekommunikatsiya vositalari bilan ta’minlashning shunday darajasiga erishish haqida bormoqdaki, toki u respublikamiz iqtisodiyotining samarali rivojlanishini va uning jahon xo’jalik tizimiga uyg’unlashuvini ta’minlasin.

### Takrorlash uchun savollar

1. Bozor tuzilmasi va uning yangi texnologiyalar rivojlanishiga ta’siri qanday?
2. Endogen o’sish nazariyasi va kapital jamlanishi tushunchasiga ta’rif bering?
3. Bilimlar diffuziyasi tushunchasiga ta’rif bering?
4. Innovatsiyaning hayotiylik davri nechiga bo’linadi.

## 3-Mavzu. Tanlov va sanoatning rivojlanishi

Reja:

3.1. Yuqori texnologiyali majmualarning mazmuni va mohiyati.
3.2. Innovatsion va sanoat rivojlanishi
3.3. Innovatsiyalarni amalga oshirishda tanlovning ahamiyati
3.4. Innovatsion faoliyatning bugungi infratuzilmasi
3.5. Yuqori texnologiyalarni joriy etishni rag'batlantirish
3.6. Yangi mahsulotni o'zlashtirishda kapital xarajatlar va risk darajasini pasaytirish
3.7. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida innovatsion faoliyat

**Tayanch iboralar:** innovatsion loyihalar, innovatsion faoliyat, fan-texnika taraqqiyoti, innovatsion jarayonlar, stoxastik parametr, innovatsion tadbirkorlik, firmalar, muhandislik markazlari,minjeniring, axborot xizmati, konsalting, reklama, banklar va boshqa kredit tashkilotlari, ilmiy-texnik shirkatlar, sertifikatsiya markazlari

### **3.1. Yuqori texnologiyali majmualarning mazmuni va mohiyati**.

XXI asr dastlabki kunlaridanoq dunyo rivojlanishining barcha jabhalarida – iqtisodiyot, siyosat, ijtimoiy jarayonlar, demografiya, geosiyosiy va geoiqtisodiy jarayonlar yangi sifat o'zgarishlaridan darak bermoqda. Yaqin o'tmishda etarlicha barqaror va muvozanatli bo'lgan bu jarayonlar duch kelayotgan o'zgarishlar girdobi ortidan zamonaviy fan vaqti kelganda ulgurmay ham qolmoqda.

Shu narsa tobora yaqqol ko'zga tashlanib bormoqdaki, geostrategik holat, fan va texnika yutuqlari, kadrlar va ilmiy salohiyat, tabiiy resurslar kabi mavjud ob'ektiv omillardan samarali foydalangan mamlakatlar rivojlanish borasida ancha ilgarib ketgan. Bu mamlakatlar ichki iqtisodiy, siyosiy va xalqaro munosabatlar yangicha tizimini shakllantirib, odamlar hayot tarzini yanada yuqori darajaga etkazib oldi. Ushbu ijtimoiy tizimga

AQSH va G'arbiy evropaning bir qator mamlakatlari, sharqda esa

Yaponiya misol bo'la oladi.

Fan - texnika va texnologiyalarning zamonaviy yutuqlaridan foydalana olmagan mamlakatlar vujudga kelgan sharoitlarga moslasha olmay, rivojlanish yo'lida ancha ortda qolib ketmoqda. Bunday tendensiya yangi emas, albatta. U XX asrda ham tadqiqotchilar tomonidan kuzatilgan.

Uchinchi ming yillik bo'sag'asida bu tendensiya yanada kuchayib, uning ta'siri ostida iqtisodiyoti rivojlanmagan mamlakatlar faol xalqaro iqtisodiy va siyosiy munosabatlar doriasidan chetga chiqib qolmoqda. Bu mamlakatlar global xarakterga ega, o'ta murakkablashgan munosabatlar tizimida teng huquqli hamkor bo'la olmaydilar. Ular jahon ijtimoiy jarayonlarining ishtirkochilariga aylana olmaydilar, ularga eng yaxshi holatda kuzatuvchilar roli ajratiladi.

Zamonaviy fan va texnologiya tobora raqobatli bozor kurashiga jalb qilib borilmoqda. Fundamental bilimlar va ularning yakuniy mahsuli - ilmiy-texnik mahsulot – iqtisodiyotning globallashuvi sharoitlarida davlatlarning geosiyosiy manfaatlarini amalga oshirishning muhim omiliga aylanmoqda.

Aholining turmush farovonligi o’sishi, mamlakatning iqtisodiy o’sish sur’ati, ta’lim, fan va madaniyatning rivojlanishi, mudofaa qobiliyati bevosita yuqori texnologiyali kompleksni tarkibiy-texnologik qayta tuzishga bog’liq. Bu sohada yuqori malakali ilmiy, tadqiqotchi va muhandis kadrlar salohiyati saqlanib qolgan.

O’zbekiston iqtisodiyoti o’sishining taklif etilgan yo’lini amalga oshirish bir vaqtning o’zida harbiy-texnologiya kompleksini zamonaviy yuqori texnologiyalar bilan, mamlakat qurolli kuchlarini esa yangi avlod harbiy texnikasi va zamonaviy qurol-yarog’ namunalari bilan ta’minlash bo’yicha strategik vazifani hal etishga imkon beradi.

## 3.2. Innovatsion va sanoat rivojlanishi

XXI asrda innovatsion loyihalar va yangi g’oyalarning hayotga keng tatbiq etilishi jamiyat va insoniyat taraqqiyoti uchun samarali hisoblanadi. Texnologiya taraqqiyoti asrida ilmiy loyihalarni ishlab chiqarish va hayotga joriy etish, mamlakat iqtisodiyotining yuksalishida va yangilanishida muhim omil sanaladi. Innovatsion faoliyat infratuzilmasining rivojlanish darajasi innovatsion siyosatni amalga oshirishga ta’sir etuvchi asosiy omillardan biridir.

Davlatning fan-texnika taraqqiyotini tartibga solish sohasidagi tartibga solish tizimi quyidagi elementlarni o’z ichiga olishi zarur:

– davlat siyosatining aniq belgilangan maqsadlarini;

– belgilangan maqsadlarni amalga oshiradigan boshqaruv organlari va ularning funktsiyalarini;

– boshqaruv funktsiyalarini to’liq amalga oshirishda tartibga solish ob’ekti va axborot beradigan axborot tizimini;

– davlat boshqaruv organlarining qo’llab-quvvatlash va tartibga solish instrumentlari - davlatning fan-texnika taraqqiyotini tartibga solishning asosiy instrumentlariga nafaqat uning elementlari taalluqli bo’ladi, balki davlatning ilmiy imtiyozlar tizimiga muvofiq, ilmiy tadqiqotlar va ishlanmalar sohasi o’rtasida byudjet va byudjetdan tashqari resurslarni taqsimlash orqali ilmiy texnika yangiliklarini davlat tomonidan to’g’ridan-to’g’ri qo’llab-quvvatlashni;

– innovatsion jarayonlarning sub’ektlariga turli xil imtiyozlarni taqdim etishni (ham innovatsiyalarni amalga oshirayotgan bevosita tadbirkorlarga, ham ularni yoki bu darajada qo’llab-quvvatlayotgan infratuzilma elementlariga);

– iqtisodiyotda innovatsion muhitni shakllantirish va ilmiy texnik axborotlar milliy xizmatini, patentlash va litsenziyalash, standartlashtirish, sertifikatlash, statistika, xorijiy tajribani o'rganuvchi tahliliy markazlar, ilmiy-texnik rivojlanish, prognozlashtiruvchi kadrlarni tayyorlash kabilarni o'z ichiga oluvchi tadqiqotlar va ishlanmalar ta'minoti infratuzilmasi hamda ular asosida qaror qabul qiluvchi shaxslarni ustuvor ilmiy, milliy tizimlar bilan ta'minlashdan iborat.

### 3.3. Innovatsiyalarni amalga oshirishda tanlovning ahamiyati

Ekspertlarning hisoblashicha, "korxonalarni yangi mahalliy va xorijiy texnologiyalarni joriy qilishga rag'batlantiruvchi, asosiysi buning uchun imkoniyat taqdim etuvchi tashkiliy va institutsional muhit yaratish birlamchi ahamiyat kasb etadi". Bizning bozorda faqat hukumatgina innovatsiyalar ruhini uyg'otishi mumkin degan yolg'on tasavvur vujudga kelishi mumkin. Faqat uning strategik muammosi kuchli iroda, real stimul va resurslar bilan ta'minlangan holda tadbirkorlikning rivojlanishida yangi bosqichni boshlab berishi mumkin.

Demak, davlatning iqtisodiy siyosatida top-down va bottom-up yondashuvlari imkoniyatlarini birlashtiruvchi kompleksli innovatsion siyosat zarur bo'ladi. Mahalliy kompaniyalar, akademiya va OO'YU esa birinchi bo'lishning uddasidan chiqa olmasada, hech bo'lmasa hammadan ortda qolmaslik uchun diqqat-e'tiborni susaytirmasliklari lozim.

"Sanoat evolyutsiyasi asosan innovatsiyalar va bozor strutkturasi dinamikasi orqali tanlov mexanizmiga bog'liqdir. Bu erda yangi texnologiyalar va firmalarning kirish va chiqishi muhim ahamiyat kasb etadi".

Umumiy jihatdan innovatsion jarayon bu voqea-hodisalarning ketma-ketlikdagi zanjiri bo'lib, uning davomida yangilik oddiy bir g'oyadan muayyan mahsulot, texnologiya yoki xizmatgacha "pishib etadi" va xo'jalik amaliyotida tarqaladi.

Bu jarayonni quyidagi sxema ko'rinishida aks ettirish mumkin:

Ft ↔ At ↔ I ↔ L ↔ Q ↔ O' ↔ Si ↔ M ↔ S;

bu erda:

Ft - fundamental tadqiqotlar;

At - amaliy tadqiqotlar;

I - ishlanmalar;

L - loyihalashtirish;

Q - qurilish;

O' - o'zlashtirish;

Si - sanoat ishlab chiqarishi;

M - marketing;

S - sotuv.

## 3.4. Innovatsion faoliyatning bugungi infratuzilmasi

Innovatsion tadbirkorlik infratuzilmasi birinchi navbatda, alohida bo’lib o’tadigan va innovatsion deb nomlangan turga moslashib oladigan tadbirkorlikni ta’minlovchi tizimni ifodalaydi. U innovatsion sohaning tadqiqotchilik-loyihalash sektorini iqtisodiyotning real sektori va yakuni iste’molchi bilan birlashtiradi.

Bevosita innovatsiyalash, ya’ni innovatsiyalarni taklif sifatida yaratish uchun va innovatsion tadbirkorlik, ya’ni bu takliflarni amalga oshirish va ilgari surish uchun infratuzilma elementlarining mazmun-mohiyatiga kengroq e’tibor qaratish zarur (2-jadval).

Mazkur infratuzilma turlarining ayrim elementlari mos kelishi yoki umumiy bo’lishi mumkin, bu - axborot xizmatlari ko’rsatuvchi firmalar, tajriba va muhandislik markazlari, moliyaviy strukturalar, patentli-litsenziyali tashkilotlardir.

**2-jadval**

**Infratuzilma elementlarining qiyosiy jadvali**

| Innovatsion tadbirkorlik uchun | Bevosita innovatsiyalash uchun |
|---|---|
| Joriy qiluvchi firmalar<br>Muhandislik markazlari<br>Injeniring firmalari<br>Axborot xizmati ko’rsatuvchi firmalar<br>Konsalting firmalari<br>Reklama faoliyati bo’yicha firmalar<br>Banklar va boshqa kredit tashkilotlari<br>Innovatika ixtisoslashgan auditorlik firmalari<br>Ilmiy-texnik shirkatlar<br>Kadrlar tayyorlash va qayta tayyorlash markazlari<br>Sertifikatsiya markazlari<br>Lizing kompaniyalari<br>Patent-litsenziyali tashkilotlar<br>Biznes-inkubatorlar<br>Texnologiyalar transferi markazlari<br>Sug’urta kompaniyalari | Sanoat universitetlari va xalq xo’jaligining boshqa sektorlari<br>Tadqiqotchilik majmualari<br>Fanlar akademiyasi<br>Kutubxonalar va ma’lumotlar to’plamlari<br>Sinov tariqasidagi ishlab chiqarishlar<br>Tajriba laboratoriyalari va markazlari<br>Axborot xizmati ko’rsatuvchi firmalar<br>Patent-litsenziyali tashkilotlar<br>Ilmiy parklar<br>Innovatsion markazlar<br>Innovatsion-ishlab chiqarish komplekslari |

## 3.4. Mamlakatning yuqori texnologiyali tarmoqlari salohiyati.

Hozirgi sharoitlarda iqtisodiyotning eng muhim tavsifnomasi fan, ilg’or texnologiyalar, texnologik bazalarning qanday holatda ekanligi bo’lib, bu o’z

navbatida mamlakatda ishlab chiqarilgan mahsulotlar raqobatbardoshlik darajasini belgilab beradi.

Rivojlangan davlatlarning texnologik yutuqlaridan foydalanish, bu sohada avvalo, MDH mamlakatlari bilan hamkorlik o’rnatish, xalqaro mehnat taqsimoti va kooperatsiyadan imkon qadar keng foydalanishga intilish zarur. Bunday jarayonlar butun dunyoda ro’y bermoqda. YUqorida qayd etib o’tildiki, texnologik jihatdan ilg’or mamlakatlar yagona texnologik makon tuzgan bo’lib, mamlakatimiz unga teng huquqli hamkor bo’lib kirishi, ayrim yo’nalishlarda esa etakchilik uchun kurashishi lozim, buning uchun esa milliy texnologik darajada etarlicha yuqori bo’lishi zarur.

Bu borada Prezidentimiz uzoq muddatga, ya’ni 2022-2026 yillarga mo’ljallangan dastur ishlab chiqish to’g’risidagi masalaga alohida e’tibor qaratdilar. Bu dasturda iqtisodiyotimizning asosiy tarmoqlarini modernizatsiya qilish va texnik yangilash, mamlakatimizning yangi marralarni egallashi uchun kuchli turtki beradigan va jahon bozorida raqobatdoshligini ta’minlaydigan zamonaviy innovatsiya texnologiyalarini joriy qilish bo’yicha maqsadli loyihalar o’z ifodasini topadi.

Mazkur keng ko’lamli dasturni amalga oshirish uchun mamlakatimizda so’nggi yillarda jiddiy tayyorgarlik ko’rib kelinmoqda. Jahon iqtisodiy inqirozi bu jarayonni yanada jadallashtirishga turtki berib, uni har tomonlama tezlashtirishni taqozo etmoqda.

Iqtisodiyotini modernizatsiyalash sharoitida Prezidentimiz SHavkat Mirzieyov rahnomaligida mamlakatimizda milliy innovatsion tizimni izchil rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilayotganlgi, ishlab chiqarishda innovatsiyalarni joriy etish bilan bog’liq masalalarni hal qilish borasida ulkan ishlar amalga oshirilmoqda.

Navoiy kon-metallurgiya kombinati bunga yaqqol misol bo’la oladi. Bu erda muntazam ravishda ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga yo’naltirilgan yangi ilg’or texnologiyalar va texnik echimlarni izlash hamda mamlakatimiz tog’-kon sanoatida qo’llash ishlari olib borilmoqda. Ushbu vazifalar yirik investitsiya loyihalari asosida unumli, resurslarni tejaydigan texnologiyalarni qo’llash orqali hal qilinmoqda.

Ishlab chiqarishda innovatsion texnologiyalarni qo’llash sarfharajatlar hamda vaqtni tejash, foydali qazilmalarni qazib olish hajmini ko’paytirish imkonini beradi. Joriy yilda ilg’or texnologiyalarni amaliyotga joriy etish uchun 5,8 milliard so’m mablag’ ajratildi. Bu o’tgan yildagidan 30 foiz ko’pdir. Kombinat qoshida O’zbekiston Fanlar akademiyasi bilan to’g’rmidan-to’g’ri hamkorlik qiladigan innovatsion texnologiyalar markazi ochildi. Hozirgi kunda innovatsion echimlarni yanada rivojlantirish bo’yicha 2022-2026 yilga mo’ljallangan uzoq muddatli loyihalar tuzilmoqda.

Bugungi kunda iqtisodiyotimizni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilash, uning raqobatdoshligini keskin oshirish, eksport salohiyatini yuksaltirishga qaratilgan muhim ustuvor loyihalarni amalga oshirish bo’yicha Dastur ishlab chiqilmoqda. Shu borada, dastlabki hisobkitoblarga ko’ra, umumiy qiymati 24 milliard AQSH dollaridan ziyod bo’lgan qariyb 300 ta investitsiya loyihasi ustida ish olib borilmoqda.

Jumladan, bunda yangi qurilish loyihalari – 18,5 milliard dollarni, modernizatsiya va rekonstruksiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash bo'yicha loyihalar esa taxminan 6 milliard dollarni tashkil qiladi (7.1-rasm).




**7.1-rasm. Uzoq muddatga mo'ljallangan dastur loyihalari tarkibi, mlrd. doll.**

Dasturga kiritilishi mo'ljallanayotgan bu loyihalar avvalambor yoqilg'i-energetika, kimyo, neft-gazni qayta ishlash, metallurgiya tarmoqlariga, engil va to'qimachilik sanoati, qurilish materiallari sanoati, mashinasozlik va boshqa sohalarga tegishlidir.

Loyihalashtirish va qurilish ishlari boshlanayotgan inshootlarni quyidagi mablag'lar hisobidan moliyalashtirish ko'zda tutilmoqda: kompaniya va korxonalarning o'z mablag'lari – umumiy hisobda 8,2 milliard dollar, O'zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot fondi kreditlari – 2,5 milliard dollar, xorijiy investitsiya va kreditlar – 13,5 milliard dollar (7.2-rasm).




**7.2-rasm. Uzoq muddatga mo'ljallangan dastur loyihalarining moliyalashtirish manbalari, mlrd. doll.**

Prezidentimiz ushbu loyihalarning bir qismi bo'yicha 2017-2019 yillarda qurilish ishlari boshlab yuborilganligini ta'kidlab o'tdilar. Mazkur loyihalarning amalga oshirilishi innovatsion va energiyani tejaydigan texnologiyalarni joriy etish va jahon bozorida talab mavjud bo'lgan yangi turdagi tovarlar ishlab chiqarishni o'zlashtirish hisobidan yiliga 10,4 milliard dollarlik qo'shimcha mahsulot ishlab chiqarish, yillik eksportni 6,5 milliard dollarga ko'paytirish, yalpi ichki mahsulot hajmini sezilarli darajada oshirish imkonini beradi.

Mahsulot raqobatdoshligini ta'minlash uchun ishlab chiqarishni texnik va texnologik yangilash bo'yicha katta va kichik loyihalarni izlash, buning uchun zarur mablag' va manbalarni topish – bu har bir korxona rahbari va muhandis-texnik xodimlarining birinchi navbatdagi eng muhim vazifasi va majburiyati bo'lmog'i kerak.

Yuqorida aytilganlardan shunday xulosalar kelib chiqadi:

1.Hozirgi paytda amaldagi iqtisodiy taraqqiyot va muvaffaqiyatlar faqat yangi (fundamental va amaliy) bilimlar, yangi texnologiyalar va ularni ishlab chiqarishda jadal o'zlashtirish usullari asoslanishi mumkin; bunda bilim va texnologiyalarning aksariyati ikkiyoqlama (harbiy va fuqarolik) yo'nalishga ega bo'ladi.

2.Yangi bilim olish va yangi texnologiyalar ishlab chiqish haqida g'amxo'rlik davlat va barcha mulkchilik shaklidagi korxonalarning umumiy ishi bo'lishi lozim; bunda davlat ITTKIni umumiy muvofiqlashtirish, fundamental tadqiqotlar va riskli, lekin katta foyda keltirishi mumkin bo'lgan loyihalarni moliyalashtirishni o'z zimmasiga oladi.

3.YUqori texnologiyali mahsulotlar bilan xalqaro bozorga chiqish tashqi iqtisodiy faoliyatning boshqa barcha turlariga nisbatan ancha samarali bo'ladi; demak, mamlakatimizni rivojlangan davlatlar hamjamiyatiga teng huquqli a'zo bo'lib kirishiga imkon beruvchi xalqaro hamkorlikning har xil turlari ishga tushirilishi lozim.

4.Aksariyat yuqori texnologiyalarning muhimligi va tijorat nuqtai nazaridan jozibadorligi yuqori texnologiyali faoliyat sohaslariga xorijiy davlatlar maxsus xizmatlari va jinoyatchi guruhlari e'tiborini jalb qiladi. SHuning uchun mamlakatning yuqori texnologiyali tarmoqlarini ayrim xodimlar, korxona va tashkilotlar hamda davlatimizga tajovuzlaridan saqlash muhim ahamiyat kasb etadi. Real bozor talabiga ega mashina va asbob-uskunalarning yangi avlodlarini ishlab chiqish va ishlab chiqarishga joriy qilish, yangi ilg'or texnologiyalarni o'zlashtirish, bazis innovatsiyalarga qo'yilmalarning investitsion jozibadorligi mamlakat sanoat kompleksining normal faoliyat ko'rsatayotganligidan darak beradi. Afsuski, bugungi kunda mamlakatimizda korxonalarning innovatsion faolligi juda past darajada. O'rganib chiqilgan korxonalarning atigi 5 foizi 90-yilar o'rtalaridan ilmiy tadqiqotlar o'tkazia olgan bo'lib, uchdan ikki qismi loyiha-konstruktorlik ishlari va texnologik faoliyat olib bormoqda, biroq bu asosan ilgari boshqa korxonalarda yoki xorijda o'zlashtirilgan loyiha va texnologiyalarni joriy etish bo'lib, original fan-texnika yutuqlari va pioner innovatsiyalardan foydalanish hisoblanmaydi.

Davlat va xususuiy tashkilotlar o'rtasida texnologiyalar ayirboshlash mexanizmini takomillashtirish harbiy-sanoat bazasi konsepsiyasidan fuqarolar

ehtiyojlari uchun ham, mudofaa ehtiyojlari uchun ham foydalaniluvchi integratsiyalangan sanoat bazasiga asta-sekinlik bilan o'tish bo'yicha kompleksli tadbirlarning bir qismi hisoblanadi. Uning mohiyati mamlakatda mavjud ilmiy-ishlab chiqarish salohiyatidan maksimal darajada foydalanish, harbiy yo'naltirilgan korxonalarni boshqa turdagi mahsulotlar ishlab chiqarishga yo'naltirish hamda o'ziga xos va o'xshashi yo'q tarmoqlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlashdan iborat. Ikkiyoqlama yo'nalishdagi texnologiyalar transferini davlat tomonidan tartibga solish va qo'llab-quvvatlash ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Bunda transferning ikkala yo'nalishi: fuqaro sektorida harbiy yo'nalishdagi ilmiy-texnik faoliyat natijalarini tijoratlashtirish va mudofaa sanoati salohiyatini kerakli darajada saqlab turish uchun fuqaro sektoridan texnologiyalarni olish qamrab olinishi zarur.

Shu tariqa, ikkiyoqlama yo'nalishdagi texnologiyalar transferini tashkil qilish masalasini hal etishdagi asosiy muammolar quyidagilardan iborat:

1)davlat mudofaa buyurtmalarini bajarishda ilgari yaratilgan va endi yaratilayotgan intellektual sanoat mulki huquqlarini tartibga solish va cheklash, mos keluvchi me'yoriy-huquqiy asoslarni ishlab chiqish va ishlarni shartnoma bo'yicha moliyalashtirish amaliyotiga shartnoma taqsimoti mexanizmlarini joriy qilish;

2)ikkiyoqlama yo'nalishdagi texnologiyalar transferining moliyaviy, axborot va maslahat ta'minoti infratuzilmasini yaratish;

3)davlat nazorat mexanizmlarini ularning ikkiyoqlama yo'nalishdagi texnologiyalarni noqonuniy berish (sotish) oldini olish, selektiv va tezkor aniqlash imkoniyatlarini kuchaytirish yo'nalishida takomillashtirish, bunda davlat va tijorat sirlarini maxfiy saqlash, ommaviy qirg'in quroli yaratishda foydalanish mumkin bo'lgan harbiy va ikkiyoqlama yo'nalishdagi texnikalarni tarqatmaslik talablaridan kelib chiqiladi;

4)mudofaa vazirligi va harbiy kompleks korxonalari oliy va o'rta bo'g'in rahbariyatini ularning bozor sharoitlarida texnologiyalar transferini amalga oshirish imkoniyatlarini rivojlantirish maqsadida professional tayyorlash va qayta tayyorlash, yangi toifadagi mutaxassislar – yuqori texnologiyali mahsulot va xizmatlar bozori tahlili bo'yicha menejerlarni shakllantirish, ikkiyoqlama yo'nalishdagi texnologiyalarni iqtisodiy va tijorat nuqtai nazaridan baholashning uslubiy apparatini ishlab chiqish.

Mamlakat bozorining xorijiy tovarlar uchun ochiqligi sharoitlarida mamlakat iqtisodiyotining muvaffaqiyatlarini raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish holati belgilab beradi. Mamlakatimz boy bo'lgan neft va boshqa tabiiy resurslarga hali uzoq vaqt davomida talab katta bo'ladi.

Xalqaro mehnat taqsimotida mamlakat xomashyo sub'ekti o'rnini egallab, tabiiy resurslarni ekspluatatsiya qilish mahsulini jahon bozoridagi iste'mol va investitsion tovarlarga aylmashtirish mumkin edi. Biroq bunday holat bir qator sabablarga ko'ra mamlakatni qoniqtirmaydi. Avvalo, shuni e'tiborga olish kerakki, mamlakat mehnatga layoqatli aholisining katta qismi qayta ishlash sanoatida mehnat qiladi. Xomashyo va qayta ishlash sanoati markazlari geografiyasi esa shunday joylashganki, bu aholi bandligini ko'ngildagi darajada ta'minlashga

imkon bermaydi. SHu sababdan asosan iqtisodiyotning xomashyo sektorini rivojlantirishga aynalishi mamlakatni nafaqat siyosiy-iqtisodiy jihatdan, balki ijtimoiy va psixologik jihatdan ham qoniqtirmaydi.

Rivojlangan mamlakatlar amaliyotning ko'rsatishicha, mudofaa yo'nalishidagi ilmiy loyiha va texnologiyalarning 50-60%i potensial samaradorligi yuqori bo'lib, ular fuqaro sektori uchun mahsulotlar va ikkiyoqlama yo'nalishda qo'llanuvchi mahsulotlar ishlab chiqarish da foydalanilishi mumkin. Ikkiyoqlama yo'nalishda qo'llanuvchi mahsulotlar ishlab chiqarishni o'zlashtirib olish yuqori texnologiyali kompleksning barqaror bo'lmagan byudjet ajratmalariga moslashuvchanligini oshirishga, ulardan fuqaro sektorida foydalanish esa jahon bozorida raqobatbardoshlikni oshirishga imkon beradi. Aynan shu sababli HTK va uning mahsulotlarini jahon savdo tizimlari orqali sotish mamlakatning ilm talab qiluvchi fuqaro sanoatining jahon bozoriga chiqishiga ko'maklashadi.

***Yuqori texnologiyalarni joriy etishni rag'batlantirish.***

Fan-texnika taraqqiyotining asosiy tarkibiy qismlaridan biri innovatsion faoliyat, iqtisodiy rivojlanishning mazkur yo'nalishida faollikni ta'minlovchi omillarni, shuningdek, innovatsion jarayonlarni qo'llab-quvvatlovchi va tartibga soluvchi tashkiliy tuzilmalar xususiyatlari o'rganish va ulardan foydalanish hisoblanadi.

Innovatsion faoliyatni davlat tomonidan tartibga solish va rag'batlantirish haqida yuqorida shakllantrilgan jahon tajribalaridan kelib chiqqan holda mamlakatimizdagi vaziyatda innovatsion o'sish strategiyasini amalga oshirish ustuvor hisoblansada, bir qator sabablarga ko'ra bugungi kunda uni amalga oshirib bo'lmaydi.

Shunday qilib, ta'kidlash mumkinki, hozirgi paytda mamlakatda investitsion faoliyat amalga oshirilayotgan sharoitlar quyidagicha tavsiflanadi:

- qonunchilik tomonidan yaqin, o'rta va uzoq istiqbollarga belgilangan milliy maqsadlar va ularga erishish bo'yicha aniq ifodalangan mexanizmlarning yo'qligi;
- makroiqtisodiy barqarorlik vazifalariga bo'ysundirilgan davlat strukturalari faoliyati natijalari doim ham texnologik rivojlanish va innovatsion faoliyatni qo'llab-quvvatlash maqsadlariga mos kelavermasligi, ayrim hollarda esa unga zid kelishi;
- mamlakatning milliy xavfsizligi, iqtisodiy barqarorligi va rivojlanishi manfaatlarini ta'minlash vositasi sifatida innovatsion faoliyatni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashni amalga oshirish ehtiyojlarining siyosiy darajada aniq ifodalanmaganligi.

Mamlakatning milliy maqsadlarini amalga oshirishga ko'maklashuvchi innovatsion siyosat o'tkazishni quyidagicha ifodalash mumkin:

- milliy xavfsizlikni ta'minlash;

- iqtisodiy barqarorlikka erishish, iqtisodiyotning imkoniyatlarini kengaytirish va umumiy quvvatini oshirish;
- sanoatni texnologik qayta jihozlash, jahon bozorida mamlakatimiz tovar va xizmatlari raqobatbardoshligini oshirish;
- tabiiy resurslarni asrash va ulardan oqilona foydalanish, atrof-muhit muammolarini hal qilish;
- aholining ijtimoiy muammolarini hal qilish, munosib turmush tarzini ta'minlash, sog'liqni saqlash va ta'lim olish uchun imkoniyatlar yaratish;
- oziq-ovqat, xomashyo, material va energiyaga bo'lgan milliy ehtiyojlarni kafolatli ta'minlash.

Boshqa mamlakatlar tajribalaridan kelib chiqqan holda innovatsion jarayonning tarkibiy qismlarini quyidagicha aks ettirish mumkin:

- *akademik va tarmoq institutlari, universitetlar va firmalarning ilmiy-tadqiqot bo'linmalari* - ular davlat tomonidan moliyalashtiriluvchi yoki boshqa turda qo'llab-quvvatlanuvchi fundamental ilmiy tadqiqotlar va izlanish loyihalari uchun mas'ul bo'ladi. Sanab o'tilgan tashkilotlar hisobotlar, turli hujjatlar, ixtirolar, ilmiy maqolalar shaklida intellektual mahsulot ishlab chiqaradi hamda ilmiy kadrlar tayyorlash bilan shug'ullanadi;
- *texnik va sanoat-texnik tashkilotlar* – ular innovatsion nou-xauga ega bo'lib, boshlang'ich loyihalar ustida ishlaydilar, sinov namunalari yaratish va ularni sinab ko'rish bilan shug'ullanadilar, texnik tavsiflar, patentlar, standartlar va reglament tayyorlaydilar. Mazkur tuzilmalar namunalar tayyorlash uchun kuchli ishlab chiqarish quvvatlari, professional va texnologik markazlarga ega;
- ilmiy va muhandis-texnik xodimlar, shuningdek, innovatsion faoliyatning joriy muammolarini echishda talab qilinuvchi

malakali kadrlar uchun *ta'lim va o'qitish tuzilmalari*;

- *tadqiqot va loyihalarning bajarilishini nazorat qiluvchi hamda ularning sanoat sektori bilan o'zaro aloqalarini muvofiqlashtiruvchi tashkilotlar*;
- mahsulot va xizmatlarga talabni va ularning tarqalishini o'rganish bilan shug'ullanuvchi *konsalting tashkilotlari*;
- *ilmiy-texnik axborot xizmatlari* – ular istiqbolli loyihalar haqida ma'lumot to'plash, tayyorlash va tarqatish bilan shug'ullanadi;
- iste'molchilar va mahsulotni sotish masalalari bilan shug'ullanuvchi professionallarni birlashtiruvchi *bozor strukturlari*.

Yuqorida sanab o'tilgan struktura birliklari o'rtasidagi aloqalar sxemasi murakkab bo'lib, bevosita aloqalarni ham, vositachilar va taqsimot tarmoqlari hamkorlikni ham qamrab oladi.

Xorijiy mamlakatlarda texnologiyalarni yaratish va ularning transferi sohasidagi davlat siyosati sanoat va ilmiy-texnik siyosatning ustuvorliklaridan biri bo'lib, ularni mamlakatimiz iqtisodiyotini innovatsion qayta qurishni ta'minlashda qo'llash maqsadga muvofiq.

Bunda asosiy maqsadlar quyidagilardan iborat bo'ladi:

- innovatsion faoliyat jarayonida, milliy, harbiy, sanoat va jamoatchilik manfaatlariga javob beruvchi texnologiyalar yaratishda xavfsizlikni ta'minlash;
- ilmiy-texnik faoliyat natijalari va yangi ilg'or texnologiyalarni faol joriy qilish, ilmiy tadqiqotlar va istiqbolli loyihalar natijalariga taalluqli ilmiy-texnik axborotlarni keng tarqatish, mamlakatning ilmiy-texnik, texnologik va ular asosida iqtisodiy va mudofaa salohiyatini oshirish;
- ichki va tashqi bozorlarda ilm talab qiluvchi mahsulotlar raqobatbardoshligini oshirish.

Ilmiy-texnologik inqilob, xaqaro raqobatning kuchayishi prinsipial jihatdan yangi texnologiyalarga asoslanuvchi yangi tarmoqlarning paydo bo'lishiga olib kelgan bir paytda zamonaviy talablarga javob bermayigan, an'anaviy ishlab chiqarish korxonalarining ko'p qismi asta-sekinlik bilan chetga surib chiqariladi. YAngi yuqori texnologiyali yo'nalishlar bo'yicha etakchilikni qo'lga kiritgan, iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarning o'ziga xos hamjamiyati paydo bo'lib, unga kirmagan mamlakatlar qoidaga ko'ra qoloq, resurs talab qiluvchi va ekologik jihatdan xavfli ishlab chiqarishga egalar.

Ilg'or kapitalistik davlatlar iqtisodiy faoliyati nazariya va amaliyoti shuni ko'rsatadiki, rivojlanishning jadallashuviga xo'jalik tizimining moslashuvchanligigina emas, balki boshqaruvni jamiyat ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan innovatsion-texnologik tashabuslarni izlab topish va amalga oshirishga yo'naltirish ham yordam ko'rsatadi.

Innovatsion va ilmiy-texnik hamkorlikni rivojlantirishda tomonlardan har biriga hamkorlikning maqbul variantini topishga imkon beruvchi axborot almashinish katta rol o'naydi. Bugungi kunda mamlakatimiz va rivojlangan mamlakatlar o'rtasida axborot almashinish strategiyasidagi farqlar yaqqol ko'zga tashlanib turibdi.

Ilmiy-texnik axborotlar almashinishning ochiqlik, qonuniylik va nazorat qilinuvchanlikni ifodalovchi hamda ikki tomonlama teng huquqli va o'zaro manfaatli xarakterga ega almashinishni ta'minlovchi yangi shakllarini topish zarur.

Muvaffaqiyatga erishish uchun mamlakat korxonalari hamkorlar e'tiborini jalb qilish o'zaro raqobatlashishi lozim. Buning uchun nima sababdan xorijiy firmalar

strategik ittifoq va hamkorlikka qadam qo'yishini aniq tasavvur etish lozim. Tahlillarning ko'rsatishicha, buning bir nechta aniq ifodalangan sabablari mavjud.

**1.Texnologiyalarni tijoratlashtirish.** YAngi texnologiyalarga yo'l topish zamonaviy raqobat muhitida muhim omillardan biri hisoblanadi. Biroq ilmiy-texnik loyihalar qiymatining yuqoriligi sababli jahondagi firmalarning aksariyati faqat tor doiradagi texnologiyalardan foydalanish imkoniyatiga ega bo'lib, ular raqobatbardosh mahsulot yaratish uchun bu jabhada o'z ustunligini saqlab qolishga harakat qiladi.

**2.Yangi mahsulotni imkon qadar tezroq bozorga olib chiqishga intilish.** YAngi mahsulotlar bozorida raqobat juda yuqori bo'lib, «imkoniyatlar darchasi» faqat qisqa muddat davomida ochiq bo'lishi mumkin. Firmalar o'z mahsulotini «kerakli paytda va kerakli joyda» taklif qilish uchun qizg'in kurash olib boradilar.

**3.6. Yangi mahsulotni o'zlashtirishda kapital xarajatlar va risk darajasini pasaytirish.**

Yangi mahsulot ishlab chiqishni tashkil qilishning hozirgi darajasida bu mahsulotni bozorga olib chiqishda, ayniqsa, yuqori texnologiyali murakkab asbob-uskunalarni ishlab chiqishda xarajatlar juda yuqori bo'lishi mumkin. Strategik hamkorlik va qo'shma korxonalar bu xarajatlarni kamaytirish yo'li bo'lib, baynalmilal korporatsiyalar tomonidan hozirgi paytda keng qo'llanmoqda. Ular qo'shma korxonalar yaratish yo'li bilan yangi mahsulotni o'zlashtirish xarajatlarini qisqartirishga intiladilar va hamkorlarni tanlashda mahsulot ishlab chiqarishning ayrim bosqichlari minimal xarajatlar talab qilishiga harakat qiladilar. Masalan, tadqiqotlar bir mamlakatda, mahsulotni ishlab chiqish va sinab ko'rish boshqa mamlakatda, ommaviy ishlab chiqarish esa uchinchi mamlakatda amalga oshiriladi. Bu nuqtai nazardan mamlakatimiz ko'plab xorijiy firmalar tomonidan arzon ishchi kuchi taqdim etuvchi mamlakat sifatida ko'rib chiqiladi.

**4.Qo'shma korxonalar tashkil qilish yopiq xorijiy bozorlarga kirish usuli sifatida.** Ko'plab mamlakatlarda xorijiy kapitalni jalb qilish qonunchilik tomonidan cheklab qo'yilgan bo'lib, qo'shma korxonalar tashkil qilish bu mamlakatlar bozoriga kirib borishning yagona yo'li hisoblanadi. Rossiya, AQSH va boshqa bir qator mamlakatlar qonunchiligi 100%li xorijiy kapital ishtirokida korxonalar tashkil qilishni taqiqlamaydi.

Biroq Hindiston va bir qator arab mamlakatlarida qo'shma korxonalar ustidan nazorat mahalliy tadbirkorlar qo'lida qolishi qonunan talab qilinadi. Bunday qonunchilik talablari bo'lmagan taqdirda ham ko'p hollarda bu mamlakatda marketing va sotuv tarmog'iga ega kompaniya bilan qo'shma korxona tuzgan holda bozorga kirib borish ancha oson v atezroq kechadi.

**5.Risk kapitali bozoridagi sharoitlarning jiddiylashuvi.** Texnologik yo'naltirilgan kichik firmalar, ayniqsa, AQSHda o'z g'oyalarini ishga tushirish

uchun yirik firmalar bilan qo’shma korxonalar tashkil qilishga tobora ko’proq murojaat qilmoqda. Bunda kichik firma yirik firmaning kapitallari va boshqa imkoniyatlariga yo’l topadi, yirik firma esa yangi mahsulot yaratish xarajatlarini pasaytiradi va uni o’zlashtirish bilan bog’liq riskni kamaytiradi. Biroq bir qator sabablarga ko’ra risk kapitalining xorijiy manbalari mamlakatimiz korxonalari uchun amalda yopiq bo’lib, qo’shma korxonalar texnologik loyihalarni moliyalashtirish variantlaridan biri bo’lishi mumkin.

Yuqorida aytilganlardan shunday xulosa chiqarish mumkinki, mamlakatimiz uchun jahon yuqori texnologiyalar bozorida yangi ilmiytexnik g’oyalar ta’minotchisi sifatida ham, yuqori texnologiyali mahsulot ishlab chiqarish samarali texnologiyalari iste’molchisi sifatida ham ishtirok etish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu bozor eshiklarini biz uchun hech kim yopib qo’ya olmaydi. Jahon hamjamiyati mamlakatimiz sanoat kompleksi xalqaro ilmiy-texnik hamkorlikka qo’shilishidan manfaatdor. Bu hamkorlik teng huquqli asosda bo’ladimi-o’qmi, bu endi mamlakat korxonalarining o’ziga va ularning davlat tomonidan qay darajada qo’llabquvvatlanishiga bog’liq bo’ladi.

## 3.7. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida innovatsion faoliyat

AQSH birja vahimasi (1907-1908 yillar) nomini olgan inqiroz natijasida Dou Jons (Dow Jones) guruhiga mansub aksiyalar dastlabki qiymatining 48 foizini yỳqotdi, kỳplab yirik korxonalar bankrotlikka uchradi. Ushbu inqirozning echimi ỳlaroq, AQSHda hozirgi kunda kỳpchilik mamlakatlarda Markaziy bank va tijorat banklari tizimi deb ataladigan yangi moliyaviy tizim vujudga keldi.

1929-1932 yillar mobaynida sodir bỳlgan Buyuk depressiya rivojlangan mamlakatlardagi tijorat banklarining qariyb 70 foizining yopilishiga sabab bỳldi, 110 mingga yaqin firma bankrot bỳldi, ỳsha davrda AQSHning ỳzidayoq 17 mln ishsiz bor edi. Ushbu inqiroz tufayli esa dunyoda ilk bor katta moliyaviy sarmoyalarga ega bỳlgan yirik investitsion banklar paydo bỳldi.

1973-1975 yillardagi Neft shoki davri mobaynida, neft narxlarining keskin kỳtarilishi natijasida energoresurslarning tanqisligi yu berdi, natijada jahonda ommaviy ishsizliklar boshlanib, yirik zavodlar faoliyati tỳxtab qoldi. Ushbu davr barcha mamlakatlar uchun saboq bỳlib, energoresurslarni tejash yỳlga qỳyildi, ya’ni energiyani tejovchi iqtisodiyot lar davri boshlandi. Xususan yapon avtomobilsozlik kompaniyalari kam yoqilg’i sarflaydigan avtomobillar yaratish mumkinligini ilk bora isbotlab berishdi.YUqoridagi misollardan kỳrinib turibdiki, har bir inqirozning echimi sifatida jahon iqtisodiyoti rivojlanishining yangi yunalishlari vujudga kelgan, ularning aksariyat qismiga innovatsiyalar turtki bergan. Bundan xulosa qilish mumkinki, nazariy jihatdan iqtisodiyotni inqirozdan chiqarishning asosiy yỳllaridan biri bu – iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish hamda amalda ushbu strategiyani joriy qilishdir.

Iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirish strategiyasining maqsadlari har bir mamlakatdagi ijtimoiy-iqtisodiy omillardan kelib chiqib, turli ko’rinishga ega bo’lishi mumkin. SHunday bo’lsada, umumiy innovatsion rivojlanish strategiyasining asosiy maqsadlari quyidagilarni o’z ichiga olishi lozim:

- mamlakatning asosiy ishlab chiqarish fondlari innovatsion yangilanishini taminlash maqsadida investitsiyalarning asosiy qismini ularga yo’naltirish
- fan-texnika yutuqlarini hayotga tadbiq etish, intellektual mulkdan foydalanish tizimini tubdan takomillashtirish
- iqtisodiy-innovatsion munosabatlarning asosiy subektlari (davlat, ilmiy institutlar, korxonalar) orasida hamkorlik aloqalarini kuchaytirish

Dunyoning eng yirik konsalting tashkilotlaridan biri Boston Konsalting Grupp (BCG) hamda Sanoatchilar milliy assosiatsiyasi tomonidan ishlab chiqilgan global innovatsiyalar indeksi (GII) bugungi kunda eng keng qamrovli indeks hisoblanib, mamlakatning innovatsion faoliyatiga har tomonlama va hisob kitoblarga asoslangan holda baho berish imkoniyatini beradi. GIIning boshqa indekslarga nisbatan afzallik tomoni shundaki, unda innovatsion faoliyatdan kelgan biznes daromadlari bilan birgalikda hukumatning innovatsion siyosat orqali tadqiqotlarni qo’llab-quvvatlash uchun amalga oshirayotgan chora-tadbirlari ham hisobga olinadi.

Ushbu indeksni ishlab chiqishda 110 ta mamlakatning iqtisodiyoti chuqur o’rganib chiqilgan. Oxirgi GII 2020 yilning mart oyida chop etilgan bo’lib, birinchi o’ntalikdan Janubiy Koreya, AQSH, YAponiya, SHvetsiya, Gollandiya, Kanada, Buyuk Britaniya, Germaniya, Fransiya, va Avstraliya davlatlari urin olishdi.

**3.1-jadval**

**Global innovatsiyalar indeksi (2020 yil mart)**

| № | Mamlakatlar | Umumiy GII | Innovatsiyalarga “xarajatlar” | Innovatsiyalar “natijasi” |
|---|---|---|---|---|
| 1. | Janubiy Koreya | 2.26 | 1.75 | 2.55 |
| 2. | AQSH | 1.80 | 1.28 | 2.16 |
| 3. | YAponiya | 1.79 | 1.16 | 2.25 |
| 4. | SHvetsiya | 1.64 | 1.25 | 1.88 |
| 5. | Gollandiya | 1.55 | 1.40 | 1.55 |
| 6. | Kanada | 1.42 | 1.39 | 1.32 |
| 7. | Buyuk Britaniya | 1.42 | 1.33 | 1.37 |
| 8. | Germaniya | 1.12 | 1.05 | 1.09 |
| 9. | Fransiya | 1.12 | 1.17 | 0.96 |
| 10. | Avstraliya | 1.02 | 0.89 | 1.05 |
| 11. | Ispaniya | 0.93 | 0.83 | 0.95 |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| 12. | Belgiya | 0.86 | 0.85 | 0.79 |
| 13. | Xitoy Xalq Respublikasi | 0.73 | 0.07 | 1.32 |
| 14. | Italiya | 0.21 | 0.16 | 0.24 |
| 15. | Hindiston | 0.06 | 0.14 | -0.02 |
| 16. | Rossiya Federatsiyasi | -0.09 | -0.02 | -0.16 |
| 17. | Meksika | -0.16 | 0.11 | -0.42 |
| 18. | Turkiya | -0.21 | 0.15 | -0.55 |
| 19. | Indoneziya | -0.57 | -0.63 | -0.46 |
| 20. | Braziliya | -0.59 | -0.62 | -0.51 |

Mamlakatlarni mazkur indeks asosida tasniflashda quyidagi 2 asosiy omil etiborga olindi:

1. Innovatsiyalarga “xarajatlar”- yani, hukumatning soliq-byudjet siyosati , talim sohasidagi islohotlar, innovatsion muhitni shakllantirish va takomillashtirish xarajatlari va hokazolar.
2. Innovatsiyalar “natijasi”- yani berilgan patentlar soni, texnalogiyalar transferi va biznes faoliyat natijalari, mehnat unumdorligining hamda daromadning oshishi, innovatsiyalarning biznes migratsiyatsi yasiga hamda iqtisodiy o’sishga tasiri va xk.

AQSHda innovatsion siyosatni amalga oshirishda davlat sektori etakchi rol o’ynaydi. Amerika ilmiy jamg’armasi tomonidan faoliyati dastlabki 5 yil mobaynida qisman yoki to’liq federal byudjet tomonidan moliyalashtiriladigan tadqiqot markazlari va venchur fondlari tanlab olinib, Xukumatga taklif kiritiladi. Xukumat ularni 5yil mobaynida moliyaviy qo’llab-quvvatlaydi. 2017 yilda AQSH

Kongressiga “Informatsion texnalogiyalar dasturlari uchun asossiz byudjet xarajatlarining oldini olish to’g’risida”gi qonun loyihasi kiritildi. Prezident Barak Obama tomonidan 2017 yilning sentyabr oyida “AQSH innovatsion strategiyasi: barqaror o’sish va sifatli ish o’rinlari tomon”(norasmiy tilda Obamaning Innovatsiya dasturi” deb nomlashadi)deb qabul qilindi. AQSH hukumati innovatsion strategiyani amalga oshirish orqali ham an’anaviy, ham yuqori texnologiyaga asoslangan iqtisodiyot sektorlarida yangi ish o’rinlarini yaratish, mamlakat raqobatbardoshligini yanada oshirish, yuqoriroq yashash standartlariga erishish kabi maqsadlarga erishishni mo’ljallamoqda.

**Evropa Ittifoqi innovatsion rivojlanish strategiyasi**. 2017 yilda evropa Ittifoqi Komissiyasining tashabbusi bilan “raqobatbardoshlikni oshirish va innovatsion chora-tadbirlar dasturi” qabul qilindi. Kichik va o’rta biznesga urg’u bergan holda, dastur asosida ularning innovatsion faoliyati moliyaviy resurslar bilan ta’minlanadi hamda tadbirkorlar uchun konsalting xizmatlari ko’rsatiladi. Dastur doirasida 2017-2019 yillar uchun jami 3,62 mlrd evro miqdorida mablag’ ajratish ko’zda tutilgan.

- Korxonalarni modernizatsiya qilish, texnik va texnalogik qayta jihozlashni jadallashtirish
- Eksportga mahsulot chiqaradigan korxonalarning tashqi bozorlarda raqobatbardosh bo'lishini qo'llab-quvvatlash.
- Elektroenergetika tizimini modernizatsiya qilish, energiya iste'molini kamaytirish va energiya tejashning samarali tizimini joriy etish

Xar qanday iqtisodiy va ilmiy-innovatsion rivojlanish o'z-o'zidan bo'la olmaydi. Uning rivojlanishi uchun zarur bo'lgan qonunchilik asosi va tashkiliy-huquqiy shart-sharoitlar yaratilishi lozim. Mamlakatimizda "Innovatsion faoliyat to'g'risida" gi Qonunning va innovatsion faoliyatga oid boshqa normativ hujjatlarning qabul qilinishi iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirishga kuchli asos yaratadi. Davlat tomonidan innovatsion faoliyatni moliyalashtirish nazarda tutilgan taqdirda ustuvor sohalar tanlab olinishi kerak. Bunday sohalar neft-kimyo sanoati, engil sanoat va boshqa sohalar bo'lishi mumkin. Jumladan oziq-ovqat sanoati innovatsion siyosatni olib borish uchun ustuvor sohalardan biri sifatida tan olinishiga O'zbekistonda barcha qulay shart-sharoitlar, etarli xom ashyo, mehnat va moliya resurslar mavjud.

## Takrorlash uchun savollar

1. Innovatsiyalarni amalga oshirishda tanlovning ahamiyati nimada.
2. Innovatsion faoliyatning bugungi infratuzilmasini tushuntiring.
3. Iqtisodiyotning tarmoq korxonalari faoliyatini rivojlantirish, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning raqobatbardoshligini ta'minlash bo'yicha qanday davlat dasturlari ilab chiqilgan.
4. Qaysi tadbirlar ikkiyoqlama yo'nalishdagi texnologiyalarni tijoratlashtirish mexanizmlariga mansub bo'lishi mumkin?
5. Ikkiyoqlama yo'nalishdagi texnologiyalar transferini tashkil etishda echimini talab qiluvchi asosiy muammolar qaysilar?
6. Nima sababdan xorijiy firmalar strategik ittifoq va hamkorlikka murojaat etadilar?
7. Qanday sabablarga ko'ra bugungi kunda mamlakatimizda innovatsion o'sish strategiyasini amalga oshirib bo'lmaydi?
8. Interaktiv (o'zaro bog'liq) innovatsion o'sish modellari chiziqli yondashuvdan nimasi bilan farq qiladi?
9. Global innovatsiyalarga ta'rif bering ?
10. O'zbekistonda iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirish istiqbollari?
11. Evropa Ittifoqi innovatsion rivojlanish strategiyasi haqida nimalarni bilasiz?

# 4-Mavzu. Texnologiyalar konsortsiumi va innovatsiyalar

Reja:

4.1. Texnologiyalar transferi to’g’risida umumiy tushunchalar
4.2. Texnologiyalar konsortsiumining innovatsiyalarga ta’siri
4.3. Jaryonlar bo’yicha innovatsiyalar.

## 4.1. Texnologiyalar transferi to’g’risida umumiy tushunchalar

***Texnologiyalar transferi markazlari (TTM)*** ilmiy-texnik natijalarning tijoratlashuvini tezlatishi, kichik innovatsion korxonalar, jumladan, texnoparklar va innovatsion-texnologik markazlar tarkibida yaratishni ta’minlashi ko’zda tutilgan (3-jadval).

3-jadval

**Texnologiyalar transferi markazining asosiy vazifalari**

| **Texnologiyaning rivojlanish bosqichlari** | **Texnologiyalar transferi bosqichlari** |
|---|---|
| Ilmiy-tadqiqotchilik ishlari bosqichlarini bajarish<br>Texnologiyani amalga oshirish imkoniyatini tekshirish | Tadqiqot natijalarini e’lon qilish<br>Patent arizalari berish<br>Anjuman va ko’rgazmalarda qatnashish<br>Ilmiy-tadqiqotchilik ishlari natijalariga egalik huquqini sotish |
| Tajriba-konstruktorlik ishlari bosqichlarini bajarish<br>Mahsulotning sinov namunasi Texnologiya prototipi<br>Texnik jihatdan amalga oshirish imkoniyatini tasdiqlash | Texnologiyani amalga oshirish uchun kichik korxona tashkil etish<br>Texnologiyani sotish |
| Texnologiyani maromiga etkazish<br>Bozor namunalari yaratish<br>Sinov tariqasidagi sotuvlar<br>Servisni tashkil qilish<br>Ruxsatnoma olish<br>Sertifikatsiya | Mahsulotni ko’paytirish (kichik seriyada) va sotish<br>Foydalanuvchilarni o’rgatish Dillerlarni o’rgatish<br>Servis<br>Texnologiyani sotish<br>Korxona aktsiyalarini sotish<br>Biznesni sotish |
| Sanoat texnologiyasi yaratish<br>Ommaviy ishlab chiqarishni tashkil etish<br>Mahsulotni sertifikatsiyalash va ishlab chiqarish<br>Diversifikatsiya | Mahsulot va xizmatlarni sotish Servis<br>Texnologiyani sotish<br>Korxona aktsiyalarini sotish<br>Biznesni sotish |
| Ishlab chiqarishni kengaytirish<br>Mahsulotlarni ko’paytirish<br>Ishlab chiqarishni | Mahsulot va xizmatlar sotish<br>Servis<br>Foydalanuvchilarni o’rgatish |

| | |
|---|---|
| sertifikatsiyalash<br>Ishlab chiqarish va mahsulotni yangilash<br>Diversifikatsiya | Dillerlarni o'rgatish<br>Texnologiyani sotish<br>Korxona aktsiyalarini sotish<br>Biznesni sotish |

SHuni ta'kidlash joizki, **TTM tizimining samarali ishlashiga qator omillar to'sqinlik qiladi.** Ularning orasidan quyidagilarni alohida ajratib ko'rsatish maqsadga muvofiq:

– mintaqalar miqyosida innovatsion jarayonlarni boshqarishning sust tashkil etilganligi;

– ko'pchilik TTMda ham ichki, ham xorijiy bozorlarga chiqish bilan bog'liq muammolar;

– TTM tashkil qilish va faoliyat ko'rsatishi uchun resurslar bazasining etarli emasligi;

– innovatsion faoliyat kuchayishini rag'batlantiradigan me'yoriy-huquqiy asoslarning yo'qligi.

"Qanchalar qiziq tuyulmasin, Internet tarmog'ida ommalashib borayotgan Cloud tizimi iqtisodiyotda ham o'z ta'siriga egadir. Bunga misol sifatida texnologiyalar konsortsiumini tuzilishini keltirish mumkin. Unga ko'ra, firmalar gorizontal yo'nalishda koalitsiyalar] tuzishadi. Bu koalitsiyalarning maqsadi birgalikda innovatsiyalarni joriy etish, joriy etish bo'yicha tajriba almashinish va birgalikda innovatsion loyihalarni moliyalashtirishdir. Ushbu ishlar texnologik innovatsiyalarni yaratishda tannarx pasayiga olib kelishini hisobga oladigan bo'lsak, ularning ishi eng samarali hamkorlikda ishlardan biridir".

### 4.2. Texnologiyalar konsortsiumining innovatsiyalarga ta'siri

**Texnologik innovatsiyalar** deganda yuridik shaxsning texnologik yangi mahsulotlar va jarayonlarni, shuningdek mahsulotlar va jarayonlarda sezilarli darajada takomillashtirishlarni, texnologik yangi va sezilarli darajada takomillashtirilgan xizmatlarni, xizmatlar ishlab chiqarilishi (etkazib berilishi) bo'yicha yangi yoki sezilarli darajada takomillashtirilgan usullarni ishlab chiqish va joriy etish bilan bog'liq faoliyati nazarda tutiladi. Texnologik innovatsiyalar yuridik shaxs tomonidan birinchi marotaba ishlab chiqilayotgan mahsulotlar, jarayonlar, xizmatlar va usullar shaklida (agar ular boshqa yuridik shaxslar tomonidan qo'llanilayotgan bo'lsa ham) bo'lishi mumkin.

**Texnologik innovatsiyalarning ikkita turi mavjud. Bular: mahsulotlar bo'yicha innovatsiyalar va jarayonlar bo'yicha innovatsiyalar.**

Sanoat ishlab chiqarishida mahsulot bo'yicha innovatsiyalar texnologik yangi va takomillashtirilgan mahsulotlarni tayyorlash va joriy etishni o'z ichiga oladi. **Texnologik yangi mahsulot** – texnologik xususiyatlari (funktsional belgilari, konstruktiv yo'l bilan bajarilishi, qo'shimcha operatsiyalari, shuningdek qo'llaniladigan tarkibiy qismlar va materiallar tarkibi) yoki qo'llanilish maqsadi printsipial jihatdan yangi yoki yuridik shaxs tomonidan ilgari ishlab chiqarilgan shunga o'xshash mahsulotdan sezilarli darajada farq qiluvchi mahsulotdir. Bunday innovatsiyalar printsipial jihatdan yangi texnologiyalarga yoki mavjud texnologiyalardan, tadqiqot va ishlanmalar natijalaridan foydalanishga asoslangan bo'lishi mumkin.

**"Texnologik konsortsiumlarning 4 turi mavjud bo'lib, ular:**

1. Ishlab chiqarish samaradorligini koalitsiyalar orqali takomillashtirish.
2. O'zgarmas kapitalga investitsiyalar kiritishdagi xarajatlarni bo'lishish.
3. Texnologiyalarni ortiqchalik samarsini oshirish uchun o'zaro bo'lishish.

4. Narx diskriminatsiyasi orqali innovatsiyalar xarajatini o’zaro taqsimlash”.

**Texnologik jihatdan takomillashtirilgan mahsulot** – bu yuqoriroq samarali tarkibiy qismlar va materiallardan foydalanish, bir yoki undan ortiq texnik tarkibiy qismlarini qisman o’zgartirish (kompleks mahsulotlarda) yo’li bilan ishlab chiqarilishining sifat bo’yicha xususiyatlari yaxshilanadigan va iqtisodiy samaradorligi oshadigan mahsulotdir.

## 4.3 Jaryonlar bo’yicha innovatsiyalar

Jarayonlar bo’yicha innovatsiyalar texnologik yangi yoki texnologik jihatdan sezilarli darajada takomillashtirilgan ishlab chiqarish, shuningdek mahsulotlarini etkazib berish usullarini ishlab chiqish yoki joriy etishni o’z ichiga oladi. Bu turdagi innovatsiyalar yangi ishlab chiqarish asbob-uskunalaridan, ishlab chiqarish jarayonini tashkil etishning yangi usullaridan foydalanishga yoki ularni birgalikda qo’llashga, shuningdek tadqiqot va ishlanmalar natijalaridan foydalanishga asoslangan bo’lishi mumkin. Bunday innovatsiyalar, odatda, tashkilotda ilgari mavjud bo’lgan mahsulotlarini ishlab chiqarish yoki etkazib berishning samaradorligini oshirishga qaratilgan bo’lishi, shuningdek odatdagi usullar yordamida amalga oshirish imkoni bo’lmaydigan texnologik jihatdan yangi yoki takomillashtirilgan mahsulotlarni ishlab chiqarish yoki etkazib berish uchun mo’ljallangan bo’lishi mumkin.

Jarayonlar bo’yicha innovatsiyalarni tashkilot birinchi bo’lib joriy qilgan bo’lishi muhim emas.

**Texnologik innovatsiyalarga quyidagilar kirmaydi:**

- mahsulotdagi estetik (rangida, bezatilishida) o’zgartirishlar;
- mahsulotning konstruktiv vazifalarini o’zgartirmaydigan, uning yoki tarkibiy qismi hisoblangan materiallar va komponentlarning ko’rsatkichlariga, xususiyatlariga, narxiga etarlicha sezilarli ta’sir ko’rsatmaydigan texnik va tashqi ko’rinishda sezilarsiz darajadagi o’zgartirishlar;
- vaqtinchalik talabni va tashkilotning daromadlarini ta’minlash maqsadida tashkilot tomonidan ilgari ishlab chiqarilmagan, ammo mahsulotlar, ishlar, xizmatlar bozorida etarlicha ma’lum bo’lgan mahsulotlar, ishlar, xizmatlar ishlab chiqarishini yo’lga qo’yish (boshqa ixtisoslik bo’yicha bo’lishi ham mumkin) evaziga ularning turlarini ko’paytirish. Masalan, mashinasozlik zavodida mavsumiy talabdan foydalangan holda yozgi davrda boshqa ixtisoslik bo’yicha mahsulot, ya’ni mix ishlab chiqarilishi;
- ma’lum modeldagi qo’shimcha dastgohlarni o’rnatish, hatto ularni shu modelning oxirgi modifikatsiyaga almashtirish evaziga ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish;
- to’laligicha boshqa tashkilot tomonidan ishlab chiqarilgan va tayyorlangan innovatsion tovarlar, ishlar, xizmatlarni sotish;
- tashkiliy va boshqarish bo’yicha o’zgartirishlar.

### Takrorlash uchun savollar

1.Texnologiyalar transferi to’g’risida tushuncha bering.
2.Texnologiyalar transferi markazining asosiy vazifalari nimadan iborat?
3. Texnologik konsortsiumlarning qanday turlari bor?
4. Texnologiyalar konsortsiumining innovatsiyalarga ta’siri qanday?
5. Texnologik innovatsiyalar va ularning turlarini sanab bering.
6. Jaryonlar bo’yicha innovatsiyalar.

7. Texnologik jihatdan takomillashtirilgan mahsulot deb nimaga aytiladi?

## 5-Mavzu. Innovatsiyalarning iqtisodiy ahamiyati (2 soat)

**Reja:**

5.1. Korxonaning innovatsion salohiyati
5.2. Innovatsiyalarning mamlakat iqtisodiyotidagi o'rni.
5.3. Milliy sanoat tarmoqlarini rivojlanish bosqichlari
5.4. Respublikada sanoat- tarmoqlarining iqtisodiy o'sishdagi ustuvor vazifalari.
5.5. O'zbekistonda sanoat-innovatsion strategiyasini rivojlantirish yo'llari

**Kalit so'zlar:** Milliy innovatsion tizim. Innovatsion saloxiyat. Korxonaning innovatsion saloxiyati. Innovatsiyaga asoslangan iqtisod. O'zbekistonda milliy innovatsion tizimning rivojlanish istiqbollari.

### 5.1 Korxonaning innovatsion salohiyati

Mamlakatimizda iqtisodiyot rivojlanishining so'nggi bosqichlarida innovatsion jarayonni jadallashtirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Bu borada Prezident SH.Mirzieyovning 2018 yildagi "Ishlab chiqarishga innovatsion loyihalar va texnologiyalarni joriy etishni rag'batlantirishning qo'shimcha choralari" № 916-sonli qarori muhim ahamiyat kasb etadi. Korxonalarning innovatsion jarayonining natijaviyligi jami omillar, ya'ni amalga oshirish sharoiti, resurslar ta'minoti, menejment tizimining to'g'ri yo'lga qo'yilganligi bilan aniqlanadi. Innovatsion salohiyat tushunchasi iqtisodiyot fanida XX asrning so'nggi yillarida paydo bo'ldi. Innovatsion salohiyat mamlakatning texnika va texnologiyasi yangilanishi, unda ilmiy-texnika rivojlanishi darajasini, diversifikatsiya siyosatining kuchayishini anglatadi. Ba'zi iqtisodchi olimlarimiz innovatsion salohiyatni iqtisodiy salohiyatdan yuqori qo'yishadi. Bunda ular ilmiy-texnika darajasiga ko'proq e'tibor qaratishadi. Bizning fikrimizcha, bunday qarashlar unchalik to'g'ri emas. Chunki har qanday holatda iqtisodiy salohiyat innovatsion salohiyatga qaraganda ancha keng tushuncha bo'lib, u mamlakatdagi ishlab chiqarish salohiyati, resurslar salohiyati, moddiy-mineral salohiyati, qazilma boyliklar salohiyati va boshqalarni qamrab oladi. Hozirgi davrda O'zbekistonda iqtisodiyot salohiyati 3,0 trl. AQSH dollaridan ortiqdir. Innovatsion salohiyatni kuchaytirish katta hajmda investitsiyani jalb etishni talab qiladi. Hozirda iqtisodiy rivojlangan davlatlar yangi texnika va texnologiyani yaratishga, yangi mahsulotlarni ishlab chiqarishga YAIMning 5-7 %ini sarflaydi. O'zbekistonda esa bu raqam biroz past. SHu bilan birga respublikamizda intellektual salohiyat boshqa mamlakatlarga qaraganda ancha yuqori.

SHu o'rinda aytib o'tish lozimki, korxonaning innovatsion salohiyati korxonaning barcha jihatlari, ya'ni yangilikni yaratish va undan amaliyotda foydalanish qobiliyatini ifodalaydi.

Korxonaning innovatsion salohiyati elementlariga quyidagilarni kiritish mumkin:

- moddiy-texnik resurslar;
- moddiy va nomoddiy aktivlar;
- moliyaviy resurslar;
- tashkiliy resurslar;
- kadrlarga oid resurslar;
- ijtimoiy-ruhiy omillar.

- SHundan kelib chiqib, korxona innovatsion jarayonlarni tashkil etish uchun ixtiyorida quyidagilarga ega bo'lishi lozim:
- g'oya va ishlanmalarni moliyalashtirish uchun etarli pul mablag'lar;
- yangi mahsulotni yaratish va ommaviy ravishda ishlab chiqarish uchun tegishli moddiy-texnika bazasi;
- yangiliklarni amalga oshirish va uni joriy etish uchun qobiliyatli xodimlar;
- har qanday innovatsion jarayon asosida yotuvchi original (rasman) g'oyalarni ishlab chiqish imkoniyati.

## 5.2 Innovatsiyalarning mamlakat iqtisodiyotidagi o'rni

Innovatsion salohiyatni oshirish kichik korxonalarni rivojlantirish bilan bog'liq. Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, kichik korxonalar katta korxonalarga qaraganda, 4 barobar ko'p innovatsiyalar yaratadi yoki ilmiy tadqiqotga kiritilgan har bir dollarga kichik innovatsion korxonalar 2,5 barobar ko'p mahsulot yaratadilar. Korxonalarda innovatsion salohiyatni baholashda quyidagi ko'rsatkichlardan foydalanish muhim ahamiyatga ega:

- ilmiy-texnik salohiyat (ilmiy darajaga ega xodimlar soni; bir xodimga to'g'ri keladigan ratsionalizatorlik takliflar soni; patentlar soni va boshqalar);
- kommertsializatsiya ko'rsatkichlari (ishlab chiqarilayotgan mahsulot hajmida yangi mahsulot ulushi; litsenziya shartnomalari soni va boshqalar);
- bajarilayotgan ishlarning davomiyligi (innovatsion davrning kattaligi);
- innovatsiyaning boshqarilayotgan tizimi tavsifi (korxonada innovatsion faoliyatni rag'batlantirish shakllari; yuqori darajadagi rahbarlarning innovatsion loyihalarni amalga oshirishda qatnashishi; innovatsion faoliyatga qatnashuvchilarga erkinlik darajasini ta'minlanishi).

Innovatsion faoliyat maqsadlarni amalga oshirish miqyosi va xususiyatlardan kelib chiqib, innovatsion strategiyani ishlab chiqish mumkin. Innovatsion strategiya korxonaning uzoq muddatga rivojlanishida innovatsion salohiyatdan samarali foydalanishini ta'minlaydigan tadbirlar majmuasidir. Innovatsion o'zgarishlar raqobat afzalliklari asosida o'rganilib, quyidagi strategiyalar ishlab chiqiladi:

| Country | ICI rank | ICI score |
|---|---|---|
| Sweden | 1 | 82.2 |
| USA | 2 | 77.8 |
| Singapore | 6 | 76.5 |
| Taiwan | 13 | 72.9 |
| Japan | 15 | 72.1 |
| Hong Kong | 16 | 71.3 |
| South Korea | 19 | 70 |
| Malaysia | 34 | 57.3 |
| China | 65 | 49.5 |
| India | 85 | 45.6 |
| Brazil | 87 | 45.2 |

- differentsiatsiyalash;
- xarajatlarni pasaytirish;
- eng yaxshi qiymat.

"Innovatsiyalarning iqtisodiy ahamiyatini misollarda ko'rib chiqish materialni tushunishni yanada osnolashtirishi shubxasizdir. Shunday ekan, innovatsiyalarning turli mamlakatlar, xususan, Xitoy, Tayvan, Koreya va Singapurlar misolida mamlakat sanoatida va iqtisodiyotining o'sishidagi ahamiyati e'tiborga sazovordir. Ularning innovatsion rivojlanishi boshqa Evropa mamlakatlariga nisbatan ancha tez bo'lganligi sababi shundaki, bu mamlakatlar innovatsiyalarni yaratish uchun texnologiyalarni horijdan sotib olib, o'zlari uni takomillashtirish ustida ishlashgan".

"Innovatsion iqtisodiyot sohasining etakchi olimlaridan biri, nima sababdan bu mamlakatlarda firmalar innovatsion rivojlanishni aynan ko'zlagan MCHJlarni tuzishgani

to'g'risida batafsil to'xtalib o'tgan. U innovatsiyalar sig'imi indeksi (ISI)ni ishlab chiqib, quyidagicha analiz olib borgan(5-rasm):

Bu erda ICI rank – innovatsiyalar sig'imi indeksi bo'yicha mamlakatlarning dunyodagi o'rinlari.

ICI score – ISI ko'rsatkichlari tartib bo'yicha keltirilgan".

## 5.3. Milliy sanoat tarmoqlarini rivojlanish bosqichlari

O'zbekiston iqtisodiyotida **milliy sanoat**ning roli va ahamiyati salmoqli bo'lib, davlat mustaqilligiga erishilganidan keyin bu sohada tub xo'jalik-iqtisodiy, tashkiliy-institusional va tarkibiy islohatlar amalga oshirildi. Sanoat korxonalarini davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish, davlat-aksiyadorlik, korporativ, jamoa va xususiy mulk shakllariga aylantirish, sanoat tarmoqlarida tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, kichik va xususiy korxonalarni tashkil etish, chet el kapitali bilan hamkorlikda qo'shma korxonalar tashkil etish shular jumlasidan.

Bugungi kunda milliy sanoatning takror ishlab chiqarish jarayonidagi, mamlakat eksport salohiyatini oshirishdagi va umuman iqtisodiy o'sishdagi ta'siri ortib bormoqda. YAIMning 24 foizi, eksportning qariyb 55 foizi sanoat tarmoqlarida yaratilmoqda, sohada jami iqtisodiyotda band bo'lganlarning 17 foizi mehnat qilmoqda.

Mamlakat sanoatida tarmoqlar turli darajadagi mavqeni egallaydi.

Sanoat tarmoqlari orasida qishloq xo'jaligi xom ashyosini qayta ishlovchi va agrosanoat majmuiga xizmat ko'rsatuvchi tarmoqlar an'anaviy ravishda etakchi o'rinda turadi. Bular paxta tozalash, shoyi to'qish, konserva, yog'-moy va boshqa sanoat tarmoqlaridir. Kime va neft kimyosi, mashinasozlik, elektronika, energetika, qora va rangli metallurgiya, engil va qurilish materiallari sanoati keyingi yillarda jadal sur'atlarda rivojlanayapti. Milliy sanoat taraqqiyotida **yoqilg'i-energetika majmuasi**ning o'rni alohida. Uning tarkibiga gaz, ko'mir, neft va neftni qayta ishlash sanoati va energetika sohalari kiradi. O'zbekiston jahondagi gaz ishlab chiqaruvchi 10 ta yirik mamlakatlar qatoriga kiradi.

O'zbekistonning siyosiy mustaqillikka erishishi sanoat taraqqiyoti, milliy ishlab chiqarishni sanoatlashtirish muammolariga butunlay yangicha yondashish imkonini berdi. Mamlakatning mavjud tabiiy – xom ashyo va mehnat resurslariga tayangan holda aholining iste'mol tovarlariga bo'lgan asosiy ehtiyojlarini qondirishga imkon beruvchi sanoat korxonalarini barpo etish uchun shart-sharoit yuaga keldi.

Milliy sanoat rivojlanishining yangi davrini makroiqtisodiy vaziyat, bozor munosabatlarini shakllantirish, tarkibiy o'zgarishlarning tavsifi va sanoatlashtirish strategiyasidan kelib chiqib bir necha bosqichga ajratish mumkin.

**Birinchi bosqich** (1991-1995 yillar) mavjud sanoat salohiyatini saqlab qolish, strategik muhim ahamiyatga ega xom ashyoni qazib olish va birlamchi qayta ishlash, import o'rnini bosuvchi o'zak tarmoqlarni rivojlantirish chora-tadbirlari bilan tavsiflanadi. Bu davrda **sanoatning o'zak tarmoqlari**ni jadal rivojlantirish, ichki bozorni proteksionizm vositalari orqali himoya qilish, energiya tashuvchilari narxini boshqarish

orqali asosiy sanoat ishlab chiqarish korxonalari rentabelligini ta'minlash, kichik sanoat korxonalarini xususiylashtirish kabilar amalga oshirildi.

**Ikkinchi bosqich** (1995-2000 yillar) iqtisodiy mustaqillik asoslarini tashkil etuvchi sanoat tarmoqlarini ustun rivojlantirish, **import o'rnini bosuvchi sanoatlashtirish** strategiyasini keng miqyosda amalga oshirish, qayta ishlash tarmoqlariga investitsiyalar oqimini ko'paytirish, xususan, mashinasozlik, engil sanoat, kime va oziq-ovqat tarmoqlarida kapital qo'yilmalarni ko'paytirish bilan xarakterlanadi. Byudjet mablag'lari bu davrda sanoat ishlab chiqarishini rivojlantirishda muhim omil bo'lib xizmat qildi.

**Uchinchi bosqichda** (2000 yildan boshlangan) importning o'rnini bosuvchi sanoat tarmoqlarini rivojlantirish negizida e**ksportga yo'naltirilgan sanoat** sohalarini barpo qilish va rivojlantirishga e'tibor qaratilgan. Bu bosqich yirik sanoat korxonalarini xususiylashtirish, davlat korxonalarining monopol mavqeini chegaralash, xususiy sektorning sanoatdagi rolining oshishi, samarasiz faoliyat ko'rsatayotgan sanoat korxonalarini tugatish jarayonlarining tezlashishi, korxonalarni boshqarishning tashkiliy tuzilmasini isloh qilish, mahalliylashtirish jarayonlarining jadallashishi bilan xarakterlanadi.

Mustaqillikning dastlabki yillarida yuqori inflyatsiya darajasi, ishsizlik va xo'jalik aloqalarining izdan chiqishi sharoitida iqtisodiyotning real sektorida, xususan, sanoatda ishlab chiqarish sur'atlarini saqlab qolish murakkab muammo bo'ldi. Davlat sanoat salohiyatini (avvalo moddiytexnik) saqlab qolishga qaratilgan siyosat olib borib, o'zak tarmoqlar - yoqilg'i-energetika majmui va qishloq xo'jaligiga o'z tasarrufidagi resurslarni yo'naltirdi. **Sanoat siyosati**ning asosiy yo'nalishlari belgilab olinib, uni amalga oshirishga kirishildi. Bu yo'nalishlar yoqilg'i-energetika majmuini jadal rivojlantirish; hamda neft va gaz qazib olishni kengaytirish chora-tadbirlarini ko'rish; ishlab chiqarish va aholi uchun eng zarur investitsion va iste'mol tovarlarini chetdan olib kelishni qisqartirishning asosiy yo'nalishlarini belgilab olish; qishloq xo'jaligi mahsulotlarini mahalliy sanoat imkoniyatlari negizida qayta ishlashni rivojlantirish; osh tuzi, spirt, gugurt kabi kundalik ehtiyoj tovarlarini ishlab chiqarishni tashkil etishdan iborat bo'ldi.

Ikkinchi bosqichda sanoat siyosatining ustuvor yo'nalishlari quyidagilardan iborat bo'ldi:

- ilgari xorijdan keltirilgan asosiy xom ashyo, butlovchi qism, yarim tayyor mahsulotlar va oziq - ovqatlarni ishlab chiqarishni o'zlashtirish; - milliy sanoatchilarni bozorga o'tish davrida tavakkalchiliklardan himoya qilish, ularni qo'llab– quvvatlashning iqtisodiy tizimini yaratish; - xom-ashyo eksportiga barham berish va tannnarxda qo'shilgan qiymat ulushi yuqori bo'lgan mahsulotlarni eksport qilishni rivojlantirish;
- yuqori texnologik tarmoqlarning moddiy-texnika bazasiga asos solish va rivojlantirish;
- zamonaviy ishlab chiqarish, bozor va moliyaviy infratuzilmani yaratish, bunda asosiy e'tiborni aloqa, axborot almashish va transport tizimini rivojlantirishga qaratish.

Sanoatlashtirishning bu bosqichida jami 600 dan ortiq yangi, strategik muhim ahamiyatga ega mahsulotlar ishlab chiqarish yo'lga qo'yilgan. Amalda bu importning o'rnini bosuvchi sanoat korxonalari yangi avlodining yaratilayotganligini ko'rsatdi.

Ikkinchi bosqichga xos bo'lgan eng muhim natijalar qatoriga mamlakatning yoqilg'i va don mustaqilligiga erishganligi, avtomobilsozlik tarmog'ining barpo etilganligi kiradi. SHuningdek, davlat sanoat siyosatining faollashuvi, xorijiy investitsiyalarning sanoatga kengroq jalb qilinishi, pul-kredit va valyuta siyosatining importning o'rnini bosuvchi tarmoqlarini rivojlantirishga yo'nalishi kuzatildi.

2010 yildan boshlab eksportga yo'naltirilgan sanoat tarmoqlarini rivojlantirishga ustuvorlik berildi. Bu davrda mahalliy sanoatchilarning eksport imkoniyatlarini oshirish, sanoatga xorijiy kapital kirib kelishini rag'batlantirish, eksport faoliyatini soliq, bojxona, valyuta va tashqi iqtisodiy siyosat orqali har tomonlama qo'llab-quvvatlash bo'yicha choratadbirlar ko'rildi.

Bugungi kunda O'zbekistonda eksportga yo'naltirilgan sanoatlashtirish modelining muvaffaqiyati umumiy holda quyidagi yo'nalishlardagi chora-tadbirlarni amalga oshirishga bog'liq:

- agrar islohotlarni chuqurlashtirish, erga mulkchilik munosabatlarini takomillashtirish; fermer xo'jaliklarining eksport

faoliyatini rag'batlantirish;

- xususiy sektorning iqtisodiyotdagi (xususan, sanoatdagi) rolini kichik va xususiy korxonalarni rivojlantirish yordamida oshirish; eksport va importda eng arzon transport yo'llarini o'zlashtirish,

transaksion xarajatlarni kamaytirish;

- xalqaro bozorning asosiy hududiy segmentlari - AQSH, evropa va Janubiy-SHarqiy Osiyo bozorlariga kirib borish bilan birga, O'zbekiston uchun an'anaviy hisoblangan yaqin xorij mamlakatlari bilan integratsion aloqalarni chuqurlashtirish;

- iqtisodiyotning globallashuv sharoitida bank-moliya tizimi va kapital bozorining rivojlanishini qo'llab-quvvatlash.

Mustaqillikka erishgan dastlabki davridagi mamlakatimizning milliy xo'jaligi, jumladan, sanoat tarkibi yuqori texnologiyaga asoslanmaganligi, ilmiy-texnika taraqqiyoti yutuqlaridan keng foydalanishga etarli darajada yo'nalmaganligi va ekstensiv omillarga asoslanganligi bilan tavsiflansa, hozirda intensiv omillarga tayangan, qo'shilgan qiymat ulushi yuqori, ichki va tashqi bozorda raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarayotgan, zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlangan sanoat korxonalari ko'paydi.

Milliy sanoat va uning sohalari iqtisodiyotning dinamik o'zgarishda bo'lgan hamda ishlab chiqarish sur'atlari jadal oshayotgan tarmoqlari hisoblanadi. Ayniqsa, sanoatning qora metallurgiya, neft va neft kimyosi, mashinasozlik, qurilish materiallari, engil va oziq-ovqat sohalarida ishlab chiqarish hajmi so'nggi yillarda tez o'smoqda.

Shunga qaramay 2023 yilda O'zbekistonda yalpi ichki mahsulotning o'sishi 8,1 foizni tashkil etdi. Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish 9,0 foizga ko'paydi, qishloq xo'jaligidagi o'sish 5,7 foizni tashkil etdi, chakana savdo aylanmasi 16,6 foiz, aholiga pullik xizmat ko'rsatish 12,9 foizga oshdi.

Shuni alohida ta’kidlash kerakki, o’tgan yili yuaga kelgan murakkab iqlim sharoitiga qaramay, mamlakatimizda ilk bor 7,3 million tonnadan ortiq don, shu jumladan, 6 million 600 ming tonna bug’doy etishtirildi, 3,4 million tonna paxta xomashyosi tayyorlandi.

Shuni ta’kidlash kerakki, respublikada erishilgan ijobiy natijalar bilan birga, yaqin kelajakda hal etilishi kerak bo’lgan muammolar ham mavjud. Masalan, O’zbekiston iqtisodiyotining xom ashyo ishlab chiqarishga qaratilganligi uning paxtaning dunyo bozoridagi narxiga bog’liqligini kuchaytirdi. Bu esa xom ashyo ishlab chiqarmaydigan sohalarni rivojlanishiga to’sqinlik qilishi mumkin bo’lgan omil bo’lib hisoblanadi.

Respublikada ilm-fanni va ilmiy-texnik salohiyatni rivojlantirishga ajratiladigan moliyaviy mablag’lar hajmi etarli emas. Bu esa o’z navbatida innovatsiya va innovatsion loyihalarni etarli emasligining asosiy sabablaridan biridir. Bularning barchasi raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish va eksport salohiyatini oshirishga ma’lum darajada to’sqinlik qilishi mumkin bo’lgan omillardandir.

Mamlakatimizda chuqur tarkibiy siljishlar va iqtisodiy islohotlar amalga oshirilayotgan davrda sanoat ishlab chiqarishini yanada jadalroq rivojlantirish imkoniyatlari ayniqsa, engil, yoqilg’i-energetika, kime va neft kimyosi, oziq-ovqat hamda mashinasozlik sohalarida mavjud.

Milliy sanoat rivojlanishining iqtisodiy ahamiyati asosan uning iqtisodiy o’sishni ta’minlash, eksport salohiyatini oshirish, qo’shilgan qiymat yaratish va milliy bozorni investitsion va iste’mol tovarlari bilan to’ldirishdagi roli bilan belgilanadi. Mamlakatimizda mustaqillik yillarida sanoatning ko’proq xomashyoni qazib oluvchi, qayta ishlovchi va iste’mol tovarlari ishlab chiqaruvchi sohalari ustun rivojlandi. Buning natijasida yoqilg’i mustaqilligi ta’minlandi, mahalliy xom ashyoni qayta ishlash darajasi ortti, ichki iste’mol bozori mahalliy ishlab chiqaruvchilar mahsulotlari bilan to’yintirilmoqda.

Ma’lumki, tarkibiy o’zgarishlar iqtisodiyot tarmoqlarining rivojlanishini va iqtisodiyotdagi rolini ifodalovchi muhim jarayon bo’lib, uning natijasida ishlab chiqarish takomillashadi va tarmoqlarning jami ishlab chiqarishdagi salmog’i o’zgaradi. Tarkibiy o’zgarishlar takror ishlab chiqarishning hududiy va texnologik tuzilishini ham qamrab olganligi sababli yalpi ichki mahsulotning sifat jihatidan o’zgarishi ta’minlanadi. O’zbekistonda milliy sanoatning tarkibiy tuzilishi mustaqillik davrida keskin o’zgardi. Bunday o’zgarishning asosiy shart-sharoitlari quyidagilardan iborat bo’ldi:

- mamlakatning siyosiy mustaqillikni qo’lga kiritishi; bu davlat miqyosida, tub iqtisodiy manfaatlarni hisobga olgan holda, yangi tarkibiy siyosat yuritish imkonini berdi;
- milliy iqtisodiyotning jahon xo’jaligiga qo’shilish jarayoni boshlanishi; ilgari yagona ittifoq xo’jaligining xom ashyo bazasiga aylangan O’zbekiston jahonning sanoati rivojlangan mamlakatlari bilan savdo va iqtisodiy aloqalarni yo’lga qo’ydi. Bu mamlakatning xom ashyo va mehnat resurslaridan xorijiy investorlar bilan hamkorlikda foydalanish uchun shart-sharoit yaratdi;
- mamlakatda bozor islohotlarining amalga oshirilishi; bozor munosabatlarining shakllantirilishi va xususiy mulkchilikning rivojlanishi ishlab chiqarish hamda xizmat ko’rsatishning tarkibiy jihatdan o’zgarishiga olib kelmoqda. Aholi va firmalar

resurslarining sanoat ishlab chiqarilishiga jalb qilinishi tarkibiy o'zgarishlarning iqtisodiy samaradorligini oshirmoqda.

Milliy iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlarning asosiy yo'nalishi sanoatdagi o'zgarishlar hisoblanadi. Sanoatda yangi texnologiyalarning o'zlashtirilishi va yangi korxonalarning qurilishi qishloq xo'jaligi va xizmat ko'rsatishda ham ishlab chiqarish jarayonining takomillashishi hamda mehnat unumdorligining oshishini ta'minlaydi.

O'zbekistonda sanoat taraqqiyoti jarayoniga ijobiy ta'sir qiluvchi ijtimoiy-iqtisodiy omillar quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- ijtimoiy-siyosiy barqarorlikning ta'minlanganligi;
- mehnat qobiliyatiga ega yoshlarning mehnat resurslari tarkibida yuqori ulushga egaligi;
- axborot, bilim va zamonaviy texnologiyalarni o'zlashtirish shartsharoitlaridan biri hisoblangan ommaviy savodxonlikning ta'minlanganligi;
- qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishiga yaroqli er fondining etarliligi va yuqori dehqonchilik madaniyati;
- shaharlashishning rivojlanayotgan mamlakatlarga nisbatan yuqori darajasi va ijtimoiy infratuzilma asoslarining mavjudligi;
- mamlakatning tabiiy va mineral-xom ashyo resurslari yirik zahiralariga egaligi;
- milliy sanoatning ko'p tarmoqliligi;
- ilmiy tadqiqotlar va tajriba-konstruktorlik ishlarini amalga oshirish imkoniyatini beruvchi intellektual salohiyatning mavjudligi.

O'zbekistonda milliy sanoatning jadal rivojlantirilishiga aks ta'sir ko'rsatuvchi omillar ham mavjud bo'lib, ularning ta'sirini kamaytirish yoki bartaraf etish sanoat taraqqiyotini sur'atlarini oshiradi. Ularga quyidagilarni kiritish mumkin;

- milliy bozorning torligi, korxonalar va aholi to'lov qobiliyatining pastligi;
- iqtisodiyot, xususan, sanoat tarmoqlarining bir-biriga uyg'un rivojlanmaganligi, tarmoqlararo mehnat taqsimoti, ixtisoslashish va integratsiyaning maqsadga muvofiq emasligi;
- xususiy sektor moliyaviy, investitsion va ilmiy-texnik salohiyatining yirik sanoat loyihalarini amalga oshirish uchun etarli emasligi;
- aksariyat qayta ishlash korxonalari texnik va texnologik ko'rsatkichlarining pastligi, xususan, asosiy fondlarning jismoniy eskirishi o'rtacha 52-54 foizni tashkil etadi;
- sanoat tarmoqlarida innovatsion faoliyatning rivojlanmaganligi, ilg'or innovatsion yangiliklarning sanoat korxonalarida kam joriy etilishi; - sanoatda davlat va xususiy sektorning o'zaro iqtisodiy munosabatlar tizimi rivojlanmaganligi, ishlab chiqarishga davlat aralashuvining yuqoriligi;
- sanoatlashish jarayonini davlat tomonidan boshqarish mexanizmining takomillashmaganligi;

- bozor infratuzilmasining sanoatni jadal rivojlantirish talablariga mos rivojlanmaganligi;
- mintaqaviy integratsion aloqalar, xususan, hududiy bozorlarning rivojlanmaganligi;
- milliy iqtisodiyotning jahon xo'jaligi tizimiga zaif integratsiyalashganligi va xalqaro bozordagi keskin raqobat;
- mamlakatning geografik jihatdan anklav joylashganligi, rivojlangan bozorlardan uzoqligi, dengiz yo'llariga chiqish imkoniyatlari va shartsharoitlarining torligi.

O'zbekistonda milliy iqtisodiyotni sanoatlashtirishning muhim tashkiliy-iqtisodiy yo'nalishlaridan biri davlat tomonidan **kichik sanoat shaharchalari, tashkiliy sanoat hududlari va erkin savdo-iqtisodiy hududlari**ning shakllanishi va rivojlanishini rag'batlantirishdan iborat. Bu sanoat siyosatining ajralmas qismi hisoblanishi bilan birga, sohadagi texnologik-innovatsion taraqqiyotning jadallashishiga ham samarali ta'sir qilishi shubhasiz.

Kichik sanoat shaharchalari va tashkiliy sanoat hududlari milliy sanoat korxonalarini ilg'or texnologiya bilan jihozlashda o'ziga xos texnologik inkubator vazifasini bajarishi ko'zda tutiladi. Bu yo'nalish sanoat siyosatining ijtimoiy ahamiyatini ortirish bilan bir vaqtda O'zbekistonning qoloq mintaqalarida sanoatning tez rivojlanishini ta'minlashga xizmat qiladi.

Sanoat shaharchalari tuman markazlari va shahar tipidagi qo'rg'onlarda tashkil qilinishi maqsadga muvofiq. CHunki aksariyat tuman markazlari sanoat rivojlanishi, xususan, sanoatda kichik va xususiy tadbirkorlikning rivojlanishi uchun zarur shart-sharoit va infratuzilmaga ega. Ishlab chiqarishning konsentratsiyalashishi va resurslar ta'minoti nuqtai nazaridan ham bu maqsadga muvofiq keladi.

Tashkiliy sanoat xududlari texnologik jarayonlarning yaqin joylashishini taqazo qilgan, bir-biri bilan bog'liq sanoat tarmoqlarini rivojlantirish uchun eng qulay hudud hisoblanadi. Bunday hududlarda sanoatni rivojlantirishning klaster modelini joriy etish maqsadga muvofiq. SHuning uchun bunday sanoat hududlarini o'rta shaharlar va yirik shaharlar atrofida shakllantirish lozim.

### 5.4. Respublikada sanoat- tarmoqlarining iqtisodiy o'sishdagi ustuvor vazifalari

Mustaqillik yillarida iqtisodiy va ijtimoiy munosabatlar tizimida chuqur sifatiy o'zgarishlar amalga oshirildi, milliy iqtisodiyotning tarmoq tuzilishi innovatsiya xisobiga yangilandi. Mamlakatimizning jahon hamjamiyatidagi o'rni va mavqei toboro mustahkamlanib bormoqda. Bozor iqtisodiyotiga o'tishning ustuvor yo'nalishlaridan biri iqtisodiyot tarmoqlarida innovatsion islohotlar, tub yangilanishlarni modernizatsiya qilinishi hisoblanib, u makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, korxonalarni yangi texnologiyalar bilan jihozlash, iqtisodiyotda nodavlat sektor ulushini oshirishga asoslanadi. Ushbu jarayon, shubhasiz mamlakatning innovatsion, iqtisodiy salohiyatini oshirish bilan bir paytda, undan unumli foydalanishni nazarda tutadi. Binobarin, O'zbekiston "Ushbu siyosat, avvalo, mamlakatning iqtisodiy qudratini yanada

mustahkamlash, boy tabiiy, xom ashyo va mehnat resurslari, intelektual va ilmiy-texnikaviy salohiyatimizdan to'la va samarali foydalanishga yo'naltirilgan bo'lishi darkor.

Darhaqiqat mamlakatning jahon xo'jalik tizimiga faol kirib borishi, iqtisodiyotning ochiqligini kengaytirish va erkinlashtirish, innovatsiya asosida modernizatsiya qilish sharoitida O'zbekistonda iqtisodiy o'sishni barqaror sur'atlarni ta'minlashga alohida ahamiyat berilishini taqazo etadi. Ushbu vazifalarning amalga oshirilishi O'zbekiston uchun hozirgi jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida milliy iqtisodiyotda sanoatinnovatsion rivojlanish strategiyasi iqtisodiyotni diversifikatsiyalash va modernizatsiya qilish, mahsulotlarning raqobatli turlarini ishlab chiqarish va tovarlar eksportini o'stirish uchun sharoitlar yaratishni ta'minlashi hozirgi kunning asosiy muammolaridan biri hisoblanadi.

Mamlakatda iqtisodiyotning tashqi omillarga ta'sirchanligini kamaytirish uchun yuqori texnologiyali ishlab chiqarish muhim ahamiyat kasb etadi. Innovatsion jarayonni amalga oshrishdan maqsad investitsiyalashtirishning sifat o'zgarishini ta'minlagan holda sub'ektlar olayotgan foyda o'sib borishiga erishishdan iborat. CHunki har qanday iqtisodiy jarayon ishlab chiqarish jarayonidagi ishlab chiqarish resurslarini iqtisodiy mahsulotlarga aylantirish bilan bog'liq. Bozor iqtisodiyoti sharoitida erkin raqobatga sub'ektlar o'zlari ishlab chiqarayotgan mahsulotlar bilan bardoshli bo'lishlarini, mavjud resurslarni iqtisodiy mahsulotlarga aylantirishda ilg'or ishlab chiqarish texnika va texnologiyalariga asoslanishni talab etuvchi bu jaraen uchun ma'lum vakt zarur. Bu vaktni tejash ham innovatsion yutuqlarga va ularni qo'llash darajasiga bog'liq.

Innovatsion mablag'larni ishlab chiqarishga sarflash, ishlab chiqarish omillariga aylanishida ular ikki xil xususiyatga ega ekanligini ko'rish mumkin. Innovatsion investitsiya mablag'larining asosiy qismi yangi ishlab chiqarish binolarini, ishlab chiqarish vositalarini xozirgi zamon fan va texnika yutukdari asosida tashkil etishga bog'liq bo'lsa, kolgan kismi ishlab chikarish uchun zarur bo'lgan yangi xom ashyolarni yaratish bilan bogliq bo'ladi. Ishyuvatsion investitsiya mablaglarining ishlab iqarish vositalarida ifodalangan kismi qiymatlari uzok muddatlarda amortizatsiya| mablag'lari orqali koplanishi innovatsion jarayonlarni bozor talablari asosida kisqa muddatlarda yangilashda ma'lum kiyinchiliklar tug'diradi. Xom ashyolarda innovatsion investitsiya mablaglaridan foydalanish biroz engilroq. chunki bu innovatsion mablag'larning doiraviy harakati birmuncha tezdir,

Innovatsion investitsiyalashtirish bazisli, ya'ni fundamental innovatsion investitsiyalashtirishga, innovatsion jarayonlarni yaxshilash bilan bogliq investitsion innovatsionga, qisman yangilanishga asoslangan innovatsion investitsiya xarajatlariga bo'linadi. Bazisli innovatsion investitsiya xarajatlari asosan ilm-fan va texnika taraqqiyotidagi yuqori darajali yutuqlarda, yangi texnika va ishlab chikarish texnologiyalari; innovatsion jarayonni yaxshilash bilan bogliq bo'lgan investitsiya esa asosan o'rtacha ahamiyatga ega ishlab chiqarishga aloqador bo'lib, u fan va texnikanint mukobil rivojlanish davrida o'rtacha doirada yangiliklarni kashf etish va ularni tatbiq qilishda, jismoniy va ma'naviy jihatdan iktisodiy ahamiyatini yo'kotgan texnika va

texnologiyalar ma’lum darajada qisqa muddatlarda takomillashtirilishida ifodalanadi.Bu holat fikrimizcha, kalbakilashtirilgan innovatsion jarayonni ifoda etadi.

**Bozor iqtisodi ishlab chiqarish sub’ektlarini innovatsion jarayonni amalga oshirish xususiyatlari**




Yuqori daromadli raqabatbardosh mahsulot ishlab chiqarish iqlimini yaratishga yordam beruvchi omillar sirasiga quyidagilar kiradi:

- tadbirkorlikni qo’llab-quvvatlashga yo’naltirilgan davlat siyosati va ijtimoiy siyosatni mustahkamligi;

- yangi korxonalar ochishga yoki mavjudlarini kengaytirishga rag'batni ta'minlovchi imtiyozli soliq tizimi;

- biznes sohasiga moliyaviy vositalar qo'yilishiga ko'maklashuvchi tadbirlar;

- davlat va xususiy biznes tamonidan moliyalashtiriladigan innovatsion va tadbiq markazlarini tashkil qilish;

- tadbirkorlarga moliyaiy ko'maklashuvchi rivojlangan tarmoqlarga ega maxsus firmalar mavjudligi;

- boshqaruv, marketing, reklama asoslari bo'yicha maslahat markazlari hamda tadbirkorlar tayyorlash bo'yicha markaz va kursalar tashkil etilganligi;

- nafaqat kashfiyotni, balki novatorlik g'oyalari, nou-xau va boshqa aqliy mulkni samarali himoya qilish tizimining mavjudligi ;

- davlat idoralari tomonidan xo'jalik faoliyatini tartibga solish jarayonini soddalashtirish (hisobot shartlarini qisqartirish, kompaniyalarni ro'yxatdan o'tkazish tartibini engilashtirish) ;

-ishchi kuni sifatini oshirish ( ta'lim , malaka ) ;

- axborot texnalogiyasi, kommunikatsiya vositalari bilan ta'minlanganlik ;

- raqobat g'olib kelish, shaxsiy va guruhiy javobgarlik kabi ijtimoiy – psixologik yo'nalishlarning firmalarni boshqarish sananatiga tarqalishi ;

- boshqaruvchilarning ijod erkinligi.

O'zbekiston Respublikasining tashqi iqtisodiy aloqalarini erkinlashuvi globallashuv jarayonlarining tarkibiy qismi sifatida mamlakat mintaqalarida tovar ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatishni sezilarli darajada jadallashtirish, erkin raqobat mexanizmlarini keng joriy etish asosida ishlab chiqarish xarajatlarini pasaytirish va mahsulot sifatini oshirish uchun keng imkoniyatlar yaratadi.

2021-2023 yillarda O'zbekiston Respublikasi sanoat-innovatsion rivojlanish strategiyasida ko'zda tutilganidek, faol davlat siyosatining ishbilarmonlik hamkorligini rivojlantirish bo'yicha tashabbuslar quyidagi yo'nalishlar bo'yicha bevosita tadbirkorlar bilan ishbilarmonlik aloqalarini mustahkamlashga yo'naltirilishi mumkin: xaridorlarning ixtisoslashgan toifalari yangi bozor "nisha"larini shakllantiradi va mahsulot standarti bo'yicha axborot manbasi hisoblanadi; asbob-uskunalar ta'minotchilari u bilan birga ishlab chiqarish tajribasini ham uzatadilar; resurslar ta'minotchisi ishlab chiqarishning yangi usul va g'oyalarining paydo bo'lishiga xizmat qiladi, raqobatchilar esa yangi g'oyalarning boy manbasini taqdim etadilar. Bunda davlat rivojlanish institutlari orqali texnologik va iqtisodiy qo'shilgan qiymat zanjirini ketma-ketlikda rivojlantirgan holda raqobatbardosh mahsulot yaratuvchi to'laqonli ishlab chiqarish tizimini yaratishga yo'naltirilgan loyihalarda ishtirok etishi lozim. Bu raqobatbardosh mahsulotning barcha ko'rsatkichlariga javob beruvchi yakuniy mahsulotga ishlaydigan ko'p tarmoqli korxonalar yaratishga imkon beradi.

Sanoat-innovatsion siyosatni amalga oshirish uchun potensial raqobatbardosh, jumladan, eksportga yo'naltirilgan, qo'shilgan qiymat iqtisodiy zanjirini yaratuvchi ishlab chiqarish turlarini aniqlash maqsadida jahon bozorlarining rivojlanish tendensiyalari va tadbirkorlarning tashabbuslarini hisobga olgan holda vaqti-vaqti bilan iqtisodiyot tarmoqlarining rivojlanish darajasini tahlil qilish talab etiladi. SHu bilan bir paytda respublikada tarmoq qo'shilgan qiymat markazlarida o'z o'rnini topishni nazarda tutgan holda jahon bozori va mintaqaviy bozorlarni tadqiq etishni kuchaytirish zarur.

O'zbekiston Respublikasi sanoat-innovatsion rivojlanish strategiyasida iqtisodiyot ob'ektlariga moliyaviy ko'mak ko'rsatish mezonlari ko'zda tutilgan bo'lib, bu qatorga quyidagilar kiradi: yangi asosiy ishlab chiqarishlarni yaratish zarurati; rejalashtirilgan loyihalarning tijorat nuqtai nazaridan o'zini oqlashi; loyihaning eksportga yoki importning o'rini bosishga yo'naltirilganligi.

Sanoat-innovatsion dasturni qo'llashning asosiy mezonlari hisoblangan bu talablar ushbu strategik dasturni amalga oshirishning asosiy "maydoni"ga aylanishi lozim bo'lgan savdo sohasining mos keluvchi rivojlanishi vositalari bo'yicha amalga oshiriladi. SHu asnoda O'zbekiston Respublikasi Hukumatining savdo siyosati bozor iqtisodiyotining o'zini-o'zi tartibga solish asosiy mexanizmi bo'lgan raqobatni rivojlantirish uchun sharoitlar yaratishga yo'naltirilishi lozim.

Shu sababli sanoat-innovatsion rivojlanish strategiyasini amalga oshirar ekan, O'zbekiston raqobatbardosh va samarali milliy iqtisodiyotni shakllantirish uchun tadbirkorlikni har tomonlama qo'llab-quvvatlashi va qulay sharoitlar yaratishi lozim. Bunda asosiy maqsad xomashyoga yo'nalganlikdan boshqa yo'nalishga o'tishga, shuningdek, davlat sanoatinnovatsion siyosatining bosh predmeti hisoblangan qayta ishlash sanoati va xizmatlar sohasida uzoq muddatli istiqbolda raqobatbardosh va importga yo'naltirilgan tovar va xizmatlar ishlab chiqarishga o'tishga xizmat qiluvchi iqtisodiyot tarmoqlarini diversifikatsiyalash yo'li bilan mamlakatning barqaror rivojlanishiga erishish hisoblanadi.

Respublikada sanoat-innovatsion siyosatida potensial raqobatbardosh, jumladan, iqtisodiyotning xomashyo yo'nalishidagi sektorlarida faoliyat ko'rsatuvchi eksportga yo'naltirilgan ishlab chiqarishlarni yaratish va rivojlantirish ustuvor ahamiyatga ega. Bunda davlat sanoat siyosatiga barcha yondashuvlar uch toifaga borib taqaladi: investitsiyalarni muvofiqlashtirish, ishbilarmonlik hamkorligini rivojlantirish va bozorni egallash.

O'zbekiston Respublikasi sanoat-innovatsion rivojlanish strategiyasida ishlab chiqarish omillari raqobatbardoshligini oshirish omillari alohida o'ringa ega. Bu qatorda mehnat va moliya resurslari, texnologiyalarni rivojlantirish, infratuzilmalar va boshqa omillarni eslab o'tish joiz. Bu o'z-o'zidan tushunarli ham, chunki strategiyani amalga oshirish bevosita uning, masalan, yuqori malakali va professional, ishlab chiqarishni innovatsion rivojlantirish so'rovlariga ob'ektiv javob qaytaruvchi kadrlar bilan ta'minlanganligiga bog'liq bo'ladi. Bu ilmiy kadrlarga ham, muhandis-texnik kadrlarga ham, ilmiy-konstruktor kadrlarga ham, boshqaruv-tashkiliy kadrlarga (menejerlarga) ham bir hilda taalluqli.

SHuning uchun ham O’zbekiston iqtisodiyotining eksportga yo’naltirilgan holda rivojlanishi hamda bozor iqtisodiyotiga o’tish va islohotlarni chuqurlashtirish sharoitlarida uning integratsiya aloqalarini kengaytirishga xizmat qiluvchi omillar va sharoitlarni tadqiq etish zarurati hozirgi kunni dolzarb masalalaridan biridir.

Sanoat tarmoqlarida innovatsion-texnologik ustuvorliklar texnologiyalar ro’yxatida aks etadi: bu ro’yxatlarni maksimal darajada kichraytirish, har 4-5 yilda qayta ko’rib chiqish hamda mamlakatning maqsadli ilmiy-texnik va innovatsion dasturlari tarkibini belgilashda asos qilib olish lozim.

Tanlab olingan ustuvor yo’nalishlarni amalga oshirish bo’yicha samarali tizimni shakllantiruvchi omillar quyidagilarga asosan tasniflanishi lozim:

➢ jahon texnologik makoni bo’yicha bo’lgani kabi, O’zbekiston Respublikasi va MDH uchun ham olimlar jamoasi tomonidan muqobil konkursli asosda ishlab chiqiluvchi uzoq muddatli (20-30 yil) ilmiytexnik va innovatsion bashoratlar;

➢ eng muhim bazaviy texnologiyalar bo’yicha ilmiy-texnik va innovatsion xarakterga ega maqsadli dasturlar;

➢ sanoat tarmoqlarida bazaviy texnologiyalarning ayrim bo’g’inlarini amalga oshiruvchi davlat ahamiyatiga molik eng muhim innovatsion loyihalar.

SHuni qayd etish kerakki, iqtisodiy o’sishning tanlab olingan ustuvor yo’nalishlarini amalga oshirishni resurslar bilan to’liq ta’minlash ko’p kanalli asosda bajariladi:

➢ noishlab chiqarish sohasida innovatsion loyiha va dasturlarni, shuningdek, eng muhim innovatsion loyihalar, maqsadli dasturlar, strategik rejalar va bashoratlarni ishlab chiqishni byudjetdan moliyalashtirish, byudjet mablag’larini dastur va loyihalar amalga oshiriluvchi butun muddat bo’yicha taqsimlash;

➢ tanlab olingan ustuvor sanoat tarmoqlariga yo’naltirilgan innovatsion dastur va loyihalar uchun soliq va bojxona imtiyozlari taqdim etish;

➢ bunday dastur va loyihalarga xususiy va xorijiy investitsiyalarni jalb etish uchun sharoitlar yaratish;

➢ investitsiyalarga innovatsion mazmun bag’ishlash uchun sanoat tarmoqlarida investitsion dastur va loyihalarning innovatsion-texnologik ekspertizasini tashkil qilish.

Bundan tashqari, innovatsion infratuzilmani shakllantirish tanlab olingan ustuvor yo’nalishlarni amalga oshirishga yo’naltirilishi lozim:

➢ innovatsion loyihalarni faolroq qo’llab-quvvatlash uchun Markaziy bank faoliyatini rivojlantirish va kengaytirishning byudjet ta’minoti;

➢ innovatsion xarakterga ega maqsadli ustuvor dastur va loyihalarni qo’llab-quvvatlash uchun Respublika innovatsiya jamg’armasi va joylarda hududiy jamg’armalar, shuningdek, ustuvor innovatsion loyihalarni sug’urtalash uchun davlat kompaniyalarini tashkil etish;  O’zR Markaziy bankining zaxira fondi bir qismidan ustuvor xarakterga ega yirik innovatsion loyihalarni u yoki bu shaklda qo’llab-quvvatlash uchun foydalanish;

- texnologiyalar transferi markazi, innovatsion biznes-inkubatorlar, innovatsion markaz va hokazolar yaratish yo'li bilan ilmiy-texnik va innovatsion infratuzilmani kengaytirish;
- O'zbekiston etakchilik qilishi va jahon bozorida muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsatishi mumkin bo'lgan bazaviy texnologiyalar va ustuvor yo'nalishlar bo'yicha mamlakatlararo asosda transmilliy kompaniyalar va strategik ittifoqlar barpo etish;
- nohukumat tashkilotlari, fanlar akademisi, olimlar, muhandislar, konstruktorlar va menejerlar jamoatchilik tashkilotlarini sanoat tarmoqlarida innovatsion dastur va loyihalarni amalga oshirish va targ'ib qilishda ishtirok etishga jalb qilish;
- iqtisodiy o'sishga erishish uchun innovatsion-texnologik o'sishga yo'naltirilgan milliy, mintaqaviy va xalqaro innovatsion tizimlar yaratish.

Sanoat tarmoqlarining iqtisodiy o'sishga erishishida innovatsion o'sishning samarali mexanizmini shakllantirish amalda davlatning bozor iqtisodiyotida strategik-innovatsion funksiyasini amalga oshirishga imkon beradi.

Iqtisodiy o'sishning intensiv turi o'ziga xosligi shundaki, ishlab chiqarishni kengaytirishga o'sish omillarini sifat jihatidan takomillashtirish, xususan, ilg'or texnologiyalarni qo'llash, yuqori malakali va mehnat mahsuldorligi baland bo'lgan ishchi kuchidan foydalanish hisobiga erishiladi. Bu holatda ishlab chiqarish real hajmining o'sish sur'atlari uni ishlab chiqarishning jami xarajatlari o'zgarish sur'atidan yuqori bo'ladi.

### 5.5. O'zbekistonda sanoat-innovatsion strategiyasini rivojlantirish yo'llari

O'zbekiston Respublikasida sanoat-innovatsion rivojlanish strategiyasi iqtisodiyotni diversifikatsiyalash va modernizatsiya qilish, mahsulotlarning raqobatli turlarini ishlab chiqarish va tovarlar eksportini o'stirish uchun sharoitlar yaratish asosida mamlakatning rivojlanishini o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan.

Iqtisodiyotning engil sanoati va boshqa tarmoqlarida raqobatbardosh va eksportga yo'naltirilgan tovarlar ishlab chiqarish davlat sanoat-innovatsiya siyosatida asosiy ahamiyatga ega. Biroq oxirgi yillarda mamlakatda iqtisodiy o'sishning yuqori sur'atlari asosan resurslarni ishlab chiqarish va eksport qilishning jadal rivojlanishi hisobiga erishildi va bu milliy iqtisodiyotning ishlab chiqarish inqirozini bartaraf qilishiga imkon berdi. Shu asosda O'zbekiston jahon hamjamiyatida bozor iqtisodiyotiga asoslangan davlat sifatida tan olindi.

Qabul qilingan strategik rejaga muvofiq O'zbekiston ochiq iqtisodiyotli, tovarlar eksportiga yo'naltirilgan, dunyodagi barcha mamlakatlar bilan o'zaro manfaatli hamkorlik va raqobatga asoslangan mamlakat sifatida shakllanmoqda. SHu bilan birga O'zbekiston yirik yoqilg'i va mineral xomashyo salohiyatini mujassamlashtirgan mamlakat sifatida sanoatning qayta ishlash tarmoqlariga investitsiyalar kiritish uchun jozibadorligi kam hisoblanadi. Bu esa mamlakat iqtisodiyotini xomashyo resurslari bozoridagi kon'yunktura o'zgarishlariga ta'sirchan va sezuvchan qilib qo'yadi.

Mamlakatda iqtisodiyotning tashqi omillarga ta’sirchanligini kamaytirish uchun yuqori texnologiyali ishlab chiqarish dolzarb ahamiyat kasb etadi.SHu sababli sanoat-innovatsion rivojlanish strategiyasini amalga oshirar ekan, O’zbekiston raqobatbardosh va samarali milliy iqtisodiyotni shakllantirish uchun tadbirkorlikni har tomonlama qo’llab-quvvatlashi va qulay sharoitlar yaratishi lozim. Bunda asosiy maqsad xomashyoga yo’nalganlikdan boshqa yo’nalishga o’tishga, shuningdek, davlat sanoatinnovatsion siyosatining bosh predmeti hisoblangan qayta ishlash sanoati va xizmatlar sohasida uzoq muddatli istiqbolda raqobatbardosh va importga yo’naltirilgan tovar va xizmatlar ishlab chiqarishga o’tishga xizmat qiluvchi iqtisodiyot tarmoqlarini diversifikatsiyalash yo’li bilan mamlakatning barqaror rivojlanishiga erishish hisoblanadi.

O’zbekiston Respublikasi sanoat-innovatsion siyosatida potensial raqobatbardosh, jumladan, iqtisodiyotning xomashyo yo’nalishidagi sektorlarida faoliyat ko’rsatuvchi eksportga yo’naltirilgan ishlab chiqarishlarni yaratish va rivojlantirish ustuvor ahamiyatga ega. Bunda davlat sanoat siyosatiga barcha yondashuvlar uch toifaga borib taqaladi: investitsiyalarni muvofiqlashtirish, ishbilarmonlik hamkorligini rivojlantirish va bozorni egallash.

2017-2021 yillarda O’zbekiston Respublikasi sanoat-innovatsion rivojlanish strategiyasida ko’zda tutilganidek, faol davlat siyosatining ishbilarmonlik hamkorligini rivojlantirish bo’yicha tashabbuslar quyidagi yo’nalishlar bo’yicha bevosita tadbirkorlar bilan ishbilarmonlik aloqalarini mustahkamlashga yo’naltirilishi mumkin: xaridorlarning ixtisoslashgan toifalari yangi bozor “nisha”larini shakllantiradi va mahsulot standarti bo’yicha axborot manbasi hisoblanadi; asbob-uskunalar ta’minotchilari u bilan birga ishlab chiqarish tajribasini ham uzatadilar; resurslar ta’minotchisi ishlab chiqarishning yangi usul va g’oyalarining paydo bo’lishiga xizmat qiladi, raqobatchilar esa yangi g’oyalarning boy manbasini taqdim etadilar. Bunda davlat rivojlanish institutlari orqali texnologik va iqtisodiy qo’shilgan qiymat zanjirini ketma-ketlikda rivojlantirgan holda raqobatbardosh mahsulot yaratuvchi to’laqonli ishlab chiqarish tizimini yaratishga yo’naltirilgan loyihalarda ishtirok etishi lozim. Bu raqobatbardosh mahsulotning barcha ko’rsatkichlariga javob beruvchi yakuniy mahsulotga ishlaydigan ko’p tarmoqli korxonalar yaratishga imkon beradi.

Mamlakatda sanoat-innovatsion siyosatni amalga oshirish uchun potensial raqobatbardosh, jumladan, eksportga yo’naltirilgan, qo’shilgan qiymat iqtisodiy zanjirini yaratuvchi ishlab chiqarish turlarini aniqlash maqsadida jahon bozorlarining rivojlanish tendensiyalari va tadbirkorlarning tashabbuslarini hisobga olgan holda vaqti-vaqti bilan iqtisodiyot tarmoqlarining rivojlanish darajasini tahlil qilish talab etiladi.

Jahon tajribalarining ko’rsatishicha, yangi ishlab chiqarishtexnologik tizimni shakllantirishda asos solishga ulgurgan mamlakatlar kapital qo’llashning an’anaviy sohalaridan chiqib ketayotgan kapitalni tortish markazlariga aylanadi. Bu qatorga hozirgi kunda iqtisodiy jihatdan eng rivojlangan mamlakatlar (AQSH, Angliya, G’arbiy evropa mamlakatlari, YAponiya va boshqa ayrim mamlakatlar) kiradi.

SHu sababli maqsadli investitsion va ilmiy-texnik dasturlarni amalga oshirish, investitsion faollikni tartibga solish va innovatsion faollikni rag'batlantirish O'zbekiston Respublikasi sanoat-innovatsion rivojlanish strategiyasining eng muhim vazifalaridan biriga aylanadi. Bu esa, o'z navbatida, sanoat-innovatsion rivojlanishning amaldagi davlat boshqaruv tizimini qayta ko'rib chiqish va ma'lum ma'noda qayta qurishni talab qiladi. Ushbu vazifani hal etishning samarali bo'lishi uchun amaldagi davlat rivojlanish institutlarining yangi tuzilmalari, xususan O'zbekiston investitsion fondi, O'zbekiston rivojlanish Banki, innovatsion fondni tashkil qilish lozim. Bu rivojlanish institutlari barqaror faoliyat ko'rsatishi detsentralizatsiyalash, ixtisoslashuv va raqobat tamoyillariga asoslangan yagona tizimni shakllantirishi lozim.

O'zbekiston investitsion fondi (O'IF) O'zbekistonda ham, chet el mamlakatlarida ham korxonalarning nizom kapitalida nazoratsiz va pay asosida ishtirok etish yo'li bilan iqtisodiyotning xomashyo sektorida xususiy sektor tashabbuslarini moliyaviy qo'llab-quvvatlashni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan. O'IF O'zbekiston rivojlanish Banki bilan hamkorlikda ishlashi lozim. Bu ikki institut loyihalarni moliyalashtirish bo'yicha ishlarda bir-birini kreditlash va birlamchi kapital joylashtirish orqali to'ldirib turishi lozim.

Sanoat-innovatsion dasturni qo'llashning asosiy mezonlari hisoblangan bu talablar ushbu strategik dasturni amalga oshirishning asosiy "maydoni"ga aylanishi lozim bo'lgan savdo sohasining mos keluvchi rivojlanishi vositalari bo'yicha amalga oshiriladi. SHu asnoda O'zbekiston Respublikasi Hukumatining savdo siyosati bozor iqtisodiyotining o'zini-o'zi tartibga solish asosiy mexanizmi bo'lgan raqobatni rivojlantirish uchun sharoitlar yaratishga yo'naltirilishi lozim.

Sanoat-innovatsion rivojlanish borasida davlat investitsion siyosatini amalga oshirish moliyalashtirish manbalari hamda xususiy sektor davlatning aralashuvisiz o'zlashtirishga qodir bo'lmagan bozor "nisha"lariga investitsiyalarni jalb etish mexanizmlarini aniqlashni talab qiladi. Davlat investitsion siyosatini amalga oshirish xomashyo bilan bog'liq bo'lmagan ishlab chiqarishlarni rivojlantirish maqsadida davlat investitsiyalarini amalga oshirish va xususiy investitsiyalarni rag'batlantirish bo'yicha chora-tadbirrlar majmuini uyg'unlashtiradi.

Xususiy investitsiyalarni jalb etish jarayonini rag'batlantirishning iqtisodiy vositalari sifatida investitsion soliq imtiyozlaridan foydalaniladi.

Strategik jihatdan O'zbekiston tovar, xizmatlar, kapital eksportiga yo'naltirilgan ochiq iqtisodiyotli mamlakat sifatida shakllanmoqda.

Iqtisodiy munosabatlar umumiy tizimida innovatsion faoliyatga asosiy rol ajratiladi, chunki mamlakatning iqtisodiy kuch-quvvatlari uning yakuniy natijalari ishlab chiqarish samaradorligining o'sishi, kapital mehnat mahsuldorligining ortishi, yuqori texnologiyali mahsulot hajmining o'sishi bilan belgilanadi.

Eksportga yo'naltirilgan iqtisodiyot strukturasini shakllantirish, maksimal foyda olish, eksportda tovarlar xomashyo nomenklaturasi ustunligidan chuqur qayta ishlangan mahsulotlarga o'tish, ichki va tashqi bozorlarda talab tuzilmasiga moslashtirilgan faoliyat turlari va raqobatbardosh ishlab chiqarish turlarini yaratish va rivojlantirish yo'li bilan O'zbekistonning jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvi va globallashuv jarayonlaridan

riskni minimallashtirish, maksimal foyda olish va eksportga yo'naltirilgan iqtisodiyot strukturasini shakllantirish pirovardida samaradorlikni oshirish, mamlakat iqtisodiyotining uzoq muddatli barqaror rivojlanishi va aholi turmush farovoligining o'sishini ta'minlaydi.

Bunda O'zbekiston iqtisodiyotidagi tarkibiy o'zgarishlar sanoatinnovatsion siyosatining mufassal ustuvorliklari quyidagilar hisoblanadi:

-mulkchilikni yanada isloh qilish, asosiy tarmoqlarning yirik ob'ektlarini xususiylashtirish va davlat tasarrufidan chiqarish hisobiga nodavlat sektorining o'sishi;

-mavjud tabiiy-iqtisodiy salohiyat va to'plangan xorijiy mamlakatlar tajribalaridan samarali foydalanishni hisobga olgan holda iqtisodiyot strukturasini o'zgartirish;

-zamonaviy texnologiyalarni jadallik bilan joriy qilish, mahalliy xomashyoni qayta ishlash, eksport salohiyatini kengaytirish va mahalliylashtirishasosida ishlab chiqarishning raqobatbardoshligini oshirish;

-innovatsion faoliyatni aktivlashtirish, bazaviy tarmoqlar va yoqilg'ienergetika majmuini rivojlantirish;

-ichki va tashqi bozordagi talabni hisobga olgan holda don kompleksi va iqtisodiyotning agrar sektorini rivojlantirish;

-kichik va o'rta biznesning kuchli iste'mol bozorini shakllantirishga qo'shayotgan hissasini oshirish;

-ishlab chiqarish, ijtimoiy va bozor infratuzilmasini, xususan, telekommunikatsiyalar va axborot texnologiyalari, transport tizimini jadal rivojlantirish.

Bunda O'zbekiston iqtisodiyotini tarkibiy qayta qurish sanoatinnovatsion siyosatining "karvonboshi"si yangicha sifat asosida mamlakatning sanoat majmuini rivojlantirish hisoblanadi. Bu respublika aholisi bandligini ta'minlashdan tashqari uning iqtisodiy salohiyatini shakllantiridi, valyuta tushumlarining asosiy manbai bo'lib xizmat qiladi, uning hisobiga import bo'yicha zamonaviy texnika va texnologiyalar, eksportga yo'naltirilgan iqtisodiyot strukturasini shakllantirishning eng muhim tarkibiy qismlarini xarid qilish ta'minlanadi.

Hozirda O'zbekiston sanoat tarmoqlarini rivojlantirish uchun ishlab chiqilayotgan dasturlar loyihalari:

**Ishlab chiqarishni modernizatsiyalash, texnik va texnologik qayta jihozlashga ko'maklashuvchi Davlat dasturlari**

| |
|---|
| Umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llari va xo'jaliklararo yo'llarni qurilishi, ta'mirlanishi va qayta jihozlanishi |
| Temir yo'llar qurilishi va elektrlashtirilishi |
| Elektr stansiyalarini modernizatsiyalash, yuqori voltli elektr uzatish liniyalarini qurish va ta'mirlash |
| Gaz uzatish tizimi va gaz taqsimlash liniyalarini |

qurish va kapital ta’mirlash

Xomashyo komponentlarini ishlab chiqarish maqsadida yirik sanoat korxonalari qurilishini moliyalashtirish

Mahalliy butlovchi qismlar ishlab chiqarilishi rivojlanishini rag’batlantirish

Yangi texnologiyalar rivojlantirilishiga ko’maklashish va ilmfan va sanoat o’rtasida o’zaro aloqalarni ta’minlash

Logistika markazlarini rivojlantirish

**5.5-rasm. Ishlab chiqarishni modernizatsiyalash, texnik va texnologik qayta jihozlashga ko’maklashuvchi Davlat dasturlari**

YUqorida ko’rsatib o’tilgan va shunga o’xshash loyihalar bo’yicha moliyalashtirish manbaalari va ishga tushish muddatlarini aniq belgilangan va mahalliy boshqaruv organlari tomonidan ushbu ob’ektlar uchun mahsulot ishlab chiqaradigan va xizmat ko’rsatadigan kichik va o’rta biznes korxonalarini yaratish lozim.

Eksportga yo’naltirilgan iqtisodiyot strukturasining shakllanishini ta’minlash ma’lum bir vaqt va ustuvor vazifalarni bosqichma-bosqich bajarishni talab qiladi.

**Takrorlash uchun savollar**

1. Korxonaning innovatsion salohiyatiga ta’rif bering.
2.Innovatsiyalarning mamlakat iqtisodiyotidagi o’rni qanday.
3.Innovatsiyalarni moliyalashtirish manbalarini sanab bering.

## 6-Mavzu. Innovatsiyalarning sohalar bo’yicha turlari

Reja:

6.1. Xizmatlar sohasidagi innovatsiyalar
6.2. Marketing innovatsiyalari
6.3. Narxlarni shakllantirishdagi innovatsiyalar
6.4. Tashkiliy va biznesni yuritishdagi innovatsiyalar

**Tayanch iboralar:** xizmatlar innovatsiyalari, marketing innovatsiyalari, narxlarni shakllantirishdagi innovatsiyalar, tashkiliy va biznesni yuritishdagi innovatsiyalar.

### 6.1. Xizmatlar sohasidagi innovatsiyalar

Xizmatlar sohasidagi mahsulotlar bo’yicha innovatsiyalar o’z ichiga quyidagilarni oladi: printsipial jihatdan yangi xizmatlarni ishlab chiqish va joriy etish; mavjud xizmatlarga yangi funktsiyalar va xususiyatlar qo’shish orqali uni takomillashtirish;

xizmatlar bilan ta'minlashda (masalan, ularning samaradorligi va tezligi nuqtai-nazaridan) sezilarli darajada yaxshilanishlar.

"Xizmatlar sohasidagi jarayonlar bo'yicha innovatsiyalar xizmatlarni ishlab chiqarish va taqdim etishning yangi yoki sezilarli darajada takomillashtirilgan usullarini ishlab chiqish va joriy etishni o'z ichiga oladi".

Quyidagi o'zgartirishlar, agar ular yangi yoki sezilarli yaxshilangan xizmatlarni, ularni ishlab chiqarish va etkazib berish usullarini joriy etishga bevosita bog'liq bo'lmasa, texnologik innovatsiyalar hisoblanmaydi:

- tashkiliy va boshqarish bo'yicha o'zgartirishlar (jumladan: boshqarishning ilg'or usullariga o'tish, jiddiy o'zgartirilgan tashkiliy tuzilishni joriy etish, tashkilotning iqtisodiy strategiyasida yangi yoki sezilarli o'zgartirilgan yo'nalishlarni amalga oshirish);
- sifat standartlarini joriy etish.

## 6.2. Marketing innovatsiyalari

Marketing innovatsiyalari deganda yangi yoki sezilarli yaxshilangan marketing uslublarini joriy etish tushuniladi. Bular o'z ichiga: mahsulotlarning dizayni va qadoqlanishida jiddiy o'zgartirishlar; mahsulotlarni sotish va taqdimoti bo'yicha, shuningdek ularni bozorlarga tanitish va olg'a siljitish bo'yicha yangi uslublardan foydalanish; yangi narx strategiyalarini shakllantirishni oladi. Bu o'zgartirishlar mahsulot iste'molchilarining ehtiyojlarini to'laroq qondirishga, sotish hajmini ko'paytirish maqsadida mahsulotlar va xizmatlar iste'molchilarining tarkibini kengaytirishga yo'naltirilgan bo'ladi. Mahsulot dizaynidagi o'zgartirishlar yangi marketing kontseptsiyasining bir qismi bo'lib, ular mahsulotning shakli va tashqi ko'rinishidagi o'zgartirishlarni o'z ichiga oladi. Bular mahsulotning funktsional va foydalanish xususiyalariga ta'sir ko'rsatmaydi. SHuningdek, bunday o'zgartirishlarga qadoqlanishi tashqi ko'rinishini ta'riflab beruvchi iste'mol mahsulotlari, ichimliklar, yuvish vositalari kabi mahsulotlarning qadog'idagi o'zgartirishlar ham kiradi.

Mahsulotlarni sotish va taqdimoti bo'yicha yangi uslublardan foydalanish sotishni kengaytirish bilan bog'liqdir. Bunga logistika (xomashyo, tarkibiy qismlar va tayyor mahsulolarni tashish va omborxonalarda saqlashni boshqarish) uslublari kirmaydi. Mahsulot (xizmat)larni bozorga tanitish va olib chiqishning yangi uslublaridan foydalanish tashkilotning mahsulot va xizmatlarini olib chiqish uchun yangi kontseptsiyalardan foydalanishni anglatadi.

## 6.3. Narxlarni shakllantirishdagi innovatsiyalar

Narxlarni shakllantirishdagi innovatsiyalar tashkilotning mahsulotlar va xizmatlar bilan savdo qilishi uchun yangi narx strategiyalaridan foydalanishini bildiradi. Marketing vositalaridagi mavsumiy, doimiy yoki boshqa joriy o'zgarishlar, agar ular yangilik olib kelmasalar, marketing innovatsiyalari hisoblanmaydi. Mahsulotlar bo'yicha innovatsiyalar bilan marketing innovatsiyalarini bir-biridan farqlovchi asosiy mezon bu mahsulotning funktsiyalarida yoki undan foydalanish usullarida jiddiy o'zgarishlar mavjudligidir. "Agar mahsulot va xizmatlarning funktsional yoki foydalanish xususiyatlari mavjud mahsulot va xizmatlarnikidan ancha yaxshilangan bo'lsa, bu mahsulotlar bo'yicha innovatsiyalar hisoblanadi. Mahsulot dizaynidagi o'zgarishlar esa,

agar uning funktsional yoki iste'mol xususiyatlari sezilarli darajada o'zgarmagan bo'lsa, bu marketing innovatsiyalari hisoblanadi".

Jarayonlar bo'yicha va marketing innovatsiyalari o'rtasidagi farq quyidagicha namoyon bo'ladi. Jarayonlar bo'yicha innovatsiyalar mahsulot birliklariga xarajatlarni kamaytirish yoki sifatini oshirishga yo'naltirilgan ishlab chiqarish va mahsulotlarni etkazib berish usullarini takomillashtirish bilan bog'liqdir. Marketing innovatsiyalari esa sotish hajmini yoki mahsulotlar narxini (yangi narx strategiyalarini qo'llagan holda) oshirishga yo'naltirilgan bo'ladi.

### 6.4. Tashkiliy va biznesni yuritishdagi innovatsiyalar

Tashkiliy innovatsiyalar – bu biznesni yuritishda, ish o'rinlarini yoki tashqi aloqalarni tashkil etishda yangi uslublarni ishlab chiqishdir. Bunday innovatsiyalar boshqaruv va transaktsion xarajatlarni qisqartirish, tashkilot tomonidan ishchilarning ish o'rinlari (ish vaqtlari) bilan ta'minlanganlik darajasini oshirish, mehnat samaradorligini oshirish, bozorda mavjud bo'lmagan aktivlarga yo'l topish yoki etkazib berish narxini kamaytirish yo'li bilan tashkilot faoliyatining samaradorligini oshirishga yo'naltirilgan bo'ladi. Tashkilot bunday tashkiliy innovatsiyalarni birinchi bo'lib joriy etgan bo'lishi muhim emas.

"Umuman olganda innovatsiyalarni turlarga ajratganda turli olimlarni yondashuvi xilma xildir. Masalan, Valьras va Bomol  innovatsiyalarni turlarga ajratishda mikroiqtisodiy tomondan yondashib, har bir turdagi innovatsiyani modelь ko'rinishidagi hisob kitobini olib borishgan. Ularga ko'ra, innovatsiyalarning mahsulot turini kengaytirishdagi ahamiyati asosiy e'tibor markazi bo'lgan. Romerning fikricha esa innovatsiyalarni turlarga ajratishda biznesga kirib kelish imkoniyatini bera olish va IIR xarajatlarini hech qiyinchiliksiz qoplay olish asosiy me'zon sifatida keltirilgan".

Biznesni yuritishdagi innovatsiyalar tadbirkorlik faoliyatining yangi tashkiliy usullarini ishlab chiqishni bildiradi. Masalan, ular quyidagilarni o'z ichiga oladi: bilimlarni boshqarishning korporativ usullarini joriy etish; xodimlarning saviyasini oshirishga va ko'chib yurishini kamaytirishga mo'ljallangan o'qitish tizimini yo'lga qo'yish; ishlab chiqarish va etkazib berishni to'liq boshqarish, jumladan etkazib berish zanjirini, ishlab chiqarishni oqilona tashkil qilishni, shuningdek sifatni boshqarish tizimini joriy etish.

Ish o'rinlarini tashkil etish bo'yicha innovatsiyalar  bu tashkilotning alohida faoliyat turi doirasida yoki turli faoliyatlari (tarkibiy bo'linmalari) o'rtasida ishlarning bajarilishi bo'yicha xodimlar orasida javobgarlik va vakolatlarni taqsimlashning yangi usullarini yo'lga qo'yishdir. Shuningdek, faoliyatni strukturizatsiya qilish, ya'ni faoliyatning turli yo'nalishlarini integratsiyalashtirish bo'yicha yangi kontseptsiyalarini joriy etishdir.

### Takrorlash uchun savollar

1.Xizmatlar sohasidagi innovatsiyalarga ta'rif bering.

2.Marketing innovatsiyalari va  narxlarni shakllantirishdagi innovatsiyalarga ta'rif bering.

3.Tashkiliy va biznesni yuritishdagi innovatsiyalar.

4.Jarayonlar bo'yicha va marketing innovatsiyalari o'rtasidagi farq  nimada

## 7-Mavzu. Sanoatda innovatsion modellar

Reja:

7.1. Innovatsion faoliyatni boshqarish uslubiyoti.
7.2. Innovatsion jarayonning chiziqli modeli va uni joriy qilish shartlari.
7.3. Innovatsion faoliyatning boshqarish qonuniyati.

**Tayanch iboralar:** Innovatsion faoliyat, innvatsion jarayon, patent, raqobatbardosh, .

### 7.1. Innovatsion faoliyatni boshqarish uslubiyoti

"Jati Senguptaning innovatsion modellar klassfikatsiyasi quyidagicha:

1. Raqobatdosh innovatsion modellar
2. Texnik innovatsiyalar va diffuzion modellar
3. Kurno-Nashning ortiqchalik samarasi dinamik modeli
4. Talabga oid innovatsion modelь".

Innovatsiya statikada ham, dinamikada ham ko'rib chiqilishi mumkin. Agar statikada yangilik kiritish bu yangiliklarni tijoratlashtirishning yakuniy natijasi bo'lsa, dinamikada yangiliklarni yaratish, o'zlashtirish va tarqatish murakkab jarayoni hisoblanadi.

Innovatsion jarayonning mohiyati shunda namoyon bo'ladiki, u innovatsiyalar tashabbusi bilan chiqish, yangi mahsulot va operatsiyalar ishlab chiqish, ularni bozorda sotish va diffuziyalash bo'yicha maqsadli yo'naltirilgan harakatlar zanjirini ifodalaydi.

YAngi mahsulot (operatsiya) asoslab berilgach, taklif etilayotgan innovatsiyaning marketing tadqiqotlari o'tkaziladi. Marketing tadqiqotlari davomida yangi mahsulot yoki operatsiyaga talab o'rganiladi, agar ular limitlanadigan bo'lsa ularni chiqarish hajmi yoki soni belgilanadi, innovatsiyaga bozorga kirib borayotgan tovar sifatida baxshida etish lozim bo'lgan tovar tavsifnomalari va iste'mol xususiyatlari aniqlanadi. So'ngra innovatsiyani sotish, ya'ni bozorda innovatsiyaning kichik partiyasi paydo bo'lishi, uni ilgari surish, samaradorligini baholash va diffuziyalash amalga oshiriladi.

Quyidagi jadvalda innovatsion faoliyatga ta'sir etuvchi omillar tizimi ko'rsatilgan.

***4-jadval***

Innovatsion jarayonlar rivojlanishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar

| **Omillar guruhi** | **Salbiy ta'sir etuvchi omillar** | **Ijobiy ta'sir etuvchi omillar** |
|---|---|---|
| *Iqtisodiy* | Investitsiya mablag'larining etishmasligi | Zaruriy moliyaviy zaxiralarning mavjudligi |
| *Texnologik* | Moddiy-texnika va ilmiy-texnikaviy ishlar uchun zarur bo'lgan sharoitlarning talabga javob bermasligi. Mavjud texnologiyalarining eskiligi va hokazo | Etarli darajada moddiy-texnikaviy bazaning va ishlab chiqarish texnologiyalari, xo'jalik hamda ilmiy-texnikaviy infratuzilmaning mavjudligi |
| *Siyosiy* | Antimonopol qonunlar tomonidan cheklanganligi | Qonuniy chora-tadbirlarning yaratilishi |

| | | |
|---|---|---|
| *Huquqiy* | Soliq, amortizatsiya, patent-lash va litsenziyalashtirishning talabga javob bermasligi | Innovatsion faoliyatning rivojlanishini huquqiy ta'minlash |
| *Tashkiliy* | Tashkiliy tarkiblarning eskirishi | Bozor sharoitlaridan kelib chiqqan holda tashkiliy tarkibni takomillashtirishga moyilligi |
| *Boshqaruv* | Markazlashtirilgan avtoritar boshqaruv, axborotlar bilan ta'minlashning va sub'ektlar hamda ichki sub'ektlar munosabatlarining murakkabligi. Innovatsion jarayon bo'yicha kelishuvning murakkabligi | Ishlab chiqarish tashkiliy tizimining muqobilligi, demokratik boshqaruvga asoslanishi, axborotlar bilan ta'minlanishi. Innovatsion jarayonni amalga oshirishda umumiy maqsadning shakllanishi |
| *Ijtimoiy-psixologik* | Ishlab chiqarish yo'nalishining o'zgarishi asosida yangi ish joylarining moslashuvi, mavjud ishlab chiqarish faoliyatini qayta tashkil etish. Ishlab chiqarish eski usullarining mavjudligi, ishlab chiqarish oldidagi qo'rquv, omadsizlik | Ma'naviy rag'batlantirish. Ijtimoiy tan olish, innovatsion mehnatga sharoit yaratish, talab darajasida psixologik sharoitlar yaratilishi |
| *Madaniy* | Sub'ektlar o'rtasidagi ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy munosabatlarning talabga javob bermasligi, ishonchga, hurmatga asoslanmaganligi | O'zining innovatsion mahoratini ko'rsatishga sharoitning mavjudligi. Sub'ektlar o'rtasidagi munosabatlar tenglik, ishonchlilik munosabatlariga va hurmatga asoslanishi |

### 7.2. Innovatsion jarayonning chiziqli modeli va uni joriy qilish shartlari

XX asrning ikkinchi yarmi innovatsion rivojlanish bo'yicha hayratlanarli misollarni taqdim etdi. Jahon innovatsion maydonida o'zlarining afzalliklarini ishga solishga barcha diqqatini qaratgan, o'z milliy, ilmiy-texnikaviy va texnologik siyosatini shakllantirgan mamlakatlar raqobatbardosh bo'lib chiqdilar.

Ushbu ko'rsatkichlar o'rtasidagi farq turlicha nomlanadi: intellektual kapital, ko'rinmas aktivlar (6-rasm). Agar barcha tarkibiy elementlarni bir maxrajga keltirishga urinib ko'rilsa, unda bular turli bilim shakllari ekanligi ayon bo'ladi.




**7-rasm. Intellektual kapitalning tarkibi**




**7-rasm. Innovatsion jarayonning chiziqli modeli**

### 7.3. Innovatsion faoliyatning boshqarish qonuniyati

Innovatsion faoliyatning nazariy asoslari iqtisodchi olimlar tomonidan atroflicha tadqiq etilgan. Xususan, Avstriyalik olim Y.SHumpeter innovatsion o'zgarishlarni besh yo'nalishga bo'lgan: yangi texnika va texnologik jarayonlar yoki ishlab chiqarishni yangi bozor asosida ta'minlash; yangi xususiyatlarga ega bo'lgan mahsulot turlarini yaratish; yangi xom-ashyolardan foydalanish; ishlab chiqarishni tashkil etishni takomillashtirish va yangi innovatsion tovarlar bilan ta'minlash; yangi iste'mol bozorlarini ochish.

Innovatsion jarayon innovatsion faoliyatga nisbatan keng ma'noga ega bo'lib, innovatsion jarayonning amalga oshirish xususiyatlari mavjud (9-rasm).




**9-rasm. Innovatsion jarayonni amalga oshirish xususiyatlari**

"Asosiy rivojlanishga nafaqat innovatsiyalarni sanoat bilan bog'lash orqali, balki tarkibiy o'zgarishlarni va ularda innovatsiyalarni amalga oshirish orqali erishilganligi Metkalfe, Dosi, Montobbio, De Bresson va Andersenlarning ilmiy ishlarida aniq yoritilgandir".

### Takrorlash uchun savollar

1. Innovatsion jarayon, g'oyalarni murakkab zanjirini ifodalab bering.
2. Innovatsion faolyatga ta'sir etuvchi asosiy omillarni ko'rsatib bering.
3. Innovatsion faoliyatni bashqarishni qanday qonuniyatlarini bilasiz?
4. Innovatsion jarayonni amalga oshirish xususiyatlarini sharxlang.

## 8-Mavzu. Ilmiy texnika taraqqiyoti va uni boshqarish

Reja:

8.1. Ilmiy texnika taraqqiyotini boshqarishning davlat siyosati, mohiyati va uning bosh maqsadi.

8.2. Ilmiy texnika taraqqiyotini boshqarishning huquqiy asoslari va innovatsion siyosat yo'nalishlari.

8.3. Ilmiy-tadqiqot va innovatsion faoliyatni boshqarish mexanizmi.
8.4. Xalqaro ilmiy tadqiqot ishlari va ularning huquqiy muhofazasi.

**Tayanch iboralar:** ilmiy tadqtqot, ilmiy texnika, innvatsion faoliyat, imtiyoz, strategiya

## 8.1. Ilmiy texnika taraqqiyotini boshqarishning davlat siyosati, mohiyati va uning bosh maqsadi

Zamonaviy sharoitlarda innovatsion faoliyatni me'yoriy-huquqiy tartibga solish quyidagilarni ta'minlashi lozim bo'lgan qonunlar va me'yoriy hujjatlar ishlab chiqish va joriy qilishni nazarda tutadi:

1) innovatsion faoliyat mahsulotlarini sotishdan olingan foyda va mablag'larning bu ulushini imtiyozli soliqqa tortish hisobiga davlat, jamoat tashkilotlari, korxonalar va xususiy shaxslar o'z daromadlarining sezilarli qismini innovatsion faoliyatga kiritishdan manfaatdorligi;
2) kooperatsiya bo'yicha barcha hamkorlar va qatnashchilarning innovatsion g'oyani tovar ko'rinishigacha etkazish va soliq to'lovlarini kamaytirish yoki soliqlardan ozod qilish hisobiga ularni bozorda tijorat asosida sotish;
3) innovatsion faoliyat qatnashchilarining kafolatlangan va imtiyozli kredit olish imkoniyati;
4) ilmiy jamoalarning ham, alohida olimlar va mutaxassislarning ham intellektual mulk huquqlari himoya qilinishini ta'minlash;
5) innovatsion jarayon qatnashchilari va ijrochilarining ham, bu jarayonlarni moliyalashtiruvchi investorlarning ham sug'urta himoyasi va umume'tirof etilgan ijtimoiy maqomini ta'minlash.

## 8.2. Ilmiy texnika taraqqiyotini boshqarishning huquqiy asoslari va innovatsion siyosat yo'nalishlari

*"Ko'chirib o'tkazish" strategiyasi* mavjud xorijiy ilmiy-texnika salohiyatidan foydalanish va yangiliklar kiritishni o'z iqtisodiyotiga ko'chirib o'tkazishdan iborat". Bu strategiya birinchi navbatda, YAponiyada ikkinchi jahon urushidan keyingi yillarda foydalanilgan, AQSH, Angliya, Frantsiya, Rossiya kabi rivojlangan mamlakatlarda xorijda talab yuqori bo'lgan yangi mahsulotlar ishlab chiqarishni o'zlashtirish uchun yuqori samarali texnologiya litsenziyalar xarid qilingan, kelgusida fundametal tadqiqotlar va loyihalardan tortib to innovatsiyalarni joriy qilish, ularni mamlakat ichkarisida va jahon bozorida amalga oshirishgacha bo'lgan butun innovatsion tsiklni ta'minlagan o'zining ilmiy-texnik va ilmiy-islomiy salohiyati yaratilgan.

*"O'zlashtirish" strategiyasi* shundan iboratki, arzon ishchi kuchiga tayangan o'zining yo'qotilayotgan ilmiy-texnik salohiyati bir qismidan foydalangan holda ilgari sanoati rivojlangan mamlakatlarda ishlab chiqarilgan mahsulotni ishlab chiqarish o'zlashtiriladi, kelgusida ishlab chiqarishga muhandislik-texnik hamkorlik qilish hamda iqtisodiyotning davlat va bozor shakllarini uyg'unlashtirgan holda innovatsion faoliyatni kuchaytirishni ta'minlash, o'zining ilmiy-tadqiqotchilik va tajriba-konstruktorlik ishlarini o'tkazishga qodir bo'lgan ilmiy-texnik salohiyat tiklanadi".

## 8.3. Ilmiy-tadqiqot va innovatsion faoliyatni boshqarish mexanizmi




**10-rasm. Davlatning innovatsion tizimi modeli**

8.4. Xalqaro ilmiy tadqiqot ishlari va ularning huquqiy muhofazasi.



**10-rasm. Ilmiy va innovatsiya faoliyatini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmi**

## Takrorlash uchun savollar

1. Innovatsiya faoliyatiga davlatning faol aralashuv strategiyasining maqsadi nimadan iborat?
2. Ilmiy faolliyatni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishini tushuntiring?
3. Ilmiy-texnik raqobat nima?
4. Innovatorlar mehnatini rag'batlantirish deganda nimani tushunasiz?
5. Halqaro ilmiy hamkorlikni rivojlantirish yo'llarini aytib bering?

# 9-Mavzu. Intellektual kapital, intellektual mulkni shakllantirish va boshqarish

Reja:

9.1. "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar" to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Qonuni.

9.2. Patent huquqining rivojlanish tarixi.

9.3. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida intellektual mulkni O'zbekistonda muhofazalash

9.4. Butun jahon intellektual mulk tashkiloti.

## 9.1. "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar" to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Qonuni

Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida O'zbekiston Respublikasining Qonuni 1996-yil 30 avgust (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1996-yil, 135-modda) qabul qilingan.

I. Umumiy qoidalar.

1-modda. Asosiy tushunchalar.

Ushbu Qonunda quyidagi asosiy tushunchalar qo'llaniladi:

«Muallif» ijodiy mehnati bilan asar yaratgan jismoniy shaxs;

«Yozuv» ovozlar va (yoki) tasvirlarning ularni texnikaviy vositalar yordamida qayta-qayta idrok etish, takrorlash yoki uzatish imkonini beradigan biror-bir moddiy shakldagi mujassami;

«Ijrochi» aktyor, qo'shiqchi, musiqachi, raqqos yoki rol o'ynaydigan, o'qiydigan, ifodali o'qiydigan, musiqa asbobini chaladigan yohud adabiyot yoki san'at asarnni (shu jumladan estrada, stirk yoki qo'irchoqli nomerni) boshqa bir tarzda ijro etadigan shaxs, shuningdek spektaklning sahnalashtiruvchi rejissyori va dirijyor;

«E’lon qilish (oshkor qilish, chop etish)» ommaning oqilona talab-ehtiyojlarini qondirish uchun hamda asarning, fonogrammaning xususiyatidan kelib chikqani holda asar, fonogramma nusxalarini muomalaga etarli miqdorda chiqarish;

«Manzarali amaliy san’ag asarlari» amalda foydalaniladigan buyumlarga ko’chirilgan ikki o’lchovli yoki uch o’lchovli san’at asari, shu jumladan, badiiy hunarmandchilik asari yoki sanoat yo’li bilan tayyorlanadigan asar;

«Fonogramma» biron-bir ijro yoki boshqa ovozlarning har qanday mutloqo ovozli yozuvi;

«Asar nusxasi» asarning har qanday moddiy shaklda tayyorlangan ko’chirmasi;

«Fonogramma nusxasi» fonogrammadan bevosita yoki bilvosita tayyorlangan va shu fonogrammaga jo bo’lgan ovozlarning hammasinn yoki bir qismini qamrab olgan har qanday moddiy jismdagi fonogramma ko’chirmasi.

## 9.2. Patent huquqining rivojlanish tarixi

Patent huquqi. U dastlab feodalizmning so’ngi davrlarida feodal jamiyat negizida xo’jalik yuritishning kapitalistik usuli vujudga kelib, rivojlana boshlashi bilan yuaga keldi. Patent huquqi ishlab chiqarishning kapitalistik usuli ustun kelishi va hokimiyatning burjuaziya yo’liga o’tishi natijasida shakllandi (12-rasm).




**12-rasm. Milliy patent tizimlari sxemasi**

“Innovatsion musobaqa patentlar poygasini o’z ichiga olib, firmalararo innovatsiyada birinchilikka sazovor bo’lish deganidir. Patentlar poygasida birinchilikni olgan firma o’z mahsulotini sotishda maxsus huquqqa ega bo’lib bozorda o’z monopoliyasiga 15 yildan 20 yilgacha bo’lgan davrda erishadi”.

## 9.3. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida intellektual mulkni O’zbekistonda muhofazalash

O’zbekistonda muhofaza qilinadigan ixtiro, foydali modellar, sanoat namunalari tarkibidagi qurilmalarni boshqa davlat Parij konvensiyasi ishtirokchisining transport vositasida, bu transport vositasi vaqtincha yoki tasodifan O’zbekiston Respublikasi hududida bo’lganda qo’llanish, bunda bu qurilmalar faqat shu vosita ehtiyojlari uchungina foydalanilishi shart;

Tarkibida patentlangan obektlar bo’lgan vositalar ustida ilmiy tadqiqot yoki tajribalar o’tkazish.

Tabiiy ofatlar, halokatlar, epidemiyalar va boshqa favqulodda hollarda tarkibida patentlangan obektlar bo’lgan vositalarning qo’llanishi. Vazirlar Mahkamasi milliy

xavfsizlik manfaatlari yo'lida patentlangan obektlardan foydalanish to'g'risida patent egasining roziligini olmasdan turib qaror qabul qiladi, lekin bunday hollarda obe'ktdan foydalanilgani uchun unga tegishli tovon to'lanadi.

Tarkibida patentlangan obektlar bo'lgan vositalarni, agar bu vositalar qonuniy yo'l bilan xo'jalik aylanmasiga kiritilgan bo'lsa, qo'llanish (masalan, patent egasining o'zi yoki uning litsenziyasi).

Dorixonalarda shifokor restepti bo'yicha dorilarni bir marta tayyorlash.

Ixtiroga patent ixtironing ustuvorlik sanasidan boshlab yigirma-yil mobaynida amal qiladi, mohiyati bo'yicha ekspertiza o'tkazilgandan so'ng beriladi.

Ixtiroga dastlabki patent dastlabki ekspertiza o'tkazilgandan so'ng berilib, ustuvorlik sanasidan boshlab besh-yil mobaynida amal qiladi. Talabnoma beruvchining mohiyati bo'yicha ekspertiza o'tkazish to'g'risidagi iltimosiga ko'ra patentga aylantirilishi mumkin.

## 9.4. Butun jahon intellektual mulk tashkiloti

Butun jahon intellektual mulk tashkilotining tarixi 1883 va 1886-yillardan Sanoat mulkini muhofaza qilish Parij konvensiyasi va Adabiy va badiiy asarlarni muhofaza qilish Bern konvensiyasi qabul qilingandan boshlangan. Bu Konvensiyalar "Xalqaro byurolar" deb nomlangan o'z kotibiyatlarini tashkil etishni ko'zda tutgan edi. 1893-yilda bu ikki kotibiyat "Intellektual mulkni muhofaza qilish bo'yicha birlashgan xalqaro byurolar" yoki fransuz tilida qisqartirilgan BIRPI nomi ostida yagona kotibiyatga birlashtirildi.

Hozirgi Butun jahon intellektual mulk tashkiloti (qisqartirilgan shaklda "BMT", 1967-yil 14-iyulda imzolangan "Butun jahon intellektual mulk tashkilotini ta'sis etish Konvensiyasi"ga muvofiq tuzilgan. Bu Konvensiya 1970-yilda kuchga kirgan.

Hozirda BIMT Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) tizimi tarkibiga (1974-yil dekabridan) kiruvchi ixtisoslashgan muassasadan iborat.

2001-yil 1-yanvariga kelib tashkilot 175 davlatni birlashtirdi.

# 10-Mavzu. O'zbekiston milliy innovatsion tizimi

Reja:

10.1. O'zbekistonda milliy innovatsion tizimning shakllanishi.
10.2. Innovatsiyaga asoslangan iqtisodiy tizimning xususiyatlari.
10. 3. O'zbekistonda milliy innovatsion tizimning rivojlanish istiqbollari.
10.4. O'zbekiston Respublikasida texnologik va sotsiogenetik innovatsiyalar.

**Tayanch iboralar:** Milliy innovatsion tizim. Innovatsiyaga asoslangan iqtisod. O'zbekistonda milliy innovatsion tizimning rivojlanish istiqbollari.

## 10.1.O'zbekistonda milliy innovatsion tizimning shakllanishi.

Milliy innovatsion tizimni shakllantirish kontseptsiyasi o'tgan asrning 80 yillar boshidan rivojlana boshladi. Bunda "milliy" so'zi tavsifi aynan "davlat" innovatsiya tizimi degan mazmunni anglatadi.

Turli mamlakatlarning milliy innovatsion tizimi bir biridan farq qiladi. SHu kungacha milliy innovatsion tizimining yagona ta'rifi mavjud emas. SHuningdek, turli mamlakatlar milliy innovatsion tizimi oldiga turli maqsadlar qo'yilishi mumkin.

Frantsiyada milliy innovatsion tizimining asosiy vazifasi qo'shimcha ish o'rinlari tashkil qilish, Germaniyada ilg'or texnologiyalarni rivojlantirishdan iborat, deb hisoblanadi. Bunda evropalik ekspertlarning bergan baholariga ko'ra, har ikki milliy innovatsion tizimning umumiy samaradorligi deyarli bir xil.

Innovatsiya faoliyatining rivojlanishiga na davlat turi, na siyosiy tadbirlar ta'sir ko'rsata oladi. Innovatsiya faoliyati federal davlatlarda ham (AQSH, Germaniya), unitar davlatlarda ham (Frantsiya), konstitutsion monarxiya davlatlarida ham (Buyuk Britaniya, Gollandiya, Ispaniya), shuningdek kommunistik tartibga ega davlatlarda (Xitoy) ham muvaffaqiyatli rivojlanaveradi. Bunda umumiylik shundaki, xorijda innovatsion jarayolarning rivojlanishi barqaror siyosiy vaziyat va barqaror faoliyat yuritayotgan iqtisodiyot sharoitida yu beradi.

Milliy innovatsion tizimi kontseptsiyasi Evropa ittifoqining bir qator a'zo mamlakatlarida, shuningdek, AQSH va YAponiyada keng rivojlangan. Milliy innovatsion tizimi innovatsion faoliyat sub'ektlari majmuidan, ular o'rtasidagi bilimlarning yuaga kelishi, tarqalishi va ulardan foydalanish jarayonlarini ta'minlab beruvchi munosabatlardan tashil topadi. Innovatsiya tizimining asosiy elementlari qatorida innovatsiya infratuzilmasi, moliyaviy infratuzilma, ilmiy salohiyat kabi kichik tizimlarni sanab o'tish mumkin. Ularning har birida tadqiqotlarni moliyalashtirishning asosiy qismi (100%gacha) byudjet manbalaridan (ham federal, ham mintaqaviy byudjetlardan) amalga oshiriladi.

"O'zbekiston innovatsion rivojlanish turining hozirgi zamon modeliga o'tish uchun hamma zarur sharoitlarga ega. Bu model vujudga keltirilgan ilmiy-texnikaviy salohiyatdan keng va samarali foydalanishga, fundamental va amaliy keng joriy etishga, yuqori malakali, iqtidorli ilmiy kadrlar sonini ko'paytirishga asoslanadi".

Bozor iqtisodiyoti sharoitida nafaqat ichki, balki tashqi bozorda ham xaridorgir, ilm talab va yuksak texnologiyalarga asoslangan mahsulotlar ishlab chiqarishning o'rni katta. SHu bois butun dunyoda yangi va ilg'or texnologiyalarning bozor qiymati oshmoqda. O'zbekiston bu borada katta salohiyatga ega. Davlatimiz rahbarining ilm-fanni rivojlantirishga katta e'tibor qaratayotgani tufayli ushbu salohiyat yuksalib bormoqda. Har yili istiqbolli ilmiy g'oya va loyihalarni amalga oshirish uchun davlat grantlari ajratilmoqda. Davlat ilmiy-texnik dasturlari doirasida ro'yobga chiqarilayotgan fundamental va amaliy tadqiqotlar jahon ilm-fani uchun ham katta ahamiyatga egadir. Olimlar o'z ishlarini, birinchi navbatda, iqtisodiyot va ijtimoiy sohalar oldida turgan aniq vazifalarni hal etishga yo'naltirayotir.

## 4.2. Innovatsiyaga asoslangan iqtisodiy tizimning xususiyatlari.

Rivojlanishning innovatsion tizimida milliy innovatsion tizimni shakllanishi alohida e'tiborni talab qiladi. Milliy innovatsion tizim tushunchasi innovatsion iqtisodiyotning muhim belgisi sifatida fanga XXasrning 70-yillarida kirib keldi.

K.Frimanning fikriga ko'ra, milliy innovatsion tizim jamiyat tomonidan iste'mol qilinadigan yangi texnologiyalar, mahsulotlar va xizmatlarning yaratilishidagi yangi bilimlarni ishlab chiqishda, saqlashda, tarqatishda va yangi texnologiyalarga aylanishida qatnashadigan iqtisodiy sub'ektlar va ijtimoiy institutlarning (qadriyatlar, me'yorlar, huquqlarning) murakkab tizimi hisoblanadi.

Texnologik izchillik qonuniyatlarini va uning tarixiy mantiqiy ketma-ketligini o'rganadigan evolyutsion iqtisodiy nazariya "texnik iqtisodiy pradigma" va "texnologik traektoriya" tushunchalariga asoslanadi. U makrodarajadagi iqtisodiy o'sish bir tomondan

turli-tumanlikka va noaniqliklarga, ikkinchi tomondan esa mikrodarajada iqtisodiy jarayonlarni bir-biriga uyg’unlashtirish, mutanosiblikni ta’minlash, muvofiqlashtirish va standartlashtirishga bog’liqligini qayd etadi.

Innovatsion rivojlanish kontseptsiyasi Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti (OESR), Jahon banki va boshqa qator xalqaro tashkilotlarning tashabussiga ko’ra keng rivojlanmoqda. Mazkur xalqaro institutlarning tashabbusi bilan keyingi yillarda bir qator analitik tadqiqotlar amalga oshirildiki, ularning tadqiqotlari milliy iqtisodiyotni an’anaviy industrial iqtisodiyotdan bilimga, ilmga asoslangan postindustrial iqtisodiyotga tarnsformatsiya jarayonlariga bag’ishlangan.

Global miqyosda kechayotgan tendentsiyalar mamlakat, uning mintaqalari, barcha faoliyat sohalari, birinchi navbatda, fan-texnika va innovatsiyalar sohasini yanada rivojlantirish stsenariylarini ishlab chiqishda albatta hisobga olinishi lozim. Ilmiy-texnik va innovatsion faoliyatni kuchaytirish, yuqori texnologiyali va ko’p ilm talab qiladigan ishlab chiqarishlarni rivojlantirish hisobiga iqtisodiyotni tarkibiy qayta qurish, yuqori texnologiyali ukladga o’tish O’zbekistonning jahon iqtisodiyotiga teng huquqli hamkor sifatida kirib borishidan umid qilishga imkon beradigan zarur shartlardan biri hisoblanadi.

Jamiyatning rivojlanishi bilan fan o’sish tendentsiyalari va o’ziga xos qonunlariga, ish usullari, texnika va texnologiyalariga, mehnatni tashkil qilish tizimi va tamoyillariga, maxsus tayyorlangan kadrlarga ega bo’lgan inson faoliyatining mustaqil bir sohasiga aylandi. Bu boshqa ko’pchilik sohalardan farqli ravishda, o’sish chegarasini bilmaydigan, doimiy ravishda rivojlanib boradigan sohadir. SHu bilan birga, fan sohasi uchun ajratiladigan resurslar mehnat resurslari, moliyaviy resurslar va moddiy resurslar ma’lum bir chegaraga ega. Aynan resurslar cheklanganligi bu resurslardan ilmiy-texnik faoliyatning ustuvor yo’nalishlari va turlarida maqsadli foydalanishga yo’naltirish taktika va strategiyasini ishlab chiqishga majbur qiladi.

Ta’lim va yangilik uchun innovatsiya dinamikasi va oqibatlarini o’zgartirish muhim hisoblanadi. Rivojlanayotgan mamlakatlarda bilimga asoslangan iqtisodiyot va globallashuv innovatsiyalarning doimiy o’sish dinamikasida qayt etiladi.

Ilmiy faoliyat (ilmiy-tadqiqotchilik faoliyati)- yangi bilimlar olish va qo’llashga yo’naltirilgan faoliyat, jumladan:

- fundamental ilmiy tadqiqotlar inson, jamiyat va atrof-muhit tuzilishi, faoliyati va rivojlanishining asosiy qonuniyatlari haqida yangi bilimlar olishga yo’naltirilgan eksperimental yoki nazariy faoliyat;
- amaliy ilmiy tadqiqotlar – asosan amaliy maqsadlarga erishish va muayyan vazifalarni hal qilish uchun yangi bilimlar qo’llashga yo’naltirilgan tadqiqotlar.

Ilmiy-texnik faoliyat (ITF) texnologik, muhandislik, iqtisodiy, ijtimoiy, gumanitar va boshqa muammolarni hal qilish, fan, texnika va ishlab chiqarishning umumiy (yaxlit) tizim sifatida faoliyat yuritishini ta’minlash uchun yo’naltirilgan faoliyat.

Eksperimental ishlanmalar ilmiy tadqiqotlar o’tkazish natijasida yoki amaliy tajriba asosida olingan bilimlarga asoslangan hamda inson hayoti va salomatligini asrash, yangi materiallar, mahsulotlar, jarayonlar, qurilmalar, tizimlar yoki usullar yaratish va ularni yanada takomillashtirishga yo’naltirilgan faoliyatlir.

ITF alohida turlarga taqsimlanadi. Ular o’rtasidagi chegara shartli hisoblanadi va ularni ajratish qiyin bo’ladi. Buning ustiga, ITFda band bo’lganlar uning bir turi bilan tobora kamroq chegaralanmoqda. Masalan, olim va ixtrochi “fan ishlab chiqarish iste’mol” butun tsiklida ishtirok etishi mumkin.

ITF nafaqat natijalari ilmiy tadqiqotlar va konstruktorlik ishlanmalar hisoblangan sohani (ITTKI), balki loyiha va konstruktorlik tashkilotlari, ishlab chiqarish apparati, xo'jalik tarmoqlari va sanoatning ushbu yutuqlardan foydalanish qobiliyatini, jumladan, buning uchun zarur bilimlarga ega bo'lgan kadrlar tayyorlash qobiliyatini o'z ichiga oladi. ITF toifalarini tavsiflashga bunday yondashuv ITF boshqaruvi uchun metodologik jihatdan muhim ahamiyatga ega, chunki unga amal qilgan holda boshqaruv va tashkilot ob'ektlari yangi texnika va texnologiyalar yaratish, ishlab chiqarish va qo'llashning barcha bosqich va shakllarida o'zaro bog'liqlikda bo'lishi lozim. U amalda "fan ishlab chiqarish iste'mol" tsikli haqidagi tasavvurdan uzviy birlikda foydalanish imkonini beradi.

Bunday yondashuv shu jihatdan ham mahsuldor hisoblanadiki, u inson faoliyatining har xil turdagi va darajadagi ilmiy-texnik komplekslarni shakllantirishni asoslab bergunga qadar ushbu sohasini tashkil qilish shakllarini izohlab va asoslab beradi.

Fan bilim olish, ta'lim, madaniy, ijtimoiy, harbiy va boshqa bir qator funktsiyalarni bajaradi. Biroq tovar-pul munosabatlarining rivojlanishi bilan iqtisodiy funktsiya asosiy funktsiyalardan biriga aylanmoqda. U boshqa barcha faoliyat sohalarida muayyan mehnat unumdorligini oshirish va tejamkorlikning asosiy omiliga aylanadi. Ta'kidlash joizki, ishlab chiqarish va boshqa sohalarda mehnatni tejash fanning o'zidagi mehnat sarfiga bog'liq. Bu bog'liqlik fan sohasiga jamiyat uchun zarur bo'lgan xarajatlarni shakllantirish ob'ektiv ehtiyojini asoslab beradi. Mehnatni tejash qonuniyligi qanchalik kuchli bo'lsa, jamiyatda mehnat va resurslarning shunchalik katta qismi fanni rivojlantirishga yo'naltirilishi lozim, demak, ilmiy bilimlar qiymati o'sadi. Mahsulot ishlab chiqarishning ko'p ilm talab qilishi, xo'jalikning ko'p ilm talab qiladigan tarmoqlari paydo bo'lishi va rivojlanishi tendentsiyasi o'sishining nazariy asoslari shundan iborat bo'lib, bu boshqaruvning turli pog'onalarida ilmiy-texnik va innovatsion siyosat ishlab chiqish va amalga oshirda albatta hisobga olinishi zarur.

Fanning bevosita mahsuli tushunchalar, nazariy konstruktsiyalar, modellar va yangi bilimlar tarkibidagi boshqa axborot bo'lib, mutaxassislar tomonidan bir xilda tushunilish va o'zlashtirishni ta'minlaydi.

Fanning bevosita mahsuli tovarga aylanmaydi u yangilik sifatida namoyon bo'ladi.

Fan mahsuli yoki intellektual mahsulot ikki xil yo'l bilan – bozorda va bozordan tashqarida sotish yo'li bilan foydalanilishi mumkin. Agarda intellektual faoliyat mahsuloti bozorda sotiladigan bo'lsa, bu holda u yangiliklar toifasidan innovatsiyalar toifasiga o'tadi.

Fanni bozor munosabatlari tizimiga jalb qilish uchun hozirgi paytda oraliq natija ilmiy-texnik mahsulot shartnoma shartlariga muvofiq yakunlangan, bozor narxlarida sotiladigan, buyurtmachi tomonidan qabul qilingan ITTKI natijasi hisobga olinadi. «Yangiliklar kiritish» («innovatsiya») atamasi oxirgi 15-20 yildan beri ilmiy adabiyotlarda va amaliy faoliyatda keng qo'llana boshladi.

Yangilik kiriti (novshestvo) bu biron-bir faoliyat sohasida uning samaradorligini oshirish bo'yicha fundamental va amaliy tadqiqotlarning rasmiylashtirilgan natijasidir.

Yangilik kiritish fan va texnika yutuqlaridan bozorda amaliy foydalanish bo'yicha faoliyatning oraliq yakunigina, xolos. YAngilik kiritish intellektual mahsulotning quyidagi turlaridan biri sifatida qayd etilishi va rasmiylashtilishi mumkin: ixtiro, tushuncha, ilmiy yondashuv, yangi tamoyil, standart, tavsiya, uslubiyat, yangi yoki takomillashtirilgan mahsulot (texnologiya, boshqaruv yoki ishlab chiqarish jarayoni, tashkiliy, ishlab chiqarish yoki boshqa struktura) hujjatlari, patent, ratsionalizatorlik takliflari, kashfiyotlar, «nou-xau», marketing tadqiqotlari natijalari va h.k. YAngilik

kiritish atamasining sinonimi hisoblangan novatsiya tushunchasi ilgari mavjud bo’lmagan bironta yangilikni ifodalaydi.

«Yangilik kiritish» va «novatsiya» tushunchalari bilan «tadqiqot», «ixtiro» va «kashfiyot» tushunchalari chambarchas bog’liqdir.

**Ilgari ma’lum bo’lmagan ma’lumotlar olish yoki ilgari ma’lum bo’lmagan tabiat hodisalarini yoki insoniyat muhitini kuzatish jarayoni tadqiqot deb ataladi.**

Ixtiro bu yangi uskuna, mexanizm, vosita, texnologiya, usul va inson tomonidan yaratilgan boshqalarda o’z aksini topadigan tadqiqot natijasidir.

Kashfiyot bu tadqiqotlarning, ehtimol, qo’shimcha natijasi hisoblanadi. Kashfiyotlar va ixtirolar qoidaga ko’ra, fundamental darajada yuaga keladi va kamdan-kam hollarda yakka shaxslar tomonidan amalga oshiriladi. Ular tasodifan ro’y berishi va foyda olish maqsadini ko’zlamasligi ham mumkin.

Yangilik ishlab chiqarish va boshqaruv tizimiga joriy qilinganidan so’ng bozorda iste’mol qilinadigan yangi mahsulotga aylanadi va uni sotishdan iqtisodiy, ijtimoiy yoki boshqa turdagi samara olinadi, u yangi toifaga innovatsiyalarga aylanadi.

Adabiyotlarda «innovatsiya» atamasiga berilgan ko’plab ta’riflarni topish mumkin. Biroq, tadqiqotchilarning ushbu iqtisodiy toifaga alohida e’tibor ko’rsatishlariga qaramay, ilmiy g’oya haligacha «innovatsiyalar» tushunchasining ham nazariya, ham amaliyot talablariga javob beradigan, shuningdek, ularni amalga oshirishning muayyan sub’ekti davlat, mintaqa, tarmoq va korxona nuqtai nazaridan to’g’ri bo’ladigan universal ta’rifini ishlab chiqmagan.

«Innovatsiyalar» atamasini yangi iqtisodiy toifa sifatida fanga avstriyalik (keyinchalik amerikalik) olim Yozef SHumpeter XX asrning birinchi o’n yilligida kiritgan. O’zining «Iqtisodiy rivojlanish nazariyasi» nomli asarida (1911y.) Y.SHumpeter ilk bora rivojlanishda o’zgarishlarning yangi kombinatsiyalari masalalarini (ya’ni innovatsiya masalalarini) ko’rib chiqdi va innovatsion jarayonga to’liq tavsif berdi.

Y. Shumpeter rivojlanishdagi besh xil o’zgarishni ajratib ko’rsatdi:

1) yangi texnika, texnologik jarayonlar yoki ishlab chiqarishning yangicha bozor ta’minotidan foydalanish;

2) yangi xususiyatlarga ega bo’lgan mahsulot joriy qilish;

3) yangi xomashyodan foydalanish;

4) ishlab chiqarishni tashkil qilish va uning moddiy-texnika ta’minotida o’zgarishlar;

5) yangi sotuv bozorlarining paydo bo’lishi.

U iqtisodiyotda novator-tadbirkor markaziy figuraga aylanishini isbotlab berdi. Y.SHumpeterga ko’ra, innovatsiya bu iste’mol tovarlarining yangi turlari, yangi ishlab chiqarish va transport vositalari, yangi bozorlar va sanoatda tashkilotlar shakllarini joriy qilish va foydalanish maqsadidagi o’zgarishlardir.

Innovatsion strategiya bu jamiyat rivojlanishi yo’nalishiga muvofiq texnologiyalarda ham, texnologiyalarni boshqarishda ham yangiliklar kiritishni tanlash va amalga oshirish tizimlarini o’zgartirish jarayonini belgilab beradigan qoidalar va me’yorlar to’plamidir. Innovatsion strategiyaning eng oliy vazifasi – innovatsion jarayon qatnashchilarining manfaatlari va turli yo’nalishdagi jarayonlarni maksimal darajada uyg’unlashtirish hisoblanadi.

Mamlakatimiz iqtisodiyotining hozirgi holati milliy iqtisodiyotda innovatsion o’zgarishlarni amalga oshirish sur’atlarini jadalashtirishni talab etmoqda. Iqtisodiyoti rivojlangan mamalakatlar tajribasi shuni ko’rsatmoqdaki chuqur, samarali innovatsion strategiyani amal qilishi mamlakat iqtisodiy va tabiiy omillaridan oqilona foydalanish orqaligina amalga oshirish mumkin. Bozor iqtisodiyotiga o’tish sharoitida iqtisodiyot

innovatsion shakllanishi eng avvalo iqtisodiy o’sishni ta’minlovchi tarmoqlar hisobiga yu beradi, bu esa o’z navbatida mamlakat iqtisodiyotini xom ashyo eksport qilishini kamaytirish bilan birga uni qayta ishlashni rivojlantirishga, valyuta mablag’larining tejalishiga, aholi bandligining oshishiga sabab bo’ladi. Ushbu omillar o’z navbatida innovatsiya strategiyasini amalga oshirish mamlakatimizning jahon hamjamiyatidagi o’rnini mustahkamlanishiga olib keladi.

**Fan, ta’lim va ishlab chiqarish integratsiyasi** Fanning zimmasiga jamiyatga yangi imkoniyatlar berish kabi asosiy vazifa yuklatilsa, yangilikni joriy etishning asosiy vazifasi insonlar yashash tarziga ta’sir qilishdan iborat bo’ladi. Demak, yangilikni joriy etish birinchi bo’lib mahsulot yoki xizmatni qo’llash emas, balki yangi g’oya va ilmiy natijalarni tijorat darajasida o’zlashtirishdir.

Fan, ta’lim va ishlab chiqarish o’rtasidagi aloqadorlikni chizma ko’rinishida quyidagicha tasvirlash mumkin (12-rasm).

Fundamental izlanishlar o’zining harakat dinamikasiga ega. Ular amaliy ishlab chiqarish faoliyati talabiga to’g’ridan-to’g’ri bog’liq emas. Fundamental fanlar aksariyat hollarda tub o’zgarishlarga olib keluvchi ixtirolar va yangiliklar yaratishi mumkin. Yarim o’tkazgichlar, lazer, gen muhandisligi, o’ta o’tkazuvchanlik va shu kabilar ishlab chiqarish va xizmatlar sohasida yangi yo’nalishlar ochilishiga sabab bo’ladi. SHunga qaramay, yangi ixtirolar innovatsion jarayonlarning bir bo’lagi bo’lishi uchun, bozor chig’irig’idan o’tishi kerak. Fundamental fanning hamma natijalari ham ishlab chiqarishga zudlik bilan tatbiq etilavermaydi (innovatsion jarayonlar aynan ishlab chiqarish sohasida amalga oshiriladi).




**13-rasm. Fan, ta’lim va ishlab chiqarish o’rtasidagi o’zaro aloqadorlik**

### 10.3. O’zbekistonda milliy innovatsion tizimning rivojlanish istiqbollar

Bugungi kunda jamiyat shu darajada taraqqiy etib ketdiki, unda o’z o’rniga ega bo’lishni istagan har qanday mamlakat yoki kompaniya raqobatga kirishmog’i shart bo’lib qoldi. Rivojlangan mamlakatlarda yohud dunyo sahnida aynan mana shunday raqobatbardosh kompaniyalargina o’z hayotlari davomiyligini saqlab qolishi mumkin. SHunday kompaniyalar ham borki, ular insoniyat tamaddunidan 20-30 yil ilgari yurishadi.

Zamonaviy innovatsion muhit holati ayrim ob’ektiv sabablarga ko’ra qisqa muddat ichida mahalliy biznesning innovatsion darajasi yuqori bo’lishiga imkon bera olmaydi va shu sababdan uning rivojlanishi davlatning ko’plab yo’nalishlari bo’yicha kuch sarflashini talab qiladi. Bunda quyidagi muammolarga e’tibor qaratish zarur:

- biznesning ilmiy-texnik axborotlarga ega bo’lishi uchun tranzaktsiya xarajatlari juda katta;
- yangi texnologiyalarning qiymat va bozor risklari korxonalar, ayniqsa, kichik korxonalar uchun juda katta;
- innovatsion loyihalarni ishlab chiqish va amalga oshirish uchun o’z resurslarini taklif etuvchi moliyaviy va investitsion institutlarning keng kamrovli va diversifikatsiyalangan bozori mavjud emas;
- xususiy sektordagi ko’plab korxonalarda innovatsion boshqaruv qarorlari tizimi shakllantirilmagan;
- fanni ishlab chiqarish bilan bog’lab turishi mumkin bo’lgan innovatsion vositachilar instituti rivojlangan tarmog’i yaratilmagan;
- raqobatli muhit mahalliy korxonalarni innovatsiyalarni jalb qilishga etarli darajada rag’batlantirmaydi;
- iqtisodiy rivojlanishning hozirgi bosqichida biznes texnologiyalarining asosiy massasida biznesni tashkil qilishning mablag’larni namunaviy tovarlar ishlab chiqarish yoki ular bilan savdo qilishga kiritishni nazarda tutuvchi an’anaviy yondashuvlar ustunlik qiladi

**Ilmiy tadqiqot -** yangi bilimlarni ishlab chiqish jarayoni, bilish faoliyati turlaridan biri. Unga ob’ektivlik, ishonchlilik, aniqlik xos. Ilmiy tadqiqot hamma shartlarga amal qilib takrorlanganda hamisha birdek natija berishi, bahs etilayotgan masalani isbotlashi lozim.

Ilmiy tadqiqot bir-biri bilan bog’langan ikki qism  tajriba va nazariyadan iborat. Ilmiy tadqiqotning asosiy komponentlari: mavzuni belgilash, mavjud axborotni, tadqiqot sohasidagi shartsharoit va metodlarni, ilmiy farazlarni oldindan taxlil etish, tajriba o’tkazish, olingan natijalar-ni taxlil etish va umumlashtirish, kelib chiqqan farazlarni olingan dalil-lar asosida tekshirish, yangi fakt va qonunlarni ifodalab berish, ilmiy bashorat yuritish. Ilmiy tadqiqotlarni fundamen-tal va amaliy, mikdoriy va sifatiy, noyob va kompleks tadqiqotlarga ajratish keng tarqalgan. Ilmiy tadqiqotlarning metod va tajribalari fanning o’zidagina emas, balki ko’pgina iqtisodiy va ijtimoiy masalalarni qal qilishda ham keng qo’llaniladi.

Ilmiy tadqiqot institutlari  fan, texnika, ishlab chiqarish sohalarida ilmiy tadqiqot olib boradigan muassasa. Dastlab 19-asr oxiri 20-asr boshlarida vujudga kelgan. 1888 yil Parijda Paster instituti, 1909 yilda Radiy instituti tashkil etilgan. 20-asrning boshlaridan nazariy masalalar bilan birga texnika, qishloq xo’jaligi, sog’liqni saklash bo’yicha muhim muammolar ustida tadqiqotlar olib boruvchi turli Ilmiy tadqiqot institutlari paydo buldi. 20-asrning o’rtalariga kelib Ilmiy tadqiqot institutlari ko’p mamlakatlarda ilmiy faoliyatni tashkil etishning asosiy shakli bo’lib qoldi. O’zbekistonda asosiy nazariy muammolar ilmiy tadqiqot ishlarining muvofiklashtirish markazi — O’zbeshston Fanlar akademiyasida tadqiq etiladi. Bilimning muayyan sohalarini tadqiq etuvchi va bevosita vazirliklar, davlat qo’mitalariga buysunuvchi tarmoq Ilmiy tadqiqot institutlari ham mavjud. O’zbekistonda birinchi ilmiy tadqiqot muassasasi  Toshkent astronomiya va fizika observatoriyasi (hoz. Astronomiya institutы) 1873 yilda tashkil etilgan. 2017 yilda O’zbekistonda 160 dan ortiq Ilmiy tadqiqot institutlari ishladi.

### 10.4. O'zbekiston Respublikasida texnologik va sotsiogenetik innovatsiyalar

Jamiyat va tabiat rivojlanishi qonuniyatlarini yaxlit holda, tizimlar rang barangligida anglash oldindan ko'ra bilish uchun zarur asos va zamin hisoblanadi. Istalgan bir fanning asosiy funktsiyasi shundan iborat. Biroq bu har qanday yirik xo'jalik, ijtimoiy va ekologik qarorlar qabul qilishda ham amaliy zarurat hisoblanadi.

Boshlanich xolatni baholash va undan foydalanishda ikki narsani inobatga olish zarur. Birinchidan, tabiiy qonunlardan farqli o'laroq ijtimoiy rivojlanish qonuniyatlari jamiyatning o'zidagi tub o'zgarishlar bilan birgalikda o'zgarishi mumkin. Industrial jamiyatdan postindustrial jamiyatga o'tish bulardan keyingisiga xos bo'lgan konuniyatlar tizimini yangidan o'rganib chikish zarurligini ko'rsatadi.

Ikkinchidan, ijtimoiy konun va konuniyatlar tarkibi bir turda emas, ular ierarxik bo'lib, bilishning turli darajalarini aks ettiradi. Statika qonunlari evolyusion rivojlanish davrida nisbatan muvozanatli xolatda ijtimoiy-iqtisodiy tizimlar faoliyat ko'rsatuvchi struktura va shart-sharoitlarni aks ettiradi. TSiklik dinamika konuniyatlari tizim dinamikasidagi notekislikni, sikllar boskichlarining almashish konuniyatlari va tizimlar rivojlanish sikllarining o'zini, jamiyatning innovatsion yangilanish jarayonining to'lqinsimonligini ochib beradi. Bu davriy o'zgarayotgan voqelikni anglashning ikkinchi boskichidir. Bilishning oliy bosqichi - sosiogenetika qonuniyatlari bo'lib, unda ijtimoiy-iqtisodiy tizimlar dinamikasida nasliylik, o'zgaruvchanlik va tanlov yiindisi (birikuvi) hisoblanadi. Sosiogenetika qonuniitlari tizimning innovatsion yangilanishi chuqurligi va sarhadlarini baholashga ko'maklashadi.

### Nazorat savollari

1. O'zbekistonda milliy innovatsion tizimning shakllanishi.
2. Innovatsiyaga asoslangan iqtisodiy tizimning xususiyatlari.
3. O'zbekistonda milliy innovatsion tizimning rivojlanish istiqbollari.
4. Innovatsion faoliyatni amalga oshirishda hamkorlik shartnomalarni ahamiyati.
5. Innovatsion texnologiyalarni yaratishda hozirgi davr ilm fanning ahamiyati.
6. O'zbekistonda intellektual mulk yutuqlaridan foydalanishning iqtisodiy samaradorligini aniqlash.

## 11-Mavzu. Innovatsion marketingda tovar va xizmatlarni strategik yo'nalishlari

Reja:

11.1. O'zbekiston Respublikasida zamonaviy innovatsion marketing strategiyalari.

11.2.Innovatsion marketingda innovatsion strategiyalarning ahamiyati.

**Tayanch iboralar:** marketing, innovatsion marketing, yarmarka, kooperatsiya, import, eksport

### 11.1. O'zbekiston Respublikasida zamonaviy innovatsion marketing strategiyalari

O'zbekiston Respublikasida o'tkazilgan Respublika "Innovatsion g'oyalar, ishlamalar va texnologiyalar", "Sanoat yarmarkasi va kooperatsion birjalar yarmarkasi"da taqdim etilgan ilmiy-tekshirish ishlamalari va texnologiyalari, qo'shma korxonalarda ishlab chiqarilgan tovar va xizmatlarni sifat ko'rsatkichlari xalqaro ISO/MEK standart talablariga mosligi va O'zbekistonda lokalizatsiya qilingan import o'rnini bosuvchi va eksportga yo'naltirilgan ko'plab tovarlar ishlab chiqarilmoqda.

Hozirgi davrda respublikamiz kundalik hayot va uning dinamikasi o’zgarib bormoqda, bu esa iqtisodni yangilashda marketing tadqiqotlarini natijalarini tahlil qilib, yaqin kelajakka va uzoq davrga nisbatan innovatsion strategiyani tanlash, rejalash va amalga oshirishni bu esa O’zbekiston Respublikasining dunyo hamjamiyatida obro’sini oshirishda va iqtisodiyotini yuksaltirishda katta ahamiyat kasb etadi.

Ko’p sonli ma’lumotlar tahlili shundan dalolat beradiki, iqtisodiy o’sishning asosiy harakatlantiruvchi kuchi ilmiy-texnik innovatsiyalar hisoblanadi. Bozor iqtisodiyoti sharoitlarida kichik biznes va tadbirkorlik innovatsion jarayonda markaziy rolь o’ynaydi, innovatsiyalar esa texnik taraqqiyot sur’ati yuqori bo’lgan tarmoqlarda asosiy raqobat quroli hisoblanadi. Texnik taraqqiyot va iqtisodiy rivojlanishni qo’llab-quvvatlovchi institutlarga alohida e’tibor qaratgan. XX asrning birinchi yarmi iqtisodchisi Yozef Aloiz SHumpeter (1883-1950) innovatsiyalarni olg’a suruvchi va unda normal darajadan katta bo’lgan daromadning asosiy manbasi bo’luvchi raqobat mexanizmini ko’rsatib bergan.

“Martekingning uchta asosiy aspekti sanoatning rivojlanishiga katta ta’sir ko’rsatadi. **Birinchisi** innovatsion musobaqadir. Firmalar musobaqasida birinchi bo’lib innovatsiyaga erishgan firma marteting sohasida ham etakchi hisoblanadi. **Ikkinchisi**, yirik firmalar bozorda innovatsiyalarni izlash bilan bog’liq ishlarni doim takomillashtirishga harakat qilishlaridir. **Uchinchisi**, Kristensen (1997) bozor talabi asosiy innovatsiyalarga bo’lgan talabni aniqlashtiruvchi omil ekanligini ta’kidlab o’tgan”.

## 11.2. Innovatsion marketingda innovatsion strategiyalarning ahamiyati.

XX asrning ikkinchi yarmida G’arbda kuzatilgan o’ziga xos bashorat shov-shuvi Rossiya bashoratchilk maktabi etakchisi I.V.Besstijev-Lada tomonidan tuzilgan klassik bashoratchilik antologiyasida yaqqol tasvirlab berilgan. Intellektual va siyosiy doiralarda qizg’in bahs-munozaralarga sabab bo’lgan o’nlab fundamental asarlarda jahon rivojlanishining istiqbollari turli stsenariylarda  eng yorkin ranglardan to katastrofik holatlargacha asoslab berilgan. Uzoq muddatli u yoki bu bashorat stsenariylarini asoslab berish uchun foydalanilgan ko’plab global modellar yaratilgan. Ushbu bashoratchilik shov-shuviga BMT ham qo’shilgan bo’lib, uning Sekretariatida bashorat va istiqbolli tadqiqotlar bo’limi tashkil qilingan. Nobelь mukofoti sovrindori V.V.Leontьev rahbarligidagi BMT ekspertlar guruhi tomonidan o’tgan asrning 70-yillarida o’ziga xos tarmoqlararo balansning mintaqalararo modeli asosida jahon iqtisodiyoti rivojlanishining 2000 yilgacha bo’lgan bashoratlari ishlab chiqilgan.

Biroq 80-yillar oxirlariga kelib G’arbda ham, sobiq Ittifoqda ham bashoratchilik to’lqini pasaya boshladi. Buning sababi oddiy edi: jahon industrial jamiyatdan postindustrial jamiyatga o’tib, tendentsiyalar o’zgardi va chuqur bifurkatsiyalar klasteri vujudga keldi. Avvalgi bashoratlar va ularning metodologik as oslari bu muhitda o’z ta’sir kuchini yo’qotgan bo’lib, yangi metodologiya esa hali rivoj topmagan edi.

O’tish davrida ijtimoiy va texnologik tizimlar teratoriyasi keskin o’zgaradi. Ularning ayrimlari o’tmishda qolib ketib, ularning o’rniga yangilari paydo bo’ladi va jahon miqyosida keng tarqaladi. Bu davrda oldindan ko’ra bilishning qiyinligi an’anaviy inqilobiy paradoks  e’lon qilingan maqsadlar va amalda erishilgan natijalar o’tasidagi farqlar bilan ham izohlanadi. Lekin shunga qaramay XX asrning yirik olimlari qalamiga mansub bo’lgan eng oxirgi asarlardan birida insoniyatning rivojlanishiga doir asosli bashoratlar, ekologik va tsivilizatsiya inqirozlarining bartaraf etilishi, uzoq muddatli strategiyani ishlab chiqish zarurligi haqida asoslangan fikrlarni o’rgatamiz: «TSivilizatsiya strategiyasining paydo bo’lishi hayotiy ahamiyatga ega. U tabiat

strategiyasi bilan muvofiqlashtirilgan bo'lishi lozim. Bu esa insoniyat tarixida uning kuch-quvvati o'sishi bilan birga kuzatiluvchi sifat yangiligidir. Bizni nafaqat ekologik, balki tsivilizatsiya inqirozi kutib turibdi. O'z mohiyatiga ko'ra biz tsivilizatsiya tarixining butkul yangicha bosqichi, balki antropogenez oldida turibmiz, bunda esa butun xalqlar oldida kun ko'rish strategiyasini ishlab chiqish bo'yicha umumiy vazifa turadi». Bunday strategiyani uzoq muddatli bashoratlarsiz, tabiat va jamiyat rivojlanishining muqobil yo'llarini oldindan ko'ra bilmasdan turib amaliy jihatdan ishlab chiqish mumkin emas.

## 2.1. Innovatsion marketingni o'ziga xos xususiyatlari

Yangi texnologiyalarning rivojlanishi va ularning asosida tamomila yangi tovar va xizmatlar turlarini sotish tezligi shunga olib kelmoqdaki, bozordagi vaziyat va iste'molchilarning ehtiyojlari tobora o'zgarmoqda. Iste'molchi nimani, qaerdan, qanday ko'rinishda va qanday narxda sotib olishni istashini aytmoqda. Marketing kontseptsiyasini tushunishga yangicha yondashuv ya'ni maqsadli guruhlar – strategik bozor segmentidan potentsial mijozlar bilan yaqinroq ishlashga asoslanmoqda. Bozor tadqiqotlari yordamida bir xil iste'molchilar guruhlarini ajratib, strategik segmentlarni aniqlagan holda, korxona sezilarli miqdorda mablag'lar tejab qoladi hamda mavjud va potentsial mijozlar bilan kelgusi aloqalarda ko'proq unumdorlikka erishadi. Tanlab olingan bozor sektorlari bilan faol kommunikatsiyalar iste'molchilarning katta qismi e'tiborini jalb qilishga imkon beradi va ularning aksariyati kompaniya mijozlariga aylanadi. Mana shu sababdan XXI asrning boshlaridan boshlab turli tarmoqlarda bozor etakchilarining ko'pchiligi reklama, PR, to'g'ridan-to'g'ri sotuvlar, ichki firma munosabatlari uchun javob beradigan bo'limlarni birlashgan kommunikatsiya xizmatlariga birlashtirishi ro'y berdi. Integratsiyalangan marketing kommunikatsiyalaridan foydalanuvchi kompaniyalar soni o'smoqda.

Innovatsion faoliyat yo'nalishlari eng avvalo, ishlab chiqarishni takomillashtirish vazifalari va imkoniyatlari bilan emas, balki iste'molchilarning yangi mahsulot tavsifnomalari borasida nimalarni afzal ko'rishini o'rganish natijalari bilan belgilanishi lozim. Yangi mahsulot ishlab chiqarishni o'zlashtirishda ushbu mahsulotni laboratoriyada sinab ko'rishga emas, balki bozorda tekshirib ko'rishga ko'proq e'tibor qaratish kerak. YAngi mahsulotlar ishlab chiqish bilan shug'ullanuvchi mutaxassislar o'rtasida o'tkazilgan so'rovlar yangi mahsulot muvaffaqiyatining quyidagi omillarini aniqlab berdi (2.1-jadval).

**Innovatsion marketing bu** yangi tovarlar yoki xizmatlar yaratish, kengaytirish va qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan marketing texnologiyalari majmuidir.

Innovatsion marketing texnologiyalarining o'ziga xos xususiyati shundaki, ular jismoniy jihatdan mavjud bo'lgan mahsulot bilan emas, balki uning ishlab chiqilayotgan kontseptsiyasi bilan ishlaydilar. Bu esa an'anaviy marketingdan farqli ravishda, marketing tadqiqotlari o'tkazishda katta qiyinchiliklar yuaga keltiradi.

**2.1-jadval Yangi mahsulotning muvaffaqiyat omillari**

| Muvaffaqiyat omili | % |
|---|---|
| Mahsulotning bozor talablariga moslashganligi | 8 |
| Mahsulotning firma imkoniyatlariga muvofiqligi | 5 |
| Mahsulotning texnologik ustunliklari | 6 |
| Yangi mahsulotlarning firma rahbariyati tomonidan qo'llab-quvvatlanishi | 2 |
| Yangi modellar tanlashda baholash jarayonlaridan foydalanish | 5 |
| Qulay raqobat muhiti | 2 |
| Tashkiliy tuzilmaning yangi mahsulot ishlab chiqish vazifalariga muvofiqligi | 4 |

Jadval ma'lumotlaridan kelib chiqadiki, asosiy muvaffaqiyat omili mahsulotning bozor talablariga moslashganligi hisoblanadi. Bu innovatsion marketingning asosiy kompetentsiyasi hisoblanadi.

Innovatsion marketing innovatsiyalar bozori kon'yunkturasini o'rganish, innovatsion loyihani biznes-loyihalashtirish, uni amalga oshirishdan tortib innovatsiyalarni bozorga harakatlantirish, innovatsiyalar diffuziyasi va daromad olishgacha bo'lgan butun innovatsion tsiklning tizimli integratsiyasini ifodalaydi. Innovatsion marketing ob'ekti intellektual mulk, yangi materiallar va tarkibiy qismlar, yangi mahsulotlar, yangi jarayonlar, yangi bozorlar, tovar va xizmatlarni siljitish yangi usullari, boshqaruvning yangicha tashkiliy shakllari hisoblanadi.

Innovatsiyalar yaratish mamlakatimizda doimo muhim ahamiyatga ega bo'lib kelgan. Innovatsiyalarni tijoratlashtirish esa yoki mukammallashmagan, yoki umuman bo'lmagan. Biroq bugungi kunga kelib, raqobat kurashida innovatsiyalar ishlab chiqarishni emas, ularni amaliy qo'llashni tashkillashtira oladiganlar g'olib kelmoqda.

**Yangi tovarlar yaratish usullari**

| Usul | Afzalliklar | Kamchiliklar |
|---|---|---|
| O'z yangiliklari | Yaratilayotgan mahsulot raqobatbardoshligi yuqori. Tovarga yo'naltirilganlik. YUqori daromadlar | YAngilik yaratish muddati uzunligi. Ularning katta qismi kutilgan natija keltirmaydigan ilmiy tadqiqotlar xarajatlarining kattaligi. Malakali xodim ehtiyoj.<br>Risk yuqoriligi |
| Yangilikni boshqa firmadan xarid qilish (firmani, patent yoki litsenziyani xarid qilish) | Tovarning hayotiylik davri boshida litsenziya xarid qilishda samarali.<br>Ilmiy tadqiqotlar o'tkazish vaqtining qisqarishi.<br>Ilmiy tadqiqotlarni joriy moliyalashtirish xarajatlari qisqarishi.<br>Yangilikning ishlab chiqarishga tez joriy qilinishi.<br>Ixtironi moliyalashtirish shaklini tanlash imkoniyati | Yangilikni ishlab chiqarishda tez o'zlashtirish zarurati.<br>Boshqa firmalarning innovatsion faoliyatiga bog'liqlik.<br>Bir martalik xarajatlar kattaligi.<br>Boshqa ishlab chiqaruvchilarning tovardan nusxa ko'chirish riski katta.<br>O'z sohasida etakchi bo'la |

| | | |
|---|---|---|
| | | olmaydigan ishlab chiqaruvchi imidji |
| Birgalikdagi ishlanmalar | Ilmiy tadqiqotlar xarajatlari taqsimlanishi. Malakaliroq personaldan foydalanish imkoniyati. Hamkorning bozoriga chiqish imkoniyatini qo'lga kiritish. Har bir hamkorning alohida ilmiy tadqiqotlar xarajatlari kamayishi | Ishni muvofiqlashtirish qiyinligi. Yangilik yaratish jarayoni uzoq davom etishi.<br>Foydaning hamkorlar o'rtasida nomuvofiq taqsimlanishi.<br>Ishonch bilan bog'liq muammolar |

Innovatsion marketing iste'molchi ehtiyojlarini yaxshiroq qondirish, zamonaviy biznesda ustuvorlikni «funktsional» mahsulotlardan «innovatsion» mahsulotlarga o'tkazish hisobiga bozorni egallab olish imkoniyatini beradi:

- funktsional mahsulotlar eng muhim, zaruriy ehtiyojlarni qondirishga xizmat qiladi va aksariyat hollarda xarid joyiga qarab o'tirmasdan xarid qilinadi (kerak bo'lib qoldi  ko'rib qoldi  xarid qildi);
- innovatsion mahsulotlar esa, aksincha, texnika va modaning so'nggi so'zini ifodalaydi, ularga talabni oldindan aytish qiyin, ularning hayotiylik davri esa ancha qisqaroq bo'ladi

Yangi mahsulot iste'molchi ahamiyatga ega deb hisoblaydigan har qanday yangilik kiritish yoki mavjud tovarni o'zgartirishni ko'zda tutadi. Biroq yangilik darajasi turlicha bo'lishi va bir necha pog'onada ko'rib chiqilishi mumkin. Korxona uchun ilgari hech ham ishlab chiqarilmagan tovarlar innovatsion tovarlar bo'ladi.

Shunday qilib, innovatsion marketing majmui maqsadli bozorga va innovatsiyalar potentsial iste'molchisiga ta'sir ko'rsatish, shuningdek, raqobat muhiti va iste'molchilar istaklaridagi o'zgarishlarga o'z vaqtida javob qaytarish bo'yicha amaliy chora-tadbirlar yig'indisini ifodalaydi.

**Innovatsiyalarga xizmat ko'rsatishni tashkil etish – innovatsion marketingning muhim tarkibiy qismi**

Innovatsiyalarga kafolatli va kafolatdan keyingi xizmat ko'rsatishni tashkil etish bir qator o'zaro bog'liq asosiy echimlarni o'z ichiga olib, ular uchta ko'rsatkich bilan belgilanadi:

- innovatsiyalarni ishlab chiqish;
- xizmat ko'rsatishni rejalashtirish;
- innovatsiyalarning butun hayotiylik davrida xizmatlar taklifini boshqarish tizimini o'rnatish.

Innovatsiyalarni ishlab chiqishda unga xizmat ko'rsatish bilan bog'liq muammolarni: texnik xizmat ko'rsatishning hisob-kitob qiymatini, modulli loyihalashtirishni, avtodiagnostika va masofadan xizmat ko'rsatish tizimlarini integratsiyalashni mahsulotni kelajakda qayta tiklash imkoniyati va ishonchlilik hisob-kitob koeffitsientini maksimal darajada hisobga olish zarur.

Xizmat ko'rsatishni rejalashtirish xizmatlar hajmini aniqlash va aralash servisning turli tarkibiy elementlarini muvozanatlashtirish, xizmatlar taklifini segmentlash, asbob-uskunalarga qarash bo'yicha raqobatchi firmalarning xizmatlari, shuningdek, barcha ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatining kutilayotgan darajasini aniqlashni o'z ichiga oladi.

Xizmatlarning hayotiylik davri davomida boshqaruv tizimi ularga yuklanadigan iqtisodiy vazifalarga muvofiq o'zgarib borishi lozim: bevosita va bilvosita rentabellik, to'lov usullari, texnik xizmat ko'rsatish sohasida hamkorlik o'rnatish yoki o'rnatmaslik, xizmatlar funktsiyalarining integratsiyasi yoki differentsiatsiyasi, korxonalar faoliyatini motivatsiyalash.

Shunday qilib, raqobatbardosh servis strategiyasini puxtalik bilan ifodalash iste'molchilarning yangi istaklariga javob beradigan tovar xarakterini belgilab beradigan uchta faoliyat turi o'rtasidagi aloqalarning barchasini hisobga olishni taqozo etadi.

Servis xizmatlari tsikli tovar hayotiylik davrining etuklik bosqichida bo'lgan paytda kuchaya boshlaydi, ya'ni yangi tovarning hayotiylik davri va servis xizmatlari tsikli egri chiziqlari o'rtasida mos kelmaslik o'ringa ega bo'ladi. Yangi tovarning hayotiylik davri pasayish bosqichida bo'lgan paytda xizmatlar hayotiylik davri endi-endi tez o'sish bosqichiga kirayotgan bo'ladi. SHunday qilib, avval korxona bevosita yangi tovarni sotishdan, keyin esa – unga hamrohlik qiluvchi xizmatlarni sotishdan foyda oladi.

Sotuvdan keyingi servisni kafolatli va kafolatdan keyingi turlarga bo'lish rasmiy belgi bo'yicha amalga oshiriladi: servis ro'yxatida ko'zda tutilgan ishlar amalga oshiriladi, birinchi holatda «bepul» yoki keyingi holatda pul evaziga. Bu erda rasmiylik shunda namoyon bo'ladiki, kafolatli davrda ishlar, ehtiyot qismlar va materiallar qiymati sotuv narxiga yoki boshqa (kafolatdan keyingi) xizmatlar narxida kiritiladi.

Kafolatdan keyingi servis faqat pul to'lash evaziga bajariladi, uning hajmi va narxi esa ushbu servis turiga shartnoma shartlari, preyskurantlar va boshqa shu kabi hujjatlar bilan belgilanadi.

Servisdan maqsad – xaridorlarga xarid qilingan tovardan eng katta foyda olishda yordam ko'rsatishdir.

Xaridorlarga servis xizmatlari ko'rsatishning ahamiyati o'sib borayotganini quyidagi sabablar bilan izohlash mumkin:

- tobora to'yinib borayotgan tovar bozorlarida raqobatning o'sishi;
- servis markazlari barpo etilishi va ixtisoslashtirilishi;
- xaridorlarning xarid qilingan tovardan foydalanish jarayonida yuaga keladigan muammolarni hal qilish imkoniyatiga ega bo'lish istagining o'sishi;
- tovardan foydalanish jarayonining murakkablashuvi.

**Marketing vositasi sifatida asosiy servis funktsiyalari quyidagilar hisoblanadi:**

1.Xaridorlarni jalb qilish.

2.Yangi tovar sotuvini qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish.

3.Xaridorlarni axborot bilan ta'minlash.

Servis bu – xaridorga o'zi uchun optimal xarid varianti va yangi tovar iste'molini tanlash, shuningdek, undan oqilona kelishilgan muddat davomida iqtisodiy naf bilan foydalanish imkonini beradigan ta'minot tizimidir.

Agar servis tamoyillari haqida gapiradigan bo'lsak, bir qator umum e'tirof etilgan me'yorlar mavjud bo'lib, ularga amal qilish xatolarning oldini olishga yordam beradi.

**1.Taklifning majburiyligi**. YUqori sifatli tovarlar ishlab chiqaruvchi, lekin ularga hamrohlik qiluvchi xizmatlar bilan yaxshi ta'minlamaydigan kompaniyalar global miqyosda o'zlarini noqulay ahvolga solib qo'yadi.

**2.Foydalanish majburiy emasligi**. Firma mijozga servisni zo’rlab o’tkazmasligi lozim.

**3.Servisning moslashuvchanligi**. Firmaning servis tadbirlari paketi juda keng: minimal zaruriydan tortib maksimal maqsadga muvofiqqacha bo’lishi mumkin.

**4.Servisning qulayligi**. Servis xaridorni qoniqtiradigan joyda, vaqtda va shaklda taqdim etilishi lozim.

**5.Servisning texnik mosligi**. Zamonaviy korxonalar mahsulot tayyorlash texnologiyasini murakkablashtirib yuboradigan eng yangi texnikalar bilan tobora ko’proq qurollanib bormoqda.

**6.Servisning axborot samarasi**. Firma rahbariyati servis xizmati tovar ekspluatatsiyasi, mijozlarning fikri va baholari, raqobatchilar servisi usullari va h.k. haqida berishi mumkin bo’lgan axborotga quloq solishi lozim.

**7.Servis sohasida oqilona narx siyosati**. Servis qo’shimcha foyda manbasi bo’lishidan ko’ra ko’proq firma tovarlarini xarid qilish uchun rag’batlantirish va xaridorlar ishonchini mustahkamlash vositasi bo’lishi lozim.

**8.Ishlab chiqarishning servisga kafolatli muvofiqligi**. Iste’molchiga vijdonan munosabatda bo’ladigan ishlab chiqaruvchi o’zining ishlab chiqarish quvvatlarini servis imkoniyatlari bilan qat’iy solishtirib boradi va hech qachon mijozni «o’zingga o’zing xizmat ko’rsat» holatida qoldirmaydi.

Servisning asosiy vazifalari qatoriga quyidagilar kiradi:

**1.Potentsial** xaridorlarga ushbu korxona mahsulotlarini xarid qilish oldidan ularga tushunib etgan holda tanlovni amalga oshirish imkonini beradigan maslahatlar berish.

**2.Xaridor** personalini (yoki uning o’zini) xarid qilinayotgan texnikadan eng samarali va xavfsiz foydalanishga tayyorlash.

**3.Xaridorning** mutaxassislariga o’z funktsiyalarini tegishli tarzda bajarish imkonini beradigan zarur texnik hujjatlar etkazib berish.

**4.Potentsial** xaridorga namoyish vaqtida ishdan chiqib qolish borasida kichik ehtimol ham qoldirmaslik uchun mahsulotni sotuvdan oldingi tayyorlash.

**5.Mahsulotni** ekspluatatsiya qilinadigan joyga etkazib berish.

**6.Mahsulotni** (texnikani) ekspluatatsiya qilinadigan joyda ishchi holatga keltirish va uni xaridorga ishchi holatda namoyish etish.

**7.Mahsulotning** iste’molchida bo’ladigan muddat davomida ekspluatatsiya qilishga to’liq tayyorligini ta’minlash.

**8.Ehtiyot qismlarni** tezkorlik bilan etkazib berish va buning uchun zarur omborlar tarmoqlariga ega bo’lish, ehtiyot qismlar ishlab chiqaruvchilar bilan qalin aloqada bo’lish.

**9.Texnikaning iste’molchilar** tomonidan qanday ekspluatatsiya qilinayotgani va bunda qanday takliflar, mulohaza va shikoyatlar bildirilayotgani haqida axborot to’plash va tizimlashtirish.

**10.Raqbotchilarning** servis ishlarini qanday olib borayotgani, ularning mijozlarga qanday yangiliklar taklif etayotgani haqida axborot to’plash va tizimlashtirish.

**11.Korxonaning marketing** xizmatiga bozorlar, xaridorlar va tovarni tahlil qilish va baholashda yordam ko’rsatish.

**12.Bozorda doimiy** mijozlar shakllantirish.

SHunday qilib, servis mashinalar, asbob-uskunalar va boshqa sanoat mahsulotlarini sotish va ekspluatatsiya qilish bilan bog’liq xizmatlar to’plamini ifodalaydi. Servisning asosiy funktsiyalari xaridorni jalb qilish, tovar sotuvini qo’llab-quvvatlash va rivojlantirish hamda xaridorni axborot bilan ta’minlash hisoblanadi. Servisning asosiy

tamoyillari qatoriga taklifning majburiyligi, foydalanish majburiy emasligi, servis moslashuvchanligi va qulayligi, servisning texnik mosligi, servisning axborot ssmarasi, oqilona narx siyosati va servisning ishlab chiqarishga kafolatli mosligi kiritiladi.

Asbob-uskunalarni ta'mirlash tezligi va xizmat ko'rsatish xodimlarining texnik bilimdonligi uchinchi va to'rtinchi o'rinlarda turadi.

Sotuvdan keyingi xizmat ko'rsatish sohasidagi uni rejalashtirish, amalga oshirish va tijoratlashtirishdan iborat bo'lgan siyosat ko'pincha mahsulot ishlab chiqarishning o'zi kabi e'tiborga loyiqdir. Buning ustiga, xizmatlarni rejalashtirish ko'pichna bu xizmatlar ular bilan bog'liq bo'lgan real mahsulotlar ishlab chiqish va tayyorlash jarayonida chuqur o'zgarishlarga olib keladi. Xizmatlar taklifining katta ahamiyatga ega ekanligini to'liq tushunish korxona faoliyati sohasida yangi ixtisosliklar vujudga kelishiga sababchi bo'ladi.

## 12-Mavzu. Ilmiy kashfiyotlar, ixtirolar va litsenziyalash

Reja:

12.1. "Ixtirolar, foydali modellar va sonoat namunalari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni.

12.2. Intellektual mulk va kapitalning shakllanishi.

12.3. Ilmiy kashfiyotlar. Kashfiyot obektlari. Kashfiyotni aniqlash tartiblari.

12.4. Intellektual mulk va kapitalning huquqiy muhofazasi, himoyasini ta'minlash va boshqarish

12.5. "EHM uchun yaratilgan dasturlar va ma'lumotlar bazalarini huquqiy muhofaza qilish to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Qonuni.

12.6. EHM uchun dasturlar. EHM ma'lumotlar bazalari. Mualliflik huquqining buzilishi. Dasturlar yoki ma'lumotlar bazalarini ro'yxatga olish uchun talabnoma.

12.7. Qonunchilikda mualliflar mulkiy huquqlarining mustahkamlanishi.

**Tayanch iboralar:** Intellektual mulk. Intellektual kapital. Intellektual ishlanmalar. Intellektual boylikning huquqiy muhofazasi. Intellektual mulk himoyasi. Intellektual mulkni boshqarish. ITIlarni tijoratlashtirish. Ilmiy kashfiyotlar. Ixtirolar. Litsenziyalash.

### 12.1. "Ixtirolar, foydali modellar va sanoat namunalari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni

O'zbekiston Respublikasining "Ixtirolar, foydali modellar va sanoat namunalari to'g'risida"gi Qonuni 06.05.1994-yilda qabul qilingan va mazkur qonunga 30.07.2008 da o'zgartirish kiritilgan. Ushbu Qonunning asosiy maqsadi O'zbekiston Respublikasidagi ixtirolar, foydali modellar va sanoat namunalarini huquqiy muhofaza qilish hamda ulardan foydalanish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat. Sanoat mulki obektlari to'g'risidagi qonun hujjatlari va boshqa hujjatlardan iborat. O'zbekiston Respublikasi Davlat patent idorasi sanoat mulki obektlarini huquqiy muhofaza qilish sohasidagi davlat siyosatining amalga oshirilishini ta'minlaydi.

Patent idorasi sanoat mulki obektlariga patent berish haqidagi talabnomalarni ko'rib chiqish uchun qabul qiladi, ular bo'yicha davlat ekspertizasini o'tkazadi, ularni davlat

ro'yxatiga oladi, sanoat mulki obektlariga patentlar beradi, rasmiy axborotnoma nashr etadi, sanoat mulki obektlari to'g'risidagi qonun hujjatlarining qo'llanilishiga doir qoidalar qabul qiladi va tushuntirishlar beradi hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadigan Patent idorasi to'g'risidagi nizomga muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

Quyidagilar ixtiro sifatida e'tirof etilmaydi:

– ilmiy nazariyalar va matematika usullari;

– tashkil etish va boshqarish usullari;

– shartli belgilar, jadvallar, qoidalar;

– aqliy operatsiyalarni bajarish qoidalari va usullari;

– elektron hisoblash mashinalari uchun algoritmlar va dasturlar;

– binolar, inshootlar, hududlarni rejalashtirish loyihalari va chizma sharhlari;

– estetika talablarini qanoatlantirishga yo'naltirilgan, buyumlarning faqat tashqi ko'rinishiga oid echimlar;

– integral mikrosxemalarning topologiyalari;

– o'simlik navlari va hayvon zotlari;

– jamoat manfaatlariga, insonparvarlik va axloq qoidalariga zid echimlar.

**5-jadval**

**Ixtiro, foydali model, sanoat namunasi haqidagi talabnomalarning tuzilishi**

| | ***Ixtiro haqidagi talabnoma quyidagilarni o'z ichiga oladi*** | ***Foydali model haqidagi talabnoma quyidagilarni o'z ichiga oladi*** | ***Sanoat namunasi haqidagi talabnoma quyidagilarni o'z ichiga oladi*** |
|---|---|---|---|
| . | Ixtironing muallifi (hammuallifi) va kimning nomiga patent berish so'ralayotgan bo'lsa, ana shu shaxs, shuningdek ularning turar joyi yoki joylashgan manzili ko'rsatilgan patent berish haqidagi arizani | Foydali modelning muallifi (hammuallifi) va kimning nomiga patent berish so'ralayotgan bo'lsa, ana shu shaxs, shuningdek ularning turar joyi yoki joylashgan manzili ko'rsatilgan patent berish haqidagi arizani | Sanoat namunasining muallifi (hammuallifi) va kimning nomiga patent berish so'ralayotgan bo'lsa, ana shu shaxs, shuningdek ularning turar joyi yoki joylashgan manzili ko'rsatilgan patent berish haqidagi arizani |
| . | Ixtironi uni amalga oshirish uchun etarli darajada to'liq ochib berilgan tavsifni | Foydali modelni uni amalga oshirish uchun etarli darajada to'liq ochib berilgan tavsifni | Buyumning tashqi ko'rinishi haqida to'la-to'kis, bor tafsiloti bilan tasavvur qilish imkonini beruvchi buyum aks ettirilgan tasvirlar turkumini, maket yoki rasmni |
| . | Ixtironing mohiyatini ifodalovchi hamda uning tavsifiga to'la muvofiq bo'lgan formulasini | IFoydali modelning mohiyatini ifodalovchi hamda uning tavsifiga to'la muvofiq bo'lgan formulasini | Agar sanoat namunasining mohiyatini ochib berish uchun zarur bo'lsa, buyum umumiy ko'rinishining chizmasi, |

| | | | |
|---|---|---|---|
| | | | ergonomik sxemasi, konfeksion xaritasini |
| . | Agar ixtironing mohiyatini tushunish uchun zarur bo'lsa, chizmalar va boshqa materiallarni | Agar foydali modelning mohiyatini tushunish uchun zarur bo'lsa, chizmalar va boshqa materiallarni | Sanoat namunasining undagi muhim belgilar majmuini aks ettirgan tavsifi |
| . | Ixtiro referatini | Modelь referatini | |

## 12.2. Intellektual mulk va kapitalning shakllanishi.

Intellekt (lot. intellects  bilish, tushunish, idrok qilish)  insonning aqliy qobiliyati; hayotni, atrof muhitni ongda aynan aks ettirish va o'zgartirish, fikrlash, o'qish-o'rganish, dunyoni bilish va ijtimoiy tajriba-ni qabul qilish qobiliyati; turli masalalarni hal qilish, bir qarorga kelish, oqilona ish tutish, voqea-hodisalarni oldindan ko'ra bilish layoqati. Intellekt tarkibiga idrok qilish, xotirlash, fikr yuritish, so'zlash va h.k. psixik jarayonlar kiradi. Intellektning rivojlanishi tug'ma iste'dod, miya imkoniyatlari, jo'shqin faoliyat, hayotiy tajriba kabi ijtimoiy omillarga bog'liq. Intellekt saviyasi, darajasi inson faoliyatining natijalariga, shuningdek, psixologik testlarga qarab ham belgilanadi.

Bilim yaratish, texnologiyalar transferi va rivojlanayotgan mamlakatlarda innovatsiyaion strategiyalar: siyosat masalalari, ekologik bilim va yangilik tizimlari, ilmiy institutlar, rivojlantirishga qaratilgan. Bu mamlakatlarda ilm-fan va texnologiyalar yangi ishlanmalarni o'rganish imkonini beradi va muassasalar o'rtasida muhokama qilishni o'z ichiga oladi.

Zamonaviy jahon iqtisodiyotining eng muhim xususiyati, yangi mahsulotlar va materiallar, yangi texnologiyalar, tashkilot va boshqaruv yangi shakllarini ilmiy bilimga aylantirish orqali innovatsion jarayonlarni jadallashtirish maqsadida amaliy foydalanish, ularni olib. "Asosiy va amaliy tadqiqotlar iste'molini - rivojlanish va texnologik ishlari - marketing - venchur investitsiyalar - ishlab chiqarish" yangilik jarayonlarini o'z ichiga oladi[27].

Innovatsiyaviy rivojlanayotgan mamlakat nuqtai nazardan, milliy iqtisodiy o'sishning strategik maqsadi ishlab chiqiladi va bunday strategiya doirasida innovatsion tarmoqlarni integratsiyalashadi. Innovatsion jarayonlar bilan boshlash uchun odatda muvaffaqiyatli bo'lgan sotib olish va mavjud texnologiyalarni moslashtirish salohiyatli, yangi platforma texnologiyalari bulgan taqdirda, boshqa joyda ITTKI o'tkaziladi. Ko'proq murakkab, ayniqsa rivojlanayotgan mamlakatlar, bu rivojlanishini o'z ichiga olishi mumkin. Eng

[27] Edited by Erika Kraemer-Mbula and Watu Wamae. "Innovation and the Development Agenda". International Development Research Centre PO Box 8500, Ottawa, ON, Canada K1G 3H9. © OECD/IDRC 2010. p. *11.*

yangi va hayratlanarli texnologiyalar, bu vaqtda tajriba talab etadi. Bular barchasi yig'indidan iborat o'z ichiga evolyutsion jarayon taklifini oladi. Unda o'rganish avval, oddiy qobiliyat va faoliyatni yanada rivojlangan bo'lishi muhim. Rivojlantirish siyosati uchun hisoblangan yondashuvni qabul qilish kerakligi uchun texnologik ko'nikmaga oid darslar o'rganiladi. Ular bir muhim asosiy yo'nalishlarini tanlashi kerak. Bilim va ko'nikmalari, ish qobiliyatlari va ichki bilim o'sishi bilan birga ishlash tizimlari va milliy iqtisodiyotga oid bo'ladi[28].

Intellektual mulk - ijodiy akliy faoliyat mahsuli. Ixtirochilik va mualliflik ob'ekti huquqi majmuiga kiruvchi, fan, adabiyot, san'at va i.ch. sohasida ijodiy faoliyatning boshqa turlari, adabiy, badiiy, ilmiy asarlar, ijrochi aktyorlik san'ati, jumladan ovoz yozish, radio, televidenie asarlari, kashfiyotlar, ixtirolar, ratsionalizatorlik takliflari, sanoat namunalari, kompьyuterlar uchun dasturlar, ma'lumotlar bazasi, nou-xauning ekspert tizimlari, tovar belgilari, firma atamalari va boshqa akliy mulk ob'ektlariga kiradi. Hozirgi davrda Intellektual mulkni muhofaza qilish muhim vazifa hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi 1991 yil dekabrda Jahon intellektual mulk tashkilotiga a'zo bo'ldi, 1993 yildan sanoat mulkini muhofaza qilish Parij konventsiyasiga qo'shildi.

## 12.3. Ilmiy kashfiyotlar. Kashfiyot obektlari. Kashfiyotni aniqlash tartiblari.

"Ishlab chiqarish texnikasi yoki yangi jarayon ko'rinishidagi texnik o'zgarishlar texnik ixtirolar va kashfiyotlarni ta'riflash uchun ishlatiladi. Bunday kashfiyotlar ishlab chiqarish xarajatlarini firma va sanoat tarmoqlari darajasida o'zgartirishi mumkin. Soluning neoklassik o'sish modelida texnologik rivojlanish kashfiyotlar tufayli to'xtalib o'tilgan. Texnologik jarayon bir nechta pog'onaga ega ekanligi ham batafsil to'xtalib o'tilgan"[29].

Kashfiyot deb bilim darajasiga tubdan o'zgartirish olib kiradigan ilgari noma'lum bo'lgan, ammo obektiv mavjud moddiy nuqtaning hodisa, xossa va qonuniyatlarini tushuntirib beruvchi ta'limotga aytiladi.

Kashfiyotni himoya qilish maqsadi:

- Ilmiy mazmun ishonchliligini tasdiqlash uchun;
- Muallif va davlat ustunligini o'rnatish;
- Kashfiyot muallifining xususiyatlarini tan olish va unga tegishli imtiyozlar berish;
- Kashfiyot bilan bog'liq ilmiy-texnologik masalalarni hal qilishda ko'maklashish;
- Fan va texnikada, foydalanish uchun kashfiyotlarni davlat tomonidan ma'lumot uchun qabul qilinishi va hisobga olinishi.

[28] Gordon Conway, Jeff Waage, Sara Delaney. "Science and Innovation for Development". © 2010 UK Collaborative on Development Sciences (UKCDS). P 15.

**12.4. Intellektual mulk va kapitalning huquqiy muhofazasi, himoyasini ta'minlash va boshqarish.**

Intellektual mulk hukuqi - intellektual (aqliy) faoliyat natijasiga tegishli huquq. Mulk egasi ana shu intellektual mulk ob'ektlaridan o'z xohishiga ko'ra, har qanday shaklda va har qanday usulda mutlaq qonuniy foydalanish huquqiga egadir. Huquq egasiga mutlaq xuquq asosida tegishli bo'lgan intellektual mulk ob'ektlaridan boshqa shaxslarning foydalanishiga faqat huquq egasining roziligi bbilangina yo'l qo'yiladi (O'zbekiston Respublikasi FK, 1034-modda). Ba'zi ob'ektlarga nisbatan (ixtiro, sanoat namunasi, foydali modelь, tovar (xizmat) belgisi, firma nomi va sh. k.) mutlaq huquq davlatning vakolatli organi tomonidan beriladigan maxsus hujjat  patent, guvohnoma asosida vujudga keladi va huquqiy muhofaza qilinadi.

Zamonaviy milliy innovatsion tizimlar institutlari keng doiradagi olimlar tomonidan rivojlangan hamkorlik mavjudligini taqozo qiladi. Lekin rivojlanayotgan mamlakat tizimlari ilg'or sanoati rivojlangan mamlakatlar muassasalari bilan, xususan, boshqa muassasalaridagi olimlar bilan o'zaro xamkorlik qilish asosida ularning olimlarini rag'batlantirish kerak. Bugungi kunda bunday hamkorlik ko'pincha universitetlar va davlat tadqiqot institutlari sifatida davlat sektori muassasalari o'rtasida hosil bo'ladi. Ilmiy salohiyat global innovatsion tizimlar bilan bog'liq bo'lib, rivojlanayotgan mamlakatlarda milliy innovatsion tizimlari kabi davlat sektori hamkorligi tobora muhim bo'ladi. Ular, shuningdek, yana adolatli bo'lishi kerak[30].

Intellektual mulk ob'ektlari fuqarolik huquqining boshqa ob'ektlari  ashyolar, qimmatbaho qog'ozlardan quyidagi xususiyatlari bo'yicha farq qiladi: a) ko'p hollarda ular moddiy ko'rinishda emas, balki g'oya, bilim, axborot shaklida namoyon bo'ladi; b) g'oya, bilim shaklidagi intellektual mulk ob'ektiga odatdagi moddiy ashyoga egalik qilganday egalik qilish mumkin emas; v) shaxslar bunday ob'ektlardan ayni bir vaqtning o'zida cheksiz doirada foydalana olishi mumkin; g) mulk huquqining muddasiz ekanligi haqidagi qoida (FK, 164-modda) Intellektual mulk hukuqi ob'ektlariga nisbatan qo'llanilmaydi, binobarin aksariyat hollarda (nou-xauga nisbatan istisnoni nazarga olmaganda) Intellektual mulk hukuqining amal qilishi qonunlarda belgilangan muddatlar bilan chegaralangan bo'ladi; d) qonunlarda belgilangan muddatlar utishi bilan Intellektual mulk hukuqi egasining ma'lum intellektual mulk ob'ektiga nisbatan huquqlari bekor bo'ladi va u umuminsoniy boylikka aylanib, har kim undan ma'lum shartlar asosida (muallifining shaxsiy huquklariga rioya qilgan holda) tekin va ruxsatsiz foydalanishga haqli bo'ladi;

e) Intellektual mulk hukuqi ob'ektlariga nisbatan mulk huquqini himoya qilishda vindikatsiya da'vosini qo'llab (FK, 228-modda) bo'lmaydi; yo) Intellektual mulk hukuqi ob'ektlariga nisbatan odatdagi mulk huquqiy emas, balki mutlaq huquklar haqidagi qoidalar qo'llaniladi;

---

[30] Gordon Conway, Jeff Waage, Sara Delaney. "Science and Innovation for Development". © 2010 UK Collaborative on Development Sciences (UKCDS). 65-66.

j) Intellektual mulk hukuqining amal qilishi ayni vaqtda ma'lum hudud bilan chegaralangan bo'ladi. Masalan, ixtiroga nisbatan O'zbekiston Respublikasi Patent idorasi tomonidan berilgan patent O'zbekiston Respublikasi hududida, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi qo'shilgan xalkaro konventsiyalar, u bilan xorijiy davlatlar o'rtasida tuzilgan ikki tomonlama shartnomalar asosida belgilangan xududlardagina amal qilag di;

z) ko'pgina intellektual mulk ob'ektlarining mualliflariga taalluqli shaxsiy huquqlar ham mavjud bo'lib, bu ob'ektlardan foydalanuvchilar mazkur huquqlarga rioya qilishi shart.

Intellektual mulk ob'ektlari qanday faoliyat mahsuli ekanligi, huquqiy rejimi va sh.k. xususiyatlariga qarab, quyidagi turlarga bo'linadi:

a) intellektual faoliyat natijalari: fan, adabiyot, san'at asarlari; eshit-tirish tashkilotlarining ijrolari, fonogramma va eshittirishlari; elektron hisoblash mashinalari uchun dasturlar va ma'lumot bazalari; ixtirolar, foydali modellar, sanoat namunalari; selektsiya yutuqlari; oshkor etilmagan axborot, shu jumladan, ishlab chiqarish sirlari (nou-xau) dan iborat;

b) fukarolik muomalasi ishtirokchilarining, tovarlar, ishlar va xizmatlarning xususiy alomatlarini aks ettiruvchi vositalar (firma nomlari; tovar (xizmat) belgilari; tovar chiqarilgan joy nomi;

v) Fuqarolik Kodeksida va boshqa qonunlarda nazarda tutilgan hollarda intellektual faoliyatning boshqa natijalari hamda fuqarolik muomalasi ishtirokchilarining, tovarlar va xizmatlarning xususiy alomatlarini aks ettiruvchi boshqa vositalar (FK 1031-modda). Mazkur faoliyatning yangi mah-sullariga, firmalar, tovarlar, ishlar, xizmatlarning yangi nomlari va alomatlariga nisbatan ham FK (4-bo'lim) da va boshqa qonunlarda intellektual mulkka oid belgilangan qoidalar qo'llanadi.

Intellektuallik koeffitsienti (ing. intellectual quotent, qisqartma nomi IQ) odamning turli test uslublari asosida aniqlanadigan aqliy rivojlanish ko'rsatkichi, bilim saviyasi. Test tizimlari yordamida bolalarning aqliy saviyasini miqdoriy ko'rsatkichlar orqali aniq-lash g'oyasini birinchi marta frantsuz psixologi A. Bine ishlab chikdan (1903). Bunda har bir odam yoshi uchun u erishgan bilim va mahorat darajasi 100 ga teng deb olingan. Mazkur ko'rsatkichdan ortiq yoki kam miqdor aqlning biron-bir daraja rivojlanishi kamoloti yoxud orqada qolishi haqida hukm chiqarish imkonini bergan. AQSH va boshqa mamlakatlarda Intellektuallik koeffitsienti yordamida armiyaga yoshlarni saralab olish, o'quvchilar bilimini baholash kabilar rasm bo'lgan.

## 12.4. "EHM uchun yaratilgan dasturlar va ma'lumotlar bazalarini huquqiy muhofaza qilish to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Qonuni

6-jadval

**Kashfiyotlarni aniqlash bosqichlari**

| **Kashfiyotni aniqlash bosqichlari** | **Amalga oshiriladigan ishlar** |
|---|---|
| *1-bosqich* | Asos qidiruv tadqiqotni ilmiy-amaliy injenerlik tadqiqotdan |

| | |
|---|---|
| | ajratish lozim. Tadqiqotning obekti tabiiy yoki texnik bo'lishi mumkin va uni tartibli amalga oshirish kerak. |
| *2-bosqich* | Kashfiyot predmeti hodisa, xossa, qonuniylikni oldindan belgilash. |
| *3-bosqich* | Kashfiyot shakliga muvofiq kashfiyot predmeti qat'iy shakllantiriladi. |
| *4-bosqich* | Bunda ilmiy qoidalar jamoatchilik tomonidan muhokama qilinadi. |

O'zbekiston Respublikasining "Elektron hisoblash mashinalari uchun yaratilgan dastur va ma'lumotlar bazalarining huquqiy himoyasi to'g'risida"gi Qonuni 06.05.1994-yilda qabul qilingan va 05.04.2002 va 30.08.2002-yillarda o'zgartirishlar kiritilgan. Ushbu Qonun EHM uchun dastur va ma'lumotlar bazalarini yaratish, ularning huquqiy himoyasi va ulardan foydalanish bilan bog'liq munosabatlarni O'zbekiston Respublikasida tartibga soladi.

Qoraqalpoiston Respublikasida EHM uchun yaratilgan dasturlar va ma'lumotlar bazalarining huquqiy himoyasi borasidagi munosabatlar Qoraqalpoiston Respublikasining qonun hujjatlari bilan ham tartibga solinadi.

O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari yoki bitimlarida ushbu Qonunda nazarda tutilganidan o'zgacha qoidalar belgilangan bo'lsa, xalqaro shartnoma yoki bitim qoidalari qo'llaniladi.

Ushbu Qonun EHM uchun yaratilgan dastur va ma'lumotlar bazalarini mualliflik huquqi obektlari sirasiga kiritadi.

Vazifasi va afzalliklaridan qat'i nazar, obektiv shaklda ifodalangan, bosib chiqarilgan hamda bosib chiqarilmagan, muallif (hammualliflar) ijodiy faoliyatining natijasi bo'lgan, EHM uchun yaratilgan har qanday dastur va ma'lumotlar bazalariga nisbatan mualliflik huquqi tatbiq etiladi. EHM uchun yaratilgan dastur yoki ma'lumotlar bazasiga mualliflik huquqi aksi isbotlanmagunga qadar saqlanib qolaveradi.

## 12.5. EHM uchun dasturlar. EHM ma'lumotlar bazalari. Mualliflik huquqining buzilishi. Dasturlar yoki ma'lumotlar bazalarini ro'yxatga olish uchun talabnoma

Bugungi kunda kompyuter insonlarning o'zaro munosabatlari, axborot bilan almashishning bosh vositasiga aylandi.

Kompyuter har qanday ishda insonning eng yaqin yordamchisidir. Lekin kompyuterning o'zi to'laqonli yordamchi emas. Uning qandaydir masalani hal qilishdagi foydaliligi to'laligicha u ishlaydigan dasturga bog'liqdir. Dasturiy ta'minot kompyuterning jonidir.

Har qanday EHMni ikki qismga bo'lish mumkin:

1. Apparat-texnik (hardware)
2. Dasturiy ta'minot (software).

Dasturiy ta’minot yoki EHM uchun dastur bu EHM, uning tarmoqlari va boshqa kompyuter vositalarining muayyan natijalar olish maqsadida ishlash uchun mo’ljallangan ma’lumotlar va buyruqlar majmuidir.

## 12.6. Qonunchilikda mualliflar mulkiy huquqlarining mustahkamlanishi

Mualliflar mulkiy huquqlari shaxsiy nomulkiy huquqlar kabi o’zining huquqiy tabiatiga ega. Agarda, muallifning shaxsiy nomulkiy huquqlari uning ajralmas huquqlari toifasiga kirsa, mulkiy huquqlar esa o’zga (uchinchi shaxs)larga ma’lum muddatlarda va ma’lum harakatlarni amalga oshirish sharti bilan vaqtincha o’tkazib turilishi mumkin.

O’zbekiston Respublikasining “Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to’g’risida”gi Qonunining “Muallifning mulkiy huquqlari” nomli 19-moddasida muallif asardan har qanday shaklda va har qanday usulda foydalanishda mutlaq huquqlarga ega ekanligi mustahkamlangan.

E.P.Gavrilov muallifning huquqlarini ikki guruhga bo’ladi:

a) shaxsiy nomulkiy huquqlar. Bu huquqlar jumlasiga u asarga muallif bo’lish huquqini; asarni nomlash huquqini, asar daxlsizligi huquqini va asarni nashr qilish huquqlarini kiritadi;

b) mulkiy huquqlar.

Ayrim olimlar mualliflik huquqlarini shaxsiy va mulkiy huquqlarga ajratilish zarurati va imkoniyatlarini tan olishmasa, ba’zilari muallif huquqlarining bunday ajratilishini shartligi, ba’zilari esa huquqlarni bunday turkumlashni nisbiy ekanligini ta’kidlashadi, yana bir guruh mutaxassislar muallif shaxsiy huquqlarini intellektual huquqlar jumlasiga kiritishadi.

Muallifning huquqlari o’zining tarkibiga bir vaqtning o’zida ham shaxsiy, ham mulkiy huquqlarni birlashtiradi, shu ma’noda uning intellektual huquqlari, deb yuritish unchalik to’g’ri bo’lmaydi. Muallif mulkiy huquqlarining tabiati, muallifning shaxsiy huquqlari tabiatidan keskin farq qiladi.

Ilmiy ishlanmalar bozori -ilmiy-texnikaviy ishlanmalar va turli loyihalar oldi-sotdi qilinadigan bozor, bozorning yirik segmenti. I.i.b. tenderlar o’tkazish, kontraktlar tuzish, grantlar tanlovini o’tkazish, yarmarka va ko’rgazmalar tashkil etish, yangiliklarni innovatsiya firmalari va birjalardan sotib olish shaklida yu beradi. Bu bozorda sotuvchi sifatida universitetlar, ilmiy tadqiqot muassasalari, konstruktorlik, texnologik, loyihalashtirish firmalari faoliyat ko’rsatadi. Ular o’zi ishlab chiqqan g’oyalar va loyihalarni taklif etadilar. Xaridor vazifasini esa turli ishlab chiqarish va xizmat ko’rsatish firmalari va davlat idoralari bajaradi. Sotuvchi va xaridorlar ilmiy ishlanmalar bozorining sub’ekti bo’lsa, ilmiy-texnikaviy ishlanmalarni o’zida mujassam etgan patent-litsenziya va nou-xaular uning ob’ekti hisoblanadi. Ishlanmalar butunlay sotilganda egasining intellektual mulkidan xaridor mulkiga aylanadi. Ular qisman sotilganda mulkiy egalik huquqi mulk egasi qo’lida qoladi, ammo ulardan ma’lum muddatda foydalanish huquqi xaridorga o’tadi. Ilmiy ishlanmalar bozorida avval ulardan foydalanib, so’ngra ularni to’la-to’kis sotib olish yuasidan ham bitimlar tuziladi. Ilmiy ishlanmalar bozori fan-texnika taraqqiyotining muhim omili hisoblanadi.

Bugun, bilim va ularni yaratishga asoslangan iqtisodiy rivojlanish, iqtisodiy o’sish va innovatsiyalar manbai bo’ladi. Rivojlanayotgan iqtisodiyoti esa milliy innovatsion tizimi endi shakllantirilmoqda.

Yaqinda boshlangan rivojlantirish jarayonlarini o’zgartirish asosiy vektori iqtisodiy rivojlantirish va shakllantirish, yangi turdagi iqtisodiyot sohasida bilim hal qiluvchi rol o’ynashi, bilim iqtisodiy o’sish manbaiga aylanishi kerak. Bu iqtisodiy o’sish, ilmiy bilim, yangi texnologiyalar, innovatsiyaion jarayonlar, mahsulotlar va xizmatlar, tadbirkorlik faoliyatini tashkil etishning yangi shakllari tizimi bo’lib qoladi, degan ma’noni anglatadi.

Innovatsiya strategik o’sish omili bo’lib, ijtimoiy ishlab chiqarish tuzilmasining ta’siri, jamiyat iqtisodiy faoliyatini tashkil etishni o’zgartirish, mamlakatda ijtimoiy vaziyatni barqarorlashtirish hisoblanadi. Milliy innovatsion tizimini shakllantirish (MIT) eng intensiv jarayoni rivojlangan iqtisodiyoti hisoblanadi. Milliy xususiyatlari va iqtisodiy salohiyatiga qarab turli modellari MIT tomonidan ishlab chiqarilgan[31].

Ixtiro xalq xo’jaligining turli sohalarida, ijtimoiy-madaniy qurilish va mudofaa sohalarida ijobiy samara beradigan, o’ziga xos texnikaviy echimga ega bo’lgan yangilik. Tor ma’noda davlat tomonidan tan olinadigan va tegishli qonun bilann muhofaza qilinadigan yangi texnikaviy echim. Har qanday yangilik ham ixtiro bo’lavermaydi. Macalan, kuruq ilmiy qoidalar, xususan, kashfiyotlar, amalga oshirib bo’lmaydigan va xato takliflar (mas, abadiy dvigatelь yaratish haqidagi takliflar) ixtiro hisoblanmaydi. Hal qilinadigan masala faqat nazariy emas, balki amaliy ehtiyojlarni qondiradigan bo’lishi lozim. Ixtiro qonun bilan muhofazalangan davlatlarda har bir taklifning ixtiro bo’lish shartlari belgilanadi. Bu shartlardan asosiysi masalaning eng yangi hisoblangan texnik echimidir. Muayyan taklifni ixtiro deb hisoblash uchun undan bir necha marta foydalanish imkoni ham bo’lishi kerak. Ixtironing yangiligi, ya’ni birinchi ekanligi (ko’pincha, ixtirochilikka oid tashkilotlarga berilgan hujjat — ariza sanasi) oldin berilgan mualliflik guvohnomalari va patentlar, ixtirolar e’lon qilinadigan tegishli adabiyotlar, ko’rgazmalarda namoyish qilingan eksponatlar va b.ga muvofik, aniqlanadi.

Davlat infratuzilmada invesitsiya va ilmiy tashkilotlarning moliyaviy jaraaynlarida asosiy o’rin tutadi. So’ngi vaqtlarda loyihaning Insninunsional bogluqligini donor sifatida qo’llab quvvatlaydi. Milliy va hududiy ilmiy tashkilotlar mamlakatni rivojlanishini moliyaviy jihatdan taminlayadi[32].

O’zbekiston Respublikasida ixtirochi bo’la olish shartlari va uni tasniflash tartibi O’zbekistan Respublikasi Oliy Kengashi tomonidan 1994 yilda tasdiklangan «Ixtirolar, foydali modellar va sanoat namunalari haqida»gi qonunda belgilangan. Ixtiro bo’yicha talabnomalarni ekspertiza qilish, mualliflik guvohnomasi va patent berish ishlari O’zbekistan Respublikasi Davlat patent idorasi tomonidan amalga oshiriladi. Ixtirochilik

---

[31] Edited by Erika Kraemer-Mbula and Watu Wamae. “Innovation and the Development Agenda”. International Development Research Centre PO Box 8500, Ottawa, ON, Canada K1G 3H9. © OECD/IDRC 2010. p. *31.*

[32] Gordon Conway, Jeff Waage, Sara Delaney. “Science and Innovation for Development”. © 2010 UK Collaborative on Development Sciences (UKCDS). p 67.

huquqi - O’zbekistonda fan va texnika sohasida ixtiro yaratish, uning rasman tan olinishi va qo’llanishi bilann bog’liq holda vujudga keladigan ijtimoiy munosabatlarni tartibga solib turadigan fuqarolik-xuquqiy me’yorlar majmui. Ixtiro fan va texnikada yangilik ekanini isbotlash uchun u dastlabki taklif berish asosida 15 kunlik muddat ichida ekspertizadan o’tkaziladi. Ixtiro ekspertiza uchun qabul qilingani yoki rad etilgani haqida taklif beruvchiga asosli dalillar bilann yozma javob yuboriladi. Ekspertiza davomida buyurtmachiga ixtiro mazmuniga biron-bir shaklda o’zgartish yoki qo’shimcha kiritish taklif etilishi mumkin, buning uchun yana ikki oylik muddat belgilanadi. Mazkur talablar o’z vaq-tida bajarilgan takdirda ixtironing birinchi marta yaratilganligi fakt sifatida dastlabki taklif berilgan kundan e’tiboran tan olinadi. Taklifning ixtiro deb hisoblanishi uchun uning muallifi muayyan texnik muam-moni ijodiy tarzda hal qilgan bo’li-shi shart. Ixtiroga oid huquq qonun-qoidalari O’zbekiston Respublikasi FK 62-bobida belgilab berilgan. Ularga binoan, bu huquq ixtirochiga patent berilganidagina muhofaza qilinadi. Patent bilann muhofazalanadigan ixtirodan o’z xohishicha foydalanishdagi alohida huquq patent egasiga tegishlidir, boshka shaxslar uning ruxsatisiz ixtirodan foydalanishga haqli emas (qonunlarda ko’zda tutilgan alohida hollar bundan mustasno). Ixtiro muallifi maxsus huquqlar, imtiyozlar bilann qonun vositasida ta’min etilishi mumkin.

Kashfiyot izlanish, tekshirish, ilmiy tadqiqot natijasida, ba’zan esa tasodifan topilgan, yaratilgan ilmiy yangilik. Unga tabiat hodisalari va jamiyat qonuniyatlarini ongli ravishda ilmiy idrok qilish natijasida erishiladi. Kashfiyot tufayli moddiy dunyoning ilgari insoniyatga ma’lum bo’lmagan ob’ektiv qonuniyatlari, xossalari va hodisalari ma’lum bo’ladi.

Kashfiyot insoniyatning bilish jarayoni darajasini tubdan o’zgartiradi. Kashfiyot fan-texnika inqilobi-ning asosini tashkil etadi, fan va texnika taraqqiyotiga tubdan yangi yo’nalishlarni baxsh etadi. Inson bosib o’tgan tarixiy jarayonda juda ko’p kashfiyotlar qilindi. Kashfiyot bilan ixtironi bir-biridan farqlay bilish kerak. Kashfiyot natijasida muayyan qonuniyatlar yaratiladi, ixtiro natijasida esa muhim yangiliklar yaratilishi mumkin. Macalan, Arximedning suv chiqarish vinti o’ta yangilik bo’lsa ham u ixtiro hisoblanadi, I. Nьyutonnint butun olam tortishshi qonuni esa olamshumul kashfiyotdir. Hatto ichki yonuv dvigatelining yaratilishi ham ixtiro, lekin N.Kopernikning Erning o’z o’qi atrofida va sayyoralar (shu jumladan, Er)ning Quyosh atrofida aylanishi to’g’risidagi g’oyasi olamshumul kashfiyot. Avtomobilь va samolyotning yaratilishini ham ilmga, tabiat konuniyatlariga asoslangan ixtiro deyish mumkin. Lekin Galileo Galileyning qushlarning uchishiga taklid qilib samolyotning uchish sxemasini yaratishi kashfiyot hisoblanadi. Beruniy, Ibn Sino, Ulug’bek yaratgan qonuniyatlar ham Kashfiyotlar jumlasiga kiritiladi.

Har qanday ixtiro ham kashfiyot bo’la olmaydi, lekin ixtiro kashfiyotga suyangan holda qilinadi. Atom va vodorod bombalarining kashf qilinishini kashfiyot jumlasiga kiritish mumkin, birok, raketalarni yasash ixtiro hisoblanadi.

Kashfiyot ham, ixtiro xam qonunchilikda muhofazalanadi. Ilmiy kashfiyotlar va ixtirolarni ro’yxatga olish, mualliflik huquqini qonunlarda mustahkamlab qo’yish davlat

tizimi mavjud. O’zbekistonda kashfiyot va ixtirolarni muhofazalash ishlari bilan O’zbekiston Respublikasi Davlat patent idorasi shug’ullanadi.

O’zbekistonda innovatsiya sohasini davlat tomonidan tartibga solish tizimini shakllantirish yo’lida qator muhim ishlar amalga oshirilgan. Xususan, «Mulkchilik to’g’risida»gi, «Mualliflik va turdosh huquqlar to’g’risida»gi Qonunlar, O’zbekiston Respublikasi Prezidentining «Innovatsion loyiha va texnologiyalarni ishlab chiqarishga tatbiq qilishni rag’batlantirishning qo’shimcha chora-tadbirlari to’g’risida»gi Qarori, Vazirlar Mahkamasining «O’zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining ilmiy va moddiy-texnika bazasini mustahkamlash choratadbirlari to’g’risida»gi qarori va boshqa ko’pgina normativ hujjatlar qabul qilingan. Mazkur hujjatlardan innovatsiya faoliyati uchun qulay sharoitlarni barpo etish, tijoratlashtirish kabi maqsadlar ko’zda tutilgan bo’lib, ular innovatsiya faoliyati natijalarini huquqiy himoyalash tizimini tashkil etishning muhim bo’g’ini hisoblanadi. Qonunchilikka ko’ra, O’zbekistonda mol-mulk daxlsizdir, respublikada mulkchilikning, iqtisodiyotning samarali faoliyat ko’rsatishi va xalq farovonligini oshirishga xizmat shakllariga ruxsat berilgan.

Innovatsiya faoliyati natijalarini huquqiy himoyalash infratuzilmasining tarkibiy qismi bo’lgan patent tizimi, mualliflik huquqi bilan chambarchas bog’liq. O’zbekistonda patent tizimini takomillashtirishning asosiy yo’nalishi milliy ixtirolarning ekspert fondini shakllantirish, bu bazadan foydalana oluvchi patent ekspert kadrlarini tayyorlash, patent beruvchi tekshiruv tizimiga o’tishdan iborat bo’lishi lozim.

O’rganishlar shuni ko’rsatmoqdaki, ixtirolar va sanoat namunalarini patentlashning mavjud tizimi respublika iqgisodiy siyosatining innovatsiya yo’nalishini hisobga olgan holda ba’zi o’zgarishlar kiritilishini taqozo etadi.

Xalqaro texnologik almashuvga faol kirib borishning zarur sharti chet ellardagi sanoat mulklari ob’ektlarini patentlashtirishdir. Bu tovarlar eksportini hamda litsenziyalarni chet elga sotishni ta’minlashning huquqiy asosini tashkil etadi. CHet ellardagi huquqiy muhofaza patentlash amalga oshirilgan mamlakatda shunga o’xshash mahsulotni noqonuniy ishlab chiqarishga to’sqinlik qiladi. Xorijiy patentlash, odatda, eksport mahsulotni muhofaza qilish maqsadida amalga oshiriladi.

O’zbekiston Respublikasida xorijiy patentlash darajasi milliy patentlash mahkamasiga taqdim qilinayotgan jami arizalar sonining 1 foizini ham tashkil qilmaydi. Bunday vaziyat, shakllanib kelayotgan milliy ilmiy mahsulotlar va yuksak texnologiyalar eksportiga jiddiy xavf tug’diradi. SHu munosabat bilan, respublikamiz huquq egalarining intellektual mulklarini, jumladan, davlat byudjeti hisobiga yoki davlat byudjeti mablag’laridan foydalanib, ishlab chiqarilgan intellektual mulklarni xorijiy va jahon bozorlaridagi himoyasini ta’minlash bilan bog’liq chora-tadbirlar ko’rilishi zarurligidan kelib chiqib, mutaxassislar tomonidan taraqqiyot institutlarini tashkil etish taklif qilinmoqda. Mazkur institutlar moliyalashtirayotgan, patentga layoqatli sanoat mulki ob’ektlariga ega bo’lgan loyihalarning ishonchli va keng himoyaga ega bo’lishidan manfaatdordir. SHuning uchun, ilmiy-texnik va innovatsion loyihalashtirishni moliyalashtirishni rejalashtirishda, xorijiy patentlash imkoniyatlarini ham ko’zda tutish lozim.

O’zbekistonda intellektual mulk huquqlarini ro’yobga chiqarish va uni himoyalash uchun Mualliflik huquqlari bo’yicha agentlik tashkil qilingan bo’lib, unga mualliflik huquqlarini muhofaza qilish sohasidagi yagona davlat siyosatini amalga oshirilishini ta’minlash vazifasi yuklatilgan.

Qo’mita o’z zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarish maqsadida, iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohalarni rivojlantirish, shuningdek, mamlakat iqtisodiyotida tarkibiy o’zgarishlar strategiyasi bilan bog’liq ravishda vazirliklar va idoralar, ilmiy-tadqiqot muassasalari taqdim qilgan materiallar asosida, fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo’nalishlariga oid takliflar tayyorlaydi, vazirliklar va idoralarning ilmiy-texnik dasturlarini, innovatsiya va boshqa tadqiqot, tajriba-konstruktorlik loyihalarini ishlab chiqish bilan bog’liq faoliyatini muvofiqlashtiradi.

## Oxfamdagi innovatson muammo.

Oxfamda moslashishga bo’lgan katta meros va ijtimoiy o’zgarishga nisbatan xohishdan tashqari yaralgan innovatsiyada bor - u Ikkinchi Jahon urushining boshlanishidan buyon cheksiz transformatsiyalar sayohatidadir. Bu uning ilk kunlaridagi innovatsiya ustida qilingan yaxshi rekordi. 1950 va 1960-yillarda u xayriya do’konlari va gumanitar yordamlarda boshchilik qildi. 1970-yillarda u favqulodda holatlar uchun suv bak (idish) larini rivojlantirdi va *Sahel*ni oldlaridan boshlab “sehrli toshlarga” cho’llanishni kamaytirish uchun berdi, ularning ikkalasi ham hozir ishlatilmoqda. 1980-yillar Oxford Brookes Universiteti va OITS/OITV ga qarshi birinchi jamoalarning biri bilan energiya biskvitini kashfiyotini ko’rdi. 1990-yillarda u birinchi Adolatli Savdo Asosini yaratdi va Nobel Tinchlik mukofoti laureati bo’ldi. 2000-yillarda u “Kambag’allikni o’tmishda qoldiring ”kompaniyasida markaziy rolni o’ynadi va fond oshirishning Oxfam O’ralmagan namoyishlari kabi yangi yondashuvlarini rivojlantirdi, qaysiki hozirgi kunda 50 million evrogacha fondini oshirib olgan. Bugun Oxfam haligacha keng ko’lamda ta’sir ko’rsatish uchun innovatsiya qiladi[33].

SHunga qaramasdan, muammolar anchagina murakkab bo’lganligi va dunyoning juda ham tez o’zgarayotganligi sababli biz hozrigi kunda duch kelayotgan muammolarni echishga etarli darajada yaratuvchi va birlashuvchi emasmiz. Oxfam ning bosh strategik maslahatchisi Duncan Green aytganidek: “(kengroq kontekst) innovatsiyaga ko’proq qo’shimcha haq beradi, ammo buni mavjud doimiylik bilan rivojlantirish Oxfam uchun qiyinligini isbotladi.

*Oxfam dagi innovatsiyani yaratuvchi va ta’qiqlovchi faktorlar.*

Oxfam da innovatsiya qanday darajada sodir bo’lishini yanada yaxshiroq tushunish uchun biz tashkilot bo’ylab innovatsiyaning yaratuvchi va ta’qiqlovchi faktorlari ustida izlanish olib bordik. Bizning metodologiyamiz innovatsiyadagi ijobiy og’ishlarni kashf qilish edi – uning o’zi xalqaro rivojlanishdagi muhim innovatsiya hisoblanadi. Biz

[33] Gordon Conway, Jeff Waage, Sara Delaney. “Science and Innovation for Development”. © 2010 UK Collaborative on Development Sciences (UKCDS). P 47.

noodatiy ammo muvaffaqiyatli, mummolarga yaxshiroq echim topadigan yo'llar yoki strategiyalarni topishni xohlagandik. Biz keng ko'lamda ta'sir o'tkazgan yoki ta'sir o'tkazishga yuqori darajada potensiali bor 13 ta innovatsion tajabbuslar jamoasini intervьyu qildik. Bu tashabbuskorlar ko'p hajmdagi sistemalar fikrlarining elementlaridan foydalangan va Oxfamning ishlarini turli xilligini ko'rsatgan investorlar bilan ishlashgan. Ular bundan tashqari "Brenddan Orqada" kabi Somalida sog'liqni saqlash xabarlari va pul jo'natish uchun mobil telefonlardan foydalanadigan global kompaniyalarni ham o'z ichiga oladi.

Oxfam innovatsiyalariga misollar[34]. MLink Somalida Oxfamga xavfsiz joylarda masofadan hamjamiyatga erishish uchun imkon berdi. U bozorga etib borishi qiyin bolgan mahalliy sotuvchilarga o'zak mahsulotlarga almashtirish hisobiga foyda oluvchilarga jo'natiladigan internet-kuponlar orqali ishlaydi. Sotuvchilar esa bu evaziga Oxfamdan tezkor mobil to'lovlarni qabul qiladi. YUNICEF bilan hamkorlikda, bu yondashuv millionlab odamlarni asab kasalligidan himoya qilishga yo'naltirmoqda. Lekin bu yana shu faktni ta'kidlaydiki, bizning hozirgi ko'pgina strategiyalarimiz bunday muhitda ishlay olmaydi.

Bangladesh fermerlari uchun suv toshqinlari sug'urtasi toshqindan zarar ko'rgan odamlarga tez to'lanish xususiyati bilan 2013-yilda tashkil qilindi. Uchuvchilik indeks sug'urtasi 14ta viloyatda 1661ta kambag'al oilalarni qoplaydi, lekin qachondir sinab ko'rilgan uzoqroqni ko'zlaydi. Bu sxema SHved Re va mahalliy sug'urtalovchilardan tashkil topgan jamoaning bir qismi va Oxfam tomonidan rivojlantirilgan. Muammo investorlarga foyda keltiradigan tijoriy ishlaydigan modelni rivojlantirish – va bu erta mukofot uchun vaqt va energiya oladi.

Oxfamning "Breddan orqada" kompaniyasining maqsadi odamlarni duyodagi eng katta 10ta oziq-ovqat va ichimlik kompaniyalarini ushlab turish uchun kerak bo'ladigan va ularning o'z ta'minot zanjirlarida nima sodir bo'layotganlgi haqidagi ma'lumotlar bilan ta'minlashdir. Hamma ommaga ma'lum ma'lumotlarni to'plab kompaniya quyidagicha savolni beradi: "Ular o'z ta'minot zanjirlarini tozalash uchun nima qilishmoqda?" Bu ko'pgina aktyorlarning, idealizmdan, o'z qiziqishlaridan yoki o'z hisoblarini maksimmallashtirishga bo'lgan muhtojlik tanlovlari kambag'al oilalarga ulkan foyda keltira oladilar.

Oxfamda innovatsiya qanday sodir bo'lishi biz gapirgan tashkiliy strukturalar orqali bo'lgan innovatsiyalardan tashkil topgan:

1. Innovatsiyani gapirmang, uni bajaring. Biz shuni bilib oldikki,Oxfamdagi innovatsiya yurgizuvchilar har doim ham ochiqdan-ochiq innovativ bo'lishga harakat qilishm asdi, yoki ular etarli darajada o'zlari innovator emas. Ular shunchaki muammolarni echishning yaxshiroq echimlari bor deb o'ylashgan, va boshqalar bilan bularni echishga harakat qilishdi. Biz ko'rib chiqgan innovatsiyalarning birortasi biz innovativ bo'lishni xohlaganimiz uchun bo'lmagan.

---

[34] Gordon Conway, Jeff Waage, Sara Delaney. "Science and Innovation for Development". © 2010 UK Collaborative on Development Sciences (UKCDS). P 75.

SHunga o’xshash holda, izlanish o’tqazishga harakat qilayotganimizda biz tashkilot bo’ylab kollektivni innovatsiyaso’zi ustida xato qilishganligini topdik. Biz to’xtovsiz noto’g’ri ijobiy (qaerda ish innovativ sifatida aniqlangandi lekin odatiy biznes edi) va noto’g’ri salbiy tomonlar ( aytib o’tilmagan buyuk misollar)ni ko’rdik . Biz qachonki odamlardan qaysi ish yaxshi va farq yaratishga potensialga ega deb so’raganimizda, o’sha paytda bizda yuqori urish darajasi bor edi.

Oxfamda “Bu innovativmi?” degan savol haqiqatdan yordam bermaydi, sababi bu bizni eng muhim savoldan uzoqqa olib ketadi: “bu keng ko’lamda o’zgarish olib keladimi va ta’sirni oshirishning yo’llari qanday?” Innovatsiya o’zining o’ngida masofadek ko’rinishi kerak emas, balki yanada umumiy va kreativ muammo echuvchi bo’lishi kerak.

Inovatsiyaning tili tez-tez mantiqsiz qarashlarni o’ziga olishi mumkin: “ma’noli o’zgarishlarni qilish”, “transformativ ta’sirga ega bo’lish” va hokazo anchagina tanish til. Bu innovatsion strategiyalar o’zgarish taktikalariga muhtoj bo’lishi mumkin degan faktni ta’kidlab o’tadi. SHuning uchun ham biz innovatsiyaga yashirincha qaraymiz – masalan rivojlanishning yangi biznes modellari, dizaynni programmalashtirishga (dasturlashga) yashirincha yondashish, va ta’sir doirasida qurilish jamoasi imkoniyatlariga e’tiborni qaratish.

2. Odamlar ahamiyatga ega (va ular ko’plab muhim rollarni o’ynaydi )

Bu izlanishda biz “Innovatsiya” odatda berish, anglash, tarbiyalash va talantni ushlab turishdan boshlanishini bilib oldik. Biz bir qancha ijobiy normal bo’lmaganlarni moslashishga va rivojlantirishga muhtoj bo’lgan rollar bo’lganligini bildik.

Biz bu jamoa azolarini “serg’ayrat operatlar” deb atar edik. Ular o’z fikirlarini bir biri bilan bo’lishadigan bir birini qo’llab-quvvatlaydigan guruhning bir qismi edi, va ular bir birlarini o’zlarining ajoyib maslahatlari hamda mutaxassislik xulosalari bilan qo’llab quvatlashar edilar.

Bunda har bir davr mobaynida har bir bosqichda sardorlar bo’ladi. Ular yangiliklar yaratishadi, g’oliblarga o’xshab harakat qilishadi imkoniyatlar topishadi va jamoani turli tavakkallarda va ishlar ko’ngildagidek ketmayotganda qo’llab-quvvatlab turishadi. Birrespondet o’z ish boshqaruvchisi haqida shunday fikr bildirdi; “U aytgan bo’lar edi “Bor hozir shu ishni qil, men senga ishonaman” ishonchim komilki men muvaffaqiyatsizlikka uchrasam ham u meni qo’llab-quvvatlaydi”. Ko’p vaqtlarda har xil ish tajribasiga ega bo’lgan xodimlar jamosi bir-xil yo’nalishdagi xodimlar jamoasidan ustun bo’ladi.

3.SHiddatli tez o’zgaruvchan vaziyatlardagi imkoniyatlar[35]. Tez orada yangi ishlash jarayoni, muhiti yaratilgan jamoada doimiy vaqt etishmasligi kuzatiladi buning sababi ular o’zlarining vazifalarini bajarishlari va doimo ortib boruvchi qo’shimcha vaziyatlar bo’ladi. Hodimlardan biri shunday deydi. “ishimizning boshida biz yangi imkoniyatlar qidirish qo’shimcha fikrlar g’oyalar yaratish bizning asosiy ishimiz emas edi bularni biz hafta ohirida hamda kechki paytlarda qilar edik.

[35] Gordon Conway, Jeff Waage, Sara Delaney. “Science and Innovation for Development”. © 2010 UK Collaborative on Development Sciences (UKCDS). P 83.

Hozirda esa bu kabi harakatlar bizning kelajakdagi ishlarimizning, dasturlarimizning asosiy qismiga aylangan. Har qanday muvaffaqiyatli tashkilot ham parallel aniq ravishda harakatlarni amalga oshirishi kerak va bu kelajakda ko'pgina keskin vaziyatlarda fahrlanadigan hodisa bo'ladi. Men aytgan bo'lardimki yangilik yaratish uchun birgina va katta sabablaridan biri Oxfam kabi tashkilotlarda kelajakda ish vaqtida xodimlarning vaqti-chog'ini yaxshi o'tkazishidir. Albatta, ularni majburan bir joyda ushlab turganidan ko'ra. Biz Osiyoda davlatlardagi ishga layoqatl aholining avlodlar almashinuvini rivojlantirmoqdamiz va bu ish boshqaruvchilar kutgan natijani bermoqda. Biz shuningdek shuni bildikki turli usul va uslublarda ishlagan hodimlarbirlashib katta muvaffaqiyat keltririshi mumkin. Masalan: yaqindagi qo'shma dizayn jarayonida yoshlar ham dasturli davlatlardagi shu sohadagi mutaxasislarning uchrashuvi bizga kelajak uchun ko'pgina imkoniyatlar yaratib berdi.

Egiluvchan kapital boshlang'ich davrlarda juda muhimdir u bizga turli tajribalar o'tkazish imkonini beradi. Biz 3D printerini inosniyat uchun qanchalik foyda keltirishini bilmaymiz. Lekin, aqlli odamning tikkan mablag'i bizga ko'p yo'llarni ochib beradi. CHunki boshlanishda rejalar o'zgaruvchan bo'ladi. Mablag'larni turli joylarga yo'naltirish ya'ni egiluvchanligi va mablag' beruvchilarningochiq-oshkoraligi juda muhim.

4.Ijodiy hamkorlik. YAna bir muhim omillardan biri bu jo'shqin hamkorlik va sherikchilikdir. Bir manfat yo'lida birga vaqt sarflayotgan odamlarni va muammoni echishga qurbi etadigan odamlarni topganimizda bu narsa bizga dividend kabi bo'ladi. Faqatgina biz ularni to'g'ri tanlay olishimiz va echimlarni birga rivojlantira olsak. "Arms Trade Treaty" tashkilotini misol qilib oladigan bo'lsak, u 65dan ortiq xalqaro huquqshunoslarni o'z ichiga oladi. Va buning asosiy maqsadi qonuniy tahlilar o'tkazib uning natijasida savdo sotiqning hukumdorini aniqlash shuningdek turli delegatsiyalarni qonuniy diplomatik konferetsiyalarda qo'llab-quvvatlashadi.

Ijodiy hamkorlik qurish odatda juda muhim masala saifatida qaralmaydi hatto kimyorlar uchun ham. Katta tashkiliy e'tibor vaqtinchalik ustunlik va uning davomiyligiga hamda ishlarning borishiga qaratiladi. CHuqur sistematik o'zgarishlar hamkorlikning imkoniyatlarini ehtiyoji deb emas balki, zavq ulashadigan hodisa deb tadqiq qilindi. Biz daslabki vaqtlarda Janubiy afrikadagi katta bir pivo ishlab chiqaradigan hududda ayollarning jinoyatga qarshi jamoasini tuzdik va bu ancha-muncha ananaviy usullardan ko'ra foydaliroq bo'ldi. Oxfam hodimlarini yana bir kuchli tashkiliy qismi bu "Ularga va Bizga" degan g'oyani o'yg'otishidir. Oxfam hodimlari va undan tashqarida bo'lganlar o'rtasida albatta. Bu o'z-o'zidan ota - mo'g'il yoki beruvchi-qabul qiluvchi kabi aloqalarni katta va kichik tashkilotlar o'rtasida paydo qiladi. Oxfam o'z chegeralaridan o'tkazadigan yo'laklarni ko'paytirishga muhtoj[36]. Buning asosiy sababi brokerlikda asosiy o'rin egallashdir hamda hamkorlikda muhim o'rin egallashdir.

---

[36] Gordon Conway, Jeff Waage, Sara Delaney. "Science and Innovation for Development". © 2010 UK Collaborative on Development Sciences (UKCDS). P 89.

Biz ehtiyotkorlik bilan hamkorlikdagi ustunligimizni raqobatdagi ustunligimizdan ko'ra ko'paytirishimiz, oshirimiz kerak. Maqsadga erishish yo'li aniq qadamlar hodimlarning yangi qirralarini ochishga yordam beradi, va kelajakdagi hamkorlik uchun yangi g'oyalar keng fikrlar hamda, birlikda bunyod etish metodologiyalarini o'z ichiga qamrab oladi.

5. Qulay muhit, sharoit va fikrlar xilma xilligini tashkil etish. Oxfamga qanday qilib innovatsion g'oyalar kelib qolishini kuzatadigan bo'lsangiz bu kutilmaganda to'satdan paydo bo'lishini ko'rasiz. Agarda tashkilot murrakab bo'lsa va o'zaro bog'langan bo'lsa Oxfam ko'proq tashabbuskorlikda bo'ladi. YAngiliklar yaratish muhitini shakllantirish va to'g'ri yo'nalish olish uchun rahbarning roli muhimdir lekin, bu eng baland eng past ko'rsatkichlarni belgilab qo'yadi va boshqarishga urg'u berishi ham mumkin. Tashkilotlarda o'zgarishlar qilish yangi normalarni paydo qilish muhimdir yangi normalar albatta hodimlar, hamkorlar va boshqaruv tizimiga o'z ta'sirini ko'rsatadi, va bu hodimlarning keng ko'lamda yangi tizim uchun qattiq ishlashni ta'minlaydi .

**Takrorlash uchun savollar**

1. Ilmiy kashfiyotlar nima ularni obektlari ularni aniqlash usullarini sharhlab bering?
2. O'zbekiston Respublikasida ilmiy kashfiyotlarni muhofazalash qanday amalgam oshiriladi?
3. Intellektual mulk va kapital deganda nima tuushuniladi va ular qanday shakllanadi?
4. Intellektual mulk va kapitalning huquqiy muhofazasi qanday ta'minlanadi?
5. Ilmiy texnika ishlanmalarini tijoratlashtirish strategiyasi deganda nimani tushunasiz?
6. Ilmiy kashfiyotlar, ixtirolar va litsenziyalash borasida davlat siyosatining mazmuni va mohiyati nimalardan iborat?
7. Ilmiy kashfiyotlar to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasini qaysi qonunlarini bilasiz?
8. O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotining rivojlanishida ilmiy kashfiyotlarning roli nimalardan iborat?

## 13-Mavzu. Patentlar va patent axborotlarini izlash

Reja:

13.1. Patent, litsenziya va sertifikat olish uchun patent byurosiga ariza berish.

13.2. Chet elda patentlash. Litsenzion shartnoma xaqida tushuncha.

### 13.1. Patent, litsenziya va sertifikat olish uchun patent byurosiga ariza berish

Patentlash – O'zbekiston Respublikasi tashkilotlari, korxonalari, ayrim fuqarolarining chel el patentlari va boshqa tegishli muhofaza hujjatlarini ixtirolar, foydali modellar, sanoat namunalariga olish maqsadida, shuningdek tovar belgilarini amalga oshiriladigan barcha ishlar majmui.

"Patentlar, savdo belgilari va litsenziyalarni mohiyatini Kouz teoremasida keltirilgan qonuniyat bilan tushuntirish mumkin. Kouzning fikricha **patentlash jarayoni faqat iqtisodiy samarani emas, balk atrof muhit tozaligi va xavfsizligi masalasini o'z ichiga olishi shart**. Patent berayotganda patent egasiga atrof muhitni ifloslantirish

bo'yicha ko'rsatmalar va soliq tizimi tomonidan alohida yondashuvni ham vazifa yoki burch sifatida berish mumkin"[37].

Bunda O'zbekiston Respublikasi fuqarolari va tashkilotlari uchun patent olishga vakolatlangan vazifasini bajaradi, talabnomachi huquqiy tavsifdan hujjatlar (dalolatnoma, berganlik hujjatlari va b.)ni rasmiylashtirishda yordam ko'rsatadi. talabnomani chet elga jo'natadi, chet el patent idorasi bilan (chel eldagi patent olishga patent idorasining ishonchli vakillar orqali) aloqani amalga oshiradi, Patent idorasi qarorlari, patent olishga vakolatlangan Patent idorasining vakillarining so'rovini va tarjimasini ta'minlaydi, bu qaror va so'rovlarga javoblar tayyorlashga, shuningdek mamlakatlar patent ma'muriy, appelyastiya va boshqa idoralarida mamlakat sanoat mulklari bo'yicha ishlar ko'rilishida yordamlashadi.

## 13.2. Chet elda patentlash. Litsenzion shartnoma haqida tushuncha

CHet elda patentlash uchun hujjatlarni rasmiylashtirish tartibi.

Patentlashtiruvchi tashkilot, sanoat mulklarini chet elda patentlash to'g'risida qaror qabul qilsa, agar konvensiyaviy ustuvorlik talabnomasi uchun yoki boshqa vaziyatlarga ko'ra bundan ko'ra istisno va talab etilmasa, sanoat mulk tavsifini (uning tushuntiruvchi chizmasini) tayyorlaydi. Sanoat mulklarini patentlashga mo'ljallanayotgan mamlakatning patent qonunchiligi o'sayotgan talablarga muvofiq tavsif o'zbek va tegishli chet tilida tayyorlanadi. Bu tavsif etarli nusxada ko'paytiriladi va jo'natishdan oldin O'zbekiston Respublikasining Patent idorasida sanoat mulkini tavsifi va chizmalari chet elda patentlash xizmati bilan kelishib olinadi.

"Kouzning fikricha, **mamlakatlarda patentlash tizimi mulkchilik huquqi bilan chambarchas bog'liq ravishda raqobatdosh yoki noraqobatdosh mahsulotlarga nisbatan o'zgachan yondashuv bo'lishi kerak**, ya'ni patentlashda mahsulot turini raqobatdoshlik darajasini mulk qo'mitalari aniqlab berishlari shartdir. Bunday deb ta'kidlashiga sabab, bu kabi aniqlashtrishlar iqtisodiy ahamiyatga egadir"[38].

CHet elda patentlash uchun tayyorlangan talabnoma materiallarini Patent idorasi kelishib olish uchun patentlashtiruvchi tashkilotga yuboradi, u bir oy ichida mualliflar bilan talabnoma materiallari kelishilganligini ta'minlaydi yoki o'z mulohazalarini bayon etib, Patent idorasiga qaytaradi. Agar tashkilotdan belgilangan muddatda hech qanday ma'lumot kelmasa, Patent idorasi materialni kelishilgan deb hisoblaydi. Har qanday vaziyatda ham talabnoma materiallarini kelishib olish bilan bog'liq ishlar konvensiya ustuvorligini yo'qotishga sabab bo'lmasligi lozim.

Patentlashtiruvchi tashkilot, maxsus so'rovni kutmay, sanoat mulklarini patentlash haqidagi qarorni olgan kundan boshlab bir oy muddatda O'zbekiston Respublikasi Patent idorasiga mualliflar, talabnomachilar, haqidagi barcha ma'lumotlarni ixtironi patentlash bo'yicha chel elda ish olib borish va rasmiylashtirish uchun tadim etadi. O'zbekiston Respublikasi sanoat mulklarini patentlash uchun chet el patent idoralariga talabnomani O'zbekiston Respublikasi Patent idorasiga jo'natadi va ular bilan yozishmalar olib boradi.

[37] Innovation, intellectual property, and economic growth / Christine Greenhalgh and Mark Rogers. USA Princeton University Press, 2010 . 45-б.

[38] Innovation, intellectual property, and economic growth / Christine Greenhalgh and Mark Rogers. USA Princeton University Press, 2010 . 46-б.

**Texnika obektlarining patentga loyiqligini va patent sofligini aniqlash tartibi**.

Sanoat mulklarini patentlash bilan bir qatorda O'zbekiston Respublikasining chet davlatlar bilan iqtisodiy va ilmiy-texnikaviy aloqalari rivojlanishi munosabati bilan patent tavsifidagi boshqa masalalar ham yuaga keladi. SHulardan biri, O'zbekiston Respublikasi sanoat mahsulotlari (mashina, qurilmalar) ning, shuningdek texnologiya jarayonining patent sofligini aniqlash hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi korxonalari chiqarayotgan buyumlar uchun patent sofligini ta'minlash zarurati mamlakat uskunalarini eksport qilish bilan bog'liq tarzda yuaga kelmoqda. Bundan tashqari chel elda korxonalar qurilishiga texnikaviy hamkorlik qilish va chel el firma hamda tashkilotlarining O'zbekiston Respublikasiga beradigan patentlari sonining ko'payishi tufayli ham shunday zarurat paydo bo'lmoqda**. Patent sofligi** - patent egasining huquqiy obekti bilan bog'liq tushuncha. Patent egasi huquqining buzilishi bir qator mamlakatlarda tovarlarni ushlab olish, jarima solish, ba'zan esa jarima olishgacha olib keladi. Patent egasi, shunday qoidabuzarlik tufayli ko'rgan zararini qoplashni talab etishi mumkin.

Qurilmalar, mashinalar, ishlab chiqarish usullari yoki qandaydir boshqa obektlar qaysi mamlakatda amal qilayotgan patentga xilof bo'lmasa, shu mamlakatda patent sof hisoblanadi.

Patent sofligi tushunchasini patentga loyiq tushunchasi bilan aralashtirmaslik lozim. O'rtadagi farq avvalo shundan iboratki, **"patent sofligi" atamasini** moddiy obektlar (mashina, qurilmalar va h.k.) ga taalluqli, **"patentga loyiq"** atamasi esa texnikaviy echimga tegishli. Patent sofligi deganda, muayyan buyum begona patent ta'siri ostiga tushib qolmasligi nazarda tutiladi.

Patent sofligiga ega buyum boshqa mamlakatlarda mavjud bo'lgan patentlarga xilof bo'lmaydi, shuning uchun unga nisbatan boshqa patent egalari tomonidan hech bir da'vo bo'lmaydi. Agar buyumdagi texnikaviy echimga patent olish mumkin bo'lsa, unda bu echim patentga loyiq hisoblanadi.

Patent sofligi va patentga loyiqlik masalasi bir vaqtda yuaga kelishi mumkin, lekin ularning mohiyati har xil. SHunday qilib, **patent sofligi texnika obektining huquqiy xossasi bo'lib,** u mazkur mamlakatlarda amal qiluvchi patentlar mutlaq huquqi uchinchi shaxsga taalluqli degan xavfdan holi, erkin foydalanish mumkinligidan iboratdir. Patent sofligi qandaydir bir mamlakatga nisbatan yoki bir necha mamlakatlarga nisbatan ta'minlanishi mumkin. Sanoat mulklariga bo'lgan huquqning hududiy tavsifiga ko'ra, qandaydir texnika obekti (buyum) patenti, masalan, AQSHda berilgan patent ta'siri ostida bo'lishi mumkin, shu bilan birga Hindistonga nisbatan patent sofligiga ega bo'lishi mumkin. Patent sofligini aniqlash, u yoki bu mamlakatda berilgan patentning amal qilish muddati bilan ham bog'liq.

## Takrorlash uchun savollar

1. Patent, litsenziya va sertifikat tushunchalarini izohlab bering?
2. Patent, litsenziya va sertifikat olish uchun shartnoma tuzish shartlari?
3. Patent, litsenziyalarni chet elda patentlashga qo'yiladigan talablar?
4. Sanoat mulkini va xizmatlarni chet elda patentlashning sababi va vazifasi.

## 14-Mavzu. Sanoat namunalari va selektsiya yutuqlari innovatsion rivojlanish ob'ekti sifatida

Reja:

14.1. O'zbekiston Respublikasini "Selektsiya yutuqlari to'g'risida"gi Qonun va uning ahamiyati.

14.2. Selektsiya yutuqlari. O'simlik turlari va navlari, hayvon zotlari va ularga qo'yiladigan talablar.

14.3. Sanoat namunalari. Sanoat namunasining patentga layoqatlilik shartlari.

14.4. Sanoat namunasiga talabnomalarning tuzilishi va patentlash tartibi.

14.5. Sanoat tovar belgilarining turlari va ularga talabnoma tuzish.

### 14.1. O'zbekiston Respublikasini "Selektsiya yutuqlari to'g'risida"gi Qonun va uning ahamiyati

O'zbekiston Respublikasining "Selektsiya yutuqlari to'g'risida"gi qonuni 30.08.1996-yilda qabul qilingan. Ushbu Qonunning maqsadi selektsiya yutuqlarini yaratish, huquqiy muhofaza qilish va ulardan foydalanish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

Qonunda quyidagi asosiy tushunchalar qo'llaniladi:

Zot – genetik jihatdan o'zaro bog'liq biologik va morfologik xususiyatlari hamda belgilariga qarab aniqlanadigan hayvonlar (shu jumladan parrandalar, hasharotlar, ipak qurti) yoki ularning duragaylari guruhi bo'lib, bu xususiyatlar hamda belgilarning ayrimlari aynan shu guruhga xos bo'ladi va uni hayvonlarning boshqa guruhlaridan farqlab turadi. Zot guruhi, zot ichidagi (zonal) tip, zavod tipi, zavod liniyasi, zot oilasi, partenoklonlar, liniyalar, duragaylar zotning muhofaza qilinadigan obektlaridir;

**Ish beruvchi** – selektsiya yutug'ini yaratish to'g'risida topshiriq bergan va bu topshiriq bajarilishini moliyalashtirayotgan yuridik yoki jismoniy shaxs;

**Litsenziar** – selektsiya yutug'idan foydalanish huquqini litsenziatga litsenziya shartnomasi asosida beruvchi patent egasi;

**Litsenziat** – selektsiya yutug'idan foydalanish huquqini litsenziardan litsenziya shartnomasi asosida olgan yuridik yoki jismoniy shaxs;

**Nav** – o'simliklar guruhi bo'lib, u nasldan naslga barqaror o'tuvchi, muayyan genotip yoki genotiplar kombinatsiyasini boshqalaridan ajratib turuvchi belgilarga qarab aniqlanadi va ayni bir botanik taksondagi boshqa o'simliklar guruhidan bir yoki bir necha belgilari bilan farqlanadi. Klon, liniya, birinchi avlod duragayi, populyatsiya navning muhofaza qilinadigan obektlaridir;

**Patent egasi** – selektsiya yutug'iga berilgan patentning egasi;

**Selektsiya yutug'i** – o'simliklarning yangi navi, hayvonlarning yangi zoti;

Talabnomada ko'rsatilgan selektsiya yutug'ining sinovlari farqlanish, turdoshlik va barqarorlik mezonlariga moslikni sinashdan iboratdir. Talabnomada ko'rsatilgan selektsiya yutug'ining sinovlari ixtisoslashtirilgan tashkilotlar belgilagan usul va muddatlarda, ro'yxati O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadigan davlat nav sinash stansiyalarida, davlat nav sinash uchastkalarida, boshqa tashkilotlarda o'tkaziladi.

Chet ellik yuridik va jismoniy shaxslar ushbu Qonunda nazarda tutilgan huquqlardan O'zbekiston Respublikasining yuridik va jismoniy shaxslari bilan teng ravishda yoki kelishuv printsipi asosida foydalanadilar.

## 14.2. Selektsiya yutuqlari. O’simlik turlari va navlari, hayvon zotlari va ularga qo’yiladigan talablar

**7-jadval**

**Patent berish haqidagi talabnomaga ilova qilinadigan hujjatlar**

| № | Patent berish haqidagi talabnoma quyidagilarni o’z ichiga oladi |
|---|---|
| 1. | muallif (hammualliflar) va kimning nomiga patent so’ralayotgan bo’lsa, ana shu shaxs (shaxslar), shuningdek ularning turar joyi yoki manziliga doir ma’lumotlar ko’rsatilgan patent berish haqidagi arizani; |
| 2. | selektsiya yutug’ining nomi to’g’risidagi taklifni; |
| 3. | selektsiya yutug’ining tavsifini (texnikaviy anketasini); |
| 4. | selektsiya yutug’i namunalarining fotosuratlarini; |
| 5. | talabnoma beruvchi tomonidan o’tkazilgan selektsiya yutug’i sinovlariga doir hujjatlari; |
| 6. | talabnoma beruvchining selektsiya yutug’idan foydalanilmaganligi, u sotilmaganligi, o’zga shaxsga berilmaganligi hamda uning yangilik talablariga mosligini tasdiqlaydigan deklarastiyasini; |
| 7. | selektsiya yutug’ining ustuvorligini tasdiqlovchi hujjatni (zarurat bo’lganda); |
| 8. | talabnoma beruvchining selektsiya yutug’ini sinovdan o’tkazish uchun materialni belgilangan muddatda ixtisoslashtirilgan tashkilotga taqdim etish majburiyatini; |
| 9. | talabnoma patent vakili yoki ishonchli shaxs orqali topshirilganida ularga berilgan ishonchnomani; |
| 10. | patent boji belgilangan miqdorda to’langanligini yoxud patent boji to’lashdan ozod qilish, shuningdek uning miqdorini kamaytirish asoslarini tasdiqlovchi hujjatni o’z ichiga olgan bo’lishi kerak. |

**14-rasm**

**Har bir talabnoma o’z ichiga quyidagilarni oladi:**




## 14.3. Sanoat namunalari. Sanoat namunasining patentga layoqatlilik shartlari

Sanoat namunasi inson ijodiy faoliyati yo’nalishining amalga oshishi bo’lib, aniq maqsad va iste’molchilar doirasiga ega. Ta’rifga ko’ra sanoat namunalariga qandaydir bir obekt tashqi ko’rinishining badiiy-konstruktorlik (dizayn) echimi kiradi. Sanoat namunalari hajmiy (modellar), yassi (rasmlar) yoki ularning aralash ko’rinishida bo’lishi mumkin.

O’zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq sanoat namunasining yangiligi, o’ziga xosligi va sanoatda qo’llanilishi uning patentga layoqatlilik shartlari hisoblanadi.

Agar sanoat namunasining buyumning estetik va (yoki) erganomik xususiyatlarini belgilovchi muhim belgilari (alomatlari) majmui uning ustuvorlik sanasidan oldin jahondagi nufuzli axborot manbalari orqali barchaga ma'lum bo'lmagan bo'lsa yangi deb tan olinadi. Sanoat namunasining muhim belgilari majmui buyum estetik xususiyatlarning ijodiy xarakteri bilan bog'liq bo'lsa u o'ziga xos deb tan olinadi. Sanoat namunasi ko'p karra qayta ishlab chiqarish imkoniyatini beradigan bo'lsa sanoatda qo'llaniladigan deb tan olinadi.

"Aynan sanoat namunalarini patentlash bugungi kunda eng risk yuqori hisoblangan sohadir. Bunday deyishimizga sabab, jahon bozorida bu kabi "xato"larga ko'p martalab yo'l qo'yilgandir. Muammoning negizi nimada? Buni topish uchun firmalar qaysi, qanaqa va nima uchun innovatsiyalarga ehtiyoj sezishlari to'g'risida asosiy savollarga javob berishlari kerak"[39].

### 14.4. Sanoat namunasiga talabnomalarning tuzilishi va patentlash tartibi

Sanoat namunasiga O'zbekiston Respublikasining patenti berish uchun talabnoma quyidagilardan iborat bo'lishi kerak.

- Patent yoki dastlabki patent berish to'g'risida belgilangan shaklda tuzilgan ariza, u sanoat namunasi muallifi (mualliflari), patent kim (kimlar)ning nomiga berilishi so'rayotgan bo'lsa, o'sha shaxs (shaxslar) va talabnoma beruvchi to'g'risidagi talab etiladigan ma'lumotlardan iborat bo'ladi.
- Buyum, maket yoki rasmni aks ettiruvchi fotosuratlar to'plami, ular buyumning huquqiy muhofaza hajmini belgilab beruvchi muhim belgilar majmuini aniqlash imkonini beradigan tashqi ko'rinishi to'g'risidagi mufassal tasavvur hosil qiladi.
- Buyum tashqi ko'rinishining chizmasi, ergonomik sxemasi, konfeksion kartasi, agar ular sanoat namunasi mohiyatini ochib berish uchun zarur bo'lsa.
- Sanoat namunasining tavsifi, u fotosuratlarda aks ettirilgan buyumning tashqi ko'rinishini so'zlar vositasida ochib berishi va uning muhim belgilari majmuini o'z ichiga olishi kerak.
- Talabnomaga berilgan miqdorda boj to'laganligini tasdiqlovchi hujjat ilova qilinishi zarur.

Qonun talablariga muvofiq har bir talabnoma bitta sanoat namunasiga tegishli bo'lishi va bu namunaning variantlarini o'z ichiga olishi mumkin (sanoat namunasining birligi talablari). Bunda bitta sanoat namunasi deyilganda yagona bir buyumning badiiy-konstruktorlik echimi, vazifalari umumiy bo'lgan buyumlar majmui (masalan, mebel garnituri, serviz va boshqalar) tushuniladi.

Yagona bir buyum deyilganda birorta butun buyum (masalan, avtomobil), hamda uning bir qismini tashkil etuvchi buyum (masalan, bamper, fara va boshqalar) tushuniladi.

Sanoat namunasi variantlari deyilganda bitta buyum (to'plam, komplekt) ning bir xil estetik va (yoki) ergonomik xususiyatlarini belgilab beradigan muhim belgilari majmui bilan farqlanadigan badiiy-konstruktorlik echimi tushuniladi.

### 14.5. Sanoat tovar belgilarining turlari va ularga talabnoma tuzish

Talabnoma hujjatlariga qo'yiladigan asosiy talablarni o'z ichiga oladi.

1. Buyum, maket, rasm fotosuratlari to'plami.

---

[39] Innovation, intellectual property, and economic growth / Christine Greenhalgh and Mark Rogers. USA Princeton University Press, 2010 . 41-б.

Buyumning tashqi ko'rinishini aks ettiruvchi fotosuratlar talabnoma berilgan sanoat namunasi to'g'risidagi tasviriy axborotni o'z ichiga olgan asosiy hujjatdir.

Sanoat namunasining tavsifi.

Sanoat namunasining tavsifi quyidagicha tuzilishi kerak:

- Sanoat namunasining nomi.
- Vazifasi va qo'llanish sohasi.
- Sanoat namunasining alaloglari.
- sanoat namunasini tasvirlovchi fotosuratlar va boshqa taqdim etiladigan materiallar ro'yxati.
- Sanoat namunasining mohiyati.
- sanoat namunasini ko'p marta qayta ishlab chiqarish imkoniyati.
- Sanoat namunasining muhim belgilari (alomatlari) ro'yxati.

Sanoat namunasi umumiy ko'rinishining chizmasi namunani mohiyatini ochib berish va uning o'lchamlari, mutanosiblik nisbatlarini aniqlash uchun zarur bo'lgan hollarda taqdim etiladi.

"Sanoat tovar belgilarining turlari va ularga talabnoma yozishda ko'pchilik firmalar bozor iqtisodiyoti sharoitida "xudbinlik" qilishga moyildir. Bu bilan biz tovar belgilarini belgilashda xalqaro huquq normalari bilan hisoblashishda buzg'unchilikning uchrashi va talabnoma yozishda olib borilgan IIRning natijasiga tayangan holda bo'limlarni kiritishda og'ishishlar borligiga e'tiboringizni qaratmoqchimiz"[40].

Agar talabnoma berilgan sanoat namunasi ergonomik jihatdan qayta ishlashni ko'zda tutadigan buyumga oid bo'lsa, shuningdek, ushbu buyumning ergonomik sxemasi ham taqdim etiladi.

Tovar belgilarini huquqiy muhofaza qilmasdan madaniy bozor munosabatlarini o'rnatish mumkin emas. Intellektual mulk obekti sifatida tovar belgisining o'ziga xos xususiyati uning tovar va xizmatlar bozoridagi bajaradigan roli bilan tushuntiriladi.

Tovar belgisi (yoki xizmat ko'rsatish belgisi) fuqarolik muomalasi ishtirokchilari va ular ishlab chiqaradigan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar)ni xususiy alomatlarni aks ettiruvchi (individuallashtirish) uchun xizmat qiladigan belgidir.

O'zbekistonda tovar belgilari bilan bog'liq holda yuaga keladigan munosabatlar "Tovar belgilari va xizmat ko'rsatish belgilari to'g'risida"gi qonun bilan tartibga solinadi. Tovar belgisi (xizmat ko'rsatish belgisi)ning huquqiy muhofazasi u ro'yxatga olinishi bilan yuaga keladi.

Qonunga muvofiq quyidagi belgilar tovar belgisi sifatida ro'yxatga olinishi mumkin:

- so'zlar yoki harflar birikmasidan iborat bo'lgan so'z bilan ifodalanadigan belgilar;
- tasviriy belgilarliniyalar kompozistiyasi, istalgan shakldagi figuralarning tekislikdagi soyasi shaklidagi;
- hajmiy belgilar  uch o'lchamli fazodagi figuralar (liniyalar) yoki ularning kompozistiyasi shaklidagi;
- aralash-tasviriy, so'zli, hajmiy harakterdagi elementlarning kombinatsiyasidan iborat va hokazo.

Tovar belgisi istalgan rangda yoki ranglar birligida ro'yxatga olinishi mumkin.

Talabnoma beruvchi o'z tovar belgisini ishlab chiqarishda qanday asosiy tamoyillarga amal qilishi zarur. Odatda tovar belgisi quyidagi xususiyatlarga ega bo'lishi zarur:

---

[40] Innovation, intellectual property, and economic growth / Christine Greenhalgh and Mark Rogers. USA Princeton University Press, 2010 . 41-б.

• ifodalik va ma'nodorlik (o'ziga xoslik), ya'ni tovar belgisi uni boshqalardan ajratib turuvchi belgiga ega bo'lishi, oson ko'chirilishi, (so'z bilin ifodalangan tovar belgilari uchun) va yodda qolishi kerak;

• qisqa va aniqlik, ya'ni tovar belgisi qisqa bo'lishi (so'zli belgilar uchun) va tasvir elementlari soni haddan tashqari ko'payib ketmasligi (tasviriy belgilar uchun) kerak;

• estetiklik, ya'ni tovar belgisi idrok etilishi bo'yicha zamonaviy va tushunarli hamda ko'rgazmali bo'lishi kerak;

• barqarorlik (uzoq muddatlilik), ya'ni tovar belgisi uzoq muddat, hatto mahsulot assortimeni o'zgargan hollarda ham foydalanish uchun yaroqli bo'lishi kerak;

• tasavvur u yotadigan, ya'ni tovar belgisi iste'molchidan tovar yoki uning biror-bir xususiyati to'g'risida tasavvur hosil qilishi zarur.

Bundan tashqari, so'z bilan ifodalanadigan tovar belgisi uchun yangi bo'lishi bilan birga, ohangdorligi va talaffuzi qulay bo'lishi ham zarur sifatlardan hisoblandi.

SHuni qayd etish zarurki, tasviriy tovar belgisi uchun turli-tuman ranglarning uyg'unligi, uning o'ziga xosligini, kishilarni o'ziga jalb etishi va farqlanuvchi qobiliyatini oshiradi. SHu bilan birga rang so'zlar bilan ifodalangan, hajmi va qo'shma tovar belgilari uchun ham muhimdir.

**Takrorlash uchun savollar**

1. Sanoat namunasining patentga layoqatlilik shartlarini sharhlab bering?
2. Sanoat va tovar belgilari nima sababdan qo'yilishini va uni ahamiyati?
3. Sanoat namulariga patent olish uchun talabnoma tuzish qanday hujjatlarni to'lazish zarur?

## 15-Mavzu. Innovatsion iqtisodiyotda menejment strategiyalari

**Reja:**

15.1. Zamonaviy innovatsion strategiyalar va innovatsiyalar marketingi

15.2. Innovatsion marketingni shakllantirishning kontseptual asoslari.

15.3.Ilmiy tadqiqot, ishlanma va texnologiyalarni natijalarini tijoratlashuvi strategiyasini ishlab chiqishda maqsadli bozor tahlili.

15.4. YAngi mahsulot va texnologiyalarni bozorga kirish strategiyasi.

15.5. YUqori texnologik mahsulotlarning marketing xususiyatlari.

### 15.1. Zamonaviy innovatsion strategiyalar va innovatsiyalar marketingi

O'zbekiston Respublikasida o'tkazilgan Respublika "Innovatsion g'oyalar, ishlamalar va texnologiyalar", "Sanoat yarmarkasi va kooperatsion birjalar yarmarkasi"da taqdim etilgan ilmiy-tekshirish ishlamalari va texnologiyalari, qo'shma korxonalarda ishlab chiqarilgan tovar va xizmatlarni sifat ko'rsatkichlari xalqaro ISO/MEK standart talablariga mosligi va O'zbekistonda lokalizatsiya qilingan import o'rnini bosuvchi va eksportga yo'naltirilgan ko'plab tovarlar ishlab chiqarilmoqda.Yuqori tartibdagi raqobat afzalliklari (yangi ilmiy ishlamalar, texnologiyalar, novotarlarning innovatsion monopoliyasi)ga asoslangan innovatsion rivojlanishi yangi sohalar va yangi bozorlarga faol bostirib kirishni tashkil qilish uchun katta strategik imkoniyatlar yaratadi. Bu strategik imkoniyatlar o'z navbatida iqtisodiy

o’sishning sifatan yangi salohiyatini yaratadilar. Kompaniyaning har tomonlama rivojlanishi strategiyalarining variantlari 2-rasmda berilgan.




15 rasm. Har tomonlama rivojlanish strategiyalarining variantlari.

15 rasmdan ko’rinishicha, tashkilot uchun har tomonlama rivojlanishning oltita strategiyalari eng katta ahamiyatga ega:

1. Birlashmalar, yutib yuborishlar yoki yangi va qo’shma korxonalar tashkil qilish asosida yangi sohaga kirib borish.
2. Turdosh sohalarda har tomonlama rivojlanish.
3. Turdosh bo’lmagan sohada har tomonlama rivojlanish.
4. Ishlab chiqarishni yig’ishtirish va tuzatish.
5. Aralash har tomonlama rivojlanish va qayta qurish.
6. Ko’p millatli har tomonlama rivojlanish.

Agar yangi sohaga kirib borish, yangi kompaniya yoki qo’shma korxonani tashkil qilish strategiyasi har tomonlama rivojlanmagan kompaniya tomonidan kuchli va foydali raqobat o’rinlarini egallash uchun qo’llanilsa, qoloq ishlab chiqarishlarni yig’ishtirish va tugatish va transmilliy har tomonlama rivojlanish maqsadidagi qayta qurish va har tomonlama rivojlanish maqsadidagi qayta qurish va har tomonlama rivojlanish strategiyasi, qoidaga ko’ra, kuchli va etarlicha keng har tomonlama rivojlangan korporatsiyalarda vujudga keladi.

## 15.2. Innovatsion marketingni shakllantirishning kontseptual asoslari

XXI asrning ikkinchi va uchinchi o’n yilliklardagi dunyoning innovatsion o’zgarishlari ishlab chiqarishning postindustrial iqtisodiy uslubining shakllanishi bilan ifodalanadi. Garchi bu jarayon uzoq muddatli va ziddiyatli bo’lsada, hozirdanoq uning asosiy jihatlari ko’zga tashlanmoqda.

Birinchidan, bu integral iqtisodiy tuzum. Bu xususiy mulkchilikka yo’naltirilgan, har tomonlama raqobatli ko’rinishdir. Bozor iqtisodiyoti tadbirkorlarning shaxsiy tashabbuslari va innovatsion faolligi bilan hozirgi va kelajakdagi avlodlar uchun munosib turmush tarzini ta’minlash, davlatning marketing strategik-innovatsion funktsiyalarini amalga oshirish, bozor iqtisodiyotining davlat tomonidan tartibga solinishi hamda inson

kapitali va tabiiy resurslar muhitini takror ishlab chiqarishni ta’minlovchi nobozor sektorining rivojlanish darajasi yuqoriligi bilan bolashga imkon beradi.

Ikkinchidan, bu ko’p ukladli iqtisodiyot bo’lib, unda har bir iqtisodiy uklad unga xos bo’lgan o’rin egallab, boshqa ukladlar ustidan hukmronlik qilmaydi va ular bilan uyunlashadi. Bu erda gap turli ukladlarning optimal tarzda uyunlashuvi va hamkorligi haqida boradi:

- texnologik o’sishni amalga oshiruvchi, monopoliyaga qarshi kurash bo’yicha kuchli nazorat va diqqat ostida bo’lgan ishlab chiqarish markazlashuv darajasi yuqori tarmoqlarda ishlab chiqarish strukturasini o’zgartiruvchi yirik biznes.
- millionlab fuqarolarning tadbirkorlik tashabbuslari uchun keng imkoniyatlar ochib beruvchi, innovatsion faollikning yuqoriligi bilan ajralib turuvchi, yirik ishlab chiqarishdan bo’shatiluvchi va mehnat bozoriga yangi kirib keluvchi ishchi kuchiqing bandligini ta’minlovchi kichik va o’rta biznes.
- strategik ahamiyatga ega tarmoqlar va nobozor sektorida mujassamlashgan hamda davlatning strategik innovatsion funktsiyalarini amalga oshirishni ta’minlovchi davlat ukladi,
- aholining hayot faoliyati muhitini (uy-joy-kommunal xo’jalik va atrof-muhit muhofazasi), ma’anaviy takror ishlab chiqarish salohiyatidan foydalanishni (maktablar, madaniy muassasalar va xokazo) ta’minlovchi munitsipal uklad;
- inson faoliyati va takror ishlab chiqarishda eng muhim funktsiyalarni bajaruvchi, uy va shaxsiy oilaviy xo’jalik bilan ifodalanuvchi natural uklad.

Shunisi muhimki, har bir uklad unga xos bo’lgan funktsiyalarni bajarish bilan birga egallab turgan o’rnida eng samarali bo’lishi lozim, chunki iqtisodiy o’sish sur’atlari va ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlik bog’liq bo’ladi.

### 15.3. Ilmiy tadqiqot, ishlanma va texnologiyalarni natijalarini tijoratlashuvi strategiyasini ishlab chiqishda maqsadli bozor tahlili

XXI asr dastlabki kunlaridanoq dunyo rivojlanishining barcha jabhalarida - iqtisodiyot, siyosat, ijtimoiy jarayonlar, demografiya, geosiyosiy va geoiqtisodiy jarayonlar yangi sifat o’zgarishlaridan darak bermoqda. YAqin o’tmishda etarlicha barqaror va muvozanatli bo’lgan bu jarayonlar duch kelayotgan o’zgarishlar girdobi ortidan zamonaviy fan vaqti kelganda ulgurmay ham qolmoqda.

SHu narsa tobora yaqqol ko’zga tashlanib bormoqdaki, geostrategik holat, fan va texnika yutuqlari, kadrlar va ilmiy salohiyat, tabiiy resurslar kabi mavjud ob’ektiv omillardan samarali foydalangan mamlakatlar rivojlanish borasida ancha ilgarib ketgan. Bu mamlakatlar ichki iqtisodiy, siyosiy va xalqaro munosabatlar yangicha tizimini shakllantirib, odamlar hayot tarzini yanada yuqori darajaga etkazib oldi. Ushbu ijtimoiy tizimga AQSH va G’arbiy Evropaning bir qator mamlakatlari, sharqda esa YAponiya misol bo’la oladi.

Fan - texnika va texnologiyalarning zamonaviy yutuqlaridan foydalana olmagan mamlakatlar vujudga kelgan sharoitlarga moslasha olmay, rivojlanish yo’lida ancha ortda qolib ketmoqda. Bunday tendensiya yangi emas, albatta. U XX asrda ham tadqiqotchilar tomonidan kuzatilgan. Uchinchi ming yillik bo’sag’asida bu tendensiya yanada kuchayib, uning ta’siri ostida iqtisodiyoti rivojlanmagan mamlakatlar faol xalqaro iqtisodiy va

siyosiy munosabatlar doriasidan chetga chiqib qolmoqda. Bu mamlakatlar global xarakterga ega, o'ta murakkablashgan munosabatlar tizimida teng huquqli hamkor bo'la olmaydilar. Ular jahon ijtimoiy jarayonlarining ishtirkochilariga aylana olmaydilar, ularga eng yaxshi holatda kuzatuvchilar roli ajratiladi.

### 15.4. Yangi mahsulot va texnologiyalarni bozorga kirish strategiyasi.

Hozirgi sharoitlarda iqtisodiyotning eng muhim tavsifnomasi fan, ilg'or texnologiyalar, texnologik bazalarning qanday holatda ekanligi boiib, bu o'z navbatida mamlakatda ishlab chiqarilgan mahsulotlar raqobatbardoshlik darajasini belgilab beradi.

Rivojlangan davlatlarning texnologik yutuqlaridan foydalanish, bu sohada avvalo, MDH mamlakatlari bilan hamkorlik o'rnatish, xalqaro mehnat taqsimoti va kooperatsiyadan imkon qadar keng foydalanishga intilish zarur. Bunday jarayonlar butun dunyoda ro'y bermoqda. YUqorida qayd etib o'tildiki, texnologik jihatdan ilg'or mamlakatlar yagona texnologik makon tuzgan boiib, mamlakatimiz unga teng huquqli hamkor boiib kirishi, ayrim yo'nalishlarda esa etakchilik uchun kurashishi lozim, buning uchun esa milliy texnologik darajada etarlicha yuqori boiishi zarur.

Bu borada Prezidentimiz LKarimov o'z asarlarida uzoq muddatga, ya'ni 2009-2014 yillarga mo'ljallangan dastur ishlab chiqish to'g'risidagi masalaga alohida e'tibor qaratdilar. Bu dasturda iqtisodiyotimizning asosiy tarmoqlarini modernizatsiya qilish va texnik yangilash, mamlakatimizning yangi marralarni egallashi uchun kuchli turtki beradigan va jahon bozorida raqobatdoshligini ta'minlaydigan zamonaviy innovatsiya texnologiyalarini joriy qilish bo'yicha maqsadli loyihalar o'z ifodasini topadi.

Mazkur keng koiamli dasturni amalga oshirish uchun mamlakatimizda so'nggi yillarda jiddiy tayyorgarlik ko'rib kelinmoqda. Jahon iqtisodiy inqirozi bu jarayonni yanada jadallashtirishga turtki berib, uni har tomonlama tezlashtirishni taqozo etmoqda.

### 15.5. Yuqori texnologik mahsulotlarning marketing xususiyatlari

Fan-texnika taraqqiyotining asosiy tarkibiy qismlaridan biri innovatsion faoliyat, iqtisodiy rivojlanishning mazkur yo'nalishida faoilikni ta'minlovchi omillarni, shuningdek, innovatsion jarayonlarni qoilab-quvvatlovchi va tartibga soluvchi tashkiliy tuzilmalar xususiyatlari o'rganish va ulardan foydalanish hisoblanadi.

Innovatsion faoliyatni davlat tomonidan tartibga solish va rag'batlantirish haqida yuqorida shakllantrilgan iezis jahon tajribalaridan kelib chiqqan holda mamlakatimizdagi vaziyatda innovatsion o'sish strategiyasini amalga oshirish ustuvor hisoblansada, bir qator sabablarga ko'ra bugungi kunda uni amalga oshirib bo'lmaydi.

Muvaffaqiyatga erishish uchun mamlakat korxonalari hamkorlar e'tiborini jalb qilish o'zaro raqobatlashishi lozim. Buning uchun nima sababdan xorijiy firmalar strategik ittifoq va hamkorlikka qadam qo'yishini aniq tasavvur etish lozim.

**Takrorlash uchun savollar:**

1. Zamonaviy innovatsion marketingni strategik ko'rinishlarini sharxlab bering.
2. Yuqori texnologik tovarlarning innovatsion marketing xususiyatlari qanday tavsiflanadi?
3. Yangi innovatsion tovarlarni ishlab chiqishda maqsadli bozor tahlili.

## 16-Mavzu. Innovatsion loyihalarni moliyalashtirish tizimi

Reja:

16.1. Innovatsion loyihalarni moliyalashtirish tizimining ahamiyati

16.2. Innovatsion dastur

Innovatsiya loyihasining asosiy maqsadlaridan biri korxona yuqori sifatga ega bo'lgan kerakli miqdorda mahsulot ishlab chiqarish layoqatiga ega ekanligini raqobatchilarga isbotlashdan iborat.

“Innovatsion loyiha” tushunchasi bir qancha nuqtai nazardan qaralishi mumkin:

– innovatsion maqsadlarga erishishga xizmat qiladigan tadbirlar yig'indisi sifatida;

– innovatsion faoliyatni amalga oshirish jarayoni sifatida;

– ushbu tadbirlarni asoslovchi va bayon qiluvchi hujjatlar paketi sifatida.

Ushbu uch jihatlar innovatsion loyihaning innovatsion faoliyatini tashkil qilish va maqsadli boshqarish shakllari sifatidagi ahamiyatini ko'rsatadi.

Shunday qilib, innovatsion loyiha – bu resurslar, muddatlar va ijrochilar bo'yicha o'zaro bir-birini asoslaydigan hamda o'zaro bir-biriga bog'liq bo'lgan, ilm-fan va texnika taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlarida muayyan maqsadlar (vazifalar)ga erishishga qaratilgan jarayonlarning murakkab tizimidir.

Innovatsion loyihalarni amalga oshirish uchun ularni moliyaviy asoslash va investitsiyalash muhim ahamiyatga ega. Bunda loyihaviy moliyalashtirish jarayonlari nuqtai nazaridan o'ziga xos xususiyatlarga ega innovatsion loyihalarni farqlash kerak:

a) investitsion loyihalar, masalan, yangi sanoat ob'ektlari qurilishiga (energetika, transport, aloqa va h.k.) yirik kapital qo'yilmalar;

b) ilmiy-texnik (innovatsion) ilg'or texnologiyalar, yangiliklar, mahsulotlar va xizmatlar.

Ushbu ikki xil loyiha o'rtasida muhim farqlar mavjud:

1. Sanoat ob'ektlariga kapital qo'yilmalar haqidagi mavjud moliyaviy axborot, hattoki eng oddiy ilmiy-texnik loyihalarga qaraganda, ayniqsa, ularning erta bosqichlarida, ishonchliroqdir;

2. Innovatsion ilmiy-texnik loyihalar mavhumlikning yuqori darajasiga ega ekanligi bilan farq qilib, ular shunday afzallikka egaki, ular ishlanmaning erta bosqichidayoq katta bo'lmagan moliyaviy yo'qotishlar bilan to'xtatib qo'yilishi mumkin;

3. Ilmiy-texnik loyihalarda axborot investitsiyaviy loyihalarga qaraganda ko'proq cheklanganligi va mos emasligi bilan farq qiladi. Bu esa mustaqil ekspertlarning loyihalarini baholash bo'yicha fikrlarini korrelyatsiyalashni nihoyatda qiyinlashtiradi;

4. Innovatsion loyihalar ko'p mezonliligi va yuqori darajali mavhumliligi bilangina farq qilmasdan, balki sifatli baholash bo'yicha ham farqlanadi.

“Loyiha” tushunchasi bilan bir qatorda, “innovatsion dastur” degan tushuncha ham mavjud. Bu tushunchalar o'zaro chambarchas bog'langan. Dastur bu loyiha shakllaridan biri, dasturlash esa (dasturni shakllantirish) loyihalar hayot tsikli bosqichlaridan biri bo'lsa-da, ularning xususiyatlari anchagina farqlanadi, dastur qo'shimcha qator yangi xususiyatlarni orttiradi.

## 16.2. Innovatsion dastur

Innovatsion dastur loyihalarning (mulьtiloyiha va megaloyihalar) murakkab kombinatsiyasi bo'lib, boshqaruv ob'ekti sifatida alohida loyihadan yoki o'zaro bir-biri bilan juda zaif bog'langan, tashkilot yoki uning ijrochilari tomonidan bajariladigan loyihalardan juda kuchli farq qiladi. Dasturni faqat yirik tashkilotlar birlashmasi, masalan, FPG (moliyaviy sanot guruhlari), yirik korporatsiyalar konsortsiumi, mintaqa yoki megapolis, federal organlar va h.k.lar shakllantirishi va amalga oshirishi mumkin. Innovatsion dasturlarni shakllantirish va amalga oshirishga ko'plab misollar mavjud.

Innovatsion loyiha portfelini shakllantirish bosqichma-bosqich amalga oshiriladi:

1. Innovatsion loyihalarni dastlabki tanlash.

Bosqichning maqsadi taqdim etilgan innovatsion loyihalarni umumlashtirilgan tahlildan o'tkazish va baholash. Ushbu bosqich quyidagi odimlarni o'z ichiga oladi:

a) innovatsiyalarni amalga oshirishning tashkilotning asosiy muammolari echimini taklif eta oladigan asosiy yo'nalishlarini belgilash;

b) ajratib olingan yo'nalishlar bo'yicha ekspertizalar olib borish uchun loyihalarni taqsimlash;

v) ekspertizaning ishchi usulini ishlab chiqish;

g) ekspert guruhlar ishini tashkil qilish (NIO yoki marketing bo'limi boshqa bo'linmalardan mutaxassislarni jalb etgan holda);

d) hisob-kitoblar va ekspertizalar natijalari bo'yicha loyihalarga dastlabki baho berish;

e) istiqboli yo'q loyihalarni chiqarib tashlash.

Mazkur bosqichda loyiha bitta eng muhim mezon (masalan, iqtisodiy samaradorlik mezoni) bo'yicha tanlanadi, bunda baholash parametri past bo'lgan loyihalarni chiqarib tashlashdan iborat oddiy qoidadan foydalaniladi.

2. Ustuvor (boshlang'ich) yo'nalishlar bo'yicha portfelni shakllantirish.

Bosqichning maqsadi – loyihalarni ustuvorliklar bo'yicha puxta tahlil qilish va taqsimlash. Bu erda quyidagi qadamlar ko'zda tutiladi:

a) innovatsion loyihalarni bir nechta mezonlar (3 – 5ta) bo'yicha tahlil qilish;

b) loyihalarning ustuvorlik darajasini aniqlash;

v) loyihalarni ustuvorlik darajalari bo'yicha taqsimlash.

Barcha loyihalar tegishli shkala bo'yicha, masalan, "past", "o'rtadan past", "o'rtadan yuqori", "yuqori" baho bilan baholanadi.

"O'rtadan yuqori" yoki "yuqori" baho olmagan loyihalar dastlabki tanlov bosqichidayoq chiqarib tashlanadi va rad etilgan deb hisoblanadi.

Qolgan loyihalar ustuvorlik darajasi (sinfi) bo'yicha taqsimlanadi:

a) ustuvor loyihalar – bu umumiy samarasi (natijalar/sarf-xarajatlar) 70 – 80 %dan kam bo'lmaydigan loyihalardir;

b) ustuvor loyihalarning birinchi 20 30 %i o'ta ustuvor loyihalar hisoblanadi.

Loyihalarni ustuvorlik bo'yicha ranjirovkalash resurslarni loyihalar o'rtasida taqsimlash uchun kerak.

3. Moliyaviy va boshqa resurslarni innovatsiyalar portfeli ichida taqsimlash.

Bunda "xarajatlar – samaradorlik" sxemasiga asoslangan qaror qabul qilish qoidasidan foydalaniladi: birinchi navbatda, naqd pul mablag'lari iqtisodiy samaradorligi maksimal darajaga (ustuvorlik darajasiga) ega bo'lgan loyihaga ajratiladi.

Jahon amaliyotida "xarajatlar samaradorlik"ni tahlil qilish barcha moliyani taqsimlash mexanizmlari uchun majburiy jarayondir. Buni shu bilan izohlash mumkinki,

ushbu qoidani amaliy qo’llash qanchalik oson bo’lmasin, u quyidagilarga erishish imkonini beradigan loyihalar portfelini ta’minlaydi:

– berilgan cheklangan mablag’lar doirasida maksimal mumkin bo’lgan samaradorlik;

– talab etilgan natija va samaradorlik darajasiga eng minimal sarf-xarajatlar.

Korxonada shunday vaziyat yuaga kelishi mumkinki, innovatsion loyihalarni amalga oshirishga innovatsion mablag’larning etarli emasligi to’sqinlik qiladi.

Bunday holda qo’shimcha investorlarni hamda xususiy moliyaviy mablag’larni izlab topish yoki mavjud innovatsion loyihalar portfelini o’zgartirish zarur bo’ladi.

7. Loyihalar portfelini aniqlashtirish loyihalarning bir qismini o’ziga jalb qilishi ko’proq loyihalar foydasiga hamda investitsion mablag’larning miqdoriga qarab kesib tashlash.

**Takrorlash uchun savollar:**

1. Innovatsion loyihalarni asosiy maqsadlari nima?
2. Ilmiy-texnik loyiha bilan axborot investiiyaviy loyihalar orasidagi farqni sharxlab bering.
3. Innovatsion loyihalarni ilmiy-texnik ahamiyati darajasi bo’yicha tasniflang.
4. Innovatsion loyihalarni moliyalashtirish strategiyasini sharxlang.

## 17-Mavzu. Innovatsion sohada kadrlarni boshqarish mexanizmi

17.1. Kadrlarni boshqarish startegiyasining mohiyati va turlari

17.2. Korxonalarda innovatsion faoliyatni boshqarish, innovatsion loyihalarni moliyalashtirish tizimi. Innovatsion loyihalarni iqtisodiy samaradorligini baholash.

17.3. Malakali kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash tizimi

17.4. Innovatsion sohada kadrlarni boshqarish mexanizmi.

**Tayanch iboralar:** Innovatsion faoliyat. Innovatsiyaning axborot kommunikatsiya texnologiyalari. Innovatsion boshqaruv. Innovatsion strategiya. Innovatsion loyihalar. Innovatsion samaradorlik. Innovatsion sohada kadrlarni boshqarish.

### 17.1. Kadrlarni boshqarish startegiyasining mohiyati va turlari

Davlat innovatsion siyosati haqida gapirganda doimo innovatsion iqtisodiyot uchun kadrlar tayyorlash haqida yodda tutish lozim. Agar iqtisodiyotning an’anaviy sektorlarida “kadrlar hamma narsani hal qiladi” qoidasi aksariyat holatlarda to’g’ri bo’lib chiqsa, iqtisodiyotning ko’p ilm talab qiladigan sektorlarida ushbu fikrning ahamiyati bir necha marotaba ortadi.

Bilimlarga asoslangan iqtisodiyotda bilim vositalari birinchi darajali, eng muhim aktivlar hisoblanadi. Oqibatda etarli darajada bilimlarga ega bo’libgina qolmay, ularni amaliyotda qo’llay oladigan, bilimlar eskirib borishi bilan ularni uzluksiz yangilab beradigan malakali mutaxassislar tayyorlash juda muhim ahamiyat kasb etadi.

Mutaxassislar tayyorlash masalalari bilan an’anaviy ravishda oliy o’quv yurtlari (OO’YU) shug’ullanib keladi. Biroq, so’nggi yillarda xorij tajribasining ko’rsatishicha, OO’YU bu masalani mintaqaviy va federal hukumatlar, shuningdek, yirik biznes vakillari ko’magida ancha samaraliroq hal etishlari mumkin ekan.

XXI asrda davlatlarning iqtisodiy o’sishi ko’p jihatdan ishlab chiqarishning barcha sohalarini intellektuallashtirish va ilmiy-innovatsion taraqqiyot bilan ta’minlanadi. Rivojlangan mamlakatlarda YAIM o’sishining 70%dan 85%igacha yangi texnologiyalar, asbob-uskunalar, yangi bilim yoki echimlarga ega bo’lgan mahsulotlar ulushiga to’g’ri keladi. Fan-texnika taraqqiyoti (FTT) yutuqlari bizning kunlarda iqtisodiyotning turli tarmoqlariga tobora keng va chuqur kirib bormoqda. Innovatsion jarayonlarni rag’batlantirish fan, ta’lim va ishlab chiqarishning integratsiyasidan erishiladigan sinergetik samara vositasida mintaqalar va butun davlat jadal ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining tayanch elementiga aylanadi.

Mutaxassislarning iqtisodiyotni rivojlantirishdagi o’rni to’g’risida to’xtalar ekanmiz, “Tьyuksberi, Krandall va Kreynlar 20 ta eng ko’zga ko’ringan innovatsiyalarning bergan samarasini tekshirishdi va undan xususiy tarzda olingan o’rtacha daromad indeksi 27%ni tashkil qilgan bo’lsa, ijtimoiy bergan samarasi 99% ko’rsatkichga ega bo’ldi. Bu esa, o’z navbatida, 4 barobar ko’proq deganidir”[41] deb ta’kidlashgan.

Milliy dasturining maqsadi etib belgilandi. Dasturning strategik maqsad va vazifalri bosqichma-bosqich amalga oshiriladi:

Birinchi bosqich -(1997-2000 y.y.,o’tish bosqichi), kadrlar tayyorlash tizimi potensialini saqlab qolish, uning rivojlanishi uchun huquqiy ,me’yoriy, ilmiy-metodik, moliyaviy-moddiy shart-sharoitlar yaratish Milliy dasturni amalga oshirishning boshlanishi.

Ikiknchi bosqich (2000-2005 y.y.) - Milliy dasturni keng miqyosda amalga oshirish. Tizizm faoliyatining samaradorligini, mehnat taqsimotini, ijtimoiy-iqtisodiy voqelikning monitoringi asosida uning asosiy g’oyalari va qoidalariga oydinliklar kiritish.

Uchinchi bosqich (2005 - 2009 y.y.) to’plangan tajribalarni tahlil etish va umumlashtirish asosida va o’zgarib borayotgan ,ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlami e’tiborga olgan holda, uni takomillashtirish va yanada rivojlantirish.

“Ta’lim to’g’risida”gi qonunga muvofiq ta’lim tizimini boshqarishda o’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, vako-latli davlat organlari hamda mahalliy hokimiyat organlarining vakolatlari va huquqdoiralari belgilab qo’yilgan. Umuman, ta’lim muassasalarining davlat boshqaruvi (16-rasm) quyidagicha amalga oshiriladi.

| | | | |
|---|---|---|---|
| O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi | | | |
| | | | |
| Vakolatli davlat organlari | | Mahalliy davlat organlari | |
| | | | |
| Ta’lim muassasalari | | | |

**16-rasm. o’zbekiston Respublikasi ta’lim muassasalarining davlat boshqaruvi**

### 17.2. Korxonalarda innovatsion faoliyatni boshqarish, innovatsion loyihalarni moliyalashtirish tizimi. Innovatsion loyihalarni iqtisodiy samaradorligini baholash.

Innovatsion loyiha ham tovar mahsuloti hisoblanadi va talabga qarab sotiladi. Innovatsiyalar bozorining asosiy tovari — mualliflik huquqiga amal qilgan holda va amaldagi qonunchilik hamda me’yoriy hujjatlarga muvofiq rasmiylashtirilgan ilmiy-tadqiqot natijasi, ilmiy mehnat mahsuloti, shuningdek, har qanday axborot manbaida

[41] Innovation economics : the race for global advantage / Robert D. Atkinson and Stephen J. Ezell, USA: Yale University Press, 2012. P 153

qayd etilgan yangi bilimlar yoki qarorlarni o'zida mujassam etgan ilmiy-texnik faoliyat hisoblanadi. SHundan kelib chiqib, innovatsion loyihalarni ishlab chiqaruvchilar nafaqat o'z loyihalarini foyda bilan sotishi, balki ushbu loyihadan foydalanuvchilar ham qo'shimcha daromad olishlari mumkin[42].

Hozirgi vaqtda ilmiy ishlanmalardan foydalanishning samaradorlik darajasini oshirish, fundamental va amaliy tadqiqotlarning natijalarini ishlab chiqarishga joriy etish eng muhim hamda dolzarb muammolardan hisoblanadi.

Biz davlat sektori faoliyati sifatida rivojlantirish uchun ilm-fan va texnologiya, mamlakat muammolarini ishlab chiqish ustida ish rivojlangan mamlakat olimlari tomonidan katta ahamiyat beriladi. Bu model tez o'zgaruvchan bo'ladi. Davlat sektori tadqiqot yangi, xalqaro fan innovatsion tizimlari va davom xalqaro ilmiy-tadqiqot institutlari orqali, muhim rol o'ynashni davom etadi. SHu bilan birga, xususiy sektor muhim rol yangilik ishlari qanday tushunish orqali paydo bo'ladi. PPP uchun yangi modellar qo'llab-quvvatlovchi bir tartibga solish iqlim, sanoat, hatto bozor qobiliyatsiz vaziyatlarda, rivojlantirish uchun ilm-fan investitsiya imkonini beradi, rivojlanib bormoqda[43].

Iqtisodiy rivojlanishda innovatsiyalarning o'rni va ahamiyati oshib borishi sharoitida, bu sohadagi davlat boshqaruvi, uning tashkil etilishi va olib borilishi alohida muhim masala bo'lib hisoblanadi[44].

Innovatsion jarayonda innovatsiyalar samaradorligini aniqlash muhim ahamiyatga ega.

Samaradorlikni quyidagi yo'nalishlar bilan aniqlash lozim:

1) texnik samaradorlik mahsulot ishlab chiqarish jarayonida er, mehnat va moddiy resurslardan foydalanish darajasini aks ettiruvchi natural va qiymat ko'rsatkichlari (hosiddorlik, energiya sig'imi, mahsulot sifati, unumdorlik va boshq.) ning majmui bilan tavsiflanadi;

2) iqtisodiy samaradorlik tannarx, rentabellik, ishlab chiqarilgan mahsulotdan olingan daromad va foyda ko'rsatkichlari, moliyaviy barqarorlik, to'lov qobiliyati va boshqa ko'rsatkichlarni aks ettiradi;

3) ijtimoiy samaradorlik ish haqi fondi ko'rsatkichlari, mexanizatsiyalashganlik darajasi va boshqa ko'rsatkichlar bilan tavsiflanadi;

4) ekologik samaradorliktuproqning hosildorligi ko'rsatkichlari, atrof-muhitning ifloslanishi, er maydonlarining kamaytirilishi va tabiat muhiti o'zgarishining boshqa omillari bilan aniqlanadi.

## 17.2. Malakali kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash tizimi

1950-1970 yillarda iqtisodiyot strukturasida fan sektorining rivojlanishi jahon maydonida sobiq SSSRning siyosiy va iqtisodiy qudrati o'sishiga eng ko'p xizmat qildi. Statistik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ko'rsatilgan davr mobaynida Sovet Ittifoqida ilmiy muassasalar soni 1,5 baravar, fan va fanga xizmat ko'satishda band bo'lganlar soni 4,5 baravar o'sgan. Ilmu-fan xarajatlari qariyb 12 baravar o'sib, 11,7 mlrd. rublga etgan.

---

[42] К.Шодиметов. Муқобил энергия манбаларидан фойдаланиш ва унинг иқтисодий истиқболлари. –Т.: "ILM ZIYO". 2014. 28 бет

[43] Gordon Conway, Jeff Waage, Sara Delaney. "Science and Innovation for Development". © 2010 UK Collaborative on Development Sciences (UKCDS). P 82.

[44] К.Шодиметов. Муқобил энергия манбаларидан фойдаланиш ва унинг иқтисодий истиқболлари. –Т.: "ILM ZIYO". 2014. 29 бет

Djordjiya Universiteti texnologiyalar institutining tadqiqotlariga ko’ra, Sovet Ittifoqi 80-yillarning oxiriga kelib sanoati rivojlangan mamlakatlar ichida kadrlar tayyorlash va ilmiy salohiyat miqyosi, malakali mutaxassislar soni ko’rsatkichlari bo’yicha etakchilik qilgan, uning jahon ilmu-faniga qo’shgan hissasi eng yuqori bo’lgan. Sovet Ittifoqida ilmiy-ishlab chiqarish komplekslarning tarixiy rivojlanish o’ziga xosliklari tufayli uning joylashtirilishi va moliyalashtirilishi juda katta nomutanosiblik bilan tavsiflangan. Ilmiy tashkilotlarning taxminan 58%i, OO’YUning 54%i, aspirantlar sonining 69%i, tadqiqot va ishlanmalar bilan shug’ullanuvchilarning qariyb uchdan ikki qismi va bu ishlanmalarga sarflanadigan xarajatlarning to’rtdan uch qismi Rossiyaning ulushiga to’g’ri kelgan.

Bilimlar iqtisodiyoti bilan bog’liq bo’lmagan past texnologiyali ixtisosliklar bo’yicha o’qitishda amaliy qism ko’p hollarda amaldagi ishlab chiqarishda biron-bir loyihalami bajarish bilan bog’liq bo’ladi. Agar innovatsion loyihalarni boshqarish bilan bog’liq yuqori texnologiyali ixtisosliklar bo’yicha o’qitish bilan o’xshashlik o’tkazadigan bo’lsak, o’qitishning amaliy qismi innovatsion loyihalarni amalga oshirishga bog’lab qo’yilishi lozim.

Hozirgi kunda o’zbekistonda oliy ta’lim muassasalariga innovatsion iqtisodiyot doirasida e’lon qilingan kadrlar tayyorlash tizimiga xos bo’lgan jihatlar xarakterlidir. Sxemaning markazi mehnat bozorida talab yuqori bo’lgan mutaxassislar tayyorlash jarayoni hisoblanadi. Ushbu jarayonning asosiy qatnashchilari o’quv muassasasi va talabalar hisoblanadi. XIII asrda dastlabki texnik fakultetlar paydo bo’lgan davrlardan boshlab o’ringa ega bo’lib kelgan ta’lim jarayoni an’anaviy modeliga muvofiq o’quv muassasasi va talabalar mavjudligi mos keluvchi predmet sohasida yuqori malakaga ega bo’lgan mutaxassislar chiqarish uchun zarur va etarli shart hisoblanadi.

Taxminan XX asrning o’rtalariga kelib, ta’lim jarayoni modeliga faol element sifatida ish beruvchilar ham qo’shildi. Bu turdagi faollashuvning eng keskin holati alohida bir tijorat firmasi (korporatsiya) ehtiyojlari uchun maxsus bitiruvchilar tayyorlaydigan ta’lim muassasalari hisoblanadi.

Umumiy holatda ish beruvchilarni faol element sifatida kiritish bitiruvchilar tayyorlashda asosiy e’tiborni u yoki bu mutaxassisliklarga talab yuqoriligiga bog’lab qo’ymasdan yuqori malaka olishdan mehnat bozorida talab yuqori bo’lgan sohalarda amaliy ko’nikma va yuqori malaka olishga qayta yo’naltirishga imkon berdi.

Oliy o’quv yurtlarining mintaqaviy va mahalliy ijroiya hokimiyati bilan innovatsion iqtisodiyot uchun kadrlar tayyorlash sohasidagi hamkorligini muhokama qilish 1990-yillarning o’rtalari va 2000-yillarning boshidan boshlandi. Bunday model doirasida hokimiyat strukturalarining vazifalari qatoriga quyidagilar kiradi: Oo’YUga talab yuqori bo’lgan ixtisosliklar doirasida mutaxassislar tayyorlash uchun buyurtmalar shakllantirish va mehnat bozorida mos keluvchi ixtisosliklar bitiruvchilariga talabni ta’minlash uchun ish beruvchilarni (birinchi navbatda - kichik va o’rta biznesni) yuqori texnologiyali biznes yo’nalishlarida faoliyat yuritishga rag’batlantirish.

### 17.4. Innovatsion sohada kadrlarni boshqarish mexanizmi

Davlatning kadrlar siyosati jamiyat ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ma’naviy jarayonlaridagi tub o’zgarishlar bilan uzviy bog’liq bo’lib, u quyidagi jihatlari bilan xarakterlanadi:

Birinchidan, har bir jamiyat siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy tizimga muvofiq tarzda muayyan kadrlarni tayyorlash mexanizmini yaratadi;

Ikkinchidan, yangi avlod kadrlarini tayyorlash nafaqat ijtimoiy-iqtisodiy, shuningdek, siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy ahamiyat kasb etadi;

Uchinchidan, demokratik davlat va fuqarolik jamiyati qurilishi, bozor islohotlari vazifalarini amalga oshirish jarayoni doimo yuksak malakali kadrlarga ehtiyoj sezadi. Jamiyatning rivoji va istiqboli kadrlar salohiyatli bilan bevosita bog'liq bo'ladi;

To'rtinchidan, yangi avlod kadrlarining malaka darajasi, hayotiy pozitsiyasi, siyosiy ongi va madaniyati, ular faoliyatida amal qilayotgan tamoyillar jamiyat rivojiga bevosita ta'sir ko'rsatadi;

Beshinchidan, jamiyat rivoji va asoslarining o'zgarishi bilan kadrlar oldiga qo'yiladigan talablar ham yangilanib boradi.

Prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlaganidek: **«odamlar ongida demokratik qadriyatlarni mustahkamlashda, ularning siyosiy va fuqarolik faolligini oshirishda, mamlakatda ro'y berayotgan demokratik o'zgarishlarning ko'lamini kengaytirish va chuqurlashtirishda»** davlat boshqaruv kadrlari alohida o'rin tutadi.

## Innovatsion faoliyat davomida:

-siyosatning bevosita davlat va nodavlat boshqaruv organlari mas'ul lavozimlarida faoliyat ko'rsatuvchi vakillari faoliyatining muhim qismi bo'lib, ular:

-xalq xo'jaligi tarmoq va sohalari uchun turli toifadagi mutaxassislar, xodimlarni tayyorlash va tanlashda ular miqdorini belgilash;

-mutaxassislik va ixtisosliklar ro'yxatini o'rnatish;

-ularga bo'lgan talab darajasini aniqlash, malakaviy talablar, standart va me'yorlarni ishlab chiqish, rag'batlantirish va jazolash usullari va umuman, davlat hokimiyati va qonunlari imkoniyatida bo'lgan barcha vositalar yordamida davlat kadrlar siyosatini amalga oshirishga hissa qo'shadilar.

SHuning uchun **«Innovatsion soha kadrlar tizimining asosiy, hal qiluvchi joylarida zamonaviy fikr yuritadigan, o'z xalqi, o'z Vatani manfaatlariga g'oyat sadoqatli, yuqori malakali kadrlar ishlashi lozim»**;

***kotseptual*** (davlat kadrlar siyosatining nazariy asoslarini ishlab chiqish);

***huquqiy-me'yoriy*** (davlat kadrlar siyosatining qonuniy asoslarini yaratish borasida faoliyat olib borish);

***tashkiliy*** (davlat kadrlar siyosatiga oid ish olib boradigan organlar, kadrlar ishlari bilan shug'ullanadigan idoralar va shu kabi boshqa maxsus institutlar faoliyatini tashkillashtirish);

***texnologik*** (kadrlar ishi usul va uslublari, shakllari va h.k. ) takomillashtirishda faol ishtirok etadi;

-shaxs, jamiyat va davlat manfaatlaridan, demografik va madaniy-tarixiy rivojlanish xususiyatlaridan, shuningdek, moddiy boyliklar, bandlik, ishsizlik, ta'lim darajalari va boshqa omillarga e'tibor qaratib, o'z imkoniyatlaridan, davlat kadrlar siyosati samaradorligini yanada oshirish maqsadlaridan kelib chiqqan holda mamlakat mavqeini yuksaltirishga hissa qo'shadi;

-siyosatni amalga oshirishda quyidagi yo'nalishlarning rivojlanishiga keng e'tibor qaratishi lozim:

zamonaviy kadrlar potentsialini shakllantirish va uning uzluksizligini ta'minlash; kadrlar huquqiy me'yorlarini takomillashtirish, mustahkamlash va rivojlantirib borish;

kadrlar siyosiy ongi yuksalishini doimiy ravishda qo'llab-quvvatlash;

-siyosatni amalga oshirishda quyidagi yo’nalishlarning rivojlanishiga keng e’tibor qaratishi lozim:

kadrlarning iqtisodiy faoliyati va moliyaviy ta’minoti uchun imkoniyatlarni uzluksiz rivojlantirish;

kadrlarni madaniy-maishiy shart-sharoitlar bilan taminlash va uni davomiy tarzda yuksaltirib borish;

kadrlar ma’naviy ehtiyojlarini qondirishni milliy va umuminsoniy qadriyatlar, an’analar, tamoyillar asosida boshqarishni tartibga solish;

-siyosatga oid ijtimoiy-huquqiy, funktsional va tashkiliy-siyosiy munosabatlarni qonuniy takomillashtirishda ishtirok etishi darkor. Uning e’tiborida

professional faoliyat sohalarining davlat va jamiyatga xos alohida turlariga doir davlat qonunlarini qabul qilish,

bunda davlat kadrlar siyosati va davlat xizmatiga bevosita aloqador mehnat shakllari bilan bog’liq, funktsional ahamiyat kasb etadigan fuqarolar imkoniyatlarining tengligi,

kadrlarning malakaviy, ishchanlik va axloqiy sifatlari, mas’uliyati va kompetenti,

kadrlar davriy yangilanishi va izchilligining muvofiqlashtirib borilishi,

kadrlar barqarorligi, kadrlar tarkibi,

kadrlar tayyorlash va tanlash tizimi, ularning vakolat va burchlari, partiyaviy xolisligi, siyosiy betarafligi,

kadrlarning ijtimoiy va huquqiy himoyalanganligi, xizmat karьerasi uchun imkoniyatlarning ochiqligi,

boshqaruv tizimi va xodimlarining xizmat faoliyati va xizmat axloqi ustidan nazorat (shu jumladan jamiyat nazorati) kabi tamoyillar etakchi ahamiyat kasb etadi;

**Ta’lim sohasida:**

Milliy kadrlar tayyorlash tizimining siyosiy maqsadlaridan kelib chiqib, yangi avlod kadrlarini tayyorlashning xalqaro hamkorlik aloqalari yo’lga qo’yildi. Endilikda bu aloqalarni miqdor va sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqish lozim.

**Birinchidan**, oliy ta’lim muassasalari bitiruvchilari bandligi to’liq ta’minlanmagan.

Buning sabablari:

ish beruvchilar bilan hamkorlik aloqalari, xususan, kadrlar tayyorlash yo’nalishlarini tanlash, tashkil etish va bitiruvchilar bandligini ta’minlash bo’yicha shartnoma munosabatlari qiyinchiliklar bilan o’rnatilayotganligi, bunda ish beruvchi korxona, tashkilot va muassasalarning etarlicha faolligi ta’minlanmagan;

hududlar (viloyatlar va tumanlar) kesimida oliy ta’lim muassasasini tugatayotgan yosh mutaxassislarni ishga taqsimlash va yo’llash mumkin bo’lgan potentsial ish beruvchi korxonalar, tashkilotlar va muassasalardagi bo’sh ish o’rinlari (oliy ma’lumotli kadrlarga bo’lgan ehtiyojlar) haqida ma’lumotlar aniq va vaqtida olinmaydi;

oliy ta’lim muassasalari bitiruvchilarini ishga joylashtirishda hokimiyatlar, mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish boshqarmalari (bo’limlari), savdo-sanoat palatasi, agentliklar, mehnat birjalari, ishonchli vakillar kabi yordamchi-vositachilik tuzilmalarining imkoniyatlaridan etarlicha foydalanilmayotir.

**Ikkinchidan**, oliy ta’lim muassasalari bitiruvchilari bandligini ta’minlashda manfaatlar muvozanati asosida ijtimoiy sheriklik va hamkorlik munosabatlarini huquqiy tartibga solishning muhimligi.

Buning ortida:

oliy ta’lim xizmatlari iste’molchilari - potentsial ish beruvchi korxonalar, tashkilotlar va muassasalar to’g’risida ma’lumotlar bankini yaratish zarurati;

ish beruvchi korxona, tashkilot va muassasalarning bakalavriat yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari bo'yicha kadrlarga bo'lgan joriy va istiqboldagi ehtiyojlarini doimiy ravishda aniqlab borish ehtiyojlari;

potentsial ish beruvchilarga taqdim etish maqsadida bitiruvchilar haqida ma'lumotlar bankini shakllantirish;

ish beruvchi korxonalar, tashkilotlar va muassasalar bilan kadrlar tayyorlash, ularni ishga taqsimlash va joylashtirish bo'yicha o'zaro hamkorlik shartnomalarini tuzish mexanizmini takomillashtirish va huquqiy asoslash;

ommaviy axborot vositalari (gazetalar, jurnallar, radio-televidenie, elektron aloqa) orqali bitiruvchilar to'g'risidagi ma'lumotlarni e'lon qilib borish, veb-saytlarga joylashtirish;

potentsial ish beruvchi korxona, tashkilot va muassasalar ishtirokida bo'sh ish o'rinlari (mehnat) yarmarkalarini ko'proq o'tkazish.

**Uchinchidan**, oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilari bandligini ta'minlashdagi hamkorlikning muhim yo'nalishi sifatida boshqaruv kadrlari oliy ta'lim, fan va ishlab chiqarish o'rtasida innovatsion korporativ hamkorlik o'rnatishi kerak.

Bundan maqsad:

ushbu tizimlarning ilmiy, amaliy, uslubiy, axborot-kommunikatsiya va moddiy-texnik resurslaridan o'zaro manfaatli hamda samarali foydalanishni tashkil etish;

fan, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasini rivojlantirish;

korxonaning yuqori malakali mutaxassislarini innovatsion guruhlarga biriktirish;

tahlil, ekspertiza va saralash asosida namunaviy mavzular ro'yxatini shakllantirish;

innovatsion guruhni korxonaning kadrlarga bo'lgan ehtiyoji, bo'sh ish o'rinlari, texnologik muammolari to'g'risida ma'lumotlar bilan ta'minlash;

bitiruv malakaviy ishi, magistrlik, nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalari, xo'jalik shartnomalari doirasidagi tadqiqotlar natijalarini amaliyotga qo'llash uchun korxonalarga taqdim etish;

xo'jalik shartnomalari asosida bajariladigan ishlarni moliyalashtirish.

Ushbu mexanizm natijalariga ko'ra:

real ehtiyojga muvofiq malakali, raqobatbardosh kadrlar ta'minoti yo'lga qo'yiladi; professor-o'qituvchilar stajirovkadan o'tadi, amaliy bilim va ko'nikmalari yangilanadi;

o'quv-ishlab chiqarish amaliyotlari takomillashadi, ta'lim va tajriba sifati oshadi;

bitiruvchilarni ishga joylashtirish jarayoniga ish beruvchilar jalb etiladi;

korxonaning amaliy muammolari bo'yicha investitsion loyihalar portfeli shakllantiriladi;

bitiruv malaka ishlari, magistrlik, nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalari soha muammolari echimiga yo'naltiriladi, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish imkoniyatlari kengayadi;

boshqaruvning innovatsion taraqqiyot yo'liga o'tishiga zamin yaratiladi.

**To'rtinchidan**, endilikda hududlarda kadrlarning asosiy iste'molchilari bo'lgan ish beruvchi korxona, tashkilot va muassasalarning kadrlar tayyorlash va bitiruvchilarni ish bilan ta'minlash jarayonlarini burch va vakolatlar, huquq va erkinliklarini qonuniy tartibga solish orqali aniqlash zarur bo'lmoqda.

**Beshinchidan**, viloyat va tuman (shahar) hokimiyatlarida o'z hududidagi korxona, tashkilot va muassasalarda yangi ish o'rinlarining yaratilishi, oliy ma'lumotli mutaxassis kadrlarga bo'lgan talab-ehtiyojlar, oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarining ishga joylashishi kabi masalalarni tartibga soladigan mexanizmlarni joriy etishni qonuniy asosda shakllantirish maqsadga muvofiq.

**Oltinchidan**, potentsial ish beruvchi korxona, tashkilot va muassasalar tomonidan tegishli oliy ta'lim muassasalariga taqdim etilayotgan bo'sh ish o'rinlari (kadrlarga bo'lgan ehtiyojlar) va buyurtmalar haqidagi axborotlarning ishonchlilik darajasi juda past. Ishga taqsimlangan bitiruvchilarni ishga qabul qilmaslik holatlari bo'yicha buyurtmachi korxona, tashkilot va muassasa boshqaruv tizimlari huquq va burchlarini qonuniy asosda qat'iylashtirish choralari ko'rilishi lozim.

**Ettinchidan**, potentsial ish beruvchi korxonalar, tashkilotlar va muassasalarning hududlar bo'yicha ro'yxatini tayyorlash va mahalliy hokimiyatlar ko'magida tegishli oliy ta'lim muassasalariga taqdim etishni qonuniy mas'uliyat sifatida yo'lga qo'yish muhim bo'lmoqda.

**Sakkizinchidan**, korxona va tashkilotlar, hududiy statistika hamda mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish bo'linmalarining kadrlarni ishga joylashtirish va mehnat faoliyati monitoringini olib borishi jarayoni ustidan ijtimoiy nazorat o'rnatish.

## Mahalliy hokimiyat organlarida

Mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatining huquqiy asoslarini takomillashtirish, ularning qonun hujjatlari ijrosini ta'minlash sohasidagi vakolati, mas'uliyati, kafolatlari va javobgarligi statuslarini belgilash masalalariga e'tibor kuchaytirilishi darkor. Zero, Prezidentimiz aytganlaridek: **«Biz davlat qudratiga hokimiyat va boshqaruv idoralarining soni va miqyosiga qarab emas, aksincha, ularning ish tizimi qanchalik samara berayotganiga, ular faoliyatining qonuniy asoslari qay darajada shakllanishiga qarab baho berishimiz lozim.»**

Bu masalada bugungi kunda:

qabul qilinayotgan qonunlarning joylarga etkazilishida muayyan kamchiliklar mavjudligi;

qonun hujjatlarini hisobga olish, tizimlashtirishda belgilangan talablarga rioya etmaslik holatlarining uchrayotganligi;

qabul qilinayotgan qonun hujjatlarining joylarga etkazilishi va ularning ijrosi ta'minlanishi hamda huquqiy targ'ibot ishlarini tashkil etish bo'yicha tadbirlar talab darajasida ishlab chiqilmaganligi;

ijro intizomi amaliyoti izchil yo'lga qo'yilmaganligi, mahalliy ahamiyatga molik masalalar yuasidan normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilishga etarli e'tibor berilmaganligi;

qabul qilinayotgan qarorlar salmog'i va mazmun-mohiyati jihatidan qonun hujjatlari talablarini to'laqonli amalga oshirish uchun etarli emasligi;

qonun loyihalarini ishlab chiqish, amaldagi qonun hujjatlariga o'zgartirishlar kiritish xususida tegishli takliflar taqdim etish amaliyotining ayniqsa xalq deputatlari Kengashlari va mahalliy davlat hokimiyati organlarida yaxshi yo'lga qo'yilmaganligi;

umummajburiy xususiyatdagi ayrim qarorlar ijrosi amaldagi qonunchilikka to'la muvofiq holda amalga oshirilmayotganligi;

xalq deputatlari Kengashlari va mahalliy davlat hokimiyati organlarining ayrim normativ-huquqiy xususiyatdagi qarorlari qonun talablariga javob bermasligi;

qabul qilinayotgan normativ-huquqiy hujjatlarning aksariyatida O'zbekiston Respublikasi qonunlari, Prezident Farmonlari va Qarorlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlarining qoidalari shunchaki takrorlanayotganligi;

normativ xususiyatga ega bo’lgan ayrim qaror loyihalarini huquqiy ekspertizadan o’tkazish borasidagi faoliyat etarli darajada emasligi;

qonun hujjatlarini aholi o’rtasida keng targ’ibot qilishda amalga oshirilishi lozim bo’lgan vazifalar, o’z echimini kutayotgan muammolarning ko’payganligi;

joylardagi viloyat, shahar va tuman mahalliy davlat boshqaruv organlari yuristlari faoiyati samarasining pastligi kabi muammolarning mavjudligi.

Zamonaviy innovatsion iqtisodiyotni yaratishning yangilanish yo’lidan borib, mazkur faoliyatning faollashuvi inson omiliga to’g’ridan-to’g’ri bog’liq. YA’ni bu yuksak intellektual qobiliyat va soha xodimlarining bilim darajasiga bog’liq. SHu bois, mustaqillik yillarida ishlab chiqarishning barcha jabhalarida bo’lgani kabi ta’lim tizimini isloh qilishdek maqsadli ishlar, shu jumladan, ilmiy va ilmiy pedagogik yuqori malakali kadrlar tayyorlash amalga oshirilmoqda. Tan olmog’imiz kerakki, ilgari amaldagi ikki pog’onali ilmiy kadrlarning attestatsiyasi, zamonaviy xalqaro tan olingan iqtisodiy rivojlangan demokratik mamlakatlar qabul qilgan talablarga javob bermas edi,

Shuningdek, ilmiy kengashlar faoliyatiga ham katta e’tibor qaratiladi, ular ko’proq etakchi oliy o’quv yurtlarida tuziladi. Ular nafaqat oliy malakali kadrlar o’chog’i, balki ilmiy izlanish o’tkazish markazi ham bo’lishi kerak. Buning barchasi innovatsion iqtisodiyotga o’tishni ta’minlash uchun xizmat qilishga chaqiradi[45].

Yangi sheriklik va hamkorlikdan qanday foydalanish kerak?

IKEA asosi: ko’p millatli kompaniyaning qanday qilib sherikchilik asosida ishlash, qiyinchiliklarni kutish, va ularni bartaraf etish uchun tsrategiyalar ishlab chiqishdagi yondashuvi

DFID Innovatsion Markazi: rivojlanayotgan yangi tarmoqlardan tajriba va darslar va an’anaviy rivojlantirish sohasida tashqi ishtirokchilar bilan hamkorlik

Gumanitar Innovatsion Fond: Moliyalashtiriladigan 65 dan ortiq loyihalar tajribasiga asoslangan, GIF innovatsiyani qo’llab-quvvatlashga hamkorlik qilish uchun harakat qilganda qanday qilib tsrategik bo’lishda darslarni ulashadi.

Global Giving: YOrdam beruvchi va oluvchilar o’rtasidagi munosabatlarni qayta ko’rib chiqish, yordam bilan ta’minlash uchun yangi turdagi bozorni shakllantirish

Inson ma’noli fikr bilan qaraganda, vaktsinalar va noto’g’ri ovqatlanishga mikromoliyalashtirish va pul o’tkazmalaridan yangi xalqaro taraqqiyot ishlarining qanday o’zgarganligini ko’radi. Ularning barchasi shubhasiz ochiq va sherikchilik asosidagi tafakkur orqali kelib chiqadi. Hamkorlik barcha, ko’proq va ko’proq "bu qilgan" emas, balki innovatsion rivojlantirish "bo’lishi kerak".

Insonlar tashkilotlarni kengaytirgan koaliatsiyalarni tashkil qilishdi. Albatta, bu fikr Global Berish butun falsafasi ostida yotadi, deb odatdagi "o’rta yoshdagi erkaklar" yordam berishini shakllantiradigan yordam berish uchun innovatsion platformadir. Muvaffaqiyatli sherikchilik odatda ham batafsil tayyorgarlik, ham davomiy muzokarani talab qiladi. Bu erdagi maqolalar bizga aytishicha, yodda tutishga arziydigan bir qancha muhim ko’rsatmalari mavjud. Birinchidan, turli mavzularda ishtirok etadigan, tegishli vakolati, idroki bilan birga hamkorlik uchun asos aniq bo’lishi kerak. Bu imkon qadar ochiq bo’lgan bir noaniq tushunchasiga asoslangan bo’lishi kerak emas: noodatiy taxminlarni keltirgan vaqtda muammoga echim mavjud bo’lishi kerak.“Parallel innovatsiya”ning tushunchalari bu erda juda ahamiyatli. GIFning hissasiga bir necha misollardan gumanitar innovatsion olimlar, jumladan, eng yaxshi materiallardan

